13. International Journal of Research in Education and Science (IJRES)Teaching and Learning with Technology: Effectiveness of ICT Integration in Schools Simin Ghavifekr, Wan Athirah Wan Rosdy Faculty of Education, University of Malaya, Malaysia, drsimin@um.edu.my Volume 1, Issue 2, Summer 2015
14. The learning platform in distance higher education: student's perceptions. Turkish Online Journal of Distance Education-TOJDE January 2019 ISSN 1302-6488 Volume: 20 Number: 1 Article 5

Xol XUDOYQULOV

pedagogika fanlari doktori,
professor

Sitora SAIDMURADOVA

Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar
boshqarmasi hayotiy faoliyat xavfsizligi o'quv markazi
uslubchi o'qituvchisi, Termiz davlat universiteti mustaqil
izlanuvchisi

MALAKA OSHIRISHDAGI O'QITUVCHILAR KASBIY KOMPETENTLIGI MEZONLARI VA ULARNI TARBIYLASH BOSQICHLARI

Ushbu maqolada malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlari, ushbu mezonlarga bo'lgan turlicha yondashuvlar, mualliflarning fikrlari, o'qituvchi kasbiy kompetentligiga bo'lgan qarashlar, ta'riflar, kasbiy kompetentlik mezonlari ko'rsatkichlari, ularni aniqlash usullari, yosh pedagog-mutaxassis kasbiy faoliyatida kasbiy kompetentlikning tutgan o'rni, kasbiy kompetentlik darajalari, tarbiyalanish bosqichlari to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetentlik, mezonlar, ko'rsatkichlar, test, so'rovnomalar, suhbat, faoliyat natijalarini o'rganish, pedagogik eruditsiya, pedagogik fikrlash, pedagogik maqsadni belgilash, pedagogik intuitsiya, improvizatsiya, pedagogik kuzatuvchanlik, xushyorlik, pedagogik tinglash (eshitish), pedagogik optimizm, topqirlik, pedagogik bashoratlash, pedagogik refleksiya, kasbiy tayyorlanganlik, kasbiy tajriba.*

В статье описаны критерии профессиональной компетентности учителей в повышении квалификации, различные подходы к этим критериям, взгляды авторов, взгляды на профессиональную компетентность учителей, определения, показатели профессиональной компетентности, методы их определения, роль профессиональной компетентности в профессиональной деятельности специалиста, уровни профессиональной компетентности, этапы обучения.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, критерии, показатели, тест, анкета, интервью, исследование результат, педагогическая эрудиция, педагогическое мышление, педагогическое целеполагание, педагогическая интуиция, импровизация, педагогическое наблюдение, бдительность, педагогическое слушание, педагогический оптимизм, находчивость, педагогическое прогнозирование, педагогическая рефлексия, профессиональная подготовка, профессиональный опыт.*

This article describes the criteria of professional competence of teachers in professional development, different approaches to these criteria, the views of the authors, views on professional competence of teachers, definitions, indicators of professional competence, methods of their definition, the role of professional competence in the professional activity of the specialist, the levels of professional competence, the stages of training.

Key words: *professional competence, criteria, indicators, test, questionnaire, interview, study of results, pedagogical erudition, pedagogical thinking, pedagogical goal setting, pedagogical intuition, improvisation, pedagogical observation, vigilance, pedagogical listening (hearing), pedagogical optimism, resourcefulness, pedagogical prediction, pedagogical reflection, professional training, professional experience.*

Kirish. Hozirgi zamon sharoitlarida ta'lim muassasalarida o'qituvchining sifat jihatidan mukammal tayyorgarligiga ehtiyoj sezilmoqda, bu esa kasbiy boshlang'ich bilimlarning asosini innovatsion fikrlash va amaliyotga yo'naltirilgan, muayyan ta'lim muammolarini hal qilishda ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yondashuv bilan birlashtirishga imkon bermoqda. YUNESKO ma'lumotlarida ta'limning kerakli natijasi sifatida ko'rib chiqiladigan bir qator kompetensiyalar keltirilgan. 1996-yilda Yevropa Kengashi demokratik jamiyatni saqlab qolishgan. Mehnat bozori va iqtisodiy o'zgarishlarning yangi talablariga javob beradigan asosiy kompetensiyalar tushunchasini kiritdi.

Asosiy qism. Bugungi kunda yurtimiz ta'lim muassasalarida, ayniqsa maktablarida, faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlar oldiga mukammal talablar qo'yilmoqda. Maktablarimizda mehnat qilib kelayotgan o'qituvchilar har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib tarbiyalangan bo'lishi lozim. Kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh avlodlarimiz yurtimizning porloq istiqbolini yaratishlari uchun mustahkam va mukammal tarbiyalangan bilimga, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari lozim. Bularning barchasi kasbiy jihatdan yetuk va tarbiyalangan o'qituvchilarning qo'lida bo'ladi. Malaka oshirish o'quv markazlari va oliygo'harida kasbiy malakasini oshirayotgan aksariyat o'qituvchilar maktabda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilardir. Malaka oshirishda qayta tayyorgarlikdan o'tayotgan yoki malakasini ilk marotaba oshirayotgan o'qituvchilarda kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalash muammosi bugungi kunda eng

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

muhim va dolzarb bo'lib qolmoqda. O'qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalash bo'yicha bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilib, original g'oyalar ham kiritilgan. Jumladan, yurtimiz olimlaridan o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini tarbiyalash va shakllantirish oliy ta'lim muassalari professor-o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish masalasiga doir qator ilmiy izlanishlar R.H.Djurayev, O.Musurmonova, S.T.Turg'unov, M.Maxmudova, E.Ishonqulov, U.Sh.Begimqulov, L.T.Axmedova, J.Z.Qosimova, R.Mavlonova, A.A.Abduqodirov, M.Tojiyev, B.X.Xodjayev, X.J.Xudoyqulov, G.U.Axmedova, K.Risqulova kabi olimlar tomonidan o'rganilib, oliy ta'lim tizimini axborotlashtirish, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi to'g'risidagi g'oyalar chet el olimlaridan V.N.Vvedenskiy, A.K.Markova, N.V.Kuzmina, A.I.Sherbakovlarning izlanishlarida ham keltirilgan olimlarning kasbiy kompetentlik borasidagi fikrlari va ta'riflarini tahlil qilgan holda, o'qituvchi kasbiy kompetentligini quyidagicha ta'riflash mumkin: o'qituvchining kasbiy kompetentligi – ta'lim va tarbiyadagi vazifalarni eng maqbul usulda hal qilish maqsadida ilmiy va amaliy bilimlarni tizimlashtirish ko'nikmalarining yig'indisi. Shuningdek zamonaviy tadqiqotchilar o'qituvchi kasbiy kompetentligini quyidagicha ta'riflaydilar:

1. Kasbiy kompetentlik - o'qituvchining integrativ sifati bo'lib, o'qituvchi tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligi, ta'lim va tarbiya amaliyotida kasbiy bilimni qo'llay olishi, shuningdek, o'qituvchining kasbiy pozitsiyasidir.

2. Pedagogning kasbiy kompetentligi – bu ko'p omilli hodisa bo'lib, u o'zida o'qituvchining nazariy bilimlari va uni amaliyotda yuzaga keladigan aniq pedagogik vaziyatlarni hal qila olish tizimi, pedagogning qadriyatli yo'nalganligi, shuningdek, madaniyatining (nutq, muloqot usuli, o'ziga va faoliyatiga munosabati, turli bilim sohaslariga) integrativ ko'rsatkichidir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda o'qituvchi kasbiy kompetentligiga quyidagicha yondashish mumkin: o'qituvchining o'z kasbining nazariy asoslarini yaxshi bilishi, ularni pedagogik vazifalarni bajarishda va amaliyotda qo'llay bilish, hamda o'qituvchi shaxsini inobatga olish. Malaka oshirishdagi o'qituvchilar kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalash murakkab jarayon bo'lib, u bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Dastlab o'qituvchi kasbiy kompetentligi mezonlari nima ekanligi va ular o'zida qanday ko'rsatkichlarni namoyon etishi va ushbu mezonlarni aniqlash usullarini bilib olaylik. Quyidagi jadvalda malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi mezonlari (faoliyatli yondashuv bo'yicha), ularning ko'rsatkichlari va aniqlash usullari aks etgan:

T.r	Mezonlar	Ko'rsatkichlar	O'lchash usullari
1.	Ma'naviy qadriyatli	<ul style="list-style-type: none">• kasbiga bo'lgan qadriyatli munosabat;• hodisalarga, atrofdegilarga (insonlarga) o'z-o'ziga "Men pedagog - tadqiqotchiman" bo'lgan qadriyatli munosabati;• shaxsiy tashabbuskorlikni namoyish etishga hamda kasbiy o'sishga tayyorlik.	<ul style="list-style-type: none">• test;• so'rovnoma (anketalashtirish, suhbat);• tajriba eksperiment.
2.	Gnoseologik	<ul style="list-style-type: none">- ta'limning predmetli sohasidagi nazariy va metodologik asoslarini bilish;- ta'lim va tarbiyaning zamonaviy pedagogik va psixologik asoslarini bilish (shu qatorda me'yoriy hujjatlarni);- zamonaviy o'qituvchi oldiga qo'yilayotgan talablarni bilish;- qo'shimcha bilimlarni bilish kengligi va chuqurligi.	<ul style="list-style-type: none">• test;• so'rovnoma;• tajribani o'rganish va umumlashtirish;• kuzatish.
3.	Faoliyatli		<ul style="list-style-type: none">- faoliyat mahsulotlarini o'rganish;- treninglar;- taqiqotchilik ishlari;- loyihaviy ishlar;- anketalashtirish;- suhbat.

O'qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligi nafaqat uning yuqori darajali bilimi, malaka va ko'nikmasi orqali balki:

- pedagogik eruditsiya;
- pedagogik fikrlash;
- pedagogik maqsadni belgilash;
- pedagogik intuitsiya. Improvizatsiya;
- pedagogik kuzatuvchanlik, xushyorlik, pedagogik tinglash (eshitish);
- pedagogik optimizm, topqirlik;
- pedagogik bashoratlash, oldindan ko'ra bilish;
- pedagogik refleksiya kabi ma'anaviy sifatlar orqali ham erishiladi.

Malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik mezonlarini tarbiyalash bosqichlari.

O'qituvchining kasbiy faoliyati bevosita uning kasbiy tarbiyalanishi va mukamallashishi jarayonlarini o'z ichiga olishi lozim. Shu nuqtayi nazardan A.K.Markova o'qituvchi kasbiy kompetentligining 6 ta darajasini ajratib ko'rsatadi:

1. O'qituvchi – stajyor (kasbga kirish).
2. O'qituvchi (kasbning asosini egallash).
3. Mahoratli o'qituvchi (ta'limning taniqli usullarining eng yuqori namunalari bilishi).
4. O'qituvchi – novator (ta'lim va tarbiyani butun tizimining original usullarini qidirish hamda ta'lim va tarbiya jarayonida ushbu usullarni qo'llay olish).


5. O'qituvchi - tadqiqotchi (original g'oyalarning ahamiyatini o'rganish va baholash ko'nikmalarining tarbiyalanganligi).

6. O'qituvchi - professional (pedagogik va psixologik rivojlanish, yuksalishga bo'lgan doimiy intilish, oldingi tajribalarning mavjudligi).

O'qituvchining kasbiy kompetentligining ushbu 6 ta darajasini N.L. Jmakina va Y.G. Komolova tomonidan o'rganilgan faoliyat subyekting kasbiy kompetentlik darajasi bilan taqqoslash mumkin. Ya'ni:

1. Ta'lim olganlik (uquvlilik)
2. Kasbiy tayyorlanganlik
3. Kasbiy tajriba
4. Professionallik

Ushbu darajalarni bir biriga qiyoslab quyidagilarni umumlashtirish mumkin:



Muhokamar va natijalar. Yuqorida keltirilgan chizmada shu narsa ko'rinib turibdiki, o'qituvchining kasbiy kompetentligi tarbiyalanishi – bu doimiy sodir bo'ladigan va uzluksiz o'zgarib turadigan jarayon bo'lib, insonning professionallligi uning butun umri davomida sodir bo'ladi ya'ni kasb tanlashidan (kasbiy ta'limning bog'lanishi) toki kasbiy faoliyatning tugashiga qadar.

O'qituvchi kasbiy kompetentligi tarbiyalanishining birinchi bosqichini oliy ta'limda o'qishning birinchi bosqichida – bakalavriyatning birinchi bosqichida boshlash zarur; so'ngra magistratura bosqichida – mutaxassislikda davom ettirish lozim. Ta'limning bunday darajalari o'qituvchi kasbiy kompetentligining birinchi darajasiga to'g'ri keladi (o'qituvchi stajyor). Ushbu bosqichlarni S.I.Zmeyov dastlabki yoki bazaviy bosqich sifatida tan oladi.

O'qituvchi kasbiy kompetentligi tarbiyalanishining ikkinchi bosqichi 3 yildan 5 yilgacha maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan va endigina oliy ta'limni tugatgan (kasbiy ta'limni) hamda kasbiy kompetentligi darajasini haligacha hech bir ta'lim tizimida oshirmagan o'qituvchi misolida ko'rib chiqish mumkin. Bu daraja - o'qituvchi darajasi bo'lib, u o'qituvchining kasbiy tayyorlanganlik darajasida namoyon bo'ladi.

Ushbu davrda o'qituvchi kasbiga moslashish (adaptatsiya) bosqichini o'ta boshlaydi hamda oliy ta'limda egallagan nazariy bilimlarining qarama-qarshiliklariga, shuningdek, pedagogik tajribaning yetishmasligi holatlariga duch keladi. Ushbu qiyinchiliklar birinchidan, mutaxassis sifatida oliy ta'lim bitiruvchisi kasbiga endigina kirishganida hali tajribasi yetarli emas hamda kasbiy faoliyati sust bo'ladi. Chunki bitirish imtihonlarida u o'ziga nisbatan tashqi dalillarni (ma'lumotlarni)gina o'rganadi. Bu dalillar (ma'lumotlar) bitiruvchining ongida qanchadir summani shakllantiradi xolos.

Ikkinchidan, bitiruvchi - bo'lajak o'qituvchi kelajakda kim bilan ishlashi haqida, shuningdek, bugungi maktab o'quvchilarining dunyoqarashi qanchalik o'zgarib ketganligi haqida tasavvurga ham ega bo'lmaydi.

Uchinchidan, yosh mutaxassis huquqiy-me'yoriy masalalarda hali tayyorlanmagan, o'qitilayotgan fanining o'qitish metodikasi sohasida ham bilimi yetarlicha bo'lmaydi.

Va nihoyat to'rtinchidan, yosh mutaxassis egallayotgan birinchi kasbi - bu o'n yillar davomida aniq qoidalar, qonunlar, an'analar, stereotiplar assosida mukamallashtirilgan hamda bitta tizimga kiritilgan kasb ekanligini tushunmaydi.

O'qituvchining bundan keyingi tarbiyalanish bosqichi (uchinchi bosqich) uning malaka oshirish kurslarida (oliygohlarida) kasbiy kompetentligi darajasini oshirish bosqichi hisoblanadi. O'qituvchining ushbu tarbiyalanish bosqichini S.I.Zimeyev "keyingi" (bazaviy keyingi) bosqich deb ataydi. Shunga muvofiq o'qituvchi kasbiy kompetentligi tarbiyalanishining keyingi darajalari: mahoratli o'qituvchi, o'qituvchi-novator, o'qituvchi-tadqiqotchi (kasbiy tajriba) va o'qituvchi-professional (professionallik) darajalarini malaka oshirish kurslarida orttiradi.

N.D.Konovalova ishlayotgan o'qituvchining tadqiqotchilik faoliyatining tarbiyalanish bosqichlarini quyidagilarda ko'rib chiqdi:

1. O'qituvchi pedagogik ta'lim konsepsiyasiga asoslangan hamda pedagog mutaxassislarning malakasini oshirishdagi metodik ishlarining an'anaviy shaklini o'zlashtiradi.


2. O'qituvchining kasbiy faoliyati hamda kasbiy ishi pedagogik ijod konsepsiyasiga, avlodda-avlodga o'tib kelayotgan pedagogik tajribani (o'qituvchining o'z faoliyatini didaktik anglash bosqichi) o'rganish hamda umumlashtirishga yo'naltirilgan.


3. O'quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish: bunda o'qituvchi o'zining tadqiqotchilik faoliyatining zaruriylikni anglaydi, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, o'qitayotgan fanining hamda ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlarini o'rganadi.

4. O'z g'oyasini reallashtirish (haqiqiylashtirish): o'qituvchi mualliflik dasturlarini hamda bu dasturlarga o'quv-metodik komplekslarni hamda ta'limning alohida texnologiyalarini ishlab chiqadi.

5. Yangi pedagogik bilimni ishlab chiqish o'qituvchining ilmiy maqolalarni tayyorlash, ilmiy ish yozish, ta'lim va tarbiyaning yangi metodikalarini va ta'limning yangi texnologiyalarini yaratishni nazarda tutadi.

Malaka oshirishdagi o'qituvchilar kasbiy kompetentligi mezonlari va uning tarbiyalanish bosqichlarini o'rganishda, o'qituvchi kasbiy kompetentligi tarbiyalanish bosqichlari va darajalarini umulashtirib quyidagilarni namoyon etishimiz mumkin:





Xulosa. Malaka oshirishdagi o'qituvchilar kasbiy kompetentligi mezonlarining tarbiyalanish bosqichlari va darajalari to'g'risidagi fikrlar hamda mualliflarning g'oyalari umumlashtirgan holda shuni xulosa qilib aytish mumkin: o'qituvchining kasbiy tarbiyalanish bosqichlari uning kasbiy faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, butun hayoti davomida amalga oshadi, bu esa "ta'lim butun hayot davomida" zamonaviy tamoyiliga butunlay mos keladi.

Adabiyotlar

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: "Fan", 2004.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. Азаров Ю.П. Искусство воспитывать: Книга для учителя. -М.: "Просвещение", 1985. – 448с.
4. Болотов В.А, В.В.Сериков.Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. – Педагогика, №10, 2003. - С.8-14.
5. Ильенкова С.Д. и др. Социальный менеджмент. – М.: "ЮНИТИ", 1998.
6. Казарницкая Т., Головина И., Каплич Л., Уварова И., Цветкова Т.Компетентность учителя: инструментарий оценки и самооценки. – Директор, 2002, №6. - С.16-25.
7. Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании. - Школьные технологии. 2004, №5. - С.3-9.
8. Педагогика профессионального образования. Под ред. В.А.Сластенина. -М.: "Академия", 2004.
9. Питюков В.Ю. Основны педагогической технологии. —М.: "Гном-Пресс", 1999.

Maxmatmurod SHOMIRZAYEV

Termiz davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

Jo‘rabek AVAZOV

Toshkent davlat texnika universiteti
Termiz filiali katta o‘qituvchisi

OLIV TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK MUHANDISLARINING TAYYORLASHNING BA'ZI JIHLARI

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarning intellektual qobiliyatlarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan kasbiy kompetentligining ba'zi jihatlari mazmun-mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, oliy ta'lim, ta'lim, tarbiya, bo'lajak, kasbiy, muhandislik grafikasi, kompyuter grafikasi, loyihalash, kompetentlik, intellektual, integratsiyalashuv, intellektual, ijodiy, kognitiv, kelajak, qobiliyat, samaradorlik.

В статье раскрыто содержание некоторых аспектов профессиональной компетентности будущих инженеров, связанных с применением интеллектуальных способностей в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: молодежь, высшее образование, обучение, образование, будущее, профессиональная, инженерная графика, компьютерная графика, дизайн, компетентность, интеллектуальная, интеграционная, интеллектуальная, творческая, познавательная, будущее, способности, эффективность.

The article describes the essence of some aspects of the professional competence of future engineers related to the application of intellectual abilities in higher education institutions.

Key words: youth, higher education, training, education, future, professional, engineering graphics, computer graphics, design, competence, intellectual, integration, intellectual, creative, cognitive, future, ability, efficiency.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda, ta'lim samaradorligini oshirish borasida mavjud bo'lgan xulosalar va tavsiyalarni amalga qo'llashga ehtiyoj tug'ilmogda. Binobarin Prezidentimiz tomonidan 2020-yil yil 6-noyabrda imzolangan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 Farmonda ham "Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish" mazkur sohadagi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [3]. Bu masala boshqa fanlar qatori texnologiya fanini o'qitishda ham asosiy vazifa hisoblanadi. Buning uchun esa o'qitish jarayonida ta'lim usullaridan unumli va oqilona foydalanish hamda bu usullarni takomillashtirish, yangilarini izlab topish, qo'llash orqali texnologiya fani mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish talab qilinadi. Shu sababli bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidagi asosiy dolzarb masala – ta'lim usullari va shakllarini yaxshi egallagan, ularni amalga qiyalmay qo'llay oladigan malakali o'qituvchi kadrlarni tayyorlashdan iborat bo'lib qolmogda. Chunki o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni kasblarga yo'naltirishda o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati alohida ahamiyatga egadir. Binobarin, o'qituvchi olib boradigan ochiq muloqot tarzidagi mashg'ulot jarayonini boshqa hech narsa bosa olmaydi. Shu sababli ham malakali yetuk o'qituvchi kadrlar tayyorlash uchun, ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

Yoshlarni o'qitish, ularga ta'lim-tarbiya berish, kelajak uchun munosib kadrlar qilib tarbiyalash hamma vaqt ham har bir davlatning eng birinchi navbatdagi ishlaridan biri bo'lib kelgan. Bizning mamlakatimizda ham bunday ishlar davlatimiz rahbarlarining doimiy ravishda diqqat markazida turibdi, desak – ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil ravishda amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi respublikamizda rivojlanish taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilishi va harakatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi – Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan ta'lim tizimini takomillashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan [1].

Davlatimiz rahbarining har bir viloyatga tashrifi doirasida o'tkazilgan yig'ilishlarda, turli uchrashuvlarda so'zlagan ma'ruza va suhbatlarida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning sog'lom

turmush tarziga amal qilib yashash masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qaralib kelinmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas." [2].

Asosiy qism. Jamiyatning barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun samarali texnologiyalarni izlash va ulardan foydalanish zarurligini taqozo etmoqda. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi muvaffaqiyat turli xil maqsadlar uchun muhandis kadrlarni tayyorlash sifati bilan uzviy bog'liqdir. Bunday sharoitlarda faoliyatning kasbiy va boshqa faoliyat sohalarida mutaxassislarni ijodiy shaxs sifatida shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Muhandisning malakasi yangi uskunalar yaratish, zamonaviy yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish, texnik obyektlarni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilishni optimallashtirish muammolarini ijodiy hal etish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Mamlakatimizda bu ehtiyojlar bir qator holatlar bilan mustahkamlanadi. Insonlarning tez o'zgaradigan sharoitlarda o'z aqliy va kasbiy qobiliyatlarini qo'llashga ko'niktirish bilan bog'liq muammolar majmui belgilangan (Odamlarning intellektual va kasbiy qobiliyatlarini qo'llash uchun tez o'zgarib turadigan sharoitlarga moslashishi bilan bog'liq muammolar majmui aniqlandi). Jamiyatni rivojlantirishning an'anaviy mexanizmlarini transformatsiyalash jarayoni davlatning ijtimoiy, madaniy, amaliy siyosatida ustuvor vazifalarga urg'u berish o'zgarganligi bilan bog'liq masalalar doirasini kengaytiradi. Ushbu vaziyatlarga bog'liq holda ta'lim sifati yetakchi pedagog-olimlarning va butun jamiyatning diqqat markazida turadi.

Yuzaga kelgan vaziyat ko'p jihatdan mashinasozlik, energetika, ishlab chiqarish texnologiyasi, qurilish va boshqa sohalar uchun yuqori malakali, kompetentli mutaxassislarni tayyorlash masalasida yangicha talablarni qo'ydi. Oliy ta'lim tizimining yaxlitligini ilmiy asoslash talab etiladi, o'quv jarayonini tashkil etishning turli shakllarini optimallashtirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbi bo'yicha kompetentligini baholash mezonlarini ishlab chiqish masalalarining muhimligi ortadi. O'zgaruvchan jamiyat, iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari mutaxassisning kasbiy fazilatlarini sohasiga yangi talablarni ilgari suradi.

Ushbu jarayonning asosiy sabablari keltirilgan: ta'lim o'zgaruvchan iqtisodiyot o'rta qo'yayotgan da'vatga javob bermaydi. Natijada, jamiyat ta'lim sifatidan qoniqmaydi; ta'lim muassasalari va pedagoglarning mustaqilligi oshishi har doim ham ijobiy emas; me'yoriy-huquqiy noaniqlik ko'pincha ta'lim sohasidagi munosabatlarni qarama-qarshi tartibga soladi. Qonunlar va qonunosti hujjatlar tez-tez o'zgarib turadi; Ko'pincha innovatsion yangiliklar ta'lim muassasalari faoliyatining natijalarini yaxshilamaydi, aksincha yomonlashtiradi.

O'qitish jarayonining shakllari va texnologiyalari o'zgarishiga, muhandislar tayyorlash sifatini baholash mezonlariga bog'liq bo'lgan ta'lim faoliyatining texnologiyalarini o'quv faoliyatini tashkillashtirishning metodlari bilan transformatsiyasi pedagog-tadqiqotchilar faoliyati uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi va mamlakatimizda bo'lajak muhandislarining kasbiy kompetentlik faoliyatiga jahon amaliyotida qabul qilingan yondashuvni bosqichma-bosqich tadbiiq etishni shakllantiradi. O'qitish jarayonida talabalarni bo'lajak muhandislarining kasbiy kompetentlik faoliyati asosini birlashtiradigan va tashkil etadigan narsalarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Jamiyatning bunday tartibi oliy o'quv yurtida o'qish davrida bo'lajak muhandislarining kasbiy kompetentligini rivojlanishidagi asosiy o'zgarishlarni aniqlash uchun pedagogik tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etdi. Oliy o'quv yurtidagi umummuhandislik tayyorgarligi ushbu muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining professional tayyorgarligi masalalari S.I.Arxaangelskiy, V.P.Bespalko [7, 111], V.A.Slastenin, U.N.Nishonaliyev, A.A.Abduqodirov, A.R.Xodjaboyev, R. Xasanov, N.Saidaxmedov, Q.O'.Tolipov, S.S.Bulatov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosini tashkil etadi.

Grafik tayyorgarlik oliy texnik ta'lim tizimida professional tayyorgarlik asosi sifatida R.Xorunov, Y.Qirg'izboyev, K.Qobuljonov, Sh.Muradov, J.Yodgorov, A.Akbarov, I.Raxmonov, P.Odilov, R. Ismatilayev, D.F.Qo'chqarova, T.J.Azimov, E.Sobitov kabi olimlar o'z darslik va o'quv qo'llanmalari bilan grafika fanlari (xususan, chizma geometriya) nazariyasi rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Turli davrlarda grafik ta'limni o'qitish va takomillashtirishning turli muammolarini o'rganish bo'yicha ko'plab mustaqil hamdo'stlik davlatlarining pedagog-olimlari, jumladan, A.D.Botvinnikov, D.M.Borisov, E.I.Valpas, K.Y.Vazina, A.A.Verbitskiy, V.A.Xerver, G.F.Gorshkov, E.A. Gnatishina, N.M. Kathanov, Y.F. Kathanova, V.V.Karpov, A.F.Kaseev, A.S.Meshcheryakov, S.G.Marfin, V.I.Nilova, A.A. Pyatishkin va boshqalar tomonidan amalga oshirildi.

O'qitish amaliyotini optimallashtirish, grafik tayyorgarlik jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirish muammolariga G.A.Ivashenko, D.V.Matvey, I.A. Roitman, S.A.Frolova, N.F. Chetveruxin, A.A.Chekmarev, V.I.Yakunin va boshqalarning asarlari bag'ishlangan.

Ammo chizma geometriya; muhandislik grafikasi, loyihalash asoslari, muxandislik va kompyuter grafikasi va boshqa geometrik-grafik fanlarni o'rganish muammolari bo'lajak kasbiy faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy fanlarga o'qitish bilan bog'liqlikda yetarlicha tahlil etilmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zida o'quv jarayonining tashkiliy – pedagogik, metodik va texnologik asoslarni jamlagan grafik fanlarini o'zlashtirish bosqichida kasbga loyiqdigi darajasini baholashning miqdoriy va sifat mezonlari hali ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi fikrlar bizni bo'lajak muhandis tayyorgarligining kasbiy kompetentlik sifatiga talab yuqori bo'lgan sharoitda alohida dolzarflik kasb etadigan oliy o'quv yurtlari talabalari umummuhandislik-grafik tayyorgarligining tizimining samaradorligini nazariy asoslanishi va eksperimental tekshirilishi zarurligiga undadi.

Talabalarining grafik tayyorgarligi amaliy tajribasini umumlashtirishi va ilmiy-uslubiy ishlarning tahlili yuqori malakali bo'lajak mutaxassislarining grafik tayyorgarligi jarayonida quyidagi kamchiliklar va ziddiyatlarni aniqlashga imkon berdi. Birinchidan:

- so'nggi o'n yil ichida oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining muhandislik grafikasini tayyorgarligiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarining natijalari chop etilgan. Ularda tanlangan kasbga yo'naltirilgan umummuhandislik grafikasi muammolari ko'rib chiqilgan;

- muhandis ishi va ishlab chiqarish texnologiyalari ta'limi sohasida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning yaxlit uslubiy nazariyasi mavjud emas;

- kurs ishlari va bitiruv ishlarini bajarishda grafik bilimlaridan foydalanishning yuqori darajasini ta'minlash uchun chizma geometriya va muhandislik grafikasini o'rganishda motivatsiyani oshirishga imkon beradigan tadqiqotlar mavjud emas;

- yosh mutaxassislarni amaliy, loyihaviy va ishlab chiqarish faoliyatiga moslashtirish jarayonida grafik tayyorgarlik muammolari tahlil etilmaydi.

Bo'lajak muhandislarining oliy ta'lim muassasasida o'qib yurgan davrida kasbiy kompetentligi darajasi eng muhim xususiyati grafik tayyorgarligining sifati hisoblanadi. Bu narsa zamonaviy talablarni hisobga olgan holda talabalar grafik faoliyati samaradorligini ta'minlashi mumkin bo'lgan pedagogik sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

Oliy ta'lim tizimida chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o'qitish jarayonida kasbiy kompetentligini takomillashtirishning yangi ilmiy asoslangan shakllarini ishlab chiqish o'qitish tizimidagi maqsad, tuzilish va bog'liqliklarni tahlil etishga asoslangan. So'nggi paytlarda quyidagi tendensiyalar paydo bo'lmoqda:

- o'quv axborot hajmining o'sishi;
- o'rganish uchun ajratilgan vaqtning sezilarli cheklanishi;
- ta'lim mazmunining murakkablashishi.

Grafikaga o'qitishning tuzilishida ta'lim darajasini va yangi metodik usullarni amalga oshirishning yaxlitligi "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fani mutaxassislarni tayyorlashning umumiy tizimiga integratsiyalashuviga imkon beradi. Talabalarining intellektual, ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish o'quv materiallarining uzluksizligi me'yorlari asosida o'qitishda yetakchi o'rinni egallaydi.

O'qitish shakllari va usullaridagi talabalar o'quv va kognitiv faoliyati xarakterining ketma-ketligi izchilligi, uyg'unligi hozirgi vaqtda yetakchi mutaxassislar - pedagoglar tajribasi ishlaridan foydalanishga hamda bo'lajak mutaxassislarining professional tayyorgarligi masalalari U.N.Nishonaliyev, A.A.Abduqodirov, A.R.Xodjaboyev, R.Xasanov, N.Saidaxmedov, Q.O'.Tolipov, S.S.Bulatov; MDH mamlakatlari olimlaridan S.I.Arjangelskiy, V.P.Bespalko, V.A.Slastenin kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosini tashkil etadi.

"Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanida deyarli barcha mavzular an'anaviy ravishda bir xil darajada bayon etiladi va talabalar o'qishni va keyingi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirish uchun aynan nimani puxta egallashi kerakligini bilishga qiynalishadi. Ko'rinib turibdiki, biz "bilimdon" mutaxassislarni tayyorlayapmiz, ammo "qobiliyatli" mutaxassislarni emas. Talabalar yakuniy nazoratlarga o'zlari uchun manfaat sifatida qaraydilar. Ularning ko'pchiligining ongida bilim, ko'nikma, malakalarini egallash emas, balki test va sinovlardan o'tish tushunchasi hukmron.

Ko'rsatib o'tilgan qarama-qarshiliklarga barham berish maqsadida mutaxassisliklar talabalari uchun "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fani misolida o'quv jarayonini loyihalash, o'tkazish va tadqiq qilish tajribasini tahlil qilishga urinib ko'rdik. Bu jarayon mutaxassisning malakasini oshirishda chizma geometriya va muhandislik grafikasining ahamiyati va o'rnini yangi jihatlarini ochib berishi, grafik qismini o'z ichiga olgan ushbu fan va dasturning maxsus fanlarini o'zaro bog'lab o'rganishga imkon berib, bo'lajak muhandislarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Umumtexnika fanlaridan biri sifatida “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” muhandis kadrlar tayyorlashda asosiy fan hisoblanadi. Uning har bir bo‘limida boshqa fanlar mazmuni bilan bog‘liq va ularni o‘rganishda ishtirok etadigan materiallar mavjud. Shuning uchun chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o‘rganish jarayonida ushbu fanni Oliy o‘quv yurtining yuqori kurslardagi fanlar va talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan uzviy aloqani ta‘minlash juda muhimdir. Bunday muvofiqlashtirish “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanining ahamiyatini oshiradi, o‘qishga va tanlangan kasbni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi.

Muhokamalar va natijalar. Tadqiqotimizda biz turli xil fanlarni o‘rta maktablarda, kasb-hunar maktablarida, turli yo‘nalishlarga ega texnikum va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarida turli fanlarni o‘qitish uslubi yordamida to‘plangan tajribaga suyardik. Shu bilan birga biz I.Rahmonov, Sh.A.Abdurahmonov, T.D.Azimov, N.J.Yodgorov, K.A.Zoyirov, R.Q.Ismatullaev, P.O.Odilov, M.X.Pirimjarov, I.T.Rahmonov, E.I.Ro‘ziyev, va xorijlik olimlar: James D. Bethune, G.S Phull, H.S.Sandhu [16, 164], R.B.Gupta, N.D.Bhattlarning ilmiy va metodik yo‘nalishdagi ishlarida ma‘lum darajada taqdim etilgan asarlarida aks etgan tajribaga murojaat qildik. T.V.Chemodanovning izlanishlarida “kasbiy grafik tayyorgarlik” tushunchasi juda qiziqarli va yetarli darajada ifodalangan bo‘lib - bu o‘quv kasbiy vazifalarni yassi va uch o‘lchovli tasvirlarni geometrik modellashtirish usullaridan foydalangan holda o‘quv va kasbiy muammolarni yechishga va bo‘lajak ta‘lim uchun yetarli darajada bajarishga imkon beradi. “Bu grafik siklining umummuhandislik fanlari sohasidagi geometrik, muhandislik-grafik, axborot-texnologik, uslubiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning kombinatsiyasi hisoblanadi. Biroq, ushbu ishlarda o‘quv dasturining aralash fanlari bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda o‘qitishning ilmiy va nazariy asoslari to‘liq yoritilmagan, talabani kasbiy qiziqishini faol ravishda oshiradigan materialni tanlash metodikasi keltirilmagan. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishning mavjud shakllari o‘rganiladigan mutaxassislikka urg‘u bergan holda ushbu fanni o‘qitishdagi muammolarni yechish bilan bog‘liq potensial imkoniyatlariga to‘la mos kelmaydi.

Ko‘rsatib o‘tilgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning usullaridan biri bu o‘qituvchilar va talabalarining imkoniyatlarini to‘liq amalga oshiradigan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishning yangi mazmun va shakllarini izlashdir.

Ko‘rib chiqilayotgan muammo talabalarni ham umummuhandislik va bitiruvchi chiqaradigan kafedralarda o‘quv faoliyatiga tayyorlash nuqtayi nazaridan, ham o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish talabalarining aqliy faolligini oshirish nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir.

Ikkinchidan, talabani yetakchi faoliyati bu uning o‘quv va kognitiv faoliyatidir, o‘qituvchi uchun esa - o‘quv tarbiyaviy ishdur. Bularning barchasi o‘qituvchidan ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni didaktik qo‘llab-quvvatlashda chuqur o‘ylab, mulohaza yuritishni talab qiladi.

Oliy o‘quv yurtlari rivojlanishining zamonaviy yo‘nalishlari texnika oliy o‘quv yurtlarida ishlaydigan professor-o‘qituvchilar oldiga bir qator yangi nazariy va amaliy muammolarni qo‘ymoqda. Ulardan biri - bu ta‘lim mazmuni, mohiyati va faoliyatida bilimlarning integratsiyasi va farqlanishining aksidir [12, 167].

Bu muammoning o‘rganiladigan fanlarni bir-biriga bog‘liqlik natijasini hisobga olmay turib amalga oshirib bo‘lmaydi, fanlarni o‘zaro aloqadorlik va integratsiya qonuniyatlari asosida o‘qitish muammolari bo‘yicha o‘zbekistonlik olimlar R.H.Djurayev, N.J.Isaqulova, M.X.Lutfillayev, I.V.Makuxina, A.Musurmonov, M.Q.Muxliboyev, B.N.Oripov, A.A.Salomov, N.I.Taylakov, N.S.Fayzullayeva, N.I.Hurboyev; va boshqalar pedagoglarning asarlarida ishlab chiqilgan o‘rganilgan.

Bo‘lajak muxandis – o‘z kasbiy faoliyatida turli fanlar bo‘yicha bilimlar majmuasini qo‘llashga ega bo‘lishi kerak. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda “fanlararo integratsiya” tushunchasi noaniq talqin etiladi, shunday qilib, uning har xil rollari va pedagogik kategoriya (toifa)larda orasidagi o‘rni belgilanadi. Y.B.Shoshtayeva fikriga ko‘ra, fanlararo aloqa o‘zida kasbiy faoliyat birligi, uzluksiz va yaxlit hodisalarini aks ettiruvchi o‘quv fanlari hamdo‘stligi jarayonini ifodalaydi. Y.V.Perexosheva fanlararo integratsiyani nurdagi bilish (bilim) va texnologik muammolar asosida o‘quv fanlarini birlashtirish jarayoni sifatida belgilaydi. Biz uchun fanlararo integratsiya ta‘lim dasturining barcha o‘quv fanlarini keng ko‘lamli o‘zaro aloqasini yaratishda ta‘lim maqsadi, tamoyillari va ma‘nolari majmuini ifodalaydi. Shuning uchun talabalar ta‘limi birinchi bosqichidayoq kasbiy kompetentlik rivojlana boshlaydi, katta kurs talabalariga har qanday murakkab kasbiy vaziyatlarda tezkor optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan, ularda mustaqil ravishda muayyan harakatlarni amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishni fanlararo aloqalarni o‘rnatish yordamida amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, oliy ta‘lim o‘quv jarayonida oz samara beradigan o‘qitish shakllaridan tezroq voz kechilsa, shunchalik tez va yaxshi natijaga erishladi. Bugungi kunda mavjud voqelikdan kelib chiqadigan tadqiqotlar zarur. Mutaxassislarni tayyorlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan vositalardan biri bu ularning kasbdan manfaatdorligini oshirishdir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF - 4947 Farmoni. -Toshkent, 2017-yil 7-fevral.
2. <https://kun.uz/uz/news/2017/06/16/prezident-bolalar-kelazagi-zuda-omonat-ekanini-bugun-aet-isbotlamokda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2017%2F06%2F16%2Fprezident-bolalar-kelazagi-zuda-omonat-ekanini-bugun-aet-isbotlamokda>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 Farmoni. -T., 2020-yil 6-noyabr.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O‘quv qo‘llanma. -T.: TDPU, 2003. – 174 b.
5. Babanskiy Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. -T.: “O‘qituvchi”, 1990. – 232 b.
6. Балл Г.А. Теория учебных задач: Психолого-педагогический аспект. -М.: “Педагогика”, 1990. - 184с.
7. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. -М.: “Педагогика”, 1989. – 192 с.
8. Ziyomammedov B. Ilg‘or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. -T.: “Abu Ali ibn Sino” nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001. – 78 b.
9. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: “O‘qituvchi”, 2004. – 236 b.
10. Golish L.V. Ta’limning faol usullari: mazmuni, tanlash va amalga oshirish. Metodik qo‘llanma. -T.: O‘MKHTRI, 2001. – 128 b.
11. Чекмарев А.А. Начертательная геометрия и черчение: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр “ВЛАДОС”, 2003. - 472 с.
12. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. – T.: “Tafakkur”, 2021. -226 b.
13. Юрин В.Н. Компьютерные технологии в учебном процессе инженерного образования // информационные технологии. 1999.-№ 3 - С. 45.
14. ЯковлевЕ.В. Управление качеством образования в высшей школе: теория и практика. - Челябинск, 2000.- 427 с.
15. Phull G.S, Sandhu H.S. Schools for the 21 st Century. - San Francisco, 1990. – P.164
16. Guy R. Lefrancois. Psychology For Teaching. – U

Sevara BEKNIYAZOVA

Samarqand davlat chet tillar instituti
o'qituvchisi

OLIV TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TIL DARSLARIDA VEBINAR TEKNOLOGIYALARI ORQALI O'QITISHNING INTERAKTIV USULLARI

Maqolada masofaviy darslarda vebinar texnologiyalari orqali xorijiy tillarni o'qitishda interaktiv usullarning o'rni, maqsadi va vazifalari yoritilgan. Shuningdek, darsning maqsadiga erishish va samaradorligini oshirish uchun mavzulardan kelib chiqib interaktiv usul tanlanishi kerakligi aytilgan va o'qituvchilar uchun vebinar texnologiyalardan foydalangan holda onlayn darslar o'tish bo'yicha qisqa metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *interaktiv usullar, axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, interaktiv ta'lim, grafik organayzerlar, vebinar texnologiyalar.*

V статье описаны роли, цели и задачи интерактивных методов обучения иностранным языкам с помощью вебинарных технологий в дистанционном обучении. Для достижения цели урока и повышения его эффективности следует выбирать на основе интерактивный метод, о чем говорится в статье. Помимо этого, даны краткие методические рекомендации для учителей, ведущих онлайн уроки с использованием вебинар технологий.

Ключевые слова: *интерактивный, информационные технологии, метод, дистанционное обучение, интерактивное обучение, графические органайзеры, вебинар технологии.*

The article describes the role, goals and objectives of interactive methods in teaching foreign languages by using webinar technologies in distance learning. It was also stated that an interactive method should be chosen based on the topics to achieve the goal of the lesson and for increasing its effectiveness brief methodological recommendations were given for the teachers.

Key words: *interactive, information technology, method, distance learning, interactive learning, graphic organizers, webinar technologies.*

Kirish. Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi globallashtirish sharoitida chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Axborot texnologiyalari asosida xorijiy tillarni o'rgatishning ilg'or usullarini ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilardan chet tillarda erkin muloqot qila oladigan va fan texnologiyaning so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan mutaxassislarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda [5, 5]. Masofaviy ta'lim tizimida ham axborot texnologiyalari va vebinar texnologiyalar jadal ravishda yangilanib bormoqda.


Asosiy qism. Ta'lim olish inson hayotidagi juda muhim jarayon hisoblanadi. Ta'lim jarayoni insonning umri davomida mustahkamlanib bormog'i lozim. [3, 422]. Ta'lim jarayonida interaktiv metoddan foydalanish o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga imkon beradi. Uning asosiy mezonlari norasmiy bahs-munozaralarni tashkil qilish, o'quv materialidan erkin foydalanish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, talabalarni tashabbus ko'rsatishlariga yordam ko'rsatish, guruh va sinf jamoasi bo'lib faoliyat olib borish, vazifalar berish, yozma ishlarni bajarish va boshqalardan iborat.

Bugungi kunda chet tilini o'qitish jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash samarali natija bermoqda. Metod va usullarni har bir darsning vazifasi va maqsadidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Masofaviy darslarda interaktivlikni saqlab qolish ta'lim oluvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi, dars samaradrligini oshiradi. Darsda talabalarining faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materiallarining izchilligi hamda kichik bo'laklarga bo'lib tahlil etilishi, ularning mazmunini yoritib berishda interfaol usullardan o'rinli foydalanish, hamda ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi [1, 35]. Agar masofaviy darslar to'g'ri tashkil etilsa, o'rgatuvchi va o'rganuvchining darsda faol ishtirok etishiga va o'qituvchi darsga qo'ygan maqsadiga erishishiga olib keladi. Shunday ekan, chet tili darslarini puxta o'rgatish, talabalarni darsga nisbatan qiziqishining faolligini ta'minlash maqsadida chet tili darslarida o'z samarasini ko'rsata oladigan bir nechta interaktiv usullarni ko'rib chiqsak.

Xorijiy hamda hamdo'stlik mamlakatlarida amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan ta'lim-tarbiya berish, interaktiv metodlar orqali dars o'tish o'zining samarasini bermoqda. Bugungi kunda bizning mamlakatimizning oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida "Aqliy hujum", "Rolli o'yinlar", "BBB jadvali", "Bahs-munozara", "Zig-zag", "FSMU", "Insert", "Venn diagrammasi", "Skarabey", "Keys",

“Bumerang”, “Sinkveyn”, “Delfi” kabi bir qator interaktiv metodlardan keng foydalanilmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad talabalarda har tomonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida talabalarining ilmiy-dunyoviy qarashlarini rivojlantirish, ularning barkamol shaxs sifatida erkin fikr yurita olishini hamda o‘ziga ishonchini mustahkamlashdan iborat [2, 101]. Endi interaktiv ta‘lim nima o‘zi?– degan savolga javob topsak.

Interaktiv ta‘lim – ta‘lim jarayoni ishtirokchilarning bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta‘lim [4, 45]. Bu ta‘lim yuzma-yuz shakldagi darslarda yoki masofaviy shakldagi darslarda qo‘llanilishi mumkin. Masofaviy darslarda interaktiv ta‘limni qo‘llash o‘qituvchidan o‘zini ustida ko‘proq ishlashni, darsga oldindan puxta tayyorlanishni (prezentatsiyada kerakli mashqlar va topshiriqlarni jozibali tayyorlashni) talab etadi. Bunda kerakli platforma va internet ilovalarni (vebinar texnologiyalarni) to‘g‘ri tanlanishi va o‘qituvchini ushbu yordamchi vositalardan to‘g‘ri foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, vebinar texnologiyalari orqali o‘tilgan darsda talabalarining gapirish, eshitish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari rivojlanishi mumkin. Bunda interaktiv metodlar, o‘quv strategiya va grafik organayzerlarni o‘z joyida qo‘llash o‘z samarasini beradi. Ushbu metod turlari va qo‘llanish usullari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.



Ingliz tilini vebinar texnologiyasi orqali o‘qitish talabalarining so‘z boyliklarini oshirish, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish, og‘zaki va yozma savodxonlik darajasini ko‘tarishni o‘z ichiga oladi. Bunda talabaning faolligini oshirishga qaratilgan yuqorida keltirilgan, interaktiv usullarni mavzudan kelib chiqib, quydagicha loyihalash mumkin.

Vebinar texnologiyasida ingliz tili fani mavzulariga tavsiyaviy interaktiv metodlar loyihasi (1-semestr uchun)

	Mavzular (1-kurs, 1-semestr)	Interaktiv metodlar	Ko‘zlangan maqsad
.	People and Personalities	BBB	Ushbu usul o‘quvchilarning mavjud bilim darajasini tekshirish va ushbu bilimlarda qanday bo‘shliqlar mavjudligini bilish uchun kirish strategiyasi sifatida ishlatilishi mumkin, bu esa ularning ta‘limdagi taraqqiyotini ko‘rish va mavzuni o‘rganganidan keyin qanday yangi ma‘lumotlarni o‘rganishlarini tahlil qilish imkonini beradi.
.	National identities of Uzbekistan and English speaking countries	BLITS-SO‘ROV	Harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan fani asosida ko‘p, xilma-xil fikrlardan, ma‘lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan usul.

.	Food	VENN DIAGRAMMASI	Talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan usul.
.	Health	KEYS-STUDY	Talabalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga, ularning so'zlashuv qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan usul.
.	Family values	KLASTER	Klasterdan foydalanish tizimli tafakkurni rivojlantiradi, talabalarni olingan yangi bilimlar asosida o'z fikrlarini shakllantirish va ifoda etishga o'rgatadi, axborotni ijodiy qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Yuqoridagi jadvalda ko'rishimiz mumkinki, vebinar texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darslarda mavzudan kelib chiqqan holda turli interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Bu darsning samaradorligini oshirib, talabalarni masofaviy darslarda ham faolligini oshirishga yordam beradi. Interaktiv metodlar pedagogik tizim va o'quv jarayoniga qo'yilgan vazifani bajarishda hamda talabalar oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda katta yordam beradi.

Muhokamalar va natijalar. Xo'sh, interaktiv metodlarning qanday maqsad va vazifalari mavjud?

Interaktiv metodlardan foydalanishda vebinar texnologiyaning asosiy vazifalari



Barcha metodlar singari interaktiv metodlarning o'ziga xos maqsadi va vazifalari mavjud. Bundan tashqari ushbu metodlardan onlayn ta'limda qo'llash uchun o'qituvchi bir nechta tavsiyalardan boxabar bo'lishi lozim. Masalan, birinchi qoida: auditoriyani shunday tayyorlash kerakki, bunda ishtirokchilarning kichik yoki katta guruhlarda ishlashini tashkillashtirish lozim. Ijodiy ish uchun materiallar oldindan tayyorlangan bo'lishi shart.

Ikkinchi qoida: jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo'lish lozim.

Uchinchi qoida: tinglovchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo'lishi kerak.

To'rtinchi qoida: tinglovchilarning ruhan tayyorgarligiga ko'maklashish lozim. Bu borada mashq qilishlar, ishda faol ishtiroklari uchun doimiy rag'batlantirishlar, ta'lim oluvchining o'zini namoyon etish uchun imkoniyat yaratish foydali bo'ladi.

Beshinchi qoida: interaktiv usullar asosida mashg'ulotlar o'tkazilganda guruhda talim oluvchilar soni ko'p bo'lmasligi kerak. Odatda talabalar soni 10-15 kishidan oshmasagina, ish samarali bo'ladi.

Xulosa. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida interaktiv usullardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Interaktiv o'qitish ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi doimiy o'zaro munosabatlarni ko'zda tutadi va shuning uchun o'qituvchi auditoriya bilan o'zaro munosabat o'rnatishni bilishi kerak. Interaktiv metodlardan foydalanish-innovatsion faoliyatdir. Innovatsion faoliyatning eng

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

muhim omillaridan biri-o'qituvchi shaxsi. U novator, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy va pedagogik yangilikka o'ch bo'lishi lozim. Shunda dars shaklidan qat'iy nazar (vebinar texnologiyalardan foydalangan onlayn dars yoki oflayn tarzdagi an'anaviy dars) mavzuning yoritilib berilishi, talabalarning bilimi oshishi hamda darsning qiziqarli o'tishiga erishish mumkin.

Adabiyotlar

1. Вайндорф-Сысоева М. Е., Грязнова Т.С., Шитова В.А. Методика дистанционного обучения. – Москва: “Юрайт”, 2019.- 35 с.
2. Djurayev D.M. Xitoy tilini o'qitishda lingvokulturologik kompetensiya. Diss ... p.f.f.dok. –T., 2019. – 101 b.
3. Liyu Sun. Xitoy tilini chet til sifatida o'qishga kirish. –Pekin, 2000. - 422 b.
4. Muhamedov O'.X. Usmonbayeva M.H., Rustamov S.S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. O'quv-uslubiy tavsiyalar. – T., 2016. – 45 b.
5. Sobirova G.S. Umumta'lim maktablari o'quvchilariga ingliz tili olmoshlarini axborot texnologiyalari asosida o'rgatish metodikasi. Avtoref... p.f.f.dok. – T., 2017. – 5 b.

Бобур АДIZOV

Бухоро давлат университети
режа-молия бўлими бошлиғи

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ МУСТАҚИЛЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ

Мақолада олий таълим муассасаларининг (Урганч давлат университети мисолида) ўзини-ўзи молиялаштириш тизимида ўтгандан кейинги молиявий ҳолати ва унинг таълим сифатида таъсири таҳлил қилинган.

Калим сўзлар: молиявий барқарорлик, бюджет, молиялаштириш, такомиллаштириш, иқтисодий тараққиёт, инновацион шакллари, методлар, аутсорсинг, структура, акциялаштириш.

В статье анализируется финансовое положение высших учебных заведений (на примере Ургенчского государственного университета) после перехода на хозрасчетную систему и его влияние на качество образования.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, бюджетирование, финансирование, улучшение, экономическое развитие, инновационные формы, методы, аутсорсинг, структура, акционирование.

The article analyzes the financial situation of higher education institutions (on the example of Urgench State University) after the transition to a self-financing system and its impact on the quality of education.

Key words: financial stability, budgeting, financing, improvement, economic development, innovative forms, methods, outsourcing, structure, corporatization.

Қириш. Ўзбекистон Республикаси Вазиран маҳкамасининг 2019 йил 3 декабрдаги "Олий таълим муассасаларини босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимида ўтказиш тўғрисида"ги 967-сон қарорида Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий ва ўрта махсус таълим тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2019 йил 11 июлдаги ПҚ-4391-сон қарорига мувофиқ 2020 йилдан бошлаб таълим хизматлари бозорида олий таълим муассасаларининг айрим бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларига талаб юқорилиги ва молиявий барқарорлигини инобатга олиб, уларни босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимида ўтказишга розилик берилганлиги маълумот учун қабул қилинганлиги ва илмий педагогик салоҳияти юқори, молиявий фаолияти барқарор, моддий-техника базаси етарли даражада, таълим хизматлари бозорида бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларига талаб юқорилигини инобатга олиб, 2020 йил 1 январдан бошлаб, тажриба-синов тариқасида ўзини ўзи молиялаштириш тизимида ўтаётган олий таълим муассасалари рўйхати тасдиқланган.

Асосий қисм. 2020 йил 1 январдан бошлаб, тажриба-синов тариқасида ўзини ўзи молиялаштириш тизимида қуйидаги Олий таълим муассасалари ўтказилган:

1. Самарқанд давлат чет тиллар институти
2. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
3. Тошкент давлат юридик университети
4. Тошкент давлат иқтисодиёт университети
5. Тошкент молия институти
6. Тошкент давлат шарқшунослик институти
7. Тошкент фармацевтика институти
8. Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
9. Урганч давлат университети
10. Тошкент темир йўл муҳандислари институти

Жумладан Урганч давлат университети (бундан кейин УрДУ) 2020 йил 1 январдан бошлаб тариқасида ўзини ўзи молиялаштириш тизимида ўтди. Ушбу таълим муассасасининг олий таълим бошқаруви тартибда тасдиқланган бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари бўйича 2019 йил харажатлар смета ва ижроси шунингдек ўзини ўзи молиялаштиришга тартибда тасдиқланган бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари бўйича 2020 йил харажатлар сметаси ва ижросини таҳлил қилганда қуйидагиларни кўриш мумкин.

Бюджет маблағлари ҳисобидан тасдиқланган 2019 йил даромадлар ва харажатлар сметасида давлат бюджети томонидан жами **28 526 988** минг сўм, 2020 йилда эса **46 288 252** минг сўм ажратилган бўлиб, улар қуйидаги харажат моддалари бўйича тақсимланган:

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

Моддалар номи	тоифа	модда ва кичик модда	элемент	2019 йил	2020 йил	фарқи
Ташкилотнинг саклаб туриш харажатлари жами:				28 526 988,00	46 288 252,00	17 761 264,00
I гуруҳ харажатлар - Иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловлар						
Пул шаклидаги иш ҳақи	41	11	100	12 268 750,00	623 078,00	11 645 672,00
Илмий даражага эга булган ходимларга кушимча туловлар	41	11	240		3 785 013,00	3 785 013,00
Стипендиялар	48	21	400	12 404 551,00	17 251 521,00	4 846 970,00
II гуруҳ харажатлари - Иш берувчининг ажратмалари						
Ягона ижтимоий тўлов	41	21	100	3 037 743,00	528 971,00	2 508 772,00
Ижтимоий эҳтиёжларга бошқа ажратмалар/бадаллар	41	21	200	6 000,00		- 6 000,00
IV гуруҳ харажатлари -Бошқа харажатлар						
Республика худудида хизмат сафари харажатлари	42	11	000	115 205,00		- 115 205,00
Электроэнергия	42	21	000	206 600,00		- 206 600,00
Табиий газ	42	22	000	58 500,00		- 58 500,00
Совуқ сув ва окова	42	24	000	34 700,00		- 34 700,00
Товар-моддий захиралар (қоғоздан ташқари)	42	52	110	46 375,00		-46 375,00
Қоғоз харид қилиш учун харажатлар	42	52	120	7 500,00		- 7 500,00
Ёнилғи ва ЁММ	42	52	500	10 600,00		- 10 600,00
Телефон, телеграф ва почта хизматлари	42	92	100	3 230,00		- 3 230,00
Ахборот ва коммуникация хизматлари	42	92	200	39 000,00		- 39 000,00
Компьютер жиҳозлари, ҳисоблаш ва аудио-видео техникаси, ахборот-технологияси ва керакли ашёлар	43	54	920	150 000,00		- 150 000,00
Ўқув-лаборатория ускуналари	43	54	940	130 332,00		130 332,00
Пул шаклидаги бошқа ижтимоий ёрдам нафақалари	47	21	900	6 517,00	53 045,00	46 528,00
Қишки кийим ва пойабзал билан таъминлаш харажатлари	47	22	200	449,00	3 614,00	3 165,00
Йўл чиптаси билан таъминлаш харажатлари	47	22	400	720,00	5 040,00	4 320,00
Натура шаклида бошқа турдаги ижтимоий ёрдам нафақалари	47	22	900	216,00	1 739,00	1 523,00
Бошқа харажатлар	48	21	190		24 036 231,00	24 036 231,00

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

Ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағлар ҳисобидан тасдиқланган 2019 йил даромадлар ва харажатлар сметасида жами **132 011 523** минг сўм, 2020 йилда эса **202 857 604** минг сўм қуйидаги харажат моддалари бўйича тақсимланган:

Моддалар номи	тоифа	модда ва кичик модда	элемент	2019 йил	2020 йил	Фарқи
Ташкилотнинг сақлаб туриш харажатлари жами:				132 011 523,0	202 857 604,0	70 846 081,0
I гуруҳ харажатлар - Иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловлар						
Асосий иш ҳақи	41	11	100	41 541 559,0	98 179 086,0	56 637 527,0
Стипендиялар	48	21	400	43 648 752,0	17 109 891,0	-26 538 861,0
II гуруҳ харажатлари - Иш берувчининг ажратмалари						
Ягона ижтимоий тўлов	41	21	100	10 285 690,0	11 781 490,0	1 495 800,0
Ижтимоий эҳтиёжларга бошқа ажратмалар/бадаллар	41	21	200	9 000,0	40 000,0	31 000,0
III гуруҳ харажатлари - Капитал қўйилмалар						
Тураржой биноларини лойихалаштириш	43	11	100	900 000,0	100 000,0	-800 000,0
Нотурар жой бинолари биноларини лойихалаштириш	43	11	200	0,0	900 000,0	900 000,0
Тураржой биноларини қуриш ва реконструкция қилиш	43	21	100	19 900 000,0	12 700 000,0	-7 200 000,0
Нотурар жой биноларини қуриш ва реконструкция қилиш	43	21	200	0,0	17 000 000,0	17 000 000,0
Буюртмачини бошқа харажатлари	43	90	300	300 000,0	500 000,0	200 000,0
IV гуруҳ харажатлари -Бошқа харажатлар						
Республика ҳудудида сафар харажатлари	42	11	000	492 764,0	715 165,0	222 401,0
Чет давлатларга чиқиш билан боғлиқ сафар харажатлари	42	12	000	597 000,0	477 000,0	-120 000,0
Электроэнергия	42	21	000	322 660,0	1 350 000,0	1 027 340,0
Табиий газ	42	22	000	441 500,0	528 000,0	86 500,0
Иссиқ сув ва иссиқлик энергияси	42	23	000	102 300,0	966 000,0	863 700,0
Совуқ сув ва оқова	42	24	000	173 500,0	515 640,0	342 140,0
Чиқиндиларни тозалаш, олиб чиқиб кетиш билан боғлиқ хизматлар ҳамда энергетик ва бошқа ресурслар (бензин ва бошқа ЁММлардан ташқари)ни сотиб олиш	42	25	000	30 000,0	35 000,0	5 000,0
Тураржой биноларини жорий таъмирлаш	42	32	100	20 000,0	20 000,0	0,0

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

Нотурар жой биноларини жорий таъмирлаш	42	32	200	133 000,0	330 000,0	197 000,0
Транспорт воситалари	42	34	100	10 000,0	16 000,0	6 000,0
Мебель ва офис жиҳозлари	42	34	910	32 000,0	50 000,0	18 000,0
Компьютер жиҳозлари, ҳисоблаш ва аудио-видео техника	42	34	920	30 000,0	40 000,0	10 000,0
Электр энергия ва бошқа коммунал хизматларни ҳисобга олиш асбоблари	42	34	930	10 000,0	32 000,0	22 000,0
Бошқа машиналар, жиҳозлар ва техника	42	34	990	10 000,0	30 000,0	20 000,0
Сақлаб туриш ва жорий таъмирлаш бўйича бошқа турдаги харажатлар	42	39	000	30 000,0	46 000,0	16 000,0
Товар-моддий захиралар (қоғоздан ташқари)	42	52	110	600 000,0	1 200 000,0	600 000,0
Қоғоз харид қилиш учун харажатлар	42	52	120	19 500,0	55 000,0	35 500,0
Кийим-кечак, пойабзал ва чойшаб-ғилофлар	42	52	200	40 000,0	1 000 000,0	960 000,0
Дори-дармонлар ва тиббиётда фойдаланиладиган воситалар	42	52	410	15 000,0	22 000,0	7 000,0
Ёнилғи ва ЁММ	42	52	500	19 808,0	34 768,0	14 960,0
Ўқитиш харажатлари	42	91	000	40 000,0	46 000,0	6 000,0
Телефон, телеграф ва почта хизматлари	42	92	100	18 000,0	21 229,0	3 229,0
Ахборот ва коммуникация хизматлари	42	92	200	65 000,0	120 000,0	55 000,0
Товар ва хизматлар сотиб олиш бўйича бошқа харажатлар	42	99	990	493 949,0	1 170 000,0	676 051,0
Тураржой биноларини капитал таъмирлаш	43	31	100	2 000 000,0	125 000,0	-1 875 000,0
Нотурар жой биноларини капитал таъмирлаш	43	31	200	0,0	13 177 400,0	13 177 400,0
Бошқа иншоотларни капитал таъмирлаш	43	32	900	176 000,0	3 155 000,0	2 979 000,0
Асосий воситаларни капитал таъмирлаш бўйича бошқа харажатлар	43	39	000	120 000,0	400 000,0	280 000,0
Мебель ва офис жиҳозлари	43	54	910	1 200 000,0	3 500 000,0	2 300 000,0
Компьютер жиҳозлари, ҳисоблаш ва аудио-видео техникаси, ахборот технологияси ва керакли ашёлар	43	54	920	1 100 000,0	2 000 000,0	900 000,0
Электр энергия ва бошқа коммунал хизматларни ҳисобга олиш асбоблари	43	54	930	14 000,0	100 000,0	86 000,0
Ўқув-лаборатория ускуналари	43	54	940	800 000,0	2 500 000,0	1 700 000,0
Бошқа техника	43	54	990	1 495 000,0	2 500 000,0	1 005 000,0

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

Етиштириладиган активлар	43	55	100	10 000,0	50 000,0	40 000,0
Кутубхона фонди	43	55	300	120 000,0	250 000,0	130 000,0
Кадастр, ер тузиш, топографик-геодезик ва картографик ишлар харажатлари	48	21	110	41 000,0	125 000,0	84 000,0
Электрон давлат харидларида иштирок этиш учун закат тулови харажатлари	48	21	140	0,0	15 000,0	15 000,0
Бошқа харажатлар	48	21	190	4 604 541,0	7 829 935,0	3 225 394,0

Урганч давлат университетининг смета харажатларининг таҳлил натижаларида фақат давлат бюджети томонидан молиялаштирилган (харажатлар моддаси асосида) маблағлари.

1. Олий таълим муассаси профессор ўқитувчиларга тўланадиган соатбай иш ҳаққи ва унга тенглаштирилган (ягона ижтимоий тўлов) тўловлар. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Республика олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари ходимларининг меҳнатига ҳақ тўлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 5 апрелдаги ПҚ-3655-сон қарори ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фан ва олий таълим соҳаси ходимларининг меҳнат ҳаққи миқдорини янада ошириш, илмий ва илмий-техник фаолият натижалари жорий этилишини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 20 июлдаги ПҚ-3876-сон қарори ижросини таъминлаш юзасидан Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 15 августдаги 662-сон қарорининг 16 бандида назарда тутилган ўқув машғулотларини ўтказганлик учун меҳнатга соатбай ҳақ тўлаш маблағлари олий таълим муассасасининг меҳнатга соатбай ҳақ тўлаш шартларида ўтказиладиган ўқув ишларининг кутилаётган ҳажмига кўра, штатдаги профессор-ўқитувчилар таркиби меҳнатига ҳақ тўлаш фондининг 4 фоизидан ортиқ бўлмаган миқдорда, бюджет маблағлари ва бюджетдан ташқари маблағлар бўйича харажатлар (даромадлар ва харажатлар) сметаларда назарда тутилади. Ўқув юкмасини бажариш учун штатдаги профессор-ўқитувчилар таркибига шахсларни жалб этиш имконияти бўлмаган айрим ҳолатларда, олий таълим муассасаларига Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан келишган ҳолда харажатлар (даромадлар ва харажатлар) сметаларида профессор-ўқитувчилар меҳнатига ҳақ тўлаш учун назарда тутилган маблағлар доирасида ўқув ишларини меҳнатга соатбай ҳақ тўлаш шартларида ўтказиш учун шахсларни жалб этиш ҳуқуқи берилади деб кўрсатилган.

2. Ўзбекистон Республикасининг «Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида»ги Қонуни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2019 — 2023 йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида талаб юқори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2019 йил 17 июндаги ПҚ-4358-сон қарорига мувофиқ, шунингдек, кадрлар салоҳиятини ошириш, илм-фан ва таълим соҳасида юқори малакали кадрларнинг билим ва тажрибаларини амалда қўллашни молиявий рағбатлантириш учун қўшимча шарт-шароитлар яратиш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 24 декабрдаги «Илм-фан ва таълим соҳасидаги давлат ташкилотларида илмий, илмий-педагогик ва меҳнат фаолияти билан шуғулланувчи илмий даражага эга ходимларга қўшимча ҳақ тўлаш тартиби тўғрисида»ги 1030-сон қарори асосида Урганч давлат университетининг бюджет ҳисобидаги харажатлар сметасининг 41.11.240 харажатлар моддасига УрДУ профессор ўқитувчиларига тўланадиган қўшимча иш ҳаққи ва унга тенглаштирилган (ягона ижтимоий тўлов) тўловлар.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2019/2020 ўқув йилида Ўзбекистон Республикасининг олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилишнинг давлат буюртмаси параметрлари тўғрисида» 2019 йил 17 июндаги ПҚ-4359-сон қарори ижросини таъминлаш, шунингдек, олий таълим муассасалари талабалари учун стипендиялар тайинлаш ва тўлаш тартибининг янада такомиллаштириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси 2020 йил 31 январдаги 59-сон қарорига «Олий таълим муассасалари талабаларига стипендиялар тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида»ги низом асосида 48.21.400 харажатлар моддасига давлат буюртмаси билан талабалikka грант асосида қабул қилинган УрДУ талабаларига тўланадиган стипендия тўловлари.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 23 январдаги «Ижтимоий Ҳимоя йили» Давлат Дастури тўғрисида»ги 573-сон қарорида белгиланган вазифалар ижроси, Ўзбекистон

Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 29 ноябрдаги “Ўрта махсус, Касб-хунар таълими муассасаларида ўқиётган ҳамда тўлиқ давлат таъминотида бўлган етим ва ота-онасининг қаровсиз қолган болаларни моддий таъминлаш нормаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори асосида Урганч давлат университетида тахсил олаётган ижтимоий ҳимояга муҳтож талабалар учун қуйидаги харажатлар моддаларига маблағлар ажратилган 47.21.900 (Пул шаклидаги бошқа ижтимоий ёрдам нафақалари), 47.22.200 (Қишки кийим ва пойабзал билан таъминлаш харажатлари), 47.22.400 (Йўл чиптаси билан таъминлаш харажатлари) ва 42.22.900 (Натура шаклида бошқа турдаги ижтимоий ёрдам нафақалари).

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Республика олий таълим муассасалари ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш тизимини такомиллаштириш ва уни моддий рағбатлантиришни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2008 йил 24 июлдаги ПҚ-926-сон қарорини бажариш юзасидан Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 1 августдаги 164-сон қарорининг 4 бандида назарда тутилган Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги, Молия вазирлиги, тизимида олий таълим муассасалари бўлган вазирликлар ва идораларнинг кундузги таълим шакли бўйича бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларига қараб бир ўқитувчига тўғри келадиган талабалар сони нисбатининг чекланган нормативларига асосланиб 2020/2021 ўқув йилидан бошлаб 1:14,0 нисбат булгиланган. Урганч давлат университети даромадлар ва харажатлар сметасининг 48.21.190 харажатлар моддасига ажратилган маблағ юқоридаги қарор асосида давлат бюртмаси асосида талабаликка гарант асосида қабул қилинган талабалар контингенти ҳисобланиб ҳар бир талабага кетадиган ўртача харажат суммаси давлат бюджети томонидан молиялаштирилган.

Муҳокамалар ва натижалар. Юқоридаги бюджет маблағлари ҳисобидаги жадвалда танланма йўли билан синов тариқасида ўзини-ўзи молиялаштиришга ўткандан кейин 2019 йилга нисбатдан 2020 йил учун харажатлар сметасига бюджетдан олдинги олий таълим бошқаруви давридаги сақлаш харажатлари ўртача ҳисобланиб **24 036 231** минг сўм маблағ бюджет ҳисобидаги харажатлар сметасининг 48.21.190 харажатлар моддасига режалаштирилган. Ушбу маблағ Урганч давлат университети синов тариқасида ўтганлигини ва унинг молиявий барқарорлигини таъминлаш мақсадида бюджет ҳисобидан режалаштирган. Ўқитишнинг тўлов контракт шаклидан тушган маблағлар ҳисобидаги жадвалда 2019 йилда бюджет томонидан молиялаштирилган 4-гурух (товар моддий захира ва бошқа харажатлар) тўлалигича ўқитишнинг тўлов контракт шаклидан тушган маблағ ҳисобида молиялаштирилган. Бюджет маблағлари ҳисобидан тасдиқланган 2019 йил даромадлар ва харажатлар сметасида давлат бюджети томонидан жами **28 526 988** минг сўм, 2020 йилда эса **46 288 252** минг сўм режалаштирилган бўлиб, 2020 йилга молиялаштирилмаган **24 036 231** минг сўм маблағни чегириб ташланса **22 252 021** сўм маблағ бюджет томонидан молиялаштирилган. Республикада ҳар йилги иш ҳаққи ва ситипендияларни ошишини инобатга олган ҳолда олий таълим муассасаси ўзини-ўзи молиявий бошқариши имконияти етарли даражада деб хулоса қилсак бўлади.

Олий таълим муассасаларини ўзини-ўзи молиявий таъминлаш имкониятлари.

1. Хорижий фуқаро, талабалар, профессор-ўқитувчиларни жалб этиш ошади.
2. Талабаларни қабул қилиш квотаси мустақил шаклланади.
3. Иқтидорли ва ижтимоий ҳимояга муҳтож талабаларни рағбатлантириш мустақил ўзи белгилайди.
4. Ўқитишнинг инновацион шакллари ва методларини жориш этиш, ОТМнинг моддий техник базасини мустаҳкамлаш, ўқув лабораториялар ташкил этиш, лаборатория жихозларини харид қилиш мустақил бўлади.
5. Профессор-ўқитувчиларни малакасини ошириш, қайта тайёрлаш, хорижий давлатларда ўқитиш, малакасини ошириш имкони ошади.
6. Адабиётлар, ўқув қўлланма дарсликлари нашр этиш мустақил амалга оширилади.
7. Айрим хизматларни аутсорсингга бериш имконияти пайдо бўлади.
8. Бакалавр, магистратура ва докторантура янги йўналишларини қабули ва контракт суммаларини ҳамда тўлаш муддатларини мустақил белгилайди.
9. Ректор университет структурасини мустақил белгилайди.
10. Университетларни акциялаштириш имкони пайдо бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги кунда хорижий тажрибани ўрганиш асосида салоҳиятли олий таълим муассасаларини танлаб, босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимида ўтказиш тартибини жорий қилинган муассасаларидан бири Урганч давлат университети ўзини-ўзи молиялаштиришга ўтишдаги жарёнлар ўргинди. Олдинги олий таълим бошқаруви давридаги

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

сақлаш харажатлари (коммунал,товарлар харид қилиш ва ҳоказо) тўлиқлигича университетнинг ўқитишнинг тўлов контракт шаклидан тушган маблағлар ҳисобидан қопланган. Олий таълим муассасаларини ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтишда молиявий барқарорлигини таъминлаши, таълим жараёнида фойдаланиладиган ўқув адабиётлари лабаратория жихозлари шунингдек ахборот коммуникация воситаларини зарур вақтда тўғридан-тўғри харид қилиш имкониятлари яратилиб, таълим сифатини тубдан яхшилашга хизмат қилади ва кадрлар тайёрлаш сифатини ошириб Республика ҳамда хорижий олий таълим муассасалари ўртасида рақобатбардошлигини таъминлайди.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2019 йил 3 декабрдаги “Олий таълим муассасаларини босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтказиш тўғрисида”ги 967-сон Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фан ва олий таълим соҳаси ходимларининг меҳнат ҳақи миқдорини янада ошириш, илмий ва илмий-техник фаолият натижалари жорий этилишини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 20 июлдаги ПҚ-3876-сон ижросини таъминлаш юзасидан Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 15 августдаги 662-сон Қарори.

3. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 24 декабрдаги “Илм-фан ва таълим соҳасидаги давлат ташкилотларида илмий, илмий-педагогик ва меҳнат фаолияти билан шуғулланувчи илмий даражага эга ходимларга қўшимча ҳақ тўлаш тартиби тўғрисида”ги 1030-сон қарори.

4. Вазирлар Маҳкамаси 2020 йил 31 январдаги 59-сон қарорига “Олий таълим муассасалари талабаларига стипендиялар тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида”ги низом.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 23 январдаги «Ижтимоий Ҳимоя йили» Давлат Дастури тўғрисида”ги 573-сон Қарори.

6. Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 1 августдаги 164-сон Қарори.

G'ulom XAKIMOV

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi huzuridagi
bosh ilmiy metodik markaz mustaqil izlanuvchisi

OLIV TA'LIM TIZIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA UNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Maqolada oliy ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligi faoliyatni boshqarish, vazifalarni boshqarish, natijalarni boshqarish kabi sohalarini balli tizimda integral ko'rsatkich asosida bosqichma-bosqich baholash masalasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, boshqarish, boshqarish samaradorligi, baholash.

В статье исследуется вопрос поэтапной оценки эффективности менеджмента высших учебных заведений в сферах управления деятельностью, управления задачами, управления результатами на основе интегрированного показателя в балльной системе.

Ключевые слова: высшее образование, менеджмент, эффективность управления, оценка.

The article explores the issue of step-by-step assessment of the effectiveness of the management of higher education institutions in the areas of activity management, task management, results management on the basis of an integrated indicator in the scoring system.

Key words: higher education, management, management effectiveness, evaluation.

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan yaxshilash, uning sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash va ushbu sohada raqobat muhitini yaratish bo'yicha yuqori darajada amaliy yo'nalishlar boshlandi. Oliy ta'lim muassasasi ta'lim sifati menejmenti samaradorligini oshirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda [1, 2]. Ta'limning iqtisodiy samaraliligi – milliy daromad o'sishida ta'limning ahamiyatini ifoda etuvchi tushuncha. Ta'limga ketadigan moliyaviy sarflar butun hajmini moddiy ne'matlar ishlab chiqarish sohasi xodimlari ma'lumot va malaka darajasini oshirish tufayli olinadigan milliy daromad o'sishi ulushiga nisbati sifatida tushuniladi [3]. Amaliyotda tashqi muhitning samaradorlikka ta'siri o'rganilmagan. Shu sababli Sh.N. Zaynutdinov va A.O.Ochilovalar boshqarish samaradorligini baholashda olingan natijalar (muassasaning tashqi va ichki muhiti)ni zaruriy (loyihada belgilanmagan) foyda orqali o'lchash maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi [4]. Chunki bu orqali tashkiliy tuzilmani loyihalashda aloqalarning mustahkamligini baholash mumkin. Bu o'rinda mustahkamlik boshqarish tizimi aloqadorlik faoliyatining uzluksizligini ta'minlashni anglatadi. Bu ko'rsatkich orqali sifat yoki boshqarish tizimining samaradorligi to'g'risida fikr yuritish mumkin. Yevropa sifat menejmenti jamg'armasi tomonidan ishlab chiqilgan biznesni takomillashtirish modeli - EFQM "Excellence Model" 1990-yillar boshidan buyon 13 yildan ortiq vaqt davomida mavjud bo'lib, barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tashkilotlar uchun ideal boshqaruv tizimining umumlashgan modeli sanaladi [5].

Asosiy qism. Iqtisodiy va maxsus adabiyotlarda, me'yoriy hujjatlarda ishlab chiqarish subyekting faoliyat natijasini baholashda "samaradorlik", "foйда me'yori (normasi)", "rentabellik" kabi iqtisodiy atamalardan aralash holda foydalanilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi ham muayyan darajada korxonalar faoliyatining yakuniy natijalarini ifodalaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiy samaradorlik - bu nisbiy ko'rsatkich bo'lib, olingan samara bilan jalb etilgan resurslar taqsimotini (o'lchamning resurs usuli) yoki ishlab chiqarish xarajatlari taqsimotini (xarajatli usul) aks ettiradi. O'lchamning resurs usulida iqtisodiy samaradorlik jalb etilgan barcha resurslar qiymati doirasida, xarajatli usulda esa – ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan resurs qiymati doirasida aniqlanadi.

Boshqarish samaradorligi faoliyatning natijaviylikka erishilganligidir, degan qarashlar iqtisodiy adabiyotlarda keng miqyosda talqin etilgan. Ammo, faqat natijaviylik asosida samaradorlik darajasini aniqlash murakkab, chunki, samaradorlik boshqarish faoliyatining umumiy harakati bo'lib, ma'lum harakatlar natijasida maqsadga erishilganligidir. Demak, "ishlab chiqarish samaradorligi" tushunchasi "iqtisodiy samaradorlik"ka nisbatan kengroq tushunchadir. Shu tufayli ishlab chiqarishning barcha darajalarini boshqarishning iqtisodiy jihatlarini rivojlantirishda, faoliyatini yaxshilashda "iqtisodiy samaradorlik" tushunchasini qo'llash mumkin.

Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, boshqaruv apparati, xizmati va bo'linmalari ayrim xodimlarining faoliyatini, ularning bajargan ish natijalari bo'yicha baholashning iloji yo'q. Ularning faoliyati

natijalari boshqaruv faoliyati natijalari boshqaruv obyektiga ta'sir qilish yo'li bilan amalga oshiriladi, ya'ni ishchilar natijalarida ko'rinadi. Shuning uchun boshqaruv apparati faoliyatini takomillashtirish tadbirlarini baholashda muassasa va tashkilotlar ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatining oxirgi natijalariga nisbatan ta'sir ko'rsatishiga qarab o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Hozirda nazariyada va amaliyotda kam o'rganilgan jarayon o'qituvchilik mehnatining samaradorligi hisoblanadi. O'qituvchilik mehnatining samaradorligi qanday ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi? Uning qanday parametrlari bo'ladi? Qanday baholash usullari qo'llaniladi? Bu savollarga javob topish murakkab, chunki, o'qituvchilik mehnati boshqa kasb egalarining mehnatidan birmuncha farq qiladi.

Boshqarish mehnati kabi o'qituvchilik mehnatida ham asosan axborot muhim o'rin egallaydi. Shu sababli o'qituvchilik mehnatini tashkil etish boshqarish mehnatida foydalaniladigan ko'rsatkichlarga o'xshab ketadi. O'qituvchilik mehnati samaradorligini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: balansli foyda, o'qishdan va ITdan tushgan mablag', ishga qilingan bir so'm xarajat, bir xodimga to'g'ri keladigan ish, talabalarining o'rtacha soni, o'qitish sifati, o'rtacha ish haqi, ish vaqtidan foydalanish, qo'nimsizlik, bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan chop etilgan ish, o'quv yuklamasini bajarish, bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talaba, bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan texnika, malaka oshirish, ish sharoiti va hokazo.

Respublikamizda Oliy ta'lim tizimini samarali boshqarish eng avvalo boshqaruv subyekti bo'lgan inson omiliga, xoh u talaba yoki professor-o'qituvchi bo'lsin, yoki xodim bo'lsin bundan qat'iy nazar, uning manfaatlari hamda ehtiyojlarini qondirilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Ana shu ma'noda ta'limni mazmunini ishlab chiqarish bilan bog'liq holda takomillashtirib borish bitiruvchilar kasbiy layoqatini kelgusida egallaydigan mutaxassisligi bo'yicha vazifasiga motivatsion yondashuvini, bir so'z bilan aytganda oliy ta'lim boshqaruvi tizimida xodimlarni boshqarish malakasini ham shakllantirib borish zarur.

Boshqacha aytganda talabalar guruhini boshqarishdan tortib oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari, xodimlarini boshqarishga qadar bo'lgan ishlarni umumslubiy asosiga ega bo'lish kerak. Bu jarayon nafaqat oliy o'quv yurti, balki umuman boshqaruv jarayonining umumiy tamoyillariga asoslanadi.

Ma'lumki insonlar turli tuman xususiyatlarga (yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va hokazolar bo'yicha) bo'lingan bo'lib, har biri o'ziga xos ehtiyojga va didga ega. Shuning uchun bu xilmaxil ehtiyojlarni hisobga olgan holda ularni qondirish imkoniyatlarini yaratish kerak. Bunda mehnatni tashkil qilishdagi personalning boshqaruvdagi ishtiroki shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu ayrim joylarda "partiyalashtirilgan boshqaruv", deb ham nom olgan. Partiyalashtirilgan boshqaruvning mohiyati shundaki, bunda insonni tashkilotning ichki tashkiliy faoliyatlariga (masalan, qaror qabul qilish, maqsadni belgilash va uni amalga oshirish) jalb qilgan holda, shu tashkilotga bo'lgan qiziqishini oshirishdir. Insonning qiziqishi ortsa, yana ham samaraliroq va sifatliroq ishlashiga sabab bo'ladi va o'zi ham bundan zavq oladi.

Yuqoridagi fikrlardan insonning ehtiyojlarini tahlil qiluvchi motivatsiya nazariyasiga tayangan holda, "inson faqat pul uchun ishlaydi" degan ibora butkul to'g'ri emasligini ko'rishimiz mumkin.

Xo'jalik subyektlari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy omili bo'lib, ishchilarning mehnatga va kasbiy o'sishiga bo'lgan motivatsiyasi hisoblanadi. Umuman bozor iqtisodiyoti sharoitida *motivatsiyadan boshqaruv usuli* sifatida foydalaniladi. Hatto rivojlangan kompaniyalarda ham malakali va iste'dodli mutaxassislarning ishdan ketib qolishi muammolari uchrab turadi. Bu o'sha kompaniyada yetakchi mutaxassislarni motivatsiyalash uslubiyotining yetarli darajada qayta ko'rib chiqilmaganligidan dalolat beradi. Agar bu hol past darajadagi mutaxassislikni talab qiladigan kompaniyalarda unchalik qaltis vaziyatni keltirib chiqarmasa, yuqori malakali mutaxassislikni talab qiladigan kompaniyalarda bu masala eng muhim hayotiy muammo hisoblanadi. Yuqori malakali mutaxassislarning ishdan ketishi kompaniya uchun falokat hisoblanadi.


Boshqarishni takomillashtirish bo'yicha bir qator masalalar miqdor ko'rsatkichi orqali ifodalanadi.

Biz tomondan ishlab chiqilgan oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini innovatsion boshqaruv samaradorligini baholash uslubiga ko'ra ushbu tizim quyidagi qismlarga ajratiladi:

- faoliyatni boshqarish (FB);
- vazifalarni boshqarish (VF);
- natijalarni boshqarish (NB).

Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash va uni oshirish yo'nalishlarini aniqlashda qadamli, ya'ni bosqichma-bosqich uslubidan foydalanishni lozim topdik (1-rasm).EEEEEEEEEE

OTMni boshqarish samaradorligi, ko'ffisienti



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim tizimi rivojlanish samaradorligini boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari matritsasi (muallif ishlanmasi)

I QADAMDA OTMni boshqarish samaradorligi holatini tahlil qilish va zaruriy ma'lumotlarni yig'ish amalga oshiriladi. Ushbu vazifa ishning ikkinchi bobida amalga oshirildi.

II QADAM. OTM faoliyatini boshqarish samaradorligini baholash uslubini ishlab chiqish.

III QADAM. OTM faoliyatini boshqarish samaradorligini baholash.

IV QADAM. OTM faoliyatini boshqarishdagi tafovutlarni aniqlash.

V QADAM. Muhimligi va muddati bo'yicha muammolarni turlarga ajratish.

VI QADAM. OTM faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish va chora-tadbirlar ishlab chiqish.

OTMning faoliyatini boshqarish samaradorligi tizim osti elementlarining integral ko'rsatkichlari asosida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi rivojlanish samaradorligini boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari matritsasi tuzildi (1-rasm). Matritsani shakllantirish jarayonida biz tomondan ishlab chiqilgan OTM faoliyatini innovatsion boshqaruv samaradorligini baholash uslubidagi tizim tarkibiy qismlari integral baho ko'rsatkichlari asos qilib olindi. Boshqarish samaradorligi integral baho ko'rsatkichlarining "past", "o'rtacha" va "yuqori" darajalari bo'yicha boshqarish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti uchun kelgusida faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirishning "Oliy ta'lim tizimida loyihaviy rivojlanish tizimini joriy etish" varianti eng muqobil sanaladi.

Oliy ta'lim boshqaruvi samaradorligini oshirishning istiqboldagi yo'nalishlarini bashorat qilishda ta'lim oluvchilarning individual sifat xususiyatlari albatta inobatga olinishi lozim. Zero, ta'lim oluvchilarning bir-biriga o'xshamasliklari ta'lim mazmuniga bo'lgan talabni o'zgartirib, imkon qadar muqobil variantni tanlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shunga qaramay professor-o'qituvchi boshqaruvchi va tadqiqotchidan kuchliroq sanaladi. Bugungi kunda ta'limning kelgusi imkoniyatlarida biznes va tadbirkorlik ta'limni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak ta'limni, xususan oliy ta'limni kelgusi rivoji ko'p jihatdan ta'limning yangi turi mutaxassislar tomonidan taklif etilayotgan "ishbilarmonlik" (tadbirkorlik) ta'limini yo'lga qo'yilishi bilan uzviy bog'liq.

Xulosa. Bozor munosabatlarini rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotidagi o'ziga xosliklar ana shunday yangi zamonaviy ta'lim turlarini ta'lim tizimi tarkibiga kiritishni talab etmoqda. Ammo, O'zbekistonda ish bilarmonlik ta'limini sotsial-iqtisodiy ahamiyati va mazkur ta'limni mustaqil amal qilinishiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Mazkur ta'lim turini zaruriyatini mohiyatan yetarli darajada anglamasligi oqibatida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini jadal rivojlanishida to'siqlar deysinishlar mavjud desak xato qilmagan bo'lamiz. Ana shunga ko'ra davlat va xususiy tuzilmalar uchun qo'shimcha ta'lim (ish bilarmonlik ta'limi)ni shakllantirishning davlat konsepsiyasini ishlab chiqish talabi fikrimizcha quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- shaxsning erkin rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi, fuqaroviy mas'ullik, mehnatsevarlik, insonning huquq, erkinliklariga hurmatga asoslanish;
- barcha uchun qulay moslashuvchan ta'lim sohasi ekanligi;
- ish bilarmonlik ta'limida erkinlik va plyuralizmning ustuvorligi;
- ta'lim jarayonining uzluksizligi va izchilligi;
- ish bilarmonlik ta'limini umumjahon andozasi darajasida rivojlantirishda, umumiy, o'rta, o'rta maxsus, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi kasbiy ta'lim orasidagi integratsiyalash tizimni shakllantirish.

Adabiyotlar

1. Беляков С.А. Новые лекции по экономике образования. – М.: Изд-во ООО “Макс Пресс”, 2007. – С.74.
2. Граурман О. Менеджмент средней и высшей школы: 100 новых понятие / О.Граурман и др. Hellesheim: Universitat-sverlang Hildesheim, 2004. – С.211.
3. Oliy ta'lim (lug'at-ma'lumotnoma) / Saidov M.H., Peregudov L.V., Tohirov Z.T. – T.: “Moliya”, 2003. – 313b.
4. Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O. Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash // Iqtisodiyot va ta'lim, 2010. - №2. – 112-117b.
5. Игнатъева Е.Ю. Менеджмент знаний в управлении качеством образовательного процесса в высшей школе. – Великий Новгород, 2008. – 280с.

Madina TAIROVA
Andijon davlat universiteti
maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedra o'qituvchisi

TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATGA OID RIVOJLANISHLARIDA PEDAGOG TARBIYACHILAR KASBIY FAOLIYAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ROLI

Ushbu maqolada ta'lim tizimini isloh qilish mexanizmlari haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko'payishi, rivojlanishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuviga, mavjud pedagogik psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning yangicha bosqichiga o'tish bo'yicha shaxs kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligi haqida ma'lumotlar berilgan va shu bilan birga, uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish mexanizmlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *modernizatsiya, pedagogika, boshqaruv, kasbiy faoliyat, kasb ta'limi, zamonaviy kasblar olami, kasbiy ixtisoslik, tarbiya, kasb ustasi, mahorat, ustoz-shogird, o'quvchi, o'qituvchi.*

В статье рассматриваются механизмы реформирования системы образования. Сегодня необходимо уделять больше внимания резкому увеличению потока информации, развитию, ускорению научно-технического прогресса, переходу на новый этап педагогической, психологической, методической, практической подготовки, развитию профессиональных навыков и творческих способностей. приводятся данные, а вместе с тем описываются механизмы разработки научно обоснованных выводов и рекомендаций для повышения его эффективности.

Ключевые слова: *модернизация, педагогика, менеджмент, профессиональная деятельность, профессиональное образование, современный мир профессий, профессиональная специализация, образование, магистр, мастерство, педагог-ученик, студент, учитель.*

This article discusses the mechanisms for reforming the education system. Today we need to pay more attention to the sharp increase in the flow of information, development, acceleration of scientific and technological progress, the transition to a new stage of pedagogical, psychological, methodological, practical training, the development of professional skills and creativity. Data are provided, and at the same time, mechanisms for developing scientifically based conclusions and recommendations to increase its effectiveness are described.

Key words: *modernization, pedagogy, management, professional activity, vocational education, modern world of professions, professional specialization, education, master, skill, teacher-student, student, teacher.*

Kirish. Respublikamizning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy – madaniy va ma'naviy hayotida ro'y berayotgan hodisalar, uni jahon hamjihatligiga tezkor kirishini, hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida olib borayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda. Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri mamlakat mehnatkashlarining, xususan, yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilarning kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug'dirdi. Zero, bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko'payishi, rivojlanishi, ilmiy – texnikaviy taraqqiyotning jadallashuviga, mavjud pedagogik – psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajada "eskirishi"ga olib keldi va bu o'z navbatida pedagogik mehnat bilan shug'ullanuvchilarning kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligini taqozo etdi. Bu e'tibor va talabni amalga oshirishning muhim omillaridan biri, kasbiy mahoratni takomillashtirish texnologiyasini joriy etish. Buning uchun esa kasbiy pedagogik tayyorgarlik, ta'lim yo'nalishida pedagogik mahorat asoslari fanini o'qitishni mukammallashtirish demakdir.

Asosiy qism. Ma'lumki, umumiy mehnat bilan kasb ixtisosligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Chinakam kasbiy mohirlik darajasi shaxsning umumiy rivojlanishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikda, aloqada bo'ladi. Zero, kasbni aniq tanlash, unga bo'lgan qiziqishni orttirish, mahoratli bo'lishni uyg'otadi. Mahoratli kasb egasining ma'naviy dunyosi boy, ishlash qobiliyati teran bo'ladi va u o'z kasbi yordamida o'ziga ham, boshqalarga ham katta foyda keltiradi. Shuning uchun kasbiy mahoratni shakllantirish, tarbiyalashga va nihoyat uni takomillashtirishga intilish, uni kerakli ma'lumotlar, axborot(bilim)lar, malakalar bilan to'ldirib borish shu kunning, qolaversa ta'lim islohotlarining dolzarb masalasidir.

Shu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki, pedagogik mahorat o'qituvchi - tarbiyachi kasbiy va shaxsiy fazilati to'g'risidagi fan sifatida ma'lum metodologik asosga ega. Darhaqiqat, o'qituvchi kasbiy mahoratini

shakllantirishning ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy yoʻnalishlari Y.P.Azarov, T.I.Gonobolin, A.K.Kuzmina, O.A.Abdulina, A.V.Mudrik, N.V.Kuxarev, V.A.Selastyonin, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, A.V.Petrovskiy, Umar az Zamaxshariy, Burxoniddin Zarnudjiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, M.Ochilov, K.Zaripov, V.A.Kruteskiy, J.G.Yoʻldoshev, E.Gʻoziyev, U.Mahkamov, B.Xoʻjayev va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan. Ularning taʼkidlashlaricha, oʻqituvchi oʻz fanining bilimdoni boʻlishi bilan birga, insonparvar, adolatli boʻlishi, milliy tarbiya targʻibotchisi hamda komil inson sifatida oʻzida shaxsiy-kasbiy sifatlarni tarkib topdirgan kasb egasi boʻlishi lozim.

Ijtimoiy qiymat va tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan ijtimoiy psixologik hodisalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hozirgi davr bilan uygʻunlashtirish hamda ajdodlar bilan avlodlar vorisligini oʻrnatish faqatgina shu kasb egalari yordamida amalga oshiriladi. Mashhur Naqshband tariqatida shunday hikmat bor "... Adab bu xulqni chiroyli qilish, soʻzni va feʼlni soz qilishdir. Xizmat odobi ulugʻ baxtdan yaxshiroq, uning belgisi amalning qaboʻli, tugʻyon esa amalning buzuqligidir. Adabni saqlash – muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxti, yana muhabbat urugʻi hamdir".

Shuningdek jahon fani va madaniyatiga oʻzining boy ilmiy merosi, koʻp qirrali ilmiy faoliyati bilan maʼlum va mashhur boʻlgan Abu Rayhon Beruniyning ijodida ham insonning taʼlim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala boʻlgan. U "Oʻquvchini hamma narsaga oʻrgatish" nomli risolasida, ustoz shogirdni sanʼatga, tabiat koʻrsatmalariga asoslanishga, uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi lozim deb, taʼkidlagan.

Ibn Sino "Tib qonunlari" asarining birinchi kitobida yoshlar taʼlim-tarbiyasida alohida guruhlar bilan suhbat uslubini tavsiya qiladi. Ibn Sino shu va shunga oʻxshash usullar haqida fikr yuritar ekan oʻqituvchilik – tarbiyachilik kasbining imkoniyatlarini ochib beradi.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg oʻqituvchining muntazam ravishda fan bilan shugʻullanishi haqida gapirib, shunday yozgan edi: - "Oʻqituvchi muntazam ravishda fan bilan shugʻullanmogʻi lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga oʻxshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bu oʻqituvchidan hech natija kutib boʻlmaydi".

Hozirgi fan va texnika jadal ravishda rivojlanayotgan, axborotlar keskin oshib borayotgan bir davrda oʻqituvchi pedagogik mahoratini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida roʻy berayotgan yirik kashfiyot qariyb oʻn, oʻn besh yillik samarali va kishi zoʻrgʻa ishonadigan voqea hisoblangan boʻlsa, hozirgi vaqtda har yili, hatto, har oy ichida fan, texnika sohasida shunday yangi - yangi kashfiyotlar roʻy bermoqdaki, bilimlarning ilgari nomaʼlum boʻlgan yangi yoʻnalishlari maydonga kelmoqdaki, buning uchun har bir kasb egasi, jumladan oʻqituvchi oʻz mahorati ustida muntazam ishlash kerak boʻladi.

Kishilarda, eng avval yoshlarda, bilimga boʻlgan intilish beqiyos darajada oʻsib borayotir. Shuning uchun hozir oʻqituvchi faqat oʻz fani boʻyicha emas, balki oʻz faniga yaqin boʻlgan sohalardagi yangiliklarni bilishi ham lozim boʻladi. Chunki, adabiyot darslarida talabalarni – nisbiylik nazariyasi, molekulyar biologiya, kibernetikaga doir masalalar qiziqtirib qoladi. Qiziquvchan oʻquvchi-yoshlarni fanning bu sohalari boʻyicha savollariga javob bera oladigan oʻqituvchigina ularning sevimli oʻqituvchisi boʻla oladi. Buning uchun mahorat zarur. Shunday vaqtlarda oʻqituvchi va yosh oʻqituvchilarga: "Izlaning, oʻqing, iloji boricha yana koʻproq oʻqing!", deging keladi.

Fikrimizcha, badiiy adabiyotni yetarli oʻqimagan oʻqituvchi tarixdan, fizikadan, matematikadan yaxshi dars bera olmaydi. Oʻqituvchi faoliyatining pedagogik qobiliyatlar tizimida tadqiq qilgan N.V.Kuzmina shunday yozadi: - "Taʼlim-tarbiyada roʻy beradigan koʻpgina kamchiliklar oʻqituvchi-tarbiyachining pedagogik qobiliyatining amaliy yoʻnalishini yaxshi bilmaslik, isteʼdodning oʻqituvchida yoʻqligidir".

Hozirgi zamonning madaniyatli jamiyatida pedagoglar alohida diqqatga sazovor boʻlgan kishilar hisoblanadilar. Agarda taʼlim-tarbiya sohasida pedagog oʻrniga tayyorgarligi sust odam boʻlsa, birinchi navbatda bolalar jabr chekadi. Chunki bunda tiklab boʻlmaydigan maʼnaviy-maʼrifiy yoʻqotishlar yuzaga keladi. Shundan kelib chiqqan holda jamiyatda shunday sharoitlar yaratilishi kerakki, unda bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar orasida mukammal tayyorgarlikka ega pedagog tarbiyachilar koʻproq boʻlishiga erishilsin.

Tarbiyachi avvallambor pedagogdir, pedagog deganda, odatda, maʼlum bir kasb va shaxsni shakllantirishga yoʻnaltirilgan ijtimoiy vazifa egasi tushuniladi. Bunda, real hayot sharoitida faoliyat chegarasini belgilash ancha mushkuldir. Ushbu kasb ichki murakkab tuzilishga ega boʻlib, turli taʼsir vositalari ideal xususiyatli jihatlarni oʻzida mujassamlashtirgandir. Oddiy kishilar nazarida bu qandaydir bir tarqoq obraz sifatida, masalan "sevimli oʻqituvchi" kabi gʻalati tuyuladi. Shu bilan birga "kasb obrazi" sifatida mujassamlashgan holda ham uchrashi mumkin. Bu ilmiy, adabiy va folklor asosida shakllangan boʻladi. Shu sababli bunda "kasb" atmasini aniq belgilash kerak boʻladi. Kasb – inson mehnat faoliyatining

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar. Kasb tushunchasining to'rtta ta'rifini ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi:

1. Inson kuch-quvvatini sarflaydigan soha va mehnat subyekti sifatida kishi o'z vazifasini bajaradigan soha.
2. Muayyan mehnat vazifalarini bajaradigan kishilar jamoasi.
3. Maxsus tayyorlanganlik (bilim, ko'nikma, malaka, kavalifikatsiya) darajasi bo'lib, uning yordamida inson muayyan turdagi mehnat vazifasini imkoniyatiga ega bo'ladi.
4. Faoliyat, kasb egasining professional darajada o'z vazifasini amalga oshirishning mexanizmlarini o'rgatadi.

Kasb bu bajarilishi zarur bo'lgan va bevosita hayot bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turidir. U o'zining maqsadi, me'yorlari, vositalari, mahsuliga ega bo'lib, o'sha jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati va texnologiyasi bilan bog'liq ravishda amalda bo'ladi hamda unga xizmat qiladi. Kasbni ixtisoslik hujjatlarida belgilangan faoliyat predmeti bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislik tushunchasi bilan chalkashtirmaslik kerak. Chunki mutaxassislik tor yoki keng bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham u qandaydir bilimlar doirasi bilan bog'lik holda bir butun bo'ladi. Masalan, pedagogik kasb bo'lib, unda filolog shu kasb ichidagi mutaxassislik sifatida bir bo'lak hisoblanadi. Bir kasb ichida bir nechta mutaxassisliklar bo'lishi mumkin. "Kasb" atamasi bilan bir qatorda ko'pgina bahslarga sabab bo'ladigan "kasbiy mahorat" tushunchasi ham uchraydi. Ushbu tushunchani shaxsni shakllantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan holda izohlash mumkin bo'ladi. Kasbiy mahorat bu insonda yangi sharoitlarda ma'lum bir sohaga oid murakkab vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashdagi uzoq faoliyat davomida kechadigan shaxsiy psixologik taraqqiyot o'zgarishlarining mahsulidir. Kasbiy mahorat shakllanishi uchta yo'nalishda boradi:

1. Butun faoliyat tizimi, vazifalari va pog'onali tuzilishdagi o'zgarishlar yo'nalishi. Zarur mehnat ko'nikmalariga ega bo'lish jarayonida kasbiy malakalarning pog'onama-pog'ona o'sishi, ixtisoslik faoliyati usullari rivojlanishi ro'y beradiki, unda shaxs shu sohaga oid faqat o'ziga xos bo'lgan "o'z uslubini" yaratadi;

2. Shu soha egasining shaxsi o'zgaradi, ya'ni tashqi ko'rinishda (nutq ohangi, muomala, hissiyotlar o'zgarishlari), ichida (diqqat, xotira, tafakkur o'zgarishlari) kasbiy dunyoqarash o'zgarishlari ro'y beradiki, unda kasbiy mahorat munosabati shakllanadi.

O'z mehnat faoliyatiga nisbatan munosabat o'zgaradi va turli sohalarda namoyon bo'ladi:

- kognitiv sohada – obyekt bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish va uning ahamiyatini anglash darajasi;
- hissiy sohada – tarbiya obyektiga nisbatan qiziqish, qiyinchiliklarga qaramasdan u bilan o'zaro hamkorlikka intilish va undan qoniqish;
- amaliy sohada – tarbiya obyektiga ta'sir etishda o'zining real imkoniyatlarini anglash natijasida tarbiyalanuvchiga ta'sir etish uning bilan hamkorlikka aylanadiki, bu kasbiy madaniyatning shakllanganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilishdan iboratdir. Shu jihatdan ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy g'oyani o'zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning xilma xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Darhaqiqat, xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishida bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Shu bois mamlakatimizning istiqbol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk madaniyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. O'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshirilishi pedagogik mahoratni takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi. Shuningdek, maxsus bilimlar va malakalar asosida bolalarini kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar bilan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bunda o'qituvchi talabchan, yaxshi mehribon, sabrli, bosiq va o'z kasbiga nisbatan e'tiqodli bo'lishi lozim. Bolani butun qalbi bilan sevadigan

o'qituvchi ko'proq tabassum qiladi, kamroq qovoq soladi. Bolalarga bilim berish bilan birgalikda ayni vaqtda ularga o'z xarakterini o'tkaza oladi, ularga odamiylik namunasi bo'lib ko'rinadi.

O'qituvchining kasbga oid mahoratini shakllantirishda pedagogik-psixologik nazariyalarning ahamiyati kattadir, chunki ma'naviyatimizning shakllanishida o'z-o'ziga ega bo'lgan ulug' insonlar faoliyati to'g'risida, ularga qo'yilayotgan talablar haqida zamonaviy pedagogik texnologiyalar to'g'risida nazariyalar kasbiy mahoratni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik tajribalarni takomillashtirishda ilmiy pedagogik ma'lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijobiy fikrlash, tadqiqotchilik ishlarini o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo, tadqiqotchilik ishlarini olib borishi va bu sohada malakalarni egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi davomida, tajribalarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U shu xulosalardan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchi uchun zarur bo'lgan juda muhim bilimlarni egallaydi. Kasbiy mahoratni takomillashtirishda shaxsiy pedagogik izlanishning ahamiyati kattadir. O'qituvchi ishidagi muvaffaqiyatni kunlik faoliyatida kattalar va bolalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyatini ta'minlaydi.

Aloqalar faoliyatda duch keladigan turli xil voqealarga pedagogik qoidalar nuqtayi nazaridan emas, balki sharoitni hisobga olgan holda ijobiy hal etish talab etiladi. Keng ilmiy saviyaga ega bo'lish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish, kasbiy mahoratni oshirishga intilish o'qituvchiga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Ta'lim sifati davlat ta'lim standartlariga muvofiq bo'lishi uchun amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu sohada ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Shaxsiy izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish o'qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekiston davlatining kasb-hunar ta'limi kollejlari ishlaydigan o'qituvchi vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan holda ixtisosga doir bilimlarni chuqur bilishlari lozimdir. Shuningdek, nazariy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy, diniy ilmlardan ham xabardor ma'naviy barkamol bo'lmog'i lozim. Xalqimizning kelajagi mustaqil O'zbekistonnig istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga uning saviyasiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. O'qituvchi shaxsining kasb sohasidagi xususiyatlari bu - o'z kasbiga muhabbatli bo'lish, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish, kasbiy layoqatlik va boshqalar.

Samarali pedagogik ta'sir ko'rsatishni to'g'ri tashkil etish bolalar bilan muomala qilishda, samimiy munosabatda bo'lishga yordam beradi. Amaliy pedagogik faoliyatda ilmiy g'oyalar va pedagogik tarbiyani qo'llash, o'qituvchi mehnatiga ko'p jihatdan bog'liq. Lekin bu mehnat natijalari darhol ko'rinmaydi. Uning mahsulini ko'rish uchun yillab mehnat qilish kerak. O'qituvchi faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu faoliyat o'zining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ham turlicha bo'ladi. Haqiqiy fidoiy o'qituvchilar o'z faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishadilar. Tajribali novator o'qituvchilar bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda pedagogika fanidan yangi yo'l ham ochmoqdalar. Kasbiy mehnatni amalga oshirish jarayonida quyidagi xususiyatlarni o'z faoliyatida amalga oshirishlari zarur:

1. O'qituvchining siyosiy qarashlari va e'tiqodining aniqligi hamda barqarorligi, o'quvchilar oldida chinakam obro' e'tibor qozonishi.

2. Mamlakatning butun ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish va egallagan tajribalarni ta'lim muassasalariga olib kirish, bu faoliyatga o'z o'quvchilarini jalb qilish, ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlash.

3. Har bir o'quvchi shaxsiga katta qiziqish bilan qarash va barcha jamoa ishlarini tashkil etish.

4. O'qituvchilar o'z ishlariga bugungi kun talabi bilan emas, balki kelajakni o'ylab ish yuritish.


5. Bolalarga bo'lgan munosabatlari, ularning taqdiri haqida g'amxo'rlik qilish, o'z tarbiyalanuvchilarining kelajagi bilan qiziqish.

6. O'quvchi shaxsiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish.

7. Ilg'or pedagogik tajribani hamda ta'lim va tarbiya nazariyasini chuqur o'rganish, hamma yangiliklarni tushunib olish, ularni o'z tajribalari bilan solishtirib ko'rish, ba'zilarini o'z ishida tatbiq qilish.

Pedagogika kasbining asosiy mazmunini nafaqat insonning ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish va uni oddiy tushunish tashkil etadi. Pedagogika kasbida yetakchi vazifa asosan ijtimoiy maqsadlarni to'g'ri anglash va unga o'quvchilarni yo'naltirishdan iboratdir. Ushbu kasbning o'ziga xosligi shundaki u insonparvarlik, jamoaviylik va ijodiy mazmunga egadir. Aynan shu jihatlar bu kasbning asosiy vazifalarini belgilab beradi.

O'qituvchining ta'lim qonuniyatlarini amalga oshirish xususiyatlari



1. Insonparvarlik mazmuni. Pedagogikaga ikkita ijtimoiy vazifa mahkam bog'langan: adaptatsiya (ijtimoiy moslashuv) va insonparvarlik.

Ijtimoiy moslashuv vazifasi bolaning mavjud ijtimoiy muhit talablariga moslashishiga yordam berishdir. Insonparvarlik vazifasi esa bola shaxsining ijodiy rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Bu vazifalarning anglangan holda oldinga surilishi madaniy taraqqiyotning barcha davrlari uchun xosdir. V.A.Suxomlinskiy qayd etgan edi: "Bizning asrimizni qanday atashlaridan qat'iy nazar biz Inson asriga o'tayapmiz. Hozirda biz boshqa davrlarga nisbatan inson ruhiyatiga nima kiritayapmiz? - aynan shu xususida ko'proq o'ylashimiz kerak bo'ladi".

2. Jamoaviylik mazmuni. Pedagogika kasbida alohida bir pedagogning o'quvchi tarbiyasiga qo'shgan sifat ulushini ajratish mushkuldir. Pedagogika kasbidagi jamoaviylik asosini anglash orqali pedagogik faoliyatdagi "jamlangan subyekt faoliyati" tushunchasi keng kirib bormoqda. Bunda keng ma'noda asosan maktabning yoki boshqa bir ta'lim muassasi jamoasining faoliyati tushuniladi. Shu bilan birga tor ma'noda bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir kichik guruhning faoliyati ham tushuniladi. A.S.Makarenko to'g'ri qayd etgan edi: "Tarbiyachilar jamoasi bo'lishi kerak. Qayerda tarbiyachilar jamoaga birlashmagan bo'lsa, bola tarbiyasiga nisbatan umumiy reja, umumiy yakdillik va aniq yondoshuv bo'lmasa u yerda hech qanday tarbiya jarayoni bo'lmaydi".

3. Ijodiylik mazmuni. O'qituvchi faoliyati mazmunini uning o'z ishiga ijodiy yondoshuv darajasi bilan aniqlash mumkin bo'ladi. Bu daraja esa o'z maqsadiga erishishda o'qituvchining ichki imkoniyatlaridan qanchalik ijodiy foydalana olishi bilan belgilanadi. O'qituvchining ijodiy imkoniyati bo'lsa uning faol mehnati natijasida yig'ilgan ijtimoiy tajribasi, pedagogik-psixologik bilimlari, mohir yechimlar topishga yordam beradigan yangi bilim, ko'nikma, g'oyalari, o'z malakasini rivojlantirishdagi yaratuvchanlik usullari zaminida shakllanadi. Pedagogik ijod namoyon bo'lish doirasi pedagogik faoliyatning barcha yo'nalishlarini: rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va tahlil etish kabilarni qamrab oladi. Zamonaviy pedagogikada ijodiy yondoshuv deganda turli o'zgaruvchan vaziyatlarda barcha muammolarni to'g'ri hal etish tushuniladi. Ijodkor pedagog o'zining shaxsiy va mehnat sifatlaridagi birligi bilan ajralib turadi va bu uning kreativligidan (yaratuvchan topqirligidan) dalolat beradi.

4. Kreativlik – bu betakror qadriyatlarni yaratadigan, nostandart qaror qabul qilish imkonini beradigan individual o'ziga xoslikdir. I.S.Gromov va V.A.Molyakolar kreativlikning yetti xil belgisini ajratib ko'rsatishadi: originallik, evristiklik, fantaziya, faollik, diqqatning jamlanganligi, haqqoniylik, sezgirlik. Ijodkor pedagog uchun, shuningdek, tashabbuskorlik, mustaqillik, fikrlash inersiyasini yenga olish qobiliyati, asl yangi narsani sezish va uni anglashga intilish, maqsadga erishishga bo'lgan yuqori ehtiyoj, assotsiatsiyalarning kengligi, kuzatuvchanlik, rivojlangan kasbiy xotira. Mutaxassisliklarning kasbiy guruhi – bu mutaxassisliklar majmui bo'lib, ular ijtimoiy foydali faoliyatning bir qadar barkaror turiga ko'ra birlashadi, o'zining yakuniy mahsuloti xarakteri, maxsus mehnat predmetlari va vositalari bilan farq qiladi.

5. Pedagogika mutaxassisligi – shu kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi bo'lib, ta'lim natijasida egallangan bilim, ko'nikma va malaka, orttirilgan tajribadir. U orqali o'zlashtirilgan kvalifikatsiyaga mos ravishda muayyan turdagi kasbiy-pedagogik topshiriqlarni qo'yish va hal etish mumkin. Shu o'rinda

pedagogik mutaxassisliklarning bir nechta ko‘rinishlarini ajratish mumkin: predmet o‘qituvchisi, ijtimoiy pedagog, qo‘shimcha ta‘lim pedagogi, tarbiyachi va boshqalar.

6. Pedagogik mutaxassisliklarga ajratish – pedagogik mutaxassisliklar doirasidagi muayyan faoliyat turi bo‘lib, muayyan mehnat predmeti va mutaxassisning aniq vazifasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

7. Pedagogik kvalifikatsiya – kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasi va turi bo‘lib, u mutaxassisning muayyan turdagi topshiriqlarni hal eta olish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Pedagogik mutaxassisliklar “Ta‘lim” degan kasbiy guruhga birlashadi. Mutaxassisliklarni tabaqalashtirishda quyidagilar asos qilib olinadi:

A) predmetga oid bilimlar sohasi (adabiyot, kimyo, matematika va boshqalar);

B) shaxs rivojlanishining yosh davrlari (maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi, o‘smir va h.k.);

D) shaxs rivojlanishining psixofiziologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlari (eshitish, ko‘rish, aqliy rivojlanishning buzilishi, deviant xulq-atvor).

Ko‘rinib turibdiki, tarbiyachi degani bu alohida kasb emas. “Tarbiyachi” mutaxassislik ham, mutaxassisliklarga bo‘linish ham bo‘lishi mumkin. Pedagogik kasb ichida mutaxassisliklarga ajratish tarbiyaviy ishlar yo‘nalishiga qarab (mehnat, estetik, huquqiy va h.k.) ham pedagogik faoliyat turlarini ajratish ikonini berdi. Bu esa o‘z navbatida turli fan o‘qituvchilari faoliyatida integratsiyani samarali qo‘llashga yordam beradi.

O‘zib borayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash hozirgi jamiyatning dolzarb vazifalaridan biridir. Insondagi o‘zidan begonalashuv jarayoni olidini olish va unda barkamol shaxsni shakllantiruvchi bilim, ko‘nikmalarni tarbiyalab borish jarayoni o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. U insonlar tomonidan bu yo‘lda zarur moddiy–texnika bazani yaratish va ma‘naviy sog‘lom muhitni shakllantirish bo‘yicha juda ko‘p zahmat chekishni taqozo qiladi. Shu bilan birga ushbu ulkan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida o‘qituvchining yuqori kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda uning samarali kasbiy mavqei ta‘sirining ijobiyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan masalalar tahlilidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni keltirish mumkin bo‘ladi:

1. Tarbiyachi – pedagogning samarali kasbiy mavqei bolalar ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishining muhim shartlaridan biridir. Bu tafakkur va faoliyat birligi natijasida yuzaga keladi va unda faoliyat tafakkur qadriyatlarining nazariy asoslarini real amalga oshirishga yo‘l ochadi.

2. O‘z kasbiga munosabat “nuqtayi nazari” tahlilidan kelib chiqqan holda pedagogik kasbiy mavqening quyidagi turlari tafsilotlarini alohida qayd etish mumkin bo‘ladi: masofali, teng, kinetik va ijtimoiy turlar tafsilotlari. Ulardagi mezonlar esa yonida, birgalikda, o‘zaro teng va ozgina oldinda kabi asoslar bilan belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonida insonparvar pedagogik mavqeining shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat insonparvarlikka yo‘naltiruvchi tarbiya, balki insonparvarlik asosida qurilgan faoliyat tizimidir. Aynan shu tizim o‘qituvchi faoliyatidagi barcha pog‘onalar va bo‘g‘inlar “yo‘nalish – maqsad – vazifalari”ni, usul-vositalarini, talab-mezonlarini hamda shart–sharoitlarini belgilab beradi. Shunday qilib, tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchiga ta‘siri insonparvarlik qadriyatlari bilan to‘la sug‘orilgan holda borishi kerak. Bu o‘quvchining aqliy barkamol, axloqiy pok va jismoniy sog‘lom bo‘lishiga zamin yaratishi lozim bo‘ladi.

4. O‘qituvchida bolaga nisbatan insonparvarlik qadriyatlari asosida munosabatda bo‘lish va uning kasbiy mavqeida insonparvarlik mavqei sifatida shakllanib borishi tarbiyaning samarali bo‘lishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki bunda ushbu samarali kasbiy pozitsiya tarbiya jarayonini ijobiy boshqarish mexanizmiga aylanadi. Bu yerda tarbiya jarayonida “nomiga – rasmiy” va “yuqoridan pastga” yo‘nalgan munosabatlar (o‘qituvchi tomondan bir tomonlama ravishda o‘quvchilarda insoniylik ruhiyatini shakllantiruvchi “ruhiyat injenerlari” kabi avtoritar yondoshuvi) bo‘lishining oldi olinadi. O‘quvchilar esa tarbiya jarayonining teng ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan subyektlariga aylanib boradilar.

5. Tarbiyachi – pedagogning kasbiy mavqeini o‘rganib borish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu tadqiqot tizimi tarbiyachi – pedagog faoliyati to‘g‘ri anglangan jarayonmi (yoki u o‘z vazifasini nomigagina bajarayotgan jarayonmi?) va tarbiyachi pedagogda qanday kasbiy qadriyatlar shakllanganligini (bu qadriyatlar unda mavjudmi yoki o‘qituvchida befarq tushkunlik ustivormi? - degan savollarga javoblarni) aniqlashga yordam beradi.

O‘zib borayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash hozirgi jamiyatning dolzarb vazifalaridan biridir. Insondagi o‘zidan begonalashuv jarayoni olidini olish va unda barkamol shaxsni shakllantiruvchi bilim, ko‘nikmalarni tarbiyalab borish jarayoni o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. U insonlar tomonidan bu yo‘lda zarur moddiy–texnika bazani yaratish va ma‘naviy sog‘lom muhitni shakllantirish bo‘yicha juda ko‘p zahmat chekishni taqozo qiladi. Shu bilan birga ushbu ulkan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida o‘qituvchining

yuqori kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda uning samarali kasbiy mavqei ta'sirining ijobiyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar tahlilidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni keltirish mumkin bo'ladi:

1. Tarbiyachi - pedagogning samarali kasbiy mavqei bolalar ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishining muhim shartlaridan biridir. Bu tafakkur va faoliyat birligi natijasida yuzaga keladi va unda faoliyat tafakkur qadriyatlarining nazariy asoslarini real amalga oshirishga yo'l ochadi.

2. O'z kasbiga munosabat "nuqtayi nazari" tahlilidan kelib chiqqan holda pedagogik kasbiy mavqening quyidagi turlari tafsilotlarini alohida qayd etish mumkin bo'ladi: masofali, teng, kinetik va ijtimoiy turlar tafsilotlari. Ulardagi mezonlar esa yonida, birgalikda, o'zaro teng va ozgina oldinda kabi asoslar bilan belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonida insonparvar pedagogik mavqening shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat insonparvarlikka yo'naltiruvchi tarbiya, balki insonparvarlik asosida qurilgan faoliyat tizimidir. Aynan shu tizim o'qituvchi faoliyatidagi barcha pog'onalar va bo'g'inlar "yo'nalish – maqsad – vazifalari"ni, usul-vositalarini, talab-mezonlarini hamda shart-sharoitlarini belgilab beradi. Shunday qilib, tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchiga ta'siri insonparvarlik qadriyatlari bilan to'la sug'orilgan holda borishi kerak. Bu o'quvchining aqliy barkamol, axloqiy pok va jismoniy sog'lom bo'lishiga zamin yaratishi lozim bo'ladi.

4. O'qituvchida bolaga nisbatan insonparvarlik qadriyatlari asosida munosabatda bo'lish va uning kasbiy mavqeida insonparvarlik mavqei sifatida shakllanib borishi tarbiyaning samarali bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki bunda ushbu samarali kasbiy pozitsiya tarbiya jarayonini ijobiy boshqarish mexanizmiga aylanadi. Bu yerda tarbiya jarayonida "nomiga – rasmiy" va "yuqoridan pastga" yo'nalgan munosabatlar (o'qituvchi tomondan bir tomonlama ravishda o'quvchilarda insoniylik ruhiyatini shakllantiruvchi "ruhiyat injenerlari" kabi avtoritar yondoshuvi) bo'lishining oldi olinadi. O'quvchilar esa tarbiya jarayonining teng ta'sir kuchiga ega bo'lgan subyektlariga aylanib boradilar.

5. Tarbiyachi – pedagogning kasbiy mavqeini o'rganib borish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu tadqiqot tizimi tarbiyachi – pedagog faoliyati to'g'ri anglangan jarayonmi (yoki u o'z vazifasini nomigagina bajarayotgan jarayonmi?) va tarbiyachi pedagogda qanday kasbiy qadriyatlar shakllanganligini (bu qadriyatlar unda mavjudmi yoki o'qituvchida befarqlik va tushkunlik ustivormi? - degan savollarga javoblarni) aniqlashga yordam beradi. Ushbu ilmiy maqolamizda keltirilgan ma'lumotlar va olingan natijalar bo'yicha qilingan xulosalar pedagogik faoliyatni diagnostika qilish, uning motitoringini o'tkazish hamda o'qituvchi-pedagoglarning muntazam o'z kasbiy mahoratlarini oshirib borishlariga qaratilgan tadbirlarda, seminar-treninglarda, oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv kurslari va maxsus kurslarda foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. Пронина Е.Н., Лукашевич В.В. Психология и педагогика // Учебник для студентов ВУЗов. – М.: "Элит", 2014.
2. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Михенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика. – Москва: "Школьная пресса", 2014.
3. Котов В. Воспитательная работа в школе: опыт и проблемы. – СПб.: Сев.сияние, 2003.
4. Ziyomhammadov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot // Ma'naviyat asoslari darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. – T., 2011.
5. Xo'jayev N. va boshqalar. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan", 2012.
6. Амонашвили Ш. Личностно-гуманная основа педагогической профессии. -Минск, 2012.–С 27.
7. Bekmurodov A. va b. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida.1-qism. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. – T.: TDIU, 2015.
8. Боровиков Л.И. Как подготовить самоанализ профессиональной деятельности//Воспитание школьников. - 2004. - №5.
9. Rahimov. B. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy madaniy munosabatlarning shakllanishi // Nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 2004.
10. Rajabova S. Kasb-hunar kolleji o'qituvchisining kasbiy mahoratini oshirishning tashkiliy pedagogik asoslari // Nomzodlik dissertatsiyasi. -T., 2004.
- 11.Nuriddinov B. Kasb ta'limi o'qituvchilari malakasini oshirishda faol o'qitish metodlaridan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari // Nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 2002.

Xilola XAYDAROVA

O'zbekiston Milliy universiteti
pedagogika va umumiy psixologiya
kafedrası doktoranti (DSc)

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA OTA-ONALARNING VIRTUAL- PEDAGOGIK MADANIYATINING NAMOYON BO'LIH SHAKLLARI

Ushbu maqola axborotlashgan jamiyat sharoitida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatining namoyon bo'lish shakllariga bag'ishlangan bo'lib, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi tarqatilayotgan axborot hajmining ortishiga, jamiyat muhitidagi axborot mazmunining murakkablashishi bayon etilgan. Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatining namoyon bo'lish shakllarini o'rganish bir necha bosqichda amalga oshirilishi, o'qitishda ota-onalarning ehtiyojlarini aniqlash, uni tashkil qilish uchun resurslarni izlash, rejalar, dasturlar tuzish, natijalarni baholash alohida qayd etilgan.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, oila, ota-onalar uyushmasi, virtual madaniyat, ta'lim-tarbiya masalalari, farzandlar, pedagogik madaniyat, internet, onlayn kundalik, onlayn konferensiya, onlayn konsultasiya, media kutubxona, elektron portfel, masofaviy ta'lim, Virtual ko'zgu.

Статья посвящена формам проявления виртуально-педагогической культуры родителей в контексте информированного общества и анализируется как одна из актуальных проблем современности. Также утверждается, что формирование информированного общества увеличивает объем распространяемой информации, сложность содержания информации в социальной среде. Изучение форм проявления виртуальной педагогической культуры родителей должно осуществляться в несколько этапов: выявление потребностей родителей в образовании, поиск ресурсов для его организации, разработка планов, программ, оценка результатов.

Ключевые слова: информированное общество, семья, родительская ассоциация, виртуальная культура, проблемы образования, дети, педагогическая культура, интернет, онлайн-дневник, онлайн-конференция, онлайн-консультация, медиа-библиотека, электронное портфолио, дистанционное обучение, виртуальное зеркало.

This article is devoted to the forms of expression of virtual-pedagogical culture of parents in the context of an informed society and is analyzed as one of the current issues of today. It is also stated that the formation of an informed society increases the volume of information disseminated, the complexity of the content of information in the social environment. The study of forms of expression of virtual pedagogical culture of parents should be carried out in several stages, identification of needs of parents in education, search for resources for its organization, development of plans, programs, evaluation of results.

Key words: informed society, family, parent association, virtual culture, educational issues, children, pedagogical culture, internet, online diary, online conference, online consultation, media library, e-portfolio, distance learning, Virtual mirror.

Kirish. Hozirgi davr jamiyati murakkabligi, beqaror rivojlanishi, turli-tuman ziddiyatlar va ixtiloflar bilan yo'g'rilganligi bilan farq qiladi. Bunday sharoitda XXI asrga yo'naltirilgan prognostik mulohazalarga qiziqish kuchayadi. Aynan bu kabi kontekstda jahon taraqqiyotining rivojlanish yo'llarini belgilovchi axborotlashgan jamiyatning shakllanishi o'rganiladi. Jamiyatning yangi – axborotlashgan holati genezisi – deyarli umume'tirof etilgan mavqega erishdi. Axborotlashgan jamiyatning vujudga kelish jarayoni axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadi. XX asrning ikkinchi yarmida axborot ustuvorligi rivojlanish resursi sifatida ajraladi. Agar axborot jamiyat rivojlanishining avvalgi bosqichida hal qiluvchi rol o'ynamagan bo'lsa, endilikda vaziyat tubdan o'zgardi.

Asosiy qism. Axborot rivojlanishning "yordamchi" omilidan istiqboldagi resurslardan biriga aylanmoqda. Axborot modda va energiyani birmuncha to'ldirgan holda inson faoliyatining tuzilishi va tasnifiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalar faqatgina biz yaratayotgan mahsulotlar va ko'rsatayotgan xizmatlarimizgagina ta'sir qilib qolmay, balki bizning bo'sh vaqtimizni qanday o'tkazishimizga hamda o'z fuqarolik burchimizni qay tarzda amalga oshirishimizga ham ta'sir o'tkazadi. Ular jamiyatning jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida, iqtisodiyotda, demokratiyaning rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Axborotlashgan jamiyat qandaydir ideal tarzdagi kelajakning mavhum, mushohadaga asoslangan loyihasi emas, balki u aniq, obyektiv belgilarga egadir. Bunday vaziyatda axborot, axborot texnologiyalari ko'plab tadqiqotchilar e'tiborining obyektiga aylanadi. Undan tashqari, axborotlashgan jamiyat, jahon telekommunikatsiya

bozorining, Internetning rivojlanishi mavzusi mamlakatimiz va xorijda chop etilayotgan yetakchi jurnallar sahifalaridan tushmayapti. Ushbu mavzuga bag'ishlangan ulkan hajmdagi axborotni Internet saytlaridan olish mumkin.

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi tarqatilayotgan axborot hajmining ortishiga, jamiyat muhitidagi axborot mazmunining murakkablashishiga olib keladi. Shu bilan birga axborotning aylanishi, saqlanishi va uzatish jarayoni, shuningdek, yangi axborotning doimiy oqimi sotsial subyektlarida atrofdagi tabiat va jamiyat dunyosi bilan uzluksiz ravishda axborot aloqasida bo'lishiga zaruriyat tug'diradi. Boshqa tomondan axborotni uzatish vositalari, kelayotgan axborotning shakli va mazmuni odamlar ongiga to'g'ridan-to'g'ri va yashirincha katta ta'sir qilgani potensialiga ega bo'lib, alohida odamlar va omma psixologiyasiga ta'sir qiladi. Bunday ta'sir muntazam ortib boradi. Bu holat jamiyatning axborot xavfsizligi sohasidagi muammolarni aks ettiradi va axborot muhiti, vositalari hamda axborotni uzatish usullarining, ayniqsa ommaviy axborot vositalarining kuchini o'rganish dolzarb masala sifatida ko'ndalang qo'yiladi.

Hozirgi kunda dunyodagi OAVlarning turli g'oyalarga moslashuvchanlikdagi roli qandaydir xavf haqidagi hissiyotlarni keltirib chiqarmoqda. Chunki ko'pgina mualliflar OAVlarni mahsulot axborotlashgan qurol bo'lib qoldi deb hisoblasalar, ba'zilar uni "to'rtinchi hokimiyat" sifatida ko'rmoqdalar. Shuning uchun ham axborotdan turli maqsadlarda foydalanish muammolari jamoatchilikda asoslangan qo'rquvni keltirib chiqarmoqda. Bu holat axborotlashgan jamiyatda ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatining namoyon bo'lish shakllarini tadqiq qilish dolzarbligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307 son Qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2019-yil 31-dekabrda tasdiqlandi. Ushbu Konsepsiyada ota onalarning farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan alohida chora-tadbirlarga e'tibor berilgan.

Shuningdek, oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida: bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish; mahallalardagi "Ota-onalar universitetlari"da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo'yicha treninglar o'tkazish; "Tarbiya maktabi" rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko'rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo'llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish; uzluksiz ma'naviy tarbiya amaliyotida to'plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida "Yosh ota-onalar kitobi" va boshqa metodik qo'llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo'lga qo'yiladi. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, hududlar bo'yicha oilalarda sog'lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini o'rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ'ibot tadbirlari va treninglar o'tkaziladi [2].

Ota-onalar farzandlarining birinchi tarbiyachilari va o'qituvchilari hisoblanadi. Jamiyatning bir bo'g'ini bo'lgan oilada bolaning jismoniy, aqliy, hissiy rivojlanishi ta'minlanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"- deb belgilab qo'yilgan [1].

Oila a'zolarining ta'lim darajasi, manfaatlari farzandlarning intellektual rivojlanishiga, madaniyatning qaysi qatlamlarini o'rganishiga, ta'limni davom ettirish va o'z-o'zini tarbiyalashga intilishiga ta'sir qiladi. Oila insonning ijtimoiy me'yorlarni egallashida muhim ahamiyatga ega, insonning ijtimoiy va millatlararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan asosiy qadriyat yo'nalishlarini shakllantiradi, shuningdek, uning turmush tarzini, intilish doiralari va darajasini, hayotiy intilishlarini, rejaları va ularga erishish yo'llarini belgilaydi. Oilaning qadriyatlari va muhiti uning o'zini o'zi rivojlantirish uchun muhit va uning a'zolarini o'zini o'zi anglash maydoniga aylanishini belgilaydi. Oilada ota-onalar o'z farzandlariga o'rnak daraja bo'lishi, oilasi farzandlari uchun kerakli faoliyat bilan shug'ullanishi, ertadan-kechgacha internet, kompyuter, televizor oldida behuda vaqt o'tkazmasligi, har bir narsadan me'yor jihatidan foydalanishni amaliy tarzda ko'rsa bilishi kerak. Har bir ota-onalar oilasida rejali ish yuritilishini, ma'lum soatda farzandlari kerakli narsani ko'rishi, eshitishi va o'qishini nazoratga olishi (albatta virtual nazorat) shart. Axborot va matbuot vositalarida ma'lumotlar ko'pligi, ularni foydali tomonlaridan kengroq foydalanishni va zararlilaridan chetlashishni ota-onalar oila a'zolariga dasturulamal qilib berishi zarur [5].

Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki jamiyatimiz rivojlanishining ajralmas qismidir. Ta'limning barcha darajalarida davlat ta'lim standartlarini joriy etish, ikkinchisining ota-onalik qobiliyatini oshirish va bolalarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish maqsadida o'quv tashkilotlari o'quvchilarining oilalari bilan faol o'zaro aloqalarining yangi usullarini izlashni talab qiladi.

Ota-onalarning pedagogik, psixologik, huquqiy, sog'liqni saqlash sohasidagi vakolatlari, AKT masalalari bola taqdiri uchun javobgarlikni shakllantirish, maktab taqdirida yetarli darajada idrok etish va shaxsan ishtirok etish uchun raqib sifatida emas, balki ittifoqchi sifatida ish yuritish talab etiladi. O'z intellektual salohiyatini oshirish ota-onalarga ta'lim jarayonining to'liq ishtirokchilari bo'lishiga imkon beradi.

Bugungi kunda birinchi bosqich maktabida ota-onalar bilan ishlash uchta yo'nalishda amalga oshiriladi - ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki, o'quv jarayonini boshqarishda ishtirok etish va ota-onalar tarbiyasi doirasida ularning vakolatlarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki ota-onalarning ochiq darslarda va sinfdan tashqari ishlarda muntazam qatnashib turishini o'z ichiga oladi. Butun oila, maktab va mahalla faoliyatida, oilaviy loyihalarda, bolalar va ota-onalar uchun ijod kunlarining bevosita ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Ta'lim jarayonini boshqarishda ota-onalarning ishtiroki ham muhim sanaladi. Bunday holda, ota-onalar maktab kengashi, maktab vasiylar kengashi, ota-onalar sinf qo'mitasi va jamoat nazorati qo'mitasi ishlarida ishtirok etadilar, ota-onalar yig'ilishlarini, tarbiyaviy va sinfdan tashqari ishlarni tashkil qiladilar. Ota-onalar boshqa ota-onalar yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslar bilan muntazam o'zaro aloqada bo'ladilar. Hatto ular o'z shaxsiy tashabbuslari asosida to'garaklar, seksiyalar, klublar, teatr va musiqa studiyalarini tashkil qilishlari ham zarur hisoblanadi.

Individual va jamoa tarzida amalga oshiriladigan ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini oshirish bugungi kunda eng ko'p mehnat talab qiladigan yo'nalishdir. Ota-onalar bilan ishlash arsenaliga individual konsultatsiyalar, treninglar, suhbatlar, bolani uyda ko'rish, ota-onalar yig'ilishlari, pedagogik ma'ruzalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ota-onalar universitetlari kiradi. Birinchi bosqich maktablari uchun an'anaviy bo'lgan tarbiyalash muammolariga bag'ishlangan ota-onalarning yillik yakuniy ilmiy-amaliy konferensiyalari o'quv yili davomida juda ko'p mehnatsevarlikni talab qiladi. Bunday anjumanlar uchun ota-onalar ishtirokidagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning monitoringi, fotosuratlar, kitob stendlari, o'quvchilarning ish ko'rgazmalari, musiqiy dasturlar, maktabga ekskursiyalar, ota-onalar uchun konferensiya mavzusida tavsiyalar tayyorlanmoqda. Pedagogik ma'ruza xonasida tarbiyaning zamonaviy muammolariga ota-onalar e'tiborini jalb qilish maqsadi ko'zlangan. Ushbu shakl ota-onalarni ta'lim nazariyasi asoslari to'g'risida tizimli bilimlar bilan jihozlashni o'z ichiga oladi. Bunday pedagogik universal ta'lim parallel sinflarni birlashtirishi mumkin. Ko'pgina maktablarda ota-onalar uchun pedagogik bilimlar universitetlari mavjud bo'lib, ular ma'ruzalar va pedagogik universal ta'lim bilan taqqoslaganda, tarbiya nazariyasini o'zlashtirish uchun ota-onalar bilan ishlashning ancha qiyin shakli hisoblanadi. Universitetlar ma'ruza kurslari bilan bir qatorda seminarlarni ham taklif qilmoqdalar. Albatta, har bir ota-ona auditoriyasi ushbu shaklda ishlashga tayyor emas. Va ko'pincha maktablarda soddalashtirilgan "Ota-onalar universitetlari"ni tashkil etish tajribasi boshqa davlatlarda mavjud.

Ochiq eshiklar kuni katta tayyorgarlikni talab qiladi. Ammo bugungi kunda ushbu shakl deyarli har bir ta'lim muassasasida qo'llaniladi va bunday tadbir uchun juda ko'p ssenariylar mavjud. Ota-onalar yig'ilishlari - tashkiliy, joriy, tematik, yakuniy, maktab miqyosidagi, sinf yig'ilishlari, ularning barchasi ota-onalar bilan umumiy va oilada va ta'lim muassasasida bolalarni tarbiyalashning dolzarb masalalarini muhokama qilishga qaratilgan. Sinfdagi ota-onalar yig'ilishlari an'anaviy ish shakli bo'lib, yig'ilishlarni o'tkazish metodikasini takomillashtirish kerak. So'nggi yillarda ota-onalar bilan hamkorlikning yangi shakllari paydo bo'ldi: seminar-treninglar, pedagogik yashash xonalari, pedagogik brifinglar, ota-onalar klublari, o'quvchilar konferensiyasi, kim oshdi savdosi, ishbilarmon o'yin, davra suhbatlari, master-klass, pedagogik laboratoriya va boshqalar shular jumlasidandir. O'qituvchilar oilaviy ta'lim va tashqi ta'lim sharoitida individual ta'lim dasturlari bo'yicha o'qiyotgan bolalarning ota-onalariga hamrohlik qilishadi.

Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatining namoyon bo'lish shakllarini o'rganish bir necha bosqichda amalga oshiriladi: o'qitishda ota-onalarning ehtiyojlarini aniqlash, uni tashkil qilish uchun resurslarni izlash, rejalar, dasturlar tuzish, natijalarni baholash shular jumlasidandir. O'qituvchi ota-onalarni o'qitish dasturlari uchun material tanlaydi, bu bola shaxsining psixologik-pedagogik xususiyatlarini o'rganishga asoslangan, bolalarning yosh xususiyatlariga, ota-onalarning in'ikosiga mos keladi. O'qituvchi dasturning ma'lum bir bo'limining ta'lim maqsadlariga muvofiq ravishda ota-onalar bilan mashg'ulotlarni quradi, dasturda ko'rsatilgan vazifalarni hal qilishga hissa qo'shadi.

O'zgaruvchanlik ta'lim va tarbiya masalalarida oilalarni qo'llab-quvvatlash texnologiyalarida, har bir o'qituvchi tomonidan ma'lum bir ta'lim muassasasining ehtiyojlari va vazifalari, pedagogik kompetensiyani

oshirish jarayonining mazmuni asosida mualliflik dasturini yaratish imkoniyatida amalga oshiriladi. Turli yosh toifasidagi ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini oshirish uchun belgilangan o'quv materiallarni mustaqil ravishda tizimlashtirish qobiliyati, tarbiyaning turli shakllaridan, o'qitish metodlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish uchun ota-onalar ta'limini tashkil qilishning turli texnologiyalaridan foydalanishi mumkin: bola rivojlanishining turli bosqichlarida oilaviy ta'lim jarayonini doimiy psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash, iloji bo'lsa, barcha oila a'zolarini ta'lim muammolarini hal qilishga jalb qilishdan iborat.

Bolalarni tarbiyalashda oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari va texnologiyalari ota-onalarning har bir guruhi uchun ajratilgan: yoshi, ma'lumoti, ota-onaning kasbi, oilaning tarkibi va turi, bolani tarbiyalash bo'yicha individual talab hisoblanadi. Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini oshirishga qaratilgan yondashuv ulardan jiddiy nazariy, ijodiy tayyorgarlik uchun juda ko'p vaqt talab qiluvchi jarayondir. Bunday tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish uchun katta vaqt sarflanishi har doim ham o'zini oqlamaydi. Hamma ota-onalar ish bilan bog'liq tavsiya yetilgan tadbirlarda qatnashmaydi. Odatda yiliga 3-4 marta o'tkaziladigan ota-onalar vakolatlarini sifat jihatidan oshirish va maktab miqyosidagi tadbirlarga mutaxassislarini taklif qilish masalasi hal qilinmaydi.

Ko'p o'qituvchilar ota-onalar bilan deklarativ muloqot usulini, oilaga ta'sir ko'rsatishning xarakterini, bir xil ish shakllarini - suhbatlar, ota-onalarning an'anaviy yig'ilishlarini tanlashni davom ettirmoqdalar va bu ota-onalarning qiziqishlariga, ota-onalar yig'ilishlarida qatnashishni istamasligiga olib keladi.

Bugungi kunda o'quv jarayonida telegramm kanallar, onlayn konsultatsiyalar, onlayn kundaliklar, elektron kitoblar, interaktiv ta'lim, masofaviy o'qitish axborot ta'limi texnologiyalari jadal rivojlanib, o'z o'rnini egalladi. Pedagogikadagi yangi axborot texnologiyalari ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishning an'anaviy shakllarini sezilarli darajada takomillashtirishga imkon beradi: turli yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning turli masalalarini muhokama qilishga bag'ishlangan ma'ruzalar, suhbatlar va boshqalar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari tufayli oilalarga yordam berish juda samarali va o'z vaqtida amalga oshiriladi. Sayt, mobil ilova ota-onalarga bolani tarbiyalash, oilada vujudga kelgan muammolar to'g'risida o'z vaqtida maslahat bera oladi va shu sababli ta'lim jarayonining bevosita ishtirokchilari bo'lgan ota-onalarning vakolatlarini oshiradi.

Muhokamalar va natijalar. "Ota-onalar uchun ta'lim" veb-sayti - pedagogik, psixologik, ijtimoiy, shaxsiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, huquqiy, AKT masalalarida birinchi bosqichda o'quvchilarning ota-onalari uchun innovatsion loyihalar yaratilmoqda.

Saytning asosiy vazifalari:

- istalgan vaqtda yordam so'rashi mumkin bo'lgan ota-onalar uchun doimiy, ochiq kirish joyini yaratish;

- ota-onalar uchun pedagogik, psixologik, huquqiy, tibbiyot, AKT va ijtimoiy sohalarida yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda axborot, maslahat va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish;

- ota-onalar uchun ta'limning normativ hujjatlari bazasini yaratish;

- ota-onalar uchun modulli kurslar bazasini yaratish;

- birinchi darajali maktab o'quvchilarining ota-onalari uchun masofaviy modulli treningni o'tkazish (barcha toifadagi ota-onalar va oilalar turlari uchun);

- masofaviy, oilaviy musobaqalarni, loyihalarni tashkillashtirish va o'tkazish;

- ota-onalarning elektron portfelini yaratish;

- ota-onalar jamoasini yaratish va shakllantirish;

- masofaviy ota-onalar klublarini tashkil etish;

- birinchi bosqich maktabida parallel ravishda masofadan turib ota-onalar uchrashuvlarini tashkil etish va o'tkazish;

- boshqa saytlar va boshqa mamlakatlarning ta'lim hamjamiyati vakillari bilan hamkorlikni tashkil etish.

Saytning asosiy qismida tashkilotchilar, ota-onalar, o'qituvchilar, mutaxassislar, sheriklar haqidagi ma'lumotlar, sharhlar mavjud bo'ladi. Ushbu bo'limda siz masofaviy ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun o'z ishlarini rejalashtirishga yordam beradigan tadbirlar taqvimini topishingiz mumkin, shuningdek masofaviy modulli kurslarda qatnashgan va loyihalarda, tanlovlarda, ota-onalar yig'ilishlarida qatnashganlar uchun minnatdorchilik va sertifikatlarni joylashtirilgan bo'ladi. Birinchi bosqich maktab o'quvchilarining ota-onalari uchun "Media kutubxonasi" bo'limida maktab va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning me'yoriy-huquqiy bazasi taqdim etilgan bo'lib, bu oila va oila o'rtasidagi hamkorlikning boshlanish bosqichida muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bugungi kunda ta'lim xizmatlarining ijtimoiy

mijozlari, bolaning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchilardir, ular ta'lim sifati bo'yicha mutaxassis bo'lishi mumkin. Maktab tizimi ota-onalarning ta'lim tashkilotining ustavida nazarda tutilgan vasiylik kengashi, menejment, kuzatuv kengashlari va boshqa kollegial boshqaruv organlarida ishtirok etishini ta'minlaydi. "Media kutubxonasi" bo'limida ota-onalar "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi", "O'zbekiston Respublikasida ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Davlat ta'lim standartlari"ni o'rganishlari mumkin. Shuningdek, ular asosiy ta'lim manbalariga foydali havolalarni topishingiz mumkin. Mutaxassislarning ushbu hujjatlar va manbalar haqidagi sharhlari ota-onalarga ta'limning ko'plab zamonaviy tushunchalarini va ta'lim muassasasi bilan huquqiy munosabatlarni tushunishda yordam beradi.

"Ota-onalar yig'ilishlari" bo'limida ular ota-onalarning tematik yig'ilishlariga onlayn tarzda tashrif buyurishlari mumkin: "Oilaviy tarbiya", "Birinchi sinfga moslashish davri", "Maktabda o'rganish", "Maxsus bolalar", "Kasb-hunar taqdirini belgilash birinchi bosqich maktabi", "Hissiy intellektni rivojlantirish" va boshqalar. Shuningdek, ushbu bo'limda bolalarning yoshi bo'yicha ota-onalar yig'ilishlari materiallari keltirilgan bo'lib, bu birinchi bosqich maktabining ota-onalariga bugungi kunda tarbiya masalalari bilan shug'ullanish va kelajakka qarashga imkon beradi. Ota-onalar bir necha marotaba materialni ko'rishlari mumkin, materialning vizual qo'shimchalari prezentatsiyalar, videofilmlar shaklida uni o'zlashtirishga va amalda qo'llashga yordam beradi. Saytda ota-onalar materialni sharhlashlari, o'zlarining tajribalari haqida gaplashishlari va ota-onalar va pedagogik jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Bularning barchasi ota-onalarning to'g'ri pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi, bu bolaning maktabga borgan birinchi yillarida juda muhim hisoblanadi. Saytda ota-onalar klublari tashkil etiladi: "Oila", "Olimlar fikri", "Virtual ko'zgu", "Kasb-hunarga ko'rsatma", "Otalar klubi", "Bizning ijodimiz", "Buvilar va bobolar klubi". Ushbu bo'limning asosiy vazifasi ota-onalarga o'zlarini pedagogik madaniyat asoslari bilan qurollantirish, pedagogik fikrlashni rivojlantirish, ularning imkoniyatlarini ko'rish, bolalarni tarbiyalash uchun mas'uliyatni his qilish va shu sababli ma'naviy jihatdan boy, axloqan pok va jismonan sog'lom bo'lib yetishishlari uchun sharoit yaratishdir.

Klublar faoliyati ma'lum bir vaqtda suhbatda amalga oshiriladi va ota-ona rishtasi shaklida bo'lib, ular farzandlarini tarbiyalashda turli vaziyatlarni muhokama qilishi, ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish tajribasini taqdim eta olishi va turli fikrlar bilan tanishishi mumkin.

"Ota-onalar uchun portfel" bo'limida ota-onalar farzandiga shaxsiy yutuqlar portfelini to'g'ri tashkil qilish va to'ldirishda qanday yordam berish kerakligi haqidagi savolga nafaqat javob topadilar, balki onlayn tarzda shaxsiy maslahatlashuvlardan so'ng ota-onalar o'z oilasini yoki o'zlarining shaxsiy portfelini tashkil qilishlari mumkin. Bu ishda bobo va buvilar ishtirok etishi talab etiladi. "Tanlovlar" bo'limida ota-onalar "Men o'qimishli ota-onaman" tanlovida qatnashishlari mumkin, ularning maqsadi bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning malakasini oshirishdir. Ota-onalar bir yoki bir nechta nominatsiyalarda ishtirok etishlari kerak bo'ladi.

Xulosa ularning har biri uchun amalga oshiriladi. Taxminlarga ko'ra, tanlovda ishtirok etgandan so'ng, ota-onalar o'z farzandida o'rganilgan muloqot algoritmini har kuni amalda qo'llashlari, oilada do'stona muhitni saqlab qolishlari mumkin. "Kadrdagi pedagogik jarayon" ijodiy tanlovida butun oila ishtirok etishi shart. Bu tanlov uchun oiladagi tarbiya jarayoni lahzalarini aks ettiruvchi fotosuratlar kerak bo'ladi. Bunday asarlarning mualliflari barcha oila a'zolari bo'lishi mumkin. "Loyihalar" saytining alohida bo'limidir. Uning tarkibi "Men farzandim haqida risola yozayman" kabi elektron nashriyot loyihalari va "Ota-onalar uyushmasi" jurnalidan iborat bo'ladi. Ushbu loyihalarda faqat ota-onalar muallif rolini o'ynaydilar xolos. "Ota-onalar g'oyalari festivali" loyihasida ota-onalar farzandlar tarbiyasida o'zaro fikr almashishlari maqsadga muvofiq.

Masofaviy modul kurslari "Ota-onalar uchun ta'lim" veb-saytida tashkil etiladi. Ota-onalar uchun masofaviy modulli kurslar muntazam ravishda olib boriladi. Shuningdek, nazariy asoslangan dasturlar ishlab chiqiladi va ular asosida bilimlarni uzatiladi, dastur ishtirokchilari o'rtasida tegishli g'oyalar yoki ko'nikmalar shakllantiriladi. Birinchi bosqich maktab o'quvchilari oilaviy ta'limining turli yo'nalishlari bo'yicha qiziqarli va samarali ishlarni tashkil etishga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Birinchi darajali maktab o'quvchilarining ota-onalari uchun masofaviy modulli kurslar ota-onalar vakolatlari, nomi bilan tematik bloklarga birlashtirilgan bo'lib, ular quyidagilar: pedagogik, psixologik, ijtimoiy, shaxsiy, sog'liqni saqlash, qonuniy, AKT muammolari.

Bugungi kunda saytda olib borilayotgan bunday ishlar ota-onalar uchun nimalar yetishmasligini tushunishga imkon beradi, ammo o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi an'anaviy aloqa bekor qilinmaydi. Ushbu aloqa jarayoni ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini oshirish uchun interaktiv usullarga o'tishga, dasturlarni individualizatsiya qilishga yordam beradi.

"Ota-onalar uchun ta'lim" veb-saytida doimiy ravishda onlayn treninglar, onlayn seminarlar, onlayn konferensiyalar, onlayn konsultatsiyalar, festivallar, tanlovlar va elektron portfel bilan ishlash kabi ruknda

o'tkaziladi. Ota-onalar esa o'zlarining ijodiy ishlarda o'z farzandlari haqida risola, qo'llanmaning bir qismini yozishlari va onlayn dasturlarda qatnashishlari kerak bo'ladi. Xususan, masofaviy ta'lim texnologiyasi birinchi darajali maktab o'quvchilarining ota-onalari uchun ma'lumot olish jarayonini optimallashtirish va soddalashtirishga imkon beradi. Bu esa, ota-onalar ma'ruza materialini interaktiv tarzda o'rganishlari, shu bilan birga o'rganish uchun qulay vaqt va yaxshi kayfiyatni tanlashlari mumkin. O'qituvchilar o'z navbatida ma'ruzaning yanada ko'rgazmali, tushunarli bo'lishiga imkon beradi, pedagogika, psixologiya, huquq, AKT, sog'liqni saqlash sohasidagi yetakchi mutaxassislarni o'z ishlariga jalb qiladi, masofadan o'qitishni tashkil qiladi va, eng muhimi, ota-onalarning fikr-mulohazalarini o'rganadi. Bunday ma'ruzalarda zamonaviy illustratsion ma'lumotlar mavjud, ular juda ko'p bo'lishi mumkin: videofilmlar, infografika, ma'lumotnomalar, dinamik tasvirlar shular jumlasiga kiradi.

Xulosa. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizday, saytdagi ish faoliyati qo'shma, individual, tadqiqot ishlariga bevosita moslashtirilishi lozim. Mamlakatimizda ota-onalar uchun tarbiyalashning bunday usullari endigina joriy etilmoqda. Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini oshirishning yangi yondashuvlari bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga asos bo'la oladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, "ota-ona-o'qituvchi-pedagog" darajasidagi o'zaro ta'sir evolyutsiyasi haqida so'z borar ekan, ta'lim sohasidagi yangiliklar, ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatining namoyon bo'lishi uchun tubdan yangi imkoniyatlar ochib beradi. Aynan bu yondashuv uchunchi renessans talablariga to'la javob bergan holda Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida zamin yaratadi, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2003. 63-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 31-dekabr 2019-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev. Mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalariga bag'ishlangan videoselektor ma'ruzasi. 12-fevral 2020-yil.
4. Taylaqova Sh. O'quvchi-yoshlar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. 2018 yil.
5. Shayx Muxammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar kitobi. -T.: "Hilol" nashriyoti, 2016-yil.
6. Xaydarova X.R. Ota-onalar virtual-pedagogik madaniyatining oiladagi ma'naviy muhitga ta'siri. "Maktab va hayot". Ilmiy-metodik jurnal. 2021 yil №2-soni, 13-15 betlar.

Хол ХУДАЙКУЛОВ

Доктор педагогических наук, профессор
Денауского института предпринимательства и
педагогике

Шарофат ЧОРИЕВА

Преподаватель русского языка и литературы
Денауского института
предпринимательства и педагогике

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СХЕМЫ “ПОЧЕМУ?” ПРИ ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧЕНИКОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

В данной статье предлагаем вашему вниманию использование одного из графических органайзеров, схемы “Почему?”, при эффективном формировании и развитии коммуникативной компетенции учеников на уроках русского языка и литературы. **Схема “Почему?”** - это, целая цепочка рассуждений по выявлению исходной причины проблемы, которая развивает и активизирует системное, творческое, аналитическое мышление.

Ключевые слова: средства обучения, графические органайзеры, Схема “Почему?”.

Ushbu maqolada biz sizning e'tiboringizga rus tili va adabiyoti darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali shakllantirish va rivojlantirish bilan birga grafik tashkilotchilaridan biri “Nega?” sxemasidan foydalanishni taklif etamiz. Nima uchun? tizimli, ijodiy, analitik tafakkurni rivojlantiruvchi va faollashtiradigan muammoning asl sababini aniqlash uchun butun fikrlash zanjiri.

Kalit so'zlar: o'quv qurollari, grafik tashkilotchilar, “Nega?”

In this article, we bring to your attention the use of one of the graphic organizers, the “Why?” Scheme, with the effective formation and development of the communicative competence of students in the lessons of the Russian language and literature. Why? is a whole chain of reasoning to identify the original cause of the problem, which develops and activates systemic, creative, analytical thinking.

Key words: teaching aids, graphic organizers, Scheme “Why?”

Методы обучения, средства, формы и технологии обучения, их разграничение, отличие не всегда понятны, но практика показывает последовательное изучение методов, средств, форм и технологий обучения приводит к более осознанному и успешному внедрению данных компонентов в обучении.

Основной целью обучения русскому языку является формирование и развитие коммуникативной компетенции учеников, обучение практическому овладению русским языком. Современные средства обучения позволяют активизировать познавательную деятельность учеников, развивать их творческие способности. Задача учителя состоит в том, чтобы создать условия практического овладения языком для каждого учащегося, выбрать такие методы и средства обучения, которые позволили бы каждому ученику проявить свою активность, своё творчество.

Средства обучения – это оборудование, вспомогательные обучающие средства и учебно-методические материалы, обеспечивающие иллюстрацию и визуализацию учебного материала, его понимание и запоминание и дающие возможность для самостоятельного закрепления и применения учебного материала [3, 65]. Если методы обучения отвечают на вопрос “как учить?”, то средства “с помощью чего учить?” [7, 80]

Средства обучения занимают не мало важное место в процессе обучения и являются его неотъемлемой частью. И учителю следует использовать не только основные средства обучения, которые являются обязательными, но и вспомогательные средства, а именно графические органайзеры, использование которых способствует эффективному формированию коммуникативной компетенции.

Графические органайзеры – это информация на листе бумаги, доске (или экране технических средств), которые используются для улучшения запоминания, усвоения, анализа или применения усвоенного.

Графическое представление информации способствует развитию умения работать с текстом: позволяет учиться формулировать главную мысль, выделять ключевые слова, делить текст на структурные части. Эффективность графических средств в образовании была доказана в 2003г. Институтом продвижения исследований в образовании (США), который опубликовал обзор 29 исследований использования визуальных средств обучения. В большинстве исследований речь шла именно о графических органайзерах. Ученые установили, что их применение улучшает:

- Улучшается запоминание информации – в том случае, когда она представлена как визуально, так и в текстовой форме.
- Улучшается понимание прочитанного.

- Растет успеваемость, в том числе у учеников, имеющих трудности в обучении.
- Улучшаются навыки критического мышления.

По способам и средствам выявления, анализа и решения проблем можно выделить схему “Почему?”, “Рыбий скелет”, “Цветок лотоса”, иерархическую диаграмму “Как?”, SWOT-анализ и др.

Схема “Почему?” -это, целая цепочка рассуждений по выявлению исходной причины проблемы. Развивает и активизирует системное, творческое, аналитическое мышление. [1, 76].

Выбор пиктограммы: кружки или прямоугольники; вид схемы – цепочки рассуждений: линейная, нелинейная, спираль (помещающая исходное) -свободный. Данной схемой можно воспользоваться работая над текстами с проблемой, которую можно проанализировать и решить.

Технология внедрения схемы “Почему?”

№	Этапы	Процесс	Обучаемый
1	Инструктаж (правила составления)	Обучающий объясняет сущность схемы “Почему?”, объявляет цели, задачи, правила и способы осуществления, чётко сформулировав задание. Указания на время и форму работы, ожидаемый результат, форму представления результата, критерии его оценки.	Участники знакомятся с правилами построения схемы “Почему?”
2	Обратная связь	Проводит актуализацию знаний с помощью вопросно-ответной беседы, с целью выяснения понимания задания.	Отвечают на вопросы. Спрашивают, уточняют.
3	Процесс работы	В данном случае заполнение схемы “Почему?”, в парах, группах либо индивидуально	Рисуют стрелку с вопросом “Почему?” и пишут ответы на этот вопрос. Процесс продолжается до тех пор, пока не будет установлена исходная причина проблемы.
4	Контроль	Обучающий наблюдает за ходом работы и направляет обучающихся. Контролирует успешность выполнения задания, культуру общения.	
5	Презентация результатов раб.	Организует презентацию группой экспертов отобранных идей решения проблемы и их обсуждение.	Спикеры групп или вся группа проводят презентацию. Защита своей работы и выводы.
6	Анализ и оценка	Обобщает, анализирует и оценивает работу групп. Итоговая оценка группы включает, как общий балл, так и индивидуальные баллы за самостоятельную работу.	Проводят самооценку
7	Выводы	Подводятся итоги	

Схема “Почему?” по сказке А.С.Пушкина “Сказка о рыбаке и рыбке” (6 класс, стр.126)



Сказка о нескончаемости человеческих желаний. Сколько бы человек не имел, сколько бы всего не мог себе позволить, чего бы не достиг - ему всегда будет мало, всегда будет чего-то не хватать. Такова природа людей. Произведение раскрывает понятие непомерной человеческой жадности и на примере сказочного сюжета показывает неотвратимость наказания алчности.

Схема “Почему?” по выявлению причины проблемного положения Стрекозы из басни И.А.Крылова “Стрекоза и Муравей” (6 класс, стр.125).




Муравей символизирует трудолюбие и не удивительно, ведь этот род славится своей работоспособностью, в любое время года они усердно трудятся. **Стрекоза** же напротив, ассоциируется с легкомыслием. Мораль **басни** проста: не хочешь зимой мерзнуть и голодать – работай летом.

Крылов осуждает праздность, нежелание думать о завтрашнем дне, стремление решать свои проблемы за счет других.

Заполнив таблицу, т.е. выяснив причину возникновения проблемы, читаем таблицу с конца и получаем решение проблемы. Если Стрекоза не была бы легкомысленной. Если она бы думала о будущем, то старалась бы не только веселиться, но и работать, жила бы не только нынешнем днём. Летом сделала бы запасы на зиму, и не голодала бы, и не попала бы в такое критическое положение.

Схема “Почему?” по рассказу К.Г.Паустовского “Кот-ворюга” (7 кл)



Выяснив причину возникновения проблемы, читаем таблицу с конца и получаем решение проблемы: если кот был бы домашним, его хозяин кормил бы, и он был бы сытым и нечего бы не воровал.

Схема “Почему?” - выявление причин поступков главных героев рассказа М.Горького “Старуха Изергиль” (9 класс).

Проблема: Ларра убивает девушку. Почему? - Потому что она оттолкнула его. - Почему она оттолкнула его? - Потому что она была дочь одного из старейшин, которые осудили его. Этот процесс продолжается, пока не определяют истинную причину проблемы.



В данном ГО очень важен обратный ход: Что было бы, если Ларра вырос в человеческом обществе? Может бы он ценил человеческую доброту и любовь. Если он ценил бы человеческую доброту, он любил бы людей. А если он любил людей, значит, он уважал бы их, и они бы не осудили его. А если не осудили, девушка, может, не оттолкнула бы его, и он не убил бы её, и они были бы счастливы.

Схема “Почему?” по рассказу А.П.Платонова “Юшка” (9 класс). Проблема: Юшка умер. Почему?



Схема раскрывает причину возникновения проблемы и важно после заполнения, читая с конца в условном наклонении, получить решение проблемы. Народ любит, и если бы сердце в людях не было бы «слепым», они бы не терзали бы Юшку. Если бы они не терзали он безответно не терпел бы всякое зло и насмешку. Если бы он не терпел бы, люди не смогли бы сваливать всю злобу и ожесточение на Юшку. Если бы они не сбрасывали бы на него всю злобу, прохожий не считал бы, что без него было бы веселее и не оскорбил бы его: «Чего ты землю нашу топчешь, божье чучело! Хоть бы ты помер...» Тогда Юшка не стал бы сравнивать себя с ним и ему незачем было толкать его. И тот не упал бы навзничь и может не умер бы. Учитель должен обратить внимание на то, что Юшка был тяжело больным и может быть он умер бы в тот день, но не таким образом, не на улице: без оскорблений, в кругу любящих людей.

Причина выбора данных текстов начиная с 6-ого класса, в том, что Схема «Почему?» можно использовать на третьем уровне усвоение обучающихся ЗСУД (знаний и способов учебной деятельности), т.е. в проверке эвристических умений: способность самостоятельно составлять алгоритм собственной деятельности и по нему вести творческий самостоятельный поиск добывание знаний, применять их в новой ситуации (выбор действия). В 6-9 классах в школах с узбекским языком обучения по программе введены темы: “Как сказать о причине действия», “Как сказать о цели и причине действия?” (7 класс, Стр.80,наречие причины). “Как указать на причину, условия (9 класс. Обстоятельство причины, условие. стр. 63-64).

Эксперименты показывают, что использование таких средств обучения повышает коммуникабельность в 20-30%, делает процесс обучения более эффективным и интересным, способствует развитию коммуникативной компетенции и позволяют:

1. Качественно усвоить теоретическую информацию ученикам, повысить эффективность обучения русскому языку в школах. Для преподавателей – сделать процесс изучения русского языка и литературы эффективным и творческим.

2. Структурировать в соответствии с направленностью учебного материала – тем способом, который наиболее подходит для данного типа информационного материала.

3. Сделать информацию максимально воспринимаемой и доступной для повторного использования на контрольных уроках.

4. Эффективно анализировать проблемы, структуры, схемы, теории, делая точные и расширенные выводы в изучении предмета.

А обучающийся, который понимает материал и может свободно изложить его, более компетентен и востребован.

Литературы

1. Александров К.В. В обучении иностранному языку: от новой формы к новому содержанию // Иностранные языки в школе, 2011, №5 - с. 15-20)

2. Гасилова Г., Мусурманова Ю. Русский язык: Учебник для 6 класса школ с узбекским и другими языками обучения. – ТГНИ “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017. – 176 стр.

3. Голиш Л.В. Проектирование и планирование педагогических технологий. Учебно-методическое пособие для тренинга. Изд.3-е, исправленное и полное.-Т.: ТГЭУ, 2012. 147 с

4. Исламбекова С.Ю. Русский язык: Учебник для 7 класса школ общего среднего образования с узбекским и другими языками обучения/ С.Ю.Исламбекова, У.Т.Яминова, З.Х.Абдураимова. Издание второе, переработанное. – Ташкент: ИПТД “Узбекистан”, 2017. – 176 стр.

5. Каримова Б.Т. Об использовании графических органайзеров на уроках. АО “Национальный центр повышения квалификации “Өрлеу” ИПК филиал по Павлодарской области”. 2017. -2 с.

6. Крупенина М.В. Энциклопедия педагогики. – Москва, 2009. -312 с.

7. Пидкасистый П.И. Педагогика. - М.: “Просвещение”, 1998. - с. 56

8. Рожнова М.Э. и др. Русский язык: Учебник для 8 класса школ общего среднего образования с узбекским и другими языками обучения/ М.Э.Рожнова, У.Т.Яминова. – Ташкент: “Узбекистан”, - 2014. – 160 стр.

9. Усманова Р. Русский язык: Учебник для 9 класса школ общего среднего образования с узбекским и другими языками обучения/ Р. Усманова и др. – Ташкент: ИПТД “Узбекистан”, 2019. – 160 стр.

10. Фар Берман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. – Ташкент, 1999. – 84 с.

Timur ERGASHEV

A.Avloniy nomidagi xalq ta'lim
muammolarini o'rganish va istiqbollarini
belgilash ilmiy-tadqiqot instituti
MMTB kichik ilmiy xodimi

BOSHQARUVNING ZAMONAVIY USULLARI, XALQ TA'LIMI TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLARNI O'RGANISH

Ushbu maqola mazmunida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning zamonaviy o'quv va o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlari va umumiy sifat menejmenti (Total Quality Management (TQM), ISO 9000, 9001) kabi standartlashtirish tizimiga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari rivojlangan davlatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalar: blended learning (aralash o'qitish) xorij ta'lim tajribasida differensial ta'lim masalalari yoritilgan. Mamlakatimiz xalq ta'limi tizimida sifat menejmenti tizimi Total Quality Management (TQM), ISO 9000, 9001)ni joriy etish bo'yicha xalqaro tajribalardan foydalangan holda amalga oshirish lozim.

Kalit so'zlar: standartlashtirish, differensial ta'lim, Total Quality Management, blended learning, innovatsiya, xalqaro tajriba.

В содержании статьи особое внимание уделяется системам стандартизации развитых зарубежных стран, таким как современные методы преподавания и обучения, исследовательские процессы и общий менеджмент качества (TQM), ISO 9000, 9001). Кроме того, освещается специфика системы образования развитых стран, передовой зарубежный опыт в области современного образования и инновационных технологий: смешанное обучение, вопросы дифференцированного обучения в опыте зарубежного образования. Система менеджмента качества в системе народного образования страны должна быть внедрена с использованием международного опыта внедрения Total Quality Management (TQM), ISO 9000, 9001).

Ключевые слова: стандартизация, дифференцированное образование, всеобщее управление качеством, смешанное обучение, инновации, международный опыт.

The content of this article pays special attention to the standardization system of developed foreign countries, such as modern teaching and learning methods, research processes and general quality management (TQM), ISO 9000, 9001). In addition, the specifics of the education system of developed countries, advanced foreign experience in the field of modern education and innovative technologies: blended learning, the issues of differential education in the experience of foreign education are covered. The quality management system in the public education system of the country should be implemented using international experience in the implementation of Total Quality Management (TQM), ISO 9000, 9001).

Key words: standardization, differential education, Total Quality Management, blended learning, innovation, international experience.

Kirish. Dunyoda sodir bo'layotgan texnologik inqiloblarning kuchayishi davrida ta'lim sifatini oshirish va uni axborot xizmati kontekstida takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat ta'limning barcha bo'g'inlarini zamonaviy shaklda tashkil etish, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish davlat maqsadlari doirasida, hamda maktablarning hayotiy faoliyati rivojlanishi va farovonligini ta'minlash vositasi sifatida ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Asosiy qism. Ta'lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan davlatlarda boshqaruvning yangi zamonaviy shaklini tashkil etish, markazlashgan ta'lim sifati diagnostikasi, uning prognozi va nazoratini tashkil etishda nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikni ta'minlash va elektron monitoring tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Smart texnologiyasiga asoslangan innovatsion boshqaruv usuli, sifatni baholashga asoslangan boshqaruv – SWOT-tahlil, sifatning yalpi menedjmenti – TQM va ISO 9000, 9001 xalqaro sifat standartlariga asoslangan boshqaruv usullari bunga misoldir. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida dunyoda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda ta'lim tashkilotlari boshqaruv xodimlari faoliyatida marketing-tadbirkorlik, iqtisodiy-huquqiy va axborot-tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirishga ustuvorlik berilgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy ta'lim menejmentini joriy etish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar aholining ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabini qamrab olish darajasini oshirish bilan birga, barcha ta'lim tashkilotlarini raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan. Islohotlarda bugungi kunda keskin raqobatga bardosh bera oladigan zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, pedagog xodimlarning

kasbiy mahorati va faoliyati samaradoligini oshirish va ta'lim berish sifatini oshiradigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Ko'plab mamlakatlarda boshqaruvning zamonaviy usullari orqali ta'lim muassasalariga sifatli boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida ko'plab say-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Axborot texnologiyalari ta'limning turli yangi ko'rinishlarini taklif etmoqda, xususan, keyingi vaqtlarda modulli ta'lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi. Deklan Bern "Blended learning" (aralash ta'lim) haqida shunday deydi –"ushbu ta'lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan". Bunday yondashuv axborotni taqdim qilishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta'limni zamonaviy shaklda yaratish va ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala - tanlangan uslubiyotlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash va kam xarajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Ta'lim tizimini zamonaviy boshqarish va sifitli tashkil etishda ko'plab rivojlangan davlatlar turli xil yondashuvlardan foydalanishgan. Masalan: **AQSH** dunyodagi eng zamonaviy ta'lim tizimlaridan biriga ega. Amerika Qo'shma Shtatlarda 1988-yildan buyon sifat sohasidagi yutuqlar uchun yillik Prezident mukofoti dasturi (Prezident sifat mukofoti dasturi) faoliyat yuritmoqda. Mukofot Federal hukumatning eng samarali tashkilotlariga beriladi. Dasturning asosiy maqsadi federal agentliklar, davlat hukumatlari, ta'lim tizimi, mahalliy hokimiyat organlari va xususiy sektorni ifodalovchi tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish va rejalashtirishni muvofiqlashtirish bo'yicha tizimli metodlarni ishlab chiqish bo'yicha faoliyatni rag'batlantirishdan iborat.

Yaponiya esa juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati mavjud. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arbning zamonaviy texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

Yaponiya hukumati Oliy o'quv yuurtlari bitiruvchilarini o'qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, davlat maktabi o'qituvchisi bo'lish uchun yapon fuqarosi o'qituvchi diplomini olishi va o'qituvchilikka tayinlash imtihonidan o'tishi kerak.

Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga egadir. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud.

Ta'limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) hukumatining kompetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy rahbarlik ham bor: birinchi navbatda ta'lim vazirligi ta'lim siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi, oliy o'quv yurtlarini kengaytirishga mablag' ajratadi.

GFR konstitusiyasiga ko'ra har bir Federal Yer o'z hududidagi maktab va oliy ta'limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal hukumat umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish kurslarida birlikni ta'minlash maqsadida hamkorlik qiladilar. Ko'plab rivojlangan davlatlar kabi Germaniyada ham xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladi. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi sababli, turli xil pedagogik muqobillarning aprobatsiyasini o'tkazib turadi.

Bundan tashqari ta'lim tizimi zamonaviy hamda sifatli rivojlangan davlatlarning turkmiga **Janubiy Koreya** davlati ham yaqqol ko'zga ko'rinadi. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an'anaviy qadriyatlarini va orientirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan. Janubiy Koreya ta'lim tizimi yana bitta butunjahon tamoyilini amalga oshiradi: bu ta'lim va fan integratsiyasidir. Dunyo amaliyotida o'quv 3 muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o'z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Bunday birlashuv ilm va ta'lim integratsiyasining aniq asosi bo'lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-texnik va ta'lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi.

Chili ta'lim tizimining o'ziga xos tashkiliy tuzilmasi mavjud. Chili ta'lim tizimida 1981-yilda tashkiliy o'zgarishlar amalga oshirildi, ya'ni hukumatning markazlashgan nazorati ostida bo'lgan ta'lim

tizimi mahalliy hokimiyat tomonidan nazorat qilinadigan universal vaucher tizimiga o'tkazildi. Hozirgi kunda, ta'lim muassasalari ijtimoiy-iqtisodiy qatlamlarga bo'lingan. Bular kambag'allar o'qiydigan davlat maktablari, o'rta qatlam tahsil oladigan vaucherli davlat maktablari va boylar o'qiydigan xususiy ta'lim dargohlaridan iborat. Chili maktablari keskin tabaqalashuvi bilan farqlansada, boylar tahsil oladigan maktablardagi tartib quyiroq maktablarga nisbatan unchalik ham farq qilmaydi.

Bundan xulosa qilish mumkinki ta'lim tizimini zamonaviy va sifatli tashkil etish va O'zbekistonda ham joriy etishdasiyat menejment tizimlarini yaratishda AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Finlandiya va Kanada kabi davlatlarning tizimli yondashuvlarini o'rgangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Muhokamalar va natijalar. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda bizning mamlakatimizda ham zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish va sifatli boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, ta'lim tizimining avvalgi va hozirgi kundagi davlat boshqaruv mexanizmlari hamda dunyo hamjamiyatida zamonaviy ta'limning rivojlanish tendensiyasi va paradigmalarini tahlil qilish, nafaqat mamlakatimiz ta'lim tizimi boshqaruvini takomillashtirish, balki ta'lim tizimining mahsuli bo'lgan bitiruvchilarning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlash, mehnat bozori va zamon talablariga mos bilim hamda hayotiy ko'nikmalarga ega professional kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasiga budget mablag'larining chorak qismi ajratilsada, o'quvchilarining davlat ta'lim standartlari bo'yicha bilim darajasi esa 63,4% ni tashkil etmoqda.

Xalqaro talablarga asoslangan zamonaviy va sifat sohasidagi boshqaruvning respublikamiz ta'lim sohasi uchun taklif qilinayotgan yangi boshqaruv modeli bu TQM-Total Quality Management hisoblanadi. Unda rahbarlik uslubiga, xodimlar malakasiga, ularning xatti-harakatlari motivatsiyasiga va yangiliklarga bo'lgan munosabatiga ulkan ahamiyat beriladi. Bu tizim ta'lim muassasalari va tashkilotlarining jamiyatdagi ijtimoiy rolining o'sib borishini, tashkilotchilik madaniyati, ya'ni qadriyatlar tizimini, axloq me'yorlari, reja va maqsadlar ahamiyatini yanada oshiradi.

TQM konsepsiyasi tashkilotlar ichida o'z-o'zini rivojlantirish va malakasini oshirish uchun asoslar yaratadi. TQMning asl mohiyati-tashkilot faoliyatining barcha qirralarini, binobarin, barcha xodimlarni sifatni yaxshilash g'oyasi bilan qamrab olish vazifasi qo'yilishidir.

Bundan tashqari mamlakatimizda ISO 9000 xalqaro standartlari asosidagi SMTni joriy etish –ta'lim muassasa va tashkilotlarida sifatli ish yuritish, malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va tizimlarni sifatli boshqarish va iqtisodiy muammolarni bartaraf etish uchun juda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sifat menejmenti tizimi (SMT) - bu sifatga yo'naltirilgan boshqaruv tizimining bir qismi ISO 9000 hisoblanadi. U siyosat va maqsadlarni, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish jarayonlarini ishlab chiqish uchun yaratilgan. ISO 9000 -sifat menejmenti standartlari to'plami bo'lib, u har qanday turdagi va o'lchamdagi tashkilotlarga samarali ishlab chiqarishni joriy etish va saqlashda yordam beradi. Dunyoning 190 dan ortiq mamlakatida milliy standart sifatida qabul qilgan ISO 9000 seriyali standartlar, tashkilot va korxonalarining hajmi, mulkchilik shakli va faoliyat sohasidan qat'iy nazar, har qanday korxon va tashkilotda qo'llaniladi.

ISO 9000ning maqsadi - har xil faoliyat sohaslarida (xususan ta'lim tizimida) va integratsiyalashuv jarayonlarini osonlashtiradigan standartlashtirish va dizayn standartlarini ishlab chiqishdan iborat.

Bu tizimni foydalilik darajasini bilish maqsadida xalqaro miqyosda amalga oshirilgan tahlilda 50 dan ortiq korxon va muassalar ishtirok etib, sifat tizimlarini joriy etish qanday samara beradi? - degan savolga sifat tizimini joriy etib, ISO 9001:2000 sertifikatini olgan kompaniyaning 90% korxon faoliyatini yaxshilashga yordam berishini, 66%i xorijiy hamkorlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etishini, 83%i ularning xodimlarning ishga bo'lgan mas'uliyatini oshirishini qo'llab-quvvatlagani, 85%i korxon imidjini oshirishiga yordam berishini, 85%i ishlab chiqarish samaradorligini oshirishiga sabab bo'lishini, 33%i sarf-xarajatlar kamayishiga omil bo'lishini, 42%i investorlarni jalb qilishga yordam berishini yoqlaganlar.



Shu sababli ham bu borada bizning respublikamizda ham jiddiy islohotlarni boshlash zarurligini anglatadi, ya'ni sohani rivojlantirish yo'liga boshlovchi muhim tadbirlardan biri – xalqaro sinovlardan o'tgan – ta'lim sohasi boshqaruvida ISO 9000, 9001 standartlari asosidagi sifat menejmenti tizimlarini joriy etishdir. Kompaniyalar va firmalar, korxonalar va muassasalar o'z kasbiga ijobiy munosabatda bo'lgan professional malakali, kommunikativ mutaxassislarni bo'lishini xohlashadi. Talabalar o'zlarining ta'lim darajasini, intellektual darajasini oshirishga, kasbga ega bo'lishga, mehnat bozorida talabga ega bo'lishga, ijtimoiy mavqei oshirishga, shu bilan birga ularning hayot darajasini yaxshilashga intiladi.

Ta'lim muassasalarida SMTni joriy etish imkonini beradigan omillar quyidagicha:

- xodimlarni butun jamoa manfaati uchun belgilangan vazifalarni samarali hal etishga qodir bo'lgan o'xshash fikrlovchi kishilar guruhiga birlashtirish;
- yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashish;
- professor-o'qituvchilar malakasini doimiy ravishda oshirib borish;
- ta'limdagi iqtisodiy muammolarni ijobiy hal qilish;
- xizmat xodimlari o'z vazifalarini sifatli bajarishlari zarurligi.

Xulosa. Respublikamizda 10408 korxonalar va tashkilotlar ISO xalqaro standarti asosida SMTni joriy etib, xalqaro sertifikat olishga muvaffaq bo'lganlar. Bir yilda qariyb 527 ga yaqin korxonalar va muassasalar ushbu standart asosida o'z faoliyatlariga SMTni joriy etmoqdalar. Lekin ta'lim sohasida bu sohada rivojlanish kam ko'rsatkichga ega, bor yo'g'i 2 muassasa xalqaro sertifikat olishga muvaffaqiyat bo'lgan [8].

Adabiyotlar

1. Higher education in japan. Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. 3-2-2 Kasumigaseki, Chiyoda-ku, Tokyo 100-8959, Japan Tel: +81-3-5253-4111 (Reception).
2. H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. HandbookFor teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.
3. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. “Case study” uslubi: Nazariya, amaliyot va tajriba. -T.: “Tafakkur qanoti”, 2012. -131 b.
4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. -T.: “Fan va texnologiya”. - 102 b.
5. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsiya. -T.: “Fan”, 2010.
6. Джалалова Д.Х. Основные тенденции развития современной японской школы. Автореферат дис.к.п.н. 2004.
7. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. -T.: “Alisher Navoiy” nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
8. “O'zstandart” agentligi axborot xizmati ma'lumoti.

Mehribon JUMAYEVA

Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrası
tayanch doktoranti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati, uni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar haqida ma‘lumotlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim islohoti, tarbiya, rivojlanish, bo‘lajak o‘qituvchi, innovatsiya, yondashuv, loyihalash, tadqiqiy-ijodiy yondashuv, tizimli, texnologik, kreativ yondashuv.

В статье рассматривается социально-экономическая необходимость подготовки будущих учителей к инновационной деятельности, возможности ее развития. Также была проанализирована информация о современных подходах к подготовке будущих учителей к инновационной деятельности с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: реформа образования, образование, развитие, будущий учитель, инновация, подход, дизайн, исследовательско-творческий подход, системный, технологический, творческий подход.

The article examines the socio-economic necessity of preparing future teachers for innovative activities, the possibility of its development. It also analyzed information about modern approaches to training future teachers for innovative activities from a scientific and theoretical point of view.

Key words: education reform, education, development, future teacher, innovation, approach, design, research and creative approach, systemic, technological, creative approach.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning hamda mamlakatimizning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda. Chunki bugungi tezkor rivojlanish davrida jamiyat uchun faol fikrlovchi, innovatsion g‘oyalarni yaratuvchi hamda ularni amaliyotda samarali qo‘llovchi malakali mutaxassislar zarur. Bu esa o‘z navbatida, ta‘lim jarayoniga innovatsiyalarni, o‘qitishning zamonaviy interfaol va ijodiy uslublarini joriy etish va sohaga yo‘naltirish orqali ta‘lim sifatini oshirishga ko‘maklashuvchi innovatsion o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, pedagog kadrlarining ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish va boshqarish ularning innovatsion kompetentligini rivojlantirishni talab etadi.

O‘zbekistonda jahon ta‘lim maydoniga kirishga yo‘naltirilgan yangi ta‘lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o‘quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ta‘limdagi yondashuvlar tarkibi o‘zgarimoqda va boshqacha munosabatlar o‘rnatilmoqda. Ta‘lim tizimida yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan kuchlar shakllanmoqda, yangi ijodiy yechimlar topilmoqda va ta‘lim dasturini individuallashtirishga qaratilgan sa‘y-harakatlar kuchaymoqda.

Asosiy qism. Ta‘limdagi yangilanish oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘quv jarayoni orqali talabalarni o‘z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o‘z taqdiri va o‘z shaxsiga ongli munosabatda bo‘lib, turli faoliyatlarda o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan tafakkuri shakllangan, erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Talabalarga mutaxassislik fanlarini o‘qitishda, ularning ijodiy tafakkurini shakllantirishda har qachon, milliylik va milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda darslarni tashkil etish lozim. Oliy ta‘lim muassasalarida yangicha mustaqil fikrlaydigan, ijod qiladigan talaba yoshlarni tarbiyalash eng asosiy muammolarimizdan biri bo‘lib qolmoqda. Talabalik yillarida yoshlar barkamollik, ijtimoiy nuqtayi nazardan yetuklik, jismoniy baquvvatlik bosqichiga ko‘tariladi, shuningdek, ularda o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish kabi aql-zakovatning muhim jihatlari taraqqiyotning yangi yuksak bosqichiga ko‘tariladi. Ularda tafakkurning rivojlanishi, ilmiy dunyoqarashning shakllanishida umumkasbiy va ixtisoslik fanlari muhim o‘rin tutadi.

Mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida ijtimoiy-foydali mehnatga layoqatli kadr darajasigacha tarbiyalash ko‘p qirrali va murakkab jarayondir. Bunda ta‘lim tizimini takomillashtirish va uning mazmunini chuqurlashtirish hamda ko‘pgina tashkiliy-tarbiyaviy ishlar nazarda tutiladi.

Bugungi kunda pedagogikada bo‘lajak mutaxassislarni ta‘lim jarayonidagi faolligini oshirishga

qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rolli o'yinlar va h.k. Ammo ularni oliy ta'lim tizimida keng qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishda ijodiy yondashuv va ko'p vaqtni sarflashni talab qilishida bo'lsa kerak. Chunki har bir o'tiladigan mashg'ulot ishlanmasi o'ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir.

An'anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular o'zining ma'lum tarixiga ham egadir. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar o'z yechimini topmayotganligi, qator ilg'or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchi-talabalarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini taqiqlamasdan, balki ularni belgilangan maqsad sari yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish va o'quv-biluv faoliyatiga ongli ravishda yo'llash, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirish o'rniga pedagogik jarayonni samarali tashkil etish orqali mutaxassislik fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish, shaxsning ehtiyoji, istagi, moyilligi va imkoniyatlarini chegaralamasdan bilim va hunar egallashning demokratik yo'llariga burish sanaladi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul va metodlar majmuasi anglashiladi.

Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashning harakatlari, operatsiyalari, usullari majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi [2, 52].

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi.

Pedagogik texnologiyaning usul va metodlari ta'limning umumiy maqsadlari (o'qituvchi va talabaning maqsadlari)ni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va natijalarni nazorat qilish, kuzatish hamda baholashga xizmat qiladi.

Loyihalashtirish faoliyati talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi – o'qitishni tashkillashtirilish bo'lib, talabalar rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rinishda bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo'llash natijasida loyiha (proekt) ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarning birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarning hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan bir qator ijobiy ishlar, fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan o'sishi, bugungi kunda raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish darajasini yuqori tarzda ta'minlashga nisbatan jamiyat ehtiyojlari bilan o'qitish uslublari o'rtasida ziddiyatlar tug'ilishiga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni ham qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim va tajribani mustaqil ravishda o'zlashtirish, harakatning innovatsion usullarini topish va tashabbus ko'rsatishni nazarda tutadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuvda pedagog talabaning o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, shaxsiy tashabbusini qo'llab-quvvatlab, u bilan hamkorlik qiladi hamda uning fikr va qiziqishlarini doimo nazarda tutadi. Pedagogning talaba shaxsiga bo'lgan munosabati, ularga muhabbati va jon koyitishi, yuksak ishonchi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, tahsil olish jarayonida talabalarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha, ijobiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, talabalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini qo'llashda namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv bo'yicha pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan. Tadqiqiy-ijodiy yondashuvning ta'lim tizimida o'z o'rnini bor va u o'z joyida qo'llanishi lozim.

Izlanuvchan-kreativ yondashuv. Bu yondashuvdagi maqsad talabalarda muammoni hal etish, yangi, oxirigacha tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, ta'sir etishning yangi yo'llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy idrokni rivojlantirishdan iboratdir.

Izlanuvchan ta'lim andozasida ta'lim mazmuni tabiat va jamiyat bilan uzviy o'zaro ta'sirdagi shaxsni

tadqiqotchilik yo'liga boshlash, uning jadal ijodiy faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga pedagog ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda demokratik, rag'batlantiruvchi yo'l tutadi, ularning shaxsiy tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, xatti-harakati, harakatning innovatsion yo'llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy ma'no kasb etishini rivojlantirish yo'lini tutadi. Izlanuvchan ta'lim andozasining ta'lim mazmuni, tabiat va jamiyat bilan o'zaro ta'siri shaxsni tadqiqotchilik yo'liga boshlashi uning jadal ijodiy faoliyati xarakteri bilan bog'liq.

Pedagog ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda ijodiy yo'l tutadi, talabalarning o'quv faoliyatining operativ-texnik jihatlarini o'zlashtirishga qadar uning ahamiyati va rag'batlarini birinchi o'ringa olib chiqadi. Bugungi kunga qadar o'qitishda izlanuvchan yondashuvni o'z ichiga oluvchi pedagogik texnologiya ko'rinishlari ishlab chiqilgan.

Tizimli yondashuv – ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega, u pedagogikada keng qo'llanadi. "Tizimli yondashuv" tushunchasi ko'pincha "tizimli metod", "tizimli tahlil usuli" tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda anglanadi. Chunki tizimli tahlil usullari ham obyektini yaxlit tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv tuzilish vazifasiga ko'ra bajariladigan tahlilga juda yaqin. Tizimli tahlilning obyekti yaxlit narsa yoki hodisa hisoblanadi, u obyektning turli qismlarini, qismlarning o'zaro uzviyligini, tizimning chegaralarini va tizimning atrof-muhit bilan bog'liqligi, aloqadorligini nazarda tutadi. Bu tizimda bir qancha qoida va prinsiplar majmuidan foydalaniladiki, ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Texnologik yondashuv. Texnologiya - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanadigan usul va metodlar majmui bo'lib, shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Ta'limga texnologik yondashuv o'quv jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplarni va amallarga ajratishni va bo'lishni; ta'limdan ko'zlangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirishni; loyihalashtirilgan ish va amallarning barchasini bir xil tarzda bajarishni nazarda tutadi.

Qayta takrorlanish xususiyati tufayli ushbu tizim modul shakliga ega bo'lib, mazmunlar bilan to'ldirilgan va umumiy tarkibga bog'langan birliklar, ya'ni ta'limning umumiy maqsadi va mazmuni, o'quv maqsadi, o'qitish va baholash jamlamalaridan tashkil topadi. Amalda bu pedagogning qayta-qayta takrorlanuvchan harakatining algoritmi hisoblanadi. Ushbu algoritmning yangi va yangi bo'limlarda qo'llanishi o'quv jarayoni ko'lamini qamrab oladi.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati – o'quv jarayonining so'nggi natijalari bo'lgan o'quv maqsadiga erishishga yo'naltirilganligini ham kuzatish mumkin. Texnologik yondashuvni qo'llash qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ta'lim jarayonining ilg'or texnologiyalarini o'rganish va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etilishini taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, pedagoglardan ta'lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egalashni va hududimizning milliy, ma'naviy-madaniy xususiyatlarini va an'alarini hisobga olgan holda pedagogik amaliyotda qo'llash va ularni rivojlantirishni talab etadi.

Texnologik yondashuv doirasida yaratilgan didaktik loyihalash usullariga bo'lgan munosabat o'quv jarayonini samarali va ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baholashga yordam beradi.

Ta'limni boshqarishga tizimli yondashuv - bu boshqaruvchi, ya'ni o'qituvchining mavjud imkoniyatlari asosida tahsil oluvchilarga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni qo'yilgan maqsadga mos holda shakllantirish jarayonidir. Ta'limda boshqarish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishga turli texnologiyalar joriy etilmoqda. Ta'limning harakatchan modelini tuzish orqali boshqarish o'zining samaradorligini ko'rsatmoqda. Mo'ljallangan texnologiya tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan fan bo'yicha ma'lumotlarni tayyorlash;
- tayyorlangan ma'lumotlarni o'qitish uslubi va maqsadini e'tiborga olgan holda ma'lum ketma-ketlikka keltirish;
- o'quv materiali mazmunni qo'llamoqchi bo'lgan pedagogik usullar nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- pedagogik texnologiyalar qo'llanilishining tegishli bosqichiga oid maqsadni aniqlash;
- pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayoni ketma-ketligini ishlab chiqish;
- texnologiyalardan foydalanishga oid uslubiy tavsiyalar tayyorlash;

- texnologiyalarni qo'llash va erishilgan natijalarni bilim, ko'nikma va malaka tizimlariga ajratish;
- olingan natijalar bo'yicha sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ko'zlangan maqsadga erishilganlik darajasini baholash;
- ta'limni boshqarish jarayoni to'g'risida tegishli xulosalar chiqarish va boshqalar.

Pedagogik faoliyat – bu inson shaxsini, uning dunyoqarashini, ishonchini, ongini, xulqini shakllantirishga bo'nsundirilgan cheksiz masalalarni yechish jarayonidir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik faoliyat turlari (ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, safarbarlik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik va boshqalar) qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda, pedagogik faoliyat muntazam o'zgaruvchan, yangilanuvchan, rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi, unga ijtimoiy buyurtma uzluksiz ta'sir ko'rsatadi.

Muhokamar va natijalar. Ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi pedagogdan bevosita ijodiy faoliyatni hamda ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan soha bilimlarini talab etadi. Demak, texnologiya mavjud ekan, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirish shart ekan, bu jarayon qayerda kechishi mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu esa, shaksiz, pedagogik korxonada, ya'ni pedagogik ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradi.

O'qituvchilarning o'zida muloqot, bahs olib borish madaniyatini shakllantirish maqsadida pedagogik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar, ayniqsa muhimdir.

O'zaro hamkorlik pedagogikasi – o'qituvchi va talaba o'rtasida hamfikrlilik, bir-biriga ishonch, o'zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarining anglab olinishi va e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Oliy ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish bo'lajak mutaxassislardan ijodiy ishlashni talab etadi. Pedagog o'zidagi mavjud ma'lumotlar va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha mavjud metodika va ilg'or o'qitish uslublarini ko'zlangan maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Pedagogda shakllangan bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo'naltira olish qobiliyatlari mavjud bo'lsa, u davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim oluvchiga aniq maqsadni belgilab bera olishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik texnologiyalarni qo'llash rejasini ishlab chiqishga, ya'ni vazifalarini belgilab olishga olib keladi, belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda ta'limning harakatchan modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish asosan tizimli yondashuv uslubi, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta'lim modelini yaratish-zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat; ya'ni:

- pedagogning ta'lim berish mahorati;
- pedagogning tarbiyalay olish mahorati;
- ta'lim-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxs fazilati;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Ta'lim-pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, o'quvchi-talaba bilan o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'zsiz erishish o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi [1, 37].

O'qituvchilar faoliyatida texnologik yondashuv shaxs faoliyatining yetakchi tavsifi bo'lib, u ta'limiy jarayonning samaradorligini, maqbulligini, yuqori ilmiyligini, yangi sifat darajasiga ko'tarishni anglatadi.

Umumlashgan holda texnologiya odatiy hol emas, balki zamonaviy ilmiy-tafakkur usulidir. U insoniy faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligi, tezkorligi, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi. Texnologiya – bu predmetli sohaning obyektiv qonunlarini yuqori o'lchovda aks ettiradigan va shu boisdan muayyan sharoit uchun natijalarning o'rnatilgan maqsadlarga mos kelishini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Texnologiya jarayon sifatida uchta belgi bilan tavsiflanadi:

- jarayonni o'zaro bog'liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natija (o'rnatilgan maqsad)ga erishishga qaratilgan harakatlarni muvofiqligi va bosqichli bajarish;
- qo'yilgan maqsadlarga mos natijalarga erishishning zaruriy va yetakchi sharti hisoblangan texnologik muolaja va amallarni bajarishning ahamiyat kasb etishi.

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

Xulosa. O‘quv jarayonida pedagog tanlagan shakl, metod va o‘qitish vositalari ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro harakat tizimi yordamida aniqlanadi. Texnologik darajadagi o‘qituvchi innovatsion faoliyatining mezonlari sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

- aniq va tashxisli berilgan maqsadlarning mavjudligi, ya’ni tushunchalar va amallarni kutilayotgan o‘qitish natijasi sifatida ta’lim oluvchining faoliyatidagi maqsadga erishishni tashxislash usullarining o‘lchanadigan holatda ko‘rsatilishi;

При конкретизации целей необходимо использовать в описание глаголы, указывающие на действие с определенным результатом.

Необходимо отметить, что и идентифицируемая учебная цель представляет собой не абсолютную, исчерпывающую характеристику желаемого результата, а её приближенный, максимально достигаемый при данных средствах описания результаты. Каким же способом перевести результаты обучения на язык действий?

Этого можно добиться следующими способами:

– построение четкой системы целей по учебной дисциплине с классификацией учебных целей на категории и последовательные уровни. Такие системы учебных целей получили название педагогических таксономией (от греческих слов *taxis* – расположение по порядку и *nomos* – закон);

– создание максимально ясного, конкретного языка для описания целей обучения, на которой педагог может перевести недостаточно ясные формулировки.

На сегодняшний день наиболее распространенной таксономией педагогических целей является система американского педагога-ученого Б.Блума. Таксономия Б.Блума позволяет не только выделить и конкретизировать учебные цели, но и упорядочивает их. Четкая иерархическая классификация целей позволяет педагогу конкретизировать усилия на главном и добиваться ясного понимания учебного материала. Основными категориями учебных целей по Б.Блуму являются: знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка [1], [8] (табл.1).

Таблица 1. Таксономия педагогических целей по Б.Блуму

№	Основные категории учебных целей	Примеры обобщенных типовых учебных целей – студент
I.	Знание. Эта категория обозначает запоминание и воспроизведение изученного материала от конкретных фактов до целостных теорий	знает употребляемые термины, знает конкретные факты, знает методы и процедуры, знает основные понятия, знает правила и принципы.
II.	Понимание. Его показателем может быть преобразование (трансляция) материала из одной формы выражения в другую (например, из словесной в математическую), интерпретация материала (объяснение, краткое изложение) или же предположение о дальнейшем ходе явлений, событий (предсказание последствий, результатов)	интерпретирует словесный материал, интерпретирует схемы, графики, диаграммы, преобразует словесный материал в математические выражения, предположительно описывает будущие последствия, вытекающие из имеющихся данных
III.	Применение. Эта категория обозначает умение использовать изученный материал в конкретных условиях и новых ситуациях. Сюда входят: применение правил, методов, понятий, законов, принципов, теорий	использует понятия и принципы в новых ситуациях, применяет законы, теории в конкретных практических ситуациях, демонстрирует правильное применение метода или процедуры
IV.	Анализ. Эта категория обозначает умение разбить материал на составляющие, так, чтобы ясно выступила структура. Сюда относится: вычленение частей целого, выявление взаимосвязей между ними, осознание принципов организации целого	выделяет скрытые предположения, видит ошибки и упущения в логике рассуждения, проводит различие между фактами и следствиями, оценивает значимость данных
V.	Синтез. Эта категория обозначает умение комбинировать элементы, чтобы получить целое, обладающее новизной. Таким новым продуктом может быть: сообщение (выступление, доклад), план действий или совокупность обобщенных связей (схемы). Соответствующие учебные результаты предполагают деятельность творческого характера с акцентом на создание новых схем и структур	пишет небольшое творческое сочинение, предлагает план проведения эксперимента, использует знания из разных областей, чтобы составить план решения той или иной проблемы.
VI.	Оценка. Эта категория обозначает умение	оценивает логику построения материала в

	оценивать значение того или иного материала для конкретной цели. Оценочные суждения должны быть основаны на четких критериях	виде письменного текста, оценивает соответствие выводов имеющимся данным, оценивает значимость того или иного продукта деятельности
--	--	---

Таксономия Б. Блума на протяжении 50 лет его использования подвергалась многократным попыткам уточнения и модернизации. Одним из них является версия Лорана Андерсона (1999 г.) [7].

В уточнённой таксономии сделана попытка исправить некоторые ошибки первоначальной таксономии. Новая таксономия проводит различие между “знанием о том, что”, т.е. содержанием мышления, и “знанием того, как”, то есть, процедурах, используемых в решении проблем.

Измерение знания – это “знание того, что”. У него есть четыре категории: фактическое, концептуальное, процедурное и метакогнитивное.

Фактическое знание - включает в себя изолированные фрагменты информации, такие, как словарные определения и знание специфических деталей.

Концептуальное знание - состоит из систем информации, таких, как классификации и категории.

Процедурное знание - включает алгоритмы, эвристики, эмпирические методы, техники и методы, а также знание о том, когда следует использовать эти процедуры.

Метакогнитивное знание - относится к знанию о процессах мышления и информации о том, как эффективно управлять этими процессами.

Измерение когнитивных процессов уточнённой таксономии Б. Блума, так же, как и оригинальная версия, насчитывает шесть навыков. Они включают в себя - от простейших к наиболее сложным: (а) помнить, (б) понимать, (с) применять, (d) анализировать, (е) оценивать и (f) создавать (табл.2.)

В соответствии с этой таксономией каждый уровень знания может соотноситься с каждым уровнем когнитивного процесса, так что учащийся может помнить фактическое или процедурное знание, понимать концептуальное или метакогнитивное знание или анализировать метакогнитивное или фактическое знание.

Таблица 2. Уточнения таксономии учебных целей Б. Блума

Когнитивный процесс	Примеры
Помнить- извлекать необходимую информацию из памяти.	
Узнавание	Найти приём обучения, имеющие форму круга.
Припоминание	Назвать двух Великих учёных XI века. Написать по памяти принципы педагогической технологии.
Понимать-создавать значения на базе учебных материалов или опыта.	
Интерпретация	Нарисовать блок- схему модульного обучения.
Приведение примеров	Назвать виды теста.
Классификация	Перечислить методы обучения.
Обобщение	Придумать заголовок для короткого абзаца. Перечислить основные аргументы в пользу модульной технологии обучения.
Умозаключение	Догадайтесь о значении незнакомого термина из контекста.
Сравнение	Проиллюстрируйте и различие между авторитарной и личностно-ориентированными технологиями обучения.
Объяснение	Нарисуйте схему, поясняющую, как личностно-ориентированная технология влияет на развитие личности.
Применить-использовать процедуру.	
Исполнение	Добавьте в столбик двухразрядные числа. Прочитайте вслух абзац на иностранном языке. Выполните штрафной бросок.
Применение	Отредактируйте фрагмент текста. Составьте бюджет.
Анализировать-вычленять из понятия несколько частей и описывать то, как части соотносятся с целым.	
Дифференциации	Нарисовать схему с указанием основных и вспомогательных персонажей

я	деловых игр.
Организация	Рассортировать список использованных литератур по алфавиту
Соотнесение	Опишите мотивацию поступков персонажей в романе или коротком рассказе.
Оценивать-делать суждения, основанные на критериях и стандартах.	
Проверка	Проанализируйте план работы по проекту на предмет наличия в нём всех необходимых шагов.
Критика	Проанализируйте, насколько хорошо схема соответствует разработанным критериям.
Создать – соединить части, чтобы появилось что-то новое и определить компоненты новой структуры.	
Генерация	Разработайте несколько научных гипотез, объясняющих то, почему необходимо использование личностно-ориентированной технологии обучения
Планирование	Разработайте план исследовательской работы
Производства	Создайте проблемные ситуации на основе лекции, которую вы читаете.

Наряду с попытками уточнения таксономии Б.Блума предполагались другие уровни усвоения учебного материала. Некоторые из них приведены в таблице 3.

Таблица 3. Сравнительная таблица уровней усвоения учебного материала различных таксономий

Б. Блум	В. П. Симонов	В. П. Беспалько	В.Н. Максимов	М. Н. Скаткин
Знание	Различение	Ученический (узнавание)	Узнавание	Воспроизведение понятия
Понимание	Запоминание	Алгоритмический (решение типовых задач)	Запоминание	Узнавание понятия
Применение	Понимание	Эвристический (выбор действия)	Понимание	Применение понятия
Анализ	Простейшие умения и навыки	Творческий (поиск действия)	Применения	Воспроизведение системы понятий
Синтез	Перенос	-	-	Применение системы понятий
Оценка	-	-	-	-

Обсуждение и результаты. Со времени создания таксономии Б. Блума до сегодняшнего дня произошли великие свершения в области науки, техники и технологий. Развитие науки и объём научно-технической информации приобрели лавинообразный характер. Сегодня вынуждены признать, что усвоение каждой науки в системе профессионального образования с минимальным уровнем “знание” невозможно. Поэтому целесообразным является усовершенствование таксономии учебных целей Б. Блума с введением категории “представление” [1], [3].

Интенсивный научный технический прогресс непрерывно порождает новые научно-технические проблемы. Выявлять эти проблемы и разрабатывать способы их решения стало в настоящее время одним из основных задач.

Поэтому целесообразным является проведение занятий по профессиональным и специальным дисциплинам с использованием технологии “Кейс – стади”.

На таких занятиях встречающееся на практике определенное событие, в форме видно иллюстрации, письменно или словесно, преподносится обучающимся в виде проблемной ситуации. Они изучают эту ситуации, детально анализируют и выражают к ней свое отношение в виде сформированной научной (научно – технической, научно – технологической и др.) проблемы, обосновывают ее решение, разрабатывают рекомендации.

Следовательно, на занятиях “Кейс – стади” студент формирует свое отношение к представленной проблемной ситуации. На этом основании нами рекомендовано новая категория учебной цели “отношение” [1], [3].

В науку, в философию, впервые категория “отношение” введена Аристотелем. Философская сущность данной категории заключается в следующем: “Отношение” являясь научной категорией, характеризует направленность действий и определяет связь между некоторой сущностью и тем, что с

ней соотнесено. В педагогической таксономии “отношение” означает формирование определения научной проблемы на основе изучения представленной проблемной ситуации в рамках определенной дисциплины и разработка рекомендаций по ее решению.

Таким образом, в условиях современной системы непрерывного профессионального образования целесообразно использовать таксономию учебных целей, включающую восемь категорий (табл. 4) [1], [3].

Необходимость использования категории “представление” в таксономии учебных целей исходит из сущности самого процесса познания [5]. Процесс познания по Ибн Сино характеризуется следующим образом: “познание – процесс анализа и воспроизведения действительности посредством мышления. В процессе познания представление является переходной ступенью от ощущения и восприятия к мышлению” [4]. То есть “представление” является начальным уровнем овладения знаниями. Изначальность научных основ “представления”, как начальной, первой ступени познания исходит из учения Великого Ибн Сины о науке. В определение науки он утверждает: “Наука – это вера в то, что данная вещь является такой, а не другой, и не может быть другой. Наука – это восприятие (представление) сущности вещей в определениях. Всякое знание и всякая наука, по мнению Ибн Сины покаются или на представлениях или на убеждениях. Представление имеет первичное значение и приобретает определением. Если представление приобретает посредством определения, то убеждения достигается только умозаключением – это два орудия, с помощью которых устанавливается известное и неизвестное” [4].

Таблица 4. Усовершенствованная таксономия учебных целей

Категория	Глаголы, характеризующие категорию
Представление	Показать, рассказать, описать.
Знание	Воспроизвести, написать, повторить.
Понимание	Объяснить, прокомментировать, раскрыть.
Применение	Внедрить, вычислить, рассчитать.
Анализ	Дифференцировать, классифицировать, разложить.
Синтез	Обобщить, систематизировать, составить.
Оценка	Оценить, сопоставить, сравнить.
Отношение	Выявить, сформулировать, определить.

Вывод. Усовершенствованная таксономия учебных целей способствует эффективному решению задач обучения в современной системе непрерывного профессионального образования.

Ее концептуальной основой является: мотивации к учению от последовательности получения и углубления знаний; фактор умения стремления к учению при конкретизации учебных целей, что обеспечивается использованием педагогической таксономии.

Целевыми ориентациями являются: обеспечение условий для приобретения знаний, навыков и умений с оптимальными затратами времени и материальных средств; достижение углубления полученных знаний учащимися и студентами, вследствие использования наиболее целесообразных технологий обучения в зависимости от установленных категорий учебных целей.

Литература

1. Avliyaquov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. -Т.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2012. - 208 б.
2. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. - М: “Знание”, 1989. - 80 с.
3. Мусаева Н. Н. Теоретические основы и технология обеспечения неразрывности обучения в системе непрерывного профессионального образования. Монография. - Тошкент: “Фан ва технология”, 2018. -140 б.
4. Рахимов С. Р. Психолого-педагогические взгляды АбуАли Ибн Сины. – Т.: “Ўқитувчи”, 1979. – 428 с.
5. Салдадзе Л. Ибн Сина (Авиценна). Страницы великой жизни. – Т.: “Г. Гуляма”, 1985. –404 с.
6. Чошанов М.А. Обзор таксономии учебных целей в педагогике США // Педагогика, № 4, 2000.
7. Anderson, L.W., & Krathwohl (Eds.). (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman.
8. Bloom B. S. (Ed). Taxonomy of edicational objectives: The classification of edicational goals: Handbook I, cognitive domain. -New York: “Longman”, 1956.

Suhrob RUSTAMOV

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
elektr mexanikasi va texnologiyalari
kafedrası doktoranti

OLIV TA'LIMDA ELEKTR YURITMA ASOSLARI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM METODLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Ushbu maqolada ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish, o'quv jarayonida treninglar, yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhlar va jamoada ishlashni tashkil qilgan holda ilg'or ta'lim metodlarini amaliyotga joriy qilish hamda pedagogik jarayonga yangicha yondashuv masalalariga bag'ishlangan. Ta'lim metodlari o'qituvchilarda global tafakkur, kompetentlik, professionallikni shakllantirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim turlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ulardan o'z pedagogik faoliyatlarida samarali foydalanishlarini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim metodlari, ta'lim usuli, ta'limning texnik vositalari, tushunchalar tahlili, axborot, elektr yuritma, asinxron motor, ko'nikma, didaktik, topshiriq, texnologiya.

Данная статья посвящена использованию современных методов обучения в системе образования, внедрению передовых методов обучения в практику, организации обучения в процессе обучения, индивидуальной, парной, малогрупповой и командной работе, а также новому подходу к педагогической работе. процесс. Методики обучения развивают у учителей глобальное мышление, компетентность, профессионализм, теоретическую и практическую подготовку, знания, навыки и компетенции при самостоятельном обучении, обеспечивающие их эффективное использование в их педагогической деятельности.

Ключевые слова: методика обучения, методика обучения, учебные пособия, анализ концепций, информация, электропривод, асинхронный двигатель, умение, дидактика, задание, технология.

This article deals with the use of modern teaching methods in the education system, the introduction of advanced teaching methods in practice, organizing trainings in the learning process, individual, pair, small group and team work, and a new approach to the pedagogical process. processed. Teaching methods to develop in teachers global thinking, competence, professionalism, theoretical and practical training, knowledge, skills and competencies in independent learning, to ensure their effective use in their pedagogical activities provided.

Key words: teaching methods, teaching method, teaching aids, concept analysis, information, electric drive, asynchronous motor, skill, didactic, assignment, technology.

Kirish. So'nggi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. O'tgan davr mobaynida iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hududlarda yangi, shu jumladan, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etilib, talab yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalardagi islohotlar Vatanimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, yurt ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shuvchi malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifalardan biri etib belgilamoqda.

Asosiy qism. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, sohada davlat boshqaruvi samaradorligini yanada oshirish, tizimdagi muassasalarning sifatli faoliyat yuritishini ta'minlash orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasiga muvofiq: Quyidagilar oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan:

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida zamonaviy va mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, bilimli hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyat yo'nalishida zamonaviy bilim va malakaga ega, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda chet tillarini o'zlashtirgan kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash kabi masalalar belgilab qo'yilgan.

Shu farmonlar va amaldaldagi islohotlarga muvofiq oliy ta'limda yosh energetiklarda elektr yuritma asoslari fanini o'qitishning innovatsion ta'lim metodlaridan keng foydalanish talabani fanga bo'lgan qiziqishining ortishiga va mukammal bilim olishiga katta yo'l ochib beradi. O'qituvchi talabalarga dars berishida faqatgina bilimning o'zi kifoya qilmaydi. Chunki talabalar bilimni to'g'ridan to'g'ri qabul qilishi ozgina murakkabroq. Talabalarga turli xildagi metodlarni qo'llab mashg'ulot o'tilsa va hayotiy voqealiklar bilan chambarchas bog'lansa ularning yodda saqlash qobiliyati oshadi. Mukammal o'qituvchi to'g'ri javobni o'rgatmaydi uni topish usul va shakllarini o'rgatadi.


Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- 2) berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- 3) ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- 4) talabani xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- 5) fanga qiziqitira olishi;
- 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- 7) bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- 8) har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishga erishish.

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.

Ta'lim usuli – ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo'lishi mumkin, va aksincha, xuddi shu metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.



Ta'limning texnik vositalari. TTV - bu o'zida o'quv- axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalar. Ularga quyidagilar kiradi: o'quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmlari; radioeshittirish; teleko'rsatuvlar. Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash (kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar. Ta'limning texnik vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.


Tushunchalar tahlili metodi

Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
Hikoya	O'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan

	ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.
Didaktik o‘yin	O‘rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o‘yin ham ijtimoiy faoliyat ko‘rinishi sanaladi.
Tushuntirish	O‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan, odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniladi.
Ta’limning texnik vositalari	TTV - bu o‘zida o‘quv- axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalar. Ularga quyidagilar kiradi: o‘quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmlari; radioeshittirish; teleko‘rsatuvlar.
Ta’lim metodlari	O‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig‘indisi tushuniladi.
Ta’lim usullari	Ta’lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o‘zaro bir-biriga bog‘langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Ta’lim metodlarini tanlab olish shartlari

1. Ta’limning umumiy maqsadlari.
2. Fanning va o‘rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o‘ziga xosliklari.
3. Biror fanni o‘qitish metodikasining o‘ziga xosliklari. O‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari. Interfaol metodlar.
4. Materialni o‘rganishga ajratilgan vaqt.
5. O‘quv mashg‘ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
6. O‘quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
7. O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
8. Ta’lim muassasasining moddiy ta’minlanganligi.
9. O‘qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.



BBB jadvali

№	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1	2	3	4	5
1.	Elektr yuritmalar haqida qanday ma’lumotga egasiz?			
2.	Elektr yuritmalar qaysi qonun asosida ishlaydi?			
3.	Elektr yuritmalarning tarkibiy			


	tuzilishi qanday?			
4.	Sanoat korxonalarida elektr yuritmalarning muhim omili?			

“6x6x6” ta’lim metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o’zida 36 nafar o’quvchini muayyan faoliyatga jalb yetish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. “6x6x6” metodi asosida tashkil etilayotgan mashg’ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo’lgan 6 ta guruh o’qituvchi tomonidan o’rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o’qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhlar bittadan vakil bo’ladi. Yangi shakllangan guruh a’zolari o’z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. Eng muhimi, mashg’ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o’quvchidan iborat bo’lgan bir necha guruhlarda ham qo’llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o’rtasida “6x6x6” metodi qo’llanilganda vaqtni ko’paytirishga to’g’ri keladi. Chunki bunday mashg’ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko’p vaqt talab etiladi. So’z yuritilayotgan metod qo’llanilayotgan mashg’ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

“6x6x6” metodidan ta’lim jarayonida foydalanish o’qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo’lishni talab etadi. Guruhlarning to’g’ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to’g’ri hal etilmasligiga sabab bo’lishi mumkin.



Fikr, sabab, misol, umumlashtirish (F.S.M.U.) metodi

F.S.M.U. metodining tavsifi. Bu metod mashg’ulotda o’rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo’yicha talabalar o’z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko’rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o’rgatish va mashq qildirish metodidir.

Bu metod talabalarni erkin fikrlashga, o’z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o’z fikrini o’tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, talabalar tomonidan o’quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va o’zlashtirish darajasini aniqlashga, baholashga o’rgatadi.

FSMU metodining umumiy sxemasi

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko’rsating

M– ko’rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

FSMU metodini amalda qo'llash namunasi:

O'qituvchi quyidagiga o'xshagan vazifalar yozilgan tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab, mashg'ulot vaqtida kichik guruhlar yoki alohida talabalarga tarqatadi.

Vazifa. "Asinxron motor" mavzusi yuzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon yeting.

F - Asinxron motor o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulanadi.

S - Asinxron motorning stator chulg'ami o'zgaruvchan tokda ishlaydi

M - Asinxron motorning stator chulg'amiga o'zgaruvchan tok ulanganda aylanuvchan magnit maydon hosil bo'ladi va bu maydon rototni aylantiradi.

U - Asinxron motorlar o'zgaruvchan tokda ishlaydi.

O'qituvchi vazifani bajarish uchun vaqtni belgilab e'lon qiladi. Vazifalarni bajarish vaqtida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Talabalar o'zlariga berilgan vazifani bajarib bo'lgandan so'ng, ularning umumiy muhokamasini tashkil qiladi. Vazifani eng yaxshi bajarganlar rag'batlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonuniyatlariga ega. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv, ya'ni ta'limiy xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir. O'qituvchi darsni turli metodlar orqali yoritib berar ekan o'quvchi-talabada ichki yondashuv va mustaqil fikrlash ortib boraveradi.

Adabiyotlar

1. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3775-sonli Prezident Qarori.

2. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., To'raqulov X.A, Haydarov M. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T., 2008.

3. Shokirova H. Ta'limda innovatsion texnologiyalarning o'rni. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2013.

4. Ismailova Z. K., Maxsudov P.M., Ergashev O.K., Matkarimov K.J. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma).

5. Azizxujayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.: "Cho'lpon", 2013. – 200 bet.

6. Xakimova M.F. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2013.

7. Toxtaxodjayeveva M.X. va boshqalar. Pedagogika. –Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2010.

8. Nematov L.A. Bo'lajak elektr energetika mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari. –Toshkent, 2020. 4 son 269 bet

9. Mavlonova R.A., Arabova M., Saloxiddinova G'. Pedagogik texnologiya. –T., 2008.

10. Hoshimov O.O., Saidahmedov S.S. Elektr yuritma asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Ikkinchi nashri. –Toshkent: "Talqin".

11. Rustamov S.Sh. Oliy ta'lim muassasalarida energetika mutaxassislariga elektr yuritma asoslari fanini o'qitishning innovatsion axborot texnologiyalari // TDPU "Ilmiy axborotlar" ilmiy-nazariy jurnali. 2021-yil 1-son.

12. Rustamov S.Sh, Jo'rayev M.Q, Muzaffarov F.F DC motors. reasons for failure. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Vol. 10, Issue 4. India-2020. 759-765 b.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz

2. www.pedagog.uz

3. www.tdpu.uz

O'tkir O'TANOV

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va malakasini
oshirish hududiy markazi
amaliy fanlar va maktabdan tashqari
ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

VATANPARVARLIK – YUKSAK MA'NAVY-AXLOQIY FAZILAT SIFATIDA

Mazkur maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarining muhim jihati bayon etilgan. Jumladan, vatanparvarlik – yuksak ma'naviy-axloqiy fazilat sifatida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, ma'naviyat, ma'rifat, istiqbol, fidoyilik, mafkura, milliy g'urur, milliy tuyg'u, tarbiya.

В данной статье описывается важный аспект духовного и морального воспитания. В частности, чувство патриотизма анализируется как высокое духовное и моральное качество.

Ключевые слова: патриотизм, духовность, просвещение, перспектива, преданность, идеология, национальная гордость, национальные чувства, воспитание.

This article describes an important aspect of spiritual and moral education. In particular, patriotism is analyzed as a high spiritual and moral quality.

Key words: patriotism, spirituality, enlightenment, perspective, devotion, ideology, national pride, national feeling, upbringing.

Kirish. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviyat-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" deb ta'kidladi. Muhtaram Prezidentimiz "Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir" deb ta'kidladi [1].

Asosiy qism. Davlatimiz rahbari tomonidan ma'naviyat-ma'rifat masalalariga bunday e'tiborning qaratilishi bugungi kun ta'lim-tarbiyasiga davlat va jamiyat talabi, millat manfaati yo'lida kelajak avlodning ma'naviy-axloqiy salohiyatning oshirilishi, bu orqali Vatan taqdiri va istiqboli uchun o'zlarining samarali mehnatini ayamaslikni talab etadi. Buning uchun yosh avlod ongida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, bu jarayonda har bir fuqaro o'zining ijtimoiy burchini to'la anglashi, ijtimoiy jihatdan faol bo'lishi, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan munosabat bildira olishi, shaxsiy manfaatni milliy manfaat bilan uyg'unlashtira olishi, o'rni kelganda xalq manfaatini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya bilishi lozim.

So'nggi yillarda yurtimizda barcha sohalarida ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, fan va ta'lim, ichki, tashqi siyosat masalalarida juda ulkan ishlar jadal tarzda rivojlanmoqda. Bu islohotlar maqsadi yurtimizni rivojlangan mamlakatlar qatorida o'rin egallashini ta'minlashdan iborat. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar solsak, jumladan, Janubiy Koreyaning iqtisodiy mo'jizasi nimadan iborat? Koreya mo'jizasining muhim jihati shundaki, har bir davlat tashkilotining har bir xodimi, qolaversa, barcha fuqarolar davlatining rivojlanishiga o'zining hissasini qo'shishganidir.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va yangilanishlar ham O'zbekistonni ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishiga zamin yaratishdan iborat. Yangi O'zbekiston bugun ulkan marralarni zabt etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. 2030-yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirish va ko'plab ustuvor maqsadlarni ko'zlaganmiz. Ko'zlagan marralarni zabt etish, ulkan rejalarini amalga oshirish esa, eng avvalo, barchadan birdek fidoyilikni, O'zbekistonimizning 34 milliondan ortiq aholisidan faollikni, Vatani taqdiri va istiqboli uchun o'zlarining samarali mehnatini ayamaslikni talab etadi.

Demak, bunday ulkan maqsadlarni amalga oshirishda yoshlarimizdan ma'naviy yetuklikning eng muhim belgisi sanalgan *vatanparvarlikni*, ya'ni vatanni sevishni, uni qadrlashni, yurt taraqqiyoti yo'lida

o'zining kuch-qudratini ayamaslikni, buyuk ajdodlarimizdek o'z vatani yo'lida fidoyilik ko'rsatishini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli davlat bo'lib, unda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya ana shu millat va elat vakillarining hayotiy yondashuvi va ijtimoiy dunyoqarashiga tayangan holda yagona maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilishiga bog'liq.

O'zbekiston buyuk davlat darajasida tarraqqiy etishi uchun jamiyatda xalqning ma'naviyatini rivojlantirilishi zarur. Zero, ma'naviy kamol topgan insonlargina buyuk kelajak sari intiladilar. Vatandarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

“Vatandarlik – o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilari vatandarlik tuyg'usining darajasi bilan bog'liqdir”.

Vatandarlik – tug'ma, irsiy xususiyat emas, balki ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadigan ma'naviy-axloqiy xislat. Yosh avlodni vatandarlik ruhida tarbiyalash jarayoni insonda turli fazilatlarni shakllantirish, ya'ni aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, huquqiy, fuqarolik, milliy o'zlikni anglash, sofdillik, insonparvarlik, millatparvarlik va boshqalarning umumiy majmuida tarkib topadi.

Bu muqaddas g'oyalar millati va e'tiqodidan qat'iy nazar, yosh avlodning, har bir fuqaroning ongiga singdirilishi kerak. Bugungi yosh avlodda milliy g'urur, milliy tuyg'u kabi tushunchalarni tarbiyalash vatandarlik muammosi bilan bog'liqligini har bir O'zbekiston fuqarosi, farzandlari “yaxshi anglamog'i va unga o'z ongi, ixtiyori, xohishi va istagi bilan munosabatda bo'lmog'i darkor”.

O'zbekistonni rivojlantirishning, mustaqillikni mustahkamlashning asosiy negizlaridan biri “Vatandarlik” deb ta'kidlanar ekan, demak, bugun vatandarlik tarbiyasi davlat ahamiyatiga molik muammo sifatida qaralishini talab etadi.

Darvoqe, jamiyatimiz tubdan yangilanayotgan bir sharoitda hali ham ayrim shaxslar, guruhlar tomonidan iqtisodiy va siyosiy islohotlarga loqaydlik bilan qarash hollari, ya'ni mansabparastlik, qonunbuzarlik, vatandurushlik, shuningdek, farzandlarimizni tarbiyalash jarayonidagi oqsoqlanish hollari ham sodir bo'lib turibdi. Shunday ekan, farzandlar tarbiyasida hushyor bo'lish, ularni mehnatsevar, vatandar qilib tarbiyalashga e'tiborni qaratish muhim pedagogik zaruriyat sifatida hal etishni taqozo etmoqda. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, bugungi kunda yoshlarni vatandarlik ruhida tarbiyalash ishlarini qoniqarli deb bo'lmaydi. Bu esa o'z-o'zidan ma'lumki, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida vatandarlik ruhida tarbiyalashni keng miqyosda amalga oshirishni maqsadga qilib qo'yadi. Yoshlarni vatandarlik ruhida tarbiyalash jamiyatning, ijtimoiy muassasalarning ta'sirida amalga oshadigan jarayondir. Farzandlarimizda vatandarlik, milliy g'urur, iftixor qanchalik kuchli rivojlansa, ular kamoloti ham shunchalik mustahkam bo'ladi va mamlakatimiz yuksak taraqqiy etadi.

Vatandarlik uzluksiz, tizimli tarzda samarali tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat natijasi, shuningdek, vatandar shaxs faoliyatining sifat ko'rsatkichidir. Vatandarlik muayyan tarixiy-obyektiv sharoitda goh yashirin, goh oshkora (xususan vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lish, xalqaro maydonda mamlakat sha'ni, obro'-e'tiborini ko'tarish, yurt taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish va hokazolar) tarzda namoyon bo'ladi. Vatandarlik tushunchasi ham mantiqiy, ham gnesologik nuqtayi nazardan shaxsning vatan hamda uning mavjudligiga nisbatan qadriyatli yondashuvi mazmunida o'z ifodasini topadi.

Muhokamalar va natijalar. Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda, “vatandar shaxs” tushunchasiga quyidagicha ta'rif bepish maqsadga muvofiqdir:

Vatandar shaxs – vatan tuprog'i va davlat ramzlarini muqaddas deb biluvchi, ularni qadrlovchi yurt ozodligi, mustaqilligi hamda millat sha'ni, or-nomusi uchun kurashuvchi, ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti va yutuqlaridan quvonuvchi, muvafaqqiyatsizliklaridan qayg'uruvchi, ijtimoiy burch mohiyatini chuqur anglovchi, mamlakat obro'-e'tiborini oshirish yo'lida mehnat qiluvchi, shuningdek, fidoyilik, sadoqat, mardlik, jasorat, xalqparvarlik, baynalminallik, hamda xalq o'tmishidan faxrlanish va yurt istiqboliga ishonch tuyg'ulariga ega bo'lgan subyekt.

Vatandar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi:

1. Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat.
2. O'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik.
3. Vatan va millat tarixidan g'ururlanish.
4. Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish.
5. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish.

6. Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish.
7. Vatan va millat obro'si, sha'ni, or-nomusini himoya qilish.
8. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi.
9. Vatani taqdiri va istiqboli uchun o'zining samarali mehnatini ayamalik.
10. Vatan taqdiri – mening taqdirim nazdida harakat qilish.

Vatanparvar shaxs o'z vatanini, uning boyliklari yoki vatanining qulay geografik hududda joylashganligi uchun emas, balki, o'zi Vatanning bir bo'lagi ekanligi, o'zi mansub bo'lgan millatning shu Vatanda, shu makonda yashashi uchun qadrlay olishi, unga nisbatan chuqur hurmat ko'rsatishi zarur.

Vatanparvarlikning ijtimoiy-pedagogik asoslari quyidagilardan iboratdir:

- vatanparvarlik tuyg'usi ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida shaxsning vatan hamda uning mavjudligi darajasiga nisbatan yondashuvida aks etadi;
- vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish shaxsning umumiy kamoloti, ma'naviy dunyoqarashi, tafakkuri, shuningdek, hayotiy tajribasi negizida yuzaga keladi;
- vatanparvarlik individual xususiyat bo'lib, u tarixiy obyektiv sharoitda namoyon bo'luvchi psixologik-pedagogik hodisa hisoblanadi;
- vatanparvarlik ma'naviy ehtiyoj sifatida uzluksiz, tizimli hamda samarali tarzda tashkil etiluvchi pedagogik-ijtimoiy tarbiya natijasida qaror topadi;
- shaxsda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash uning ijtimoiy jamiyat bilan yakdilligini ta'minlashga xizmat qilish bilan birga davlat va xalq manfaatlariga uyg'un keladi.

Xulosa o'rnida aytilish mumkinki, yosh avlodda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishimiz yurt ravnaqi, mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligi uchun muhim asos yaratishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni "2019-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish" masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. Ma'rifat gazetasi. 2019-yil 24-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazgan videoselektor yig'ilishida nutqi. Hurriyat gazetasi. 2021-yil 20-yanvar.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent: "Universitet", 1998. – 148-bet.
4. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2001. – 128 b.
5. Qosimova O. Talaba-qizlarning milliy ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. ... diss. – Samarqand, 2020. – 141 b.
6. Xasanov O. Liderlar kitobi. –Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2020. -340 b.

Xol XUDOYQULOV

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
professori
pedagogika fanlari doktori

Dilfuza BOBOQULOVA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
kafedrasida o'qituvchi

BOZOR TALABI ASOSIDA O'QUVCHILARGA TADBIRKORLIK, TEJAMKORLIK VA IQTISODIY TARBIYA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Ushbu maqolada boshlang'ich sinfdan o'quvchilarga oilada va maktabda tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirishda hamkorlik texnologiyasi haqida so'z yuritilar ekan, bunday tushunchalar orqali yoshlarni hayotga tayyorlash aynan dolzarb muammo ekanligi batafsil ochib berishga harakat qilingan. Bu muammolarni hal etishda maktab, oila hamkorligi va ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatib o'tilgan. Jamiyat rivojlanishiga qarab daromad manbai, kuchli iqtisodiy imkoniyatlarda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: jamiyat, rivojlanish, daromad, tadbirkorlik, tejamkorlik, xarajatlarni kamaytirish, elektr energiya, suv, tabiat va atrof-muhitni asrash, isrofgarchilik.

В данной статье рассматривается технология сотрудничества в формировании понятий предпринимательства, бережливости и экономического образования у учащихся начальных классов в семье и школе, и делается попытка подробно объяснить, что подготовка молодых людей к жизни через такие концепции является реальной проблемой. Было показано, что школы, семейные партнерства и образование играют важную роль в решении этих проблем. По мере развития общества источник дохода находит отражение в сильных экономических возможностях.

Ключевые слова: общество, развитие, доход, предпринимательство, экономия, снижение затрат, электричество, вода, природа и окружающая среда, отходы.

This article discusses the technology of collaboration in the formation of the concepts of entrepreneurship, thrift and economic education in primary school students in the family and school, and tries to explain in detail that the preparation of young people for life through such concepts is a real problem. Schools, family partnerships, and education have been shown to play an important role in addressing these issues. As society develops, the source of income is reflected in strong economic opportunities.

Key words: society, development, income, entrepreneurship, savings, cost reduction, electricity, water, nature and environment, waste.

Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab, tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Amir Temur (Temur tuzuklari)

Kirish. Iqtisodiy ilimlarni o'rganish iqtisodiy jarayonlarning tub mohiyatini to'g'ri tushinishda qo'l keladi. Shuning uchun bunday bilimlarni yoshlikdan o'zlashtirib olish yaxshi samara beradi va natijada har bir fuqaroda tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirishga oid imkoniyatlari paydo bo'ladi. Shunday ekan jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalarini o'rgatish va uni boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlash muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Uzluksiz iqtisodiy ta'lim konsepsiyasini amalga oshirishdan ko'zlagan asosiy maqsad xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan ta'lim andozalariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir. Jamiyat rivojlanishiga qarab daromad manbai sifatida bilimlar, innovatsiyalar va ularni amalda qo'llash usullari ko'proq amal qilishi, ayniqsa, kuchli iqtisodiy imkoniyatlarda namoyon bo'ladi. Qayd etish lozimki, rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi o'z milliy tarbiya tizimlarini isloh qilishni amalga oshirdilar, ularga ko'p miqdorda moliyaviy mablag'larni kiritdilar. Respublikamizda tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi sharoitida davlatning raqobatbardoshligi uning mavjud ilmiy-ma'rifiy va fan-texnika salohiyatidan to'laqonli foydalanish, innovatsiyalarni tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiyotgagina emas, bilimlardan tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy ustunlik sifatida foydalana olish turli iqtisodiy tizimlarning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omilga aylandi. Ayni shu sababli bugun boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlab tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirish texnologiyasini oila bilan hamkorlikda olib borish, shu jumladan global fikrlash salohiyatiga ega bo'lislari, o'z mintaqasi, mamlakatidagina emas, balki butun dunyoda yuz berayotgan jarayonlarni bilishlari va tushunishlari lozim. Bu ta'limning mazmun va mohiyatiga nisbatan butunlay yangicha yondashuv dolzarb muammo hisoblanadi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallamdan rivoyat qilingan hadisi shariflarda ham isrofgarchilikdan qaytarilib, tejamkorlikka targ'ib etiladi: "Allohning nozu ne'matlaridan xohlagancha yeb-

ichinglar, xayr-u ehson qilinglar, kiyinib yasaninglar, lekin isrofgarchilik va manmanlikka yo‘l qo‘ymangizlar!” - deyilgan.

Kimki tejamkorlik fazilatlariga ega bo‘lsa u dunyodagi eng hurmatli, fayzu-barakali va boy insondir deb hisoblashgan. Chunki davlatning ertangi kuni tadbirkor, tejamkor va iqtisodiy qudratga ega bo‘lgan yoshlarga bog‘liq. Shuning uchun ham yoshlarga tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya berish orqali biz davlatimizni har tomonlama qudratli ekanligini ko‘rsata olishimiz kerak. Shu bois ham iqtisodiy tarbiyada – fan texnika yutuqlaridan oqilona foydalanishga e‘tiborni kuchaytirish shu kunning muhim dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yurtimizning har bir fuqorosi o‘z yurtining tinchligi, barqarorligi va uning iqtisodiy rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shsa taraqqiyot o‘z-o‘zidan olg‘a siljiydi. Buni amalga oshirish uchun esa birinchi navbatda boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlab tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy bilimlarni berish va u orqali iqtisodiy muomala madaniyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Ma‘lumki, azaldan otalarimiz bolalarni xo‘jalik ishlari bilan tanishtirib, oilaning kirim va chiqim ishlarini ularga o‘rgatib kelishgan. Shu tarzda bolada oilaning moddiy ahvoli haqida tasavvur hosil bo‘lishiga e‘tibor berilgan.

O‘quvchilarni tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya berishda xalqimizning milliy va ma‘naviy merosidan keng va samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Har bir davrda tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya berish ham muhim axloqiy tarbiya hisoblangani kabi, bu masala bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega. Biz tadbirkorlikni, tejamkorlikni va iqtisodiy tarbiya davlat siyosati darajasida ko‘tarilishida eng avvalo, o‘quvchilarda iqtisodiy tejamkorlik tushunchalarini shakllantirishdan boshlash lozimdir. Maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiyalash har bir darsning nazariy asosi hisoblanadi. Mehnat, tabiatshunoslik, o‘qish, ona-tili, matematika va, umuman boshqa darslarda, bolaning tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiyalash xislatlari shakllantiriladi. Bu darslarda o‘yinchoqlarni yoki o‘quv qurrolarini toza saqlashdan tortib, tabiatni asrash, atrof-muhitni himoya etish va mamlakatimiz resurslaridan oqilona foydalanishgacha bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar o‘quvchilarga yetkazib boriladi. O‘quvchilar mehnat darslarida biron-bir narsa yoki o‘yinchoqni yasash davomida har bir o‘quv qurolini asrab avaylashga, qog‘oz, qalam, yelim va yana boshqa ish qurollarni tejab ishlatishga, isrof qilmaslikka o‘rgatilib boriladi. Shuningdek chiqindi materiallar (mato qoldig‘i mevalarning urug‘i va boshqalar)dan turli narsalar yasashni o‘rganib, o‘quvchilarda tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiyalash ko‘nikmalari shakllanadi. Tabiatshunoslik darslari ham tejamkorlik tarbiyasini o‘quvchilar ongiga singdirishda muhim ahamiyatga ega. Bu darsda o‘quvchilar suv, tuproq havo tabiat boyliklari, o‘simliklar, hayvonlar to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lishi bilan bir qatorda mana shu tabiat boyliklarini tejab ishlatishga, isrof qilmaslikka, asrab-avaylash orqali iqtisodiy tarbiyaga o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona-tili darslarida ham o‘quvchilarga tejamkorlik tarbiyasi singdiriladi. Bu dars orqali tejamkorlik tarbiyasini berish, diktant, bayon, insho, hikoya yozdirish mobaynida shakllantiriladi. Uning oldida turgan vazifalarni, uzoq davr davomida iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va iqtisodiy tarbiyaning vujudga kelishi borasida qisqacha to‘xtalib o‘tish zaruriy ehtiyoj deb hisoblayman.

Tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirishda, bevosita har bir yosh avlodni jamiyatga kirib kelishida, shaxsni iqtisodiyot asoslari bilan tanishtirish, tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabilar haqida fikrlay olish kabi fazilatlarini kamol toptirishdan iboratdir. Tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya abu ta‘lim oluvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish negizida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash, ichki bozorni to‘ldirish, kichik va o‘rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod etilgan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko‘paytirishga qayg‘urish tuyg‘ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishdir.

Ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish va shu asosda mamlakatimiz ishbilarmonlik va investitsiya muhiti darajasining xalqaro reytingini yanada oshirish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya islohotlar samarasi tadbirkorlar faoliyatini erkinlashtirishda, ularga keng yo‘l ochib bergan holda nazorat qiluvchi organlarning vakolatlarini aniq-ravshan belgilab olishda va, albatta, tadbirkorlik subyektlari huquqlarining himoyasini amalda ta‘minlashda ko‘rinmoqda.

Tadbirkorlik (inglizcha – enterprise, enterprising, ruscha – предпринимательство) – foyda olish maqsadida fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z tashabbusi asosida mustaqil faoliyati.

Sohibqiron Amir Temur tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlab va tadbirkorlarni ulug‘lab, ularning nafaqat o‘zi, balki jamiyat uchun ham katta nafi tegishini, inson doimo faol bo‘lishini ta‘kidlab, o‘z tuzuklarida “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat‘iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-

minglab, tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir” , deb ko‘rsatadi. Tadbirkorlik va iqtisod tushunchalari o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, bir birini to‘ldiradi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar faqat tovar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishga oid munosabat emas, balki tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish, ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun yer uchastkasi olish, bino olish yoki qurish, yoqilg‘i, xom ashyo, asbob-uskunalarga ega bo‘lish bilan bog‘liq munosabatlarni ham qamrab oladi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar doirasi, bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan birga, borgan sari kengayib boradi. Xususan, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida korxonalar, fermerlar, dehqon xo‘jaliklari, banklar, birjalar va shunga o‘xshash boshqa subyektlar o‘ziga xos maxsus faoliyat ko‘rsatadilar. Bunday kishilar o‘z tadbirkorligi bilan yurt faravonligi va taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shadigan, xalqi va o‘zi uchun mustaqil yaxshi imkoniyatlar yaratadigan insonlardir.

Iqtisodiyot “yunoncha” so‘zdan olingan bo‘lib “uy xo‘jaligini boshqarish” degan ma‘noni bildiradi. Iqtisodiyot inson faoliyatining iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, uning natijalarini o‘zlashtirish, mavjud moddiy va mehnat imkoniyatlaridan foydalanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning muhim tomonidir.

Iqtisodiy ta‘lim-tarbiya bu maxsus tayyorlangan kishilar (mutaxassis pedagoglar) rahbarligida amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, unda ta‘lim oluvchiga iqtisodiy tarbiya berish, ya‘ni iqtisodiyotning ma‘lum tamoyillari, qonun-qoidalarini hamda kategoriyalarini tushuntirish va iqtisodiy munosabatlarni tarbiyalab, ma‘lum sohalari haqidagi bilimlarni o‘qitish amalga oshiriladi. Iqtisodiy ta‘lim pedagogikasi iqtisodning umumiy asoslari haqida baxs yuritadi va zamonaviy iqtisodiy xulq-atvor me‘yorlarini iqtisodiy madaniyatni egallash, zamonaviy iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, mehnat vositalariga va natijalariga tejamkorlik munosabatini tarbiyalashdan iborat.

Inson o‘z umri davomida orzu qilib, unga erishib yaxshi kun kechirishlari uchun, ularga doimo oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va turli hayotiy ehtiyoj vositalari zarur. Qachonki insonlar ushbu ehtiyojni qondirishda ma‘lum ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lsalar ular real hayotda iqtisodiy va ma‘naviy inqirozlarga duch kelmaydi. Iqtisodiyotning bu turlari, darajalar, shakllari qanday bo‘lishdan qat‘iy nazar ularning hammasi bir maqsadga bo‘ysungan, u ham bo‘lsa insoniyatning yashashi, ko‘payishi va kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berish, turli xil hayotiy vositalarni yaratib ularning ehtiyojlarini qondirib borishdan iboratdir. Inson ham tavar sotuvchi, ham tavar oluvchi rolini bajaradi. Bu jarayonda ulardan bir qismi ishlab chiqaruvchi, ikkinchi qismi esa iste‘molchi, demak ishlab chiqaruvchi iste‘molchilar mavjud. Demak, insonlarga oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, uy-ro‘zg‘or buyumlari, transport, isitish va sovitish, uzatgich, yoritgich kabi bir qator vositalar kerak. Uning barchasi yashashi uchun kerak bo‘lganligi sababli biz ularni ehtiyojlar deb ataymiz.

Ehtiyojlar - tabiiy ehtiyoj, moddiy ehtiyoj, ma‘naviy ehtiyoj ko‘rinishda bo‘ladi. Bizga ma‘lumki, iqtisodga oid ehtiyojlar va ularga mos tovarlar doimo inson uchun qiziqarli manba bo‘lgan va unga erishish yo‘llari doimo inson tafakkurining birinchi bosqichlaridan o‘rin olgan.

Muhokamalar va natijalar. Shunday qilib maktablarda iqtisodiy tarbiyaning pedagogik jarayoni quyidagi sifat bosqichlariga ega bo‘lishi lozim.

- davlatning iqtisodiy ahvolini juda yaxshi bilish;
- turli mulk turlari va korxonalar faoliyatining iqtisodiy asoslarini bilish;
- dalillarni xolisona baholash va mavjud iqtisodiy asoslarni tahlil etish uchun savodxonlik;
- ishlab chiqarish va xo‘jalik ishlarida, iqtisodiy munosabatlarda tashabbuskorlik.

Iqtisodiy tarbiya shartlari o‘quvchilardan turli savollar xilma-xilligini talab etadi. Ular quyidagilar:

- oilada va umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida iqtisodiy tarbiyaning bog‘liqligi, uning maqbul bo‘lishi;
- o‘quvchilar bilim olishida didaktik tamoyillarning roli;
- maktabda o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida amaliy tajribalar xulosasi va shu bilan birgalikda ilmiy-texnologik taraqqiyotning tezlashuvida ilm-fanning rolini tushuntirish orqali o‘quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash;
- davlat va xususiy mulkni ehtiyot qilish, elektr energiya, gaz, o‘quv adabiyotlar, asbob-uskunalar, maktab binosi, uy jihozlari va hokozo;
- moddiy zaxiralardan tejab-tergab foydalanishning iqtisodiy jihatlarini tushuntirish;
- o‘quvchilarga darsdan tashqari vaqtlarida iqtisodiy tarbiya berishni tashkil etish;
- umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarini oliy o‘quv yurtlari va undan keyingi sharoitlar haqida ko‘nikmalar hosil qilish uchun iqtisodiy fikrlashga o‘rgatish.

Yangi iqtisodiy tafakkur shakllanishida iqtisodiy tarbiyaning yangi bosqichlari aniqlanib, quyidagi yo‘llar bilan o‘quvchilarning iqtisodiy ta‘lim-tarbiyasini oshirish mumkin:

- olingan nazariy bilimlar asosida amaliy ishlarini bajarish jarayonini tashkil etish;

- kasbiy o'qitish va har bir o'quvchi malakasini oshirish uchun lozim bo'lgan iqtisodiy tayyorgarlik majburiyatlari;
- ishlab chiqarish va mehnat xarakteri, iqtisodiy sohada kadrlarning o'z sohalarini bilish darajasini aniqlash;
- iqtisodiyot sohasida yangi bilimlarni egallash tizimi, yangi axborot texnologiyalarini egallash (ilmiy adabiyotlar va internet).

Odamlar o'z faoliyatlari jarayonida tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy manbaga va kuchga zarurat sezib, uni to'plash payida bo'lganlar.

Bugungi kunga kelib iqtisodga oid manbalar juda ko'plab uchraydi. Avvalo, iqtisodiy tarbiya haqida mukammal tushunchaga ega bo'lmoq darkor. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnasevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish qobiliyatini boshlang'ich sinfdan boshlab maktab va oila hamkorligida yo'lga qo'yish lozim.

Demak, jamiyat mulkini tejash orqali o'zimizdan tashqari jamiyatga ma'lum darajada foyda keltirgan bo'lamiz. Tejamkorlik jarayoni oila yoki davlatning moddiy qudratini mustahkamlashdan tashqari, odamlarni turmush kechirish me'yoriga amal qilishni ham vujudga keltiradi. Non, tuz, qog'oz, yoqilg'i, elektr quvvati, gaz, neft, ruda, mato, qo'yingki, barcha ne'matlar aziz. Ammo inson o'zi yaratuvchi, o'zi iste'molchi, o'zi nazoratchi bo'lganligi uchun ham ularning hammasidan arzonroqdir. Shu sababli, avvalo, insonning o'zini uning umri, kuchi, aql-zakovati, iste'dodi, kayfiyatini, mehnatga qobiliyatini asrash umrini uzaytirish tejamkorlikning eng xususiyatli tomoni hisoblanadi.

Vaqt inson ixtiyorida bebafo xazina. Uni faqat dunyoni o'rganish va o'zgartirishga, shaxsiy manfaati va el-yurt xizmatiga, mehnat samadorligini oshirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirishga sarf etish xususiyati har bir kishida shakllanishi zarur bo'lgan ulug'vor fazilatdir. Tejamkorlik xususiyatlari kishilarda ularning majoziy xislatlariga muvofiq ravishda shakllanadi va xasislik, pishiqlik, saxiylik, halollik tarzida ko'zga tashlanadi. Yoshlarga nimani, qachon, nima uchun va qay darajada asrash lozimligi, tejashning mohiyati va usullarini to'g'ri anglatish tejamkorlik tarbiyasining maqsadi hisoblanadi.

Xulosa. Demak xulosa qilib aytganda tejamkorlik tarbiyasining mazmuni, ta'sirchanligi va samarasi bilan bolalar dastlab o'z oilalarida tanishadilar. Ota-onaning hal qiluvchi roli ana shu tanishuvdan boshlab yuzaga chiqadi va sekin-asta kuchaya boradi. Namuna ko'rsatish, ishontrish, nasihat qilish, maslahat berish yo'li bilan farzandlarni tejamkor bo'lishga safarbar etish, ular faoliyatini doimo nazorat qilib borish, lozim bo'lsa, isrofgarchilik qilganlari uchun jazolash va ota-onalarning tarbiyalay olish mahoratlariga bog'liq. Tarbiyaviy ta'sir tarbiyalanuvchi shaxsida qisqa muddatli, uzoq muddatli, beqaror yoki turg'un asorat hosil qilishi mumkin. Ta'sir qanchalik to'g'ri, asosli va kuchli bo'lsa, farzandlarda tejamkorlikka moyillik, ishqibozlik shu qadar mustahkam shakllanadi. Ota-onalar hovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, kir yuvish va kiyim-kechakni yamash, ro'zg'or asboblari va uydagi jihozlarni ta'mirlash sohasida bolalar mehnatini tashkil etadilar.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha beshta ustvor yo'nalishlar yuzasidan "Harakatlar strategiyasi" to'g'risi"dagi Farmoni, 1-ilova. -T.: "O'zbekiston", 2017-y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017. - 592.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008-y.
5. Abu Ali ibn Sino. Hikmatlar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2006. – 24 b.
6. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri.–T.: "A.Qodiriy", 1993. – 223 b.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: "O'zbekiston", 2002. –160 b.
8. Jonimatova X. Abu Ali ibn Sino ta'lim–tarbiya to'g'risida. – Toshkent: "O'zbekiston", 1997. – 97 b.
9. Kaykovus. Qobusnoma. –Toshkent: "O'qituvchi", 2011. – 185 b.
10. Umarova X.A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ularning iqtisodiy savodxonligiga qo'yiladigan talablar. -T.: O'zPFITI, 2014.
11. Xudoyqulov X.J. Sharq mutafakkirlari iqtisod odobi to'g'risida. -Toshkent: "Navro'z", 2005. - 110b.
12. Xudoyqulov X.J. O'zbekning g'ururi-uning odobida. –Toshkent, 2007. -150 b.
13. Xudoyqulov X.J. Bozor odobi –milliy qadriyatlarimiz ko'zgusi. –T.: "Navruz", 2011.
14. Hasanbayev J. va boshqalar. Iqtisodiy tarbiya nazariyasi. -Toshkent: TDIU, 2006. -175 b.

M. DAMINOVA

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti assistenti

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Maqola maktabgacha ta'lim yoshidagi alohida yordamga muhtoj bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilish bilan bog'liq masalalar tadqiqiga bag'ishlangan. Bir qator olim va mutaxassislarning mazkur sohaning nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqot natijalari tahlil qilinib, "ijodkorlik", "ijodiy faoliyat", "ijodiy qobiliyat" kabi tushunchalarning talqini borasida turli xil yondashuvlar mavjudligi ko'rsatib berilgan. Ijodiy jarayonning alohida yordamga muhtoj bola uchun o'ziga xos terapevtik ta'sir vositasi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalitli so'zlar: alohida yordamga muhtoj bola, ijodiy faoliyat, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, maktabgacha ta'lim yoshi.

Статья посвящена исследованию вопросов, связанных с вовлечением детей с особыми потребностями в творческую деятельность дошкольного образования. Проанализированы результаты исследований, направленных на развитие теории и практики ряда ученых и специалистов в данной области. Показано, что существуют разные подходы к интерпретации таких понятий, как "творчество", "творческая активность", "творческие способности". Раскрыта важность творческого процесса как уникального терапевтического инструмента для ребенка с особыми потребностями.

Ключевые слова: ребенок с особыми потребностями, творческая деятельность, творческие способности, творчество, дошкольный возраст.

The article is devoted to the study of issues related to the involvement of children with special needs in preschool education in creative activities. The results of research aimed at developing the theory and practice of a number of scientists and experts in the field have been analyzed and shown that there are different approaches to the interpretation of concepts such as "creativity", "creative activity", "creative ability". The importance of the creative process as a unique therapeutic tool for a child with special needs is revealed.

Key words: child with special needs, creative activity, creative ability, creativity, preschool age.

Kirish. Zamonaviy jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri inson kapitali sifatini yaxshilash va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, kishilarning nostandard fikrlash asosida hayotiy muammolarning yangi, innovatsion yechimlarini izlab topish bilan bog'liq qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. O'z navbatida, mazkur masalani muvaffaqiyatli hal qilishda uzluksiz ta'lim tizimining roli beqiyosdir. Haqiqatan ham, aynan ta'lim tizimi yangi avlodda mujassamlangan jismoniy, intellektual va emotsional qobiliyat va imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratishi, tarbiyalanuvchi, o'quvchi va talabalarning ma'naviy rivojlanishi, ijodiy o'sishi, o'z salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishi va qobiliyatlarini namoyon etishiga har tomonlama ko'maklashishi lozim. Ayni paytda, tadqiqotlardan ma'lumki, insonning ijodiy imkoniyatlari juda erta namoyon bo'lib, uning eng jadal sur'atlarda o'sish davri 2-5 yoshlik bolalik paytiga to'g'ri keladi, aynan shu davrda bolaning shaxs sifatida shakllanish jarayoni qaror topadi.

Tadqiqotchilari D.B.Bogoyavlenskaya [3], V.V.Davidov [5], N.N. Poddyakov [5] va boshqalar o'zlarining ijodkorlikning psixologik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarida ijodiy qobiliyat maktabgacha bo'lgan yoshdaroq namoyon bo'lishini hamda uni maxsus tashkillashtirilgan o'quv jarayonida rivojlantirish imkoniyatlarini asoslab berishgan [6].

M.G. Yaroshevskiyalar [7] ham qobiliyatlar shakllanish jarayoni besh yoshgacha kechishini ta'kidlagan holda, maktabgacha ta'lim yoshi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratishgan.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'rganish masalasi bilan, shuningdek, G.G. Grigoreva [8], O.M.Dyachenko [9], A.A.Melik-Pashayev, Z.N.Novlyanskaya [10], Y.A. Ponomaryov [11] va boshqa olimlar shug'ullanishgan. Qator tadqiqotchilar ijodkorlikka shaxsning tashqi va ichki dunyosini o'zgartirishga yo'naltirilgan inson faoliyati sifatida qarashgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bola shaxsining shakllanishi va taraqqiyotida ham muhim rol o'ynaydi.

L.S.Vigotskiy [12], N.Y.Venger [13], T.S. Komarova [14] va boshqalar ijodiy qobiliyatga ega bolalarning psixikasi barqaror bo'lgan holda, ular o'rtoqlari bilan tezroq munosabatga kirishishlari va jamiyatda yuqori kommunikabellik darajasiga ega shaxslar sifatida ulg'ayishlarini isbotlashgan. Uzluksiz ta'lim tizimida bolalar ijodkorligini shakllantirish va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy ijodkorligi va talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkillashtirishning ilmiy asoslarini takomillashtirish masalalari mamlakatimizning I.B.Kamolov [15], D.M.Maxmudova [16], N.I.Rejemetova [17], D.B.Yakubjanova [18] kabi olimlarining ham diqqat markazida bo'lgan.

Asossiy qism. Ayni paytda, zamonaviy fanning bolalardagi ijodkorlik tabiatining obyektiv mohiyatini talqin qilish borasidagi izchil urinishlariga qaramasdan, hozirga qadar ijodkorlik hodisasining barcha qirralarini to'liq qamrab olgan yagona nuqtayi nazar shakllanib ulgurganicha yo'qligini ta'kidlash joiz. Amaliyotda ijodkorlik, ijodiy faoliyat, ijodiy qobiliyat tushunchalarining o'zaro chambarchas bog'liqligini kuzatgan holda, ularning talqiniga bo'lgan yondashuvlar ham hali bir xil maxrajga keltirilmaganini kuzatish mumkin.

Bolalarda ijodkorlik ruhini shakllantirishning asosiy shartlari ularning mustaqilligi, tashabbuskorligi va faolligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Mustaqillik deganda, mohiyatan, oldindan tanish bo'lgan xatti-harakatlarni yangi sharoitlarda qo'llay bilish va ularni bir mazmundan boshqasiga ko'chira olish ko'nikmasi tushunilib, ushbu sifat faoliyatning ijro qismiga tegishlidir. Tashabbuskorlik esa his qilish tuyg'usi bilan bog'liq bo'lib, mohiyatan, bolaning asosiy mazmunni kerakli tafsilotlar bilan to'ldira olish, o'zi bajarishi lozim bo'lgan ish mazmunini anglab yetish, yaratilayotgan umumiy kompozitsiyaga o'z shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan holda yangi mazmun bag'ishlay bilish hamda tanish obrazlardan yangi uyg'unliklar yarata olish mahoratidan iboratdir. Va nihoyat, faollik natijani qo'lga kiritish, ya'ni boshlangan ishni oxiriga yetkaza bilishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ushbu ko'nikma ham his qilish tuyg'usi, ham ijro faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Shulardan kelib chiqqan holda, bolalar ijodkorligining asosiy ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- bolaning ijodiyotga munosabati: ijodiy jarayonga kirishib ketish, hayajon va his-tuyg'ularning samimiyligi, biror narsani tasvirlash istagi.

Bu ko'rsatkich faollik sifatida ifodalanadi;

- ijodiy harakat usullarining sifat darajasi: harakat usullarini topishdagi reaksiyaning tezligi, yangi vazifalarni hal qilishdagi topqirlik, obrazni tasvirlashda yangi variantlar, elementlar uyg'unligidan foydalanish, tasvirlovchi materiallarni mustaqil ravishda topa bilish. Ushbu ko'rsatkich o'zida mustaqillik sifatini mujassamlaydi;

- bola ijodiy mahsulining sifati: u qanday mazmunni tanladi va uni qay tarzda, qanday tasvirlovchi vositalar, ya'ni kompozitsiya, rang, ritm, dinamika va boshq., yordamida ro'yobga chiqardi. Xullas, bola qay darajada tashabbus ko'rsatdi, nimani tasvirlashni rejalashtirdi.

Ko'rinib turibdiki, ijod jarayoni ham, ijodiy faoliyat ham, ijodiy qobiliyatlar ham tasavvur asosida oldin ma'lum bo'lmagan yangi narsalarni yaratishni nazarda tutadi. Ojegov lug'atida ijodkorlik sifat jihatidan yangi, ilgari mavjud bo'lmagan narsalarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi, nafaqat ma'lum bir shaxs uchun, balki boshqalar uchun ham yangi, qiymatli narsalarni, subyektiv qadriyatlarini yaratish jarayoni sifatida ta'riflangan [19].

Aksariyat tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolalardagi alohida ta'sirchanlikka e'tibor qaratgan holda ularni yorqin obrazlarga burkangan amaliy faoliyatga jalb qilish orqali ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlashgan. Ijodkor shaxs maishiy, ijtimoiy va ishlab chiqarish sharoitlariga ancha oson va yaxshiroq moslashadi, ushbu sharoitlardan samarali foydalana oladi va ularni o'zining dunyoqarashiga, xohish-istaklariga qarab faol o'zgartirishga intiladi. Shuning uchun ham, bolaning ijodiy qobiliyatlarini eng kichik yoshlaridanoq rivojlantirishga kirishish va butun bolalik davrida taraqqiy toptirish kerak.

Maktabgacha yosh ijodkorlikka moyillik qobiliyatini rivojlantirish uchun zo'r imkoniyatlarga boy davr hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlarining hujumkor faoliyat pozitsiyasi, hamma narsaga qiziquvchanliklari, doimiy ravishda kattalarga savollar berishlari, jarayonni va o'z faoliyat natijalarini so'zlar bilan sharhlash, kuchli motivatsiya, o'tkir tasavvur qilish qobiliyati va e'tiborlarini jalb qilgan narsa va hodisalarga qiziqishdagi qat'iyat bilan ajralib turadilar. Vaqti kelib ulg'aygan katta odamning ijodiy salohiyati ham ko'p jihatdan aynan shu yoshlikdagi imkoniyatlardan qanchalik unumli foydalanilganiga bog'liq bo'ladi.

Shu tariqa, ijodkorlik faqat alohida shaxslargagina xos jarayon emas, u aslida inson borligining zarur sharti bo'lib, muayyan darajada har bir odam hayotini, ayniqsa, bolalik davrini qamrab oladi. Ijodiy

jarayonlar bolalikdoyoq jadal ravishda namoyon bo'lishni boshlagan holda, keyinchalik ham shaxs rivojining tabiiy va doimiy yo'ldoshiga aylanadi. Ayni paytda, ijodiy qobiliyatlar birdaniga paydo bo'lib qolmaydi, balki asta-sekin, qadam-baqadam, oddiydan murakkabga qarab rivojlanib boradi. Ijodiy qobiliyatni muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim shartlaridan biri oiladagi va bolalar jamoasidagi iliq do'stona muhitdir. Kattalar bolaning izlanishlari va o'ziga xos kashfiyotlari uchun erkin ijod muhitini yaratib berishlari lozim. Bunda bolani muntazam ravishda ijodga undagan holda, u bu yo'lda muvaffaqiyatsizliklarga uchragan paytlarda bolaga dalda berish, uning real hayotga to'g'ri kelmaydigan g'royib g'oyalariga nisbatan ham sabrli munosabatda bo'lib, tanqid va tanbehdan tiyilish muhim o'rin tutadi.

Ijodkorlik, ayniqsa, alohida yordamga muhtoj bolalar qobiliyati taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ijodiy faoliyat bu toifadagi bolalarga salbiy his-tuyg'ular va ichki qiyinchiliklar bilan kurashishning samarali vositasi sifatida yordam beradi. Agar bola muloqotga kirishishga qiynalsa, qo'rqoq, uyatchan bo'lsa, ijodiy faoliyat uning uchun ayniqsa foydalidir. Bunday faoliyat bolaning ushbu holatdan chiqib ketishiga imkon yaratadi.

Alohida yordamga muhtoj bola, asosan, tashqi dunyo bilan aloqaning cheklanganligi, mobillik darajasining pastligi, bolaning o'z tengdoshlari va kattalar bilan erkin muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar, madaniy qadriyatlardan bahramand bo'lish, ayrim hollarda esa oddiy ta'lim olish imkoniyatlarining chegaralanganligidan aziyat chekadi. Ijodiy faoliyatda ishtirok etish bolalarning kommunikabelligini oshiradi, ularga hayotda o'z o'rnini topish, jamiyatda o'zlarini tutish modelini shakllantirish va amalda sinab ko'rish imkoniyatlarini beradi, reabilitatsion mashqlarni bajarishdagi monotonlikni yengishga ko'maklashadi.

Ijodiy jarayon bola uchun o'ziga xos terapevtik ta'sir vositasi sifatida uning o'z fikrlarini, ichki dunyosini, his-tuyg'ularini muayyan shaklda ifodalash imkonini beradi. Ijod mahsuli birgalikda tahlil qilinishi, uning yaratilish jarayonida bolaning ichki dunyosida mujassamlangan his-tuyg'ular va ichki kechinmalar tabiiy ravishda tashqariga chiqarilishi va shu tariqa ularning mohiyati anglab yetilishi hamda muayyan shaklda ifodalanishi, bularning barchasi oxir-oqibat bolaga aziyat berib kelgan tashvish va qo'rquvlardan xalos bo'lish uchun asos vazifasini o'taydi. Bunda terapevtik jarayonni bola, kattalar va ijodiy faoliyat mahsuli o'rtasidagi uch tomonlama uzluksiz muloqot va o'zaro ta'sir sifatida ifodalash mumkin.

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ijodiy faoliyat orqali bunyodkorlik va yaratish jarayonida ishtirok etish ko'nikmasiga, o'z qobiliyatlari, tirishqoqligi va mehnatsevarligi tufayli muayyan sohada o'zligini namoyon qilish va muvaffaqiyatga erishish tajribasiga ega bo'ladilar. Shu tariqa, bunday bolalarda malum ko'nikmalarni shakllantirish barobarida ularni jamiyatda ijtimoiy moslashuv jarayonining birmuncha oson kechishiga erishish mumkin.

Muhokamalar va natijalar. Ta'lim jarayoni alohida yordamga muhtoj bolalarga nafaqat ma'lum bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni yetkazib berishga, balki ularning umumiy rivojlanishiga, kamchiliklarini tuzatishga, ijodiy salohiyatlarini oshkor qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bunda har bir bolaning o'ziga xos qiyinchiliklarini hisobga olgan holda individual yondashuvni amalga oshirish talab etiladi. O'quv materiallari kichik hajmlarda taqdim etilishi, ular asta-sekin murakkablashtirib borilishi lozim. Bunday bolalar tezroq charchashlari sababli, bir faoliyatdan ikkinchisiga soddadan murakkabga qarab o'tish joiz. Tavsiya etilgan muayyan turdagi ijodiy faoliyat bolada tabiiy qiziqish uyg'otishi va hissiy yuksalishni ta'minlashga intilgan holda amalga oshirilishi juda muhimdir. Bu darslarda rangli didaktik materiallar va o'yin daqiqalaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolaga yumshoq, mehribon ohang bilan gapirish va uni kichik muvaffaqiyatlari uchun ham rag'batlantirish nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq jarayon quyidagi ta'limiy sifatlar bilan ta'minlanishi zarur:

- o'zining shaxsiy qadr-qimmatini his qilish, o'z-o'zini hurmat qilishni yaxshilash;
- barkamol shaxsni rivojlantirish uchun juda muhim bo'lgan ijtimoiy aloqalarni o'rnatish imkoniyatini yaratish;
- o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish, ijobiy ruhiyatni shakllantirish;
- salbiy xulq-atvordan qutulishga intilish.

Yordamga muhtoj bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishish va samarali natijalarni qo'lga kiritish uchun quyidagi muayyan qoidalarga rioya qilinishi lozim:

- faoliyatni o'quvchilarning shaxsini shakllantirishga yo'naltirgan tarzda tashkillashtirish;
- mashg'ulot jarayonida muvaffaqiyatli vaziyatlarni shakllantirish zaruratini amalga oshirish;
- bolaning yoshi, jismoniy va intellektual salohiyatini hisobga olish;
- bolalarda ijobiy hissiyotlarni keltirib chiqaradigan muhitni yarata bilish;
- turli tadbirlarning o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlagan holda birlashtirish;

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

- o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan ehtiyojini ro'yobga chiqarish zaruriyatini hisobga olish;

- bolalar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish.

Ayni paytda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun faqat an'anaviy ta'lim shaklining o'zi yetarli emas. Ta'lim faoliyatining qo'shimcha, o'quvdan tashqari shakllaridan ham keng foydalanish talab qilinadi. Bunda mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda bolalarni boshqa ta'lim shakllarida (masalan, ekskursiya, sayohat, va h.k.) ishtirok etishga jalb qilish yaxshi natijalarga olib keladi.

Ushbu yo'nalishda, jumladan, ijodiy-ko'ngilochar tadbirlardan ham samarali foydalanish mumkin. Ijodiy-ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazishdan maqsad – badiiy-ijodiy faoliyatga barqaror turtki berish, bolalarga ijodiy jarayon ishtirokchilari sifatida o'z nuqtayi nazarlarini, kayfiyatlarini ifoda etishga sharoit yaratib berishdan iboratdir.

Bolalarda mujassamlangan ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarishning samarali vositasi sifatida mehnat terapiyasi ham alohida ahamiyatga egadir. Mehnat terapiyasining asosiy maqsadi bolaning ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydigan shaxsiyat sifatini maksimal darajada rivojlantirishdir.

Mehnat ta'limining vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning ko'ruv idrokini (rang, miqdor, shakl, o'lcham tushunchalari vositasida) rivojlantirish;

- sensomotorikani rivojlantirish – qo'l va ko'z harakatlarining mustahkamligini ta'minlash;

- qo'lning manipulyativ faoliyatning asosi sifatida qo'llab-quvvatlovchi, ishora qiluvchi funksiyalarini shakllantirish;

- mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish, mehnat odatini va odobini tarbiyalash, qiziqarli ishda ishtirok etishga tayyor bo'lish istagini rivojlantirish;

- bolalarga hunarmandchilikning ayrim turlarini o'rgatish;

- bolalarni kasbga yo'naltirish;

- bolalarda ijodkorlik ruhiyatini shakllantirish.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun turli usullar qo'llaniladi, masalan:

- plastilinografiya (loy bilan ishlash);

- turli ommaviy materiallardan kollajlarni yaratish;

- qo'llar bilan chizish;

- qog'oz bilan ishlash;

- origami, modul, kvilling texnologiyalari;

- tabiiy materiallar bilan ishlash;

- ip bilan ishlash;

- mozaika;

- pape-mashe texnologiyasi va h.k.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda motorikasini yaxshilab, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng natijador yo'llaridan biri yuqorida keltirilgan loy (plastilin) bilan ishlash usulidir. Loy bilan ishlash bolalardagi sensor sezgirligini, ya'ni shakl, rang, og'irlik, faktura va plastikani idrok qilish darajasini oshirib, ularning tasavvur qilish qobiliyati va makonni bilan bog'liq tafakkurini rivojlantiradi. Bundan tashqari, ushbu usul qo'l mohirligini oshirish va ikkala qo'l harakatlarini o'zaro uyg'unlashtirish imkonini beradi. Eng muhimi, bolada o'ylagan rejasini amalga oshirish, natijalarni oldindan ko'ra bilish va ularga erishish sari izchil harakat qilish, zarur hollarda esa dastlabki rejaga o'zgartirishlar kiritish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shu kabi usullar bolalar sensomotorikasini rivojlantirishga, ularda qat'iyatli va ijodkor shaxs sifatlarini, makon va go'zallik tuyg'ularini taraqqiy toptirishga xizmat qiladi. Natijada bolalarning, xususan, quyidagilarni bilishlariga erishish mumkin:

- ijodiy vazifalarni diqqat bilan, mustaqil ravishda bajarish;

- ishni rejalashtirish, rejani amalga oshirishning asosiy bosqichlari haqida aniq gapira olish;

- turli materiallar bilan ishlashda boshlang'ich mehnat mahoratiga ega bo'lish;

- tabiiy materiallardan o'yinchoqlar, suvenirlar yasash;

- qog'ozni kesib olib, tayyor naqsh ustida ishlash;

- turli yo'nalishlarda qog'oz varaqni bukish;

- qaychidan to'g'ri foydalanish, va h.k.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirish asosida xulosa qilish mumkinki, ijodiyot, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, ijodiy qobiliyat tushunchalari o'ta serqirra hodisalar bo'lib, ularning tub mohiyatini talqin qilish borasida asoslangan yagona yondashuvni ishlab chiqish masalasi ilmiy muammo sifatida hozirga qadar ham o'zining dolzarb ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ayni paytda, ijodkorlik faqat alohida shaxslargagina xos jarayon emas, aslida u inson borlig'ining zarur sharti va ajralmas qismidir. O'z navbatida, ijodiy jarayonlar

bolalik davrida nihoyatda jadal kechadi va buni ayniqsa maktabgacha ta'limni tashkil qilishda e'tiborga olish zarur.

Ijodiyot alohida yordamga muhtoj bolalar uchun o'ziga xos terapevtik ta'sir vositasi sifatida nihoyatda ahamiyatlidir. To'g'ri tashkil qilingan ijodiy faoliyat bunday bolalarning ichki salohiyatlarini ro'yobga chiqarish va iste'dodlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuv jarayonini yengilashiruvchi samarali vosita hamdir.

Adabiyotlar

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova) [Elektron resurs]. URL: <http://www.lex.uz/docs/3107042>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi URL: [https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_\(2020_yil_24_yanvar\)](https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_24_yanvar))
3. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: “Академия”, 2002. – 320 с.
4. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. 2-е издание. -М.: “Академия”, 2009. – 342 с.
5. Подьяков Н.Н. Новый подход к развитию творчества у дошкольников // Вопросы психологии, 2010.- № 1.- С. 16-18.
6. Лук А.Н. Психология творчества. - М.: “Наука”, 1998. - 125 с.
7. Ярошевский М.Г. Психология творчества и творчество в психологии // Вопросы психологии, 2005. - № 6. - С.14-16.
8. Григорьева Г.Г. Развитие дошкольника в изобразительной деятельности: Учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. – М.: Издательский центр “Академия”, 1999. – 344 с.
9. Дьяченко О.М. Воображение дошкольника. - М.: “Азбука”, 2012.- 174 с.
10. Мелик-Пашаев А.А., Новлянская З.Н. Ступеньки к творчеству. - М.: “Азбука”, 2007. - 238 с.
11. Пономарев Я.А. Психология творчества. - М.: “Наука”, 1988. - 304 с.
12. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. Психологический очерк: кн. для учителя. - М.: “Просвещение”, 2001.- 236 с.
13. Венгер Н.Ю. Путь к развитию творчества // Дошкольное воспитание. -2002.- №11. С. 32-38.
14. Комарова Т.С. Детское изотворчество: что под этим следует понимать? // Дошкольное воспитание. - 2015, № 2. - С. 37–39.
15. Камолов И.Б. Особенности развития творческих способностей студентов в процессе профессионального образования // Молодой ученый. – 2020. – № 10 (300). – С. 136-138.
16. Махмудова Д.М. Педагогико-психологические аспекты профессионального образования в развитии творческой конкуренции у студентов [Электрон ресурс]. URL:<https://internationalconference.ru/images/PDF/2020/64/pedagogical-and-psychological.pdf>.
17. Rejemetova N.I. O'zbek xalq cholg'ulari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish metod va texnologiyalari // Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio'. – Nukus. 2019. – № 5. – В. 79-87.
18. Yakubjanova D.B. Pedagogik texnologiyalar vositasida bo'lajak defektologlarning ijodiy qobiliyati va kasbiy malakasini oshirish // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent. 2012. – № 1. – В. 88-92.
19. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М.: ИТИ Технологии, 2003. – 944 с.

Shaxnoza YAKUBOVA

Urganch davlat universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA SHAXS HAYOTINI LOYIHALASHTIRISHDA BIOGRAFIK METODNING AHAMIYATI

Maqolada biografiya metodining inson hayotidagi ahamiyati, inson kamolotga erishishda, insonning hayot yo'li ko'rsatkichlarini belgilashda bu metodning ahamiyati yuqori ekanligi yoritilgan. Shuningdek, biografik metod orqali insonning shaxsga aylanish muvaffaqiyati, kelajak faoliyati natijasini oldindan ko'ra olish sxemasini yaratish mumkin.

Kalit so'zlar: zamonaviy psixologiya, biografik metod, shaxs, loyihalashtirish, biografik tahlil, biografik usul, anketa, rivojlanish muhiti, individual hayot.

В статье подчеркивается важность биографического метода в жизни человека, важность этого метода в достижении человеческой зрелости, в определении параметров человеческой жизни. Также возможно создание схемы предсказания успеха человека в становлении личности, результатов будущей деятельности посредством биографического метода.

Ключевые слова: современная психология, биографический метод, личность, дизайн, биографический анализ, биографический метод, анкета, среда развития, индивидуальная жизнь.

The article highlights the importance of the biographical method in human life, the importance of this method in achieving human maturity, in determining the parameters of human life. It is also possible to create a scheme of predicting the success of a person as a person, the results of future activities through the biographical method.

Key words: modern psychology, biographical method, personality, design, biographical analysis, biographical method, questionnaire, developmental environment, individual life.

Kirish. Biografiya metodi shaxsning tarjimai holi sifatida qadimiy badiiy jurnalistik, psixologik va ilmiy janrlardan biri hisoblanadi. Biografiya ilmiy izlanishlar shakli sifatida va insonning subyekti sifatida uning hayot yo'li falsafa, sotsiologiya, fan tarixi, psixologiya va boshqa gumanitar sohalarida uchraydi. Bu metodning bu fanlar bilan bog'liqlik sababi shuki, har biri inson hayotining holati va mohiyatiga tegishli savollarga javob berishga harakat qiladi va shuning uchun muqarrar ravishda individual hayot muammosiga ta'sir qiladi. Zamonaviy psixologiyada biografiya tahlili ma'lum bir tarixiy davrdagi muayyan ijtimoiy qatlam vakilining hayot yo'lini o'rganishning bir usuli hisoblanadi. Psixologiyada biografik usul shaxsiy hayotdagi ijtimoiy jarayonlarning namoyon bo'lish shakllarini, shuningdek, yagona hayot voqealari ijtimoiy rivojlanish tendensiyasiga aylanish mexanizmini ochib beradi. Biografik metodda anketalar ham ahamiyatlidir, anketalar yordamida shaxning hayotiy jarayonlaridagi faoliyati tahlil qilinadi va o'rganiladi.

Asosiy qism. Biografik anketa metodida insonning hayot yo'li ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi biografik anketalar guruhining usullari ko'rsatilgan. Biografik anketa metodi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Hayot yo'li. 2. Ijtimoiylashuv bosqichlari. 3. Rivojlanish muhiti. 4. Qiziqishlar. 5. Sog'liqni saqlash holati.

Biografik metodda biografik usul biografik tahlil tushunchalari o'rganiladi. Biografik usul - bu ma'lum bir shaxsga, uning turmush tarziga, yashash joyiga va uning butun hayoti davomida sodir bo'lgan turli xil ijtimoiy jarayonlarni o'rganishga qaratilgan tahlil hisoblanadi. Ma'lum bo'lishicha, biografik usul tadqiqotchining ichki dunyosini tushunishga, uning hayotiy holatlarini qayta tiklashga va hayot yo'lini loyihalashga imkon beradi. Biografik tahlilda - eng qiyin narsa ma'lum bir shaxs hayotidagi turli xil ijtimoiy yoki individual xususiyatlarni aniqlashdir. Juda kamdan-kam hollarda tadqiqotchi inson hayotining rasmini tavsiflab, tug'ilishidan to o'limigacha u haqida ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni to'liq ishlatadi. Odatda, u eng muhim davrlarni, martaba o'sishini, oiladagi muhim voqealarni, oila a'zolari va boshqalar bilan munosabatlarni tanlaydi.

Biografik tahlil usuli dastlab Chikagodagi sotsiologik maktab vakillari V.Tomas va F.Znaniieski tomonidan birinchi bo'lib, Qo'shma Shtatlarga ko'chib kelgan Polsha dehqonlarining shaxsiy hujjatlarini (764 ta xat) to'plashdi. Shu va boshqa daliliy asosda ular o'zlarining qarashlaridagi o'zgarishlar to'g'risida xulosalar chiqarishdi. Aynan shu tadqiqotchilar biografik metodni aniqligini, uning vakillik talablariga javob berishini ta'minlashni kun tartibiga qo'yidilar. Ishonchlilik, asoslilikni mezon qilib oldilar va o'zlarining "Yevropada va Amerikada polyak dehqoni" nomli (Tomas, Znaniieski, 1918-1920) tadqiqotida bu metodning ahamiyatini yoritib berdilar. Ijtimoiy jarayonlarda shaxs o'z ongi va tevarak atrofga o'z haqiqati bilan ta'sir qiladi, deb hisoblab, sotsiologiyadagi nazariy yondashuv doirasida birinchi bo'lib ushbu usulni asoslash bilan

chiqishdi. Sotsiologlar insonning hayotiy rasmini tavsiflashga qaratilgan tadqiqotlar, ba'zida insonning turli guruhlarga, ba'zan esa submadaniyatning ba'zi turlarini namoyon qilishiga asos bo'luvchi sabablarni aniqlashga imkon beradi deb tushuntirishadi. Shu o'rinda submadaniyat tushunchasiga izoh beradigan bo'lsak, submadaniyatda shaxs o'zining yashab turgan jamiyatining madaniyatidan o'zgacha madaniyatni o'z madaniyati darajasiga olib chiqishiga aytiladi. Submadaniyatni qabul qilgan shaxslar o'zlarining madaniy, siyosiy va jinsiy masalalar bo'yicha o'z normalari va qadriyatlarini ishlab chiqadilar. Submadaniyat o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda, jamiyatning bir qismidir. Submadaniyatga xippi, gotlar, baykerlar va skinxedlar kiradi. Submadaniyat tushunchasi sotsiologiya va madaniyatshunoslikda ishlab chiqilgan bo'lsada, aynan submadaniyat egalarini psixologiyada biografik metoddan foydalangan holda shaxsiy hayotining strukturasi, bunday burulish sabablarini, hayotiy qadriyatlarini aniqlagan holda jamiyatda o'zgacha qiyofada shakllanishiga, o'zini nazorat qilishiga asos bo'lishi mumkin. Rus sotsiologiyasi va psixologiyasida biografik usullar rus jamiyatining rivojlanishiga, shaxsiy tamoyillarini nazorat qilib o'z-o'zini kuzatish orqali hayotini loyihalashtirishga asos bo'lgan. S.Kashshof, S.Semenova aynan bu metod yordamida shaxslarning oilaviy munosabatlarida oila strategiyasining psixologik qununiyatlarini tiklashga asos bo'lgan. Uning tadqiqotida qo'llanilgan biografik usul sovet jamiyati vakillarining hayot yo'llarini, shuningdek, ularning odatiy obrazlarini ko'rsatdi.

Biografik metodlar XX asrning birinchi choragida, N.A. Ribnikov, S. Buler boshchiligidan ishlab chiqilgan. Zamonaviy biografik usullar shaxsni tarix sharoitida va uning individual holatining rivojlanish istiqbollari o'rganishga asoslangan. Biografik usullardan foydalanish ma'lumot olishdan iborat bo'lib, uning manbasi avtobiografik usullar (so'rovnomalalar, intervyular, o'z-o'zidan va provokatsion tarjimayi hollar), guvohlarning bayonotlari, kundaliklar, xatlar va boshqalarni mazmunan tahlil qilishdir.

XX asrda leningradlik psixolog B.G.Ananiyev zamonaviy psixologiya fanida biografik metodni rivojlantirishga asos soldi. Uning izdoshi va shogirdi N.A.Loginova psixologiyada biografik metodning metodologik asoslarini nazariy va amaliy tadqiqotlarini davom ettirdi.

Bugungi kunda biografik metoddan unumli foydalangan holatda shaxsning bosib o'tgan hayot yo'lini kuzatish orqali, shaxs hayot yo'lidagi turli burilishlarni va voqea hodisalarni tahlil qilish mumkin. Ta'kidlash mumkinki, bu metod orqali shaxs o'z hayot yo'lini kuzatishi, tekshirishi, tahlil qilishi natijasida kelajak maqsadlarini rejalashtira olishi, jamiyatga o'zligini nomoyon qilgan holda integratsiya qilishi, adaptatsiyalanish jarayonlarining rivojlanishi, ongli faoliyat va yorqin kelajak shaxsiy obrazini yarata olishi va tasvirlab bilishi mumkin. Bu biografik metodning afzalligi ham shundan iboratki, shaxs bunda kelajakdagi hayotini xuddi oynaga qaragandek loyihalashtira olishi mumkin. Asosiy muvaffaqiyati shuki, bu metod o'tgan tajribadagi hayotiy faoliyatni kamchiliklarsiz faol, rivojlangan, maqsadli qarashlar orqali ongli shaxsning qayta tuzilishiga sababchi bola oladi.

Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universitetida nashr etilgan "Psixobiografik tadqiqot usuli va shaxsni tuzatish" asarida bu metodning ahamiyati chuqur yoritilgan. Biografik metod (psixobiografik) zamonaviy psixologiya va unga aloqador gumanitar fanlar arsenalida tobora ko'proq o'rin egallamoqda. Uning rivojlanishi uzoq, boy tarixga ega bo'lib, uni faylasuflar, tarixchilar, sotsiologlar, san'atshunoslar, fan olimlari va, albatta, psixologlar yaratdilar.

XX asrda psixologiyada biografik metodni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan psixologlar qatoriga N.A.Ribnikov, B.G.Ananyev, S.L.Rubinshteyn (SSSR - Rossiya), avstriyalik Zigmund Freyd, Sharlotta Budler, Viktor Frankl, nemis Alfred Adler, Xans Tom, amerikalik G. Allport, A. Maslov kabi olimlarni kiritishimiz mumkin.

Zamonaviy ilm-fanda shaxsni butun umri davomida tarixiy davr miqyosida yaxlit o'rganishga intilish kuchaymoqda, shu bilan bog'liq holda biografik usullar katta ommalashib va rivojlanib bormoqda. Shunga qaramay, ko'plab savollar insonning hayot yo'li, hayotni tabiiy-tarixiy jarayon sifatida shaxs darajasida o'rganishning metodologik vositalari va shaxsiy-biografik va ijtimoiy-tarixiy vaqt o'rtasidagi bog'liqlik nazariyasida hal qilinmagan. Shaxs rivojlanishini o'rganish uchun biografik usulni to'liq namunada qo'llash tajribalari juda kam uchraydi. Shuning uchun ham bu metodni o'rganish bugungi kun zamonamizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inson fan olamining subyektimi yoki san'at olamining subyektimi? - taniqli amerikalik psixolog-personolog G. Allport savolni ochiqchasiga qo'ydi. Uning o'zi fanini himoya qildi va ilmiy uslublarning badiiy usullari bilan almashtirib bo'lmasligini ta'kidladi. G. Allport personologiyaning ilmiy uslublarini va ular orasida san'atga yaqin bo'lgan va bir qator gumanitar fanlarda, shuningdek, shaxs psixologiyasida qo'llaniladigan biografik usullarni ishlab chiqishda juda ko'p ish qildi.

Biografik usul ta'rifi bo'yicha hayotdir, u shaxsiyatni mavjud bo'lishining tabiiy-tarixiy jarayoni davomida tekshiradi. Biografik metodga asoslangan psixologik tadqiqotlar insonning borlig'ini o'rganishdir. Bu uning ijtimoiy xulq-atvori va hayot yo'lida hayot yaratilishining psixologik mexanizmlari va qonuniyatlariga qaratilgan. Biz avstriyalik gumanist psixolog Viktor Franklning: "Inson shaxsi uning

tarjimayi holda ochiladi. Inson shaxsi o'z vaqtida tushuntirishdan boshqa narsa yo'q" deb yozganiga qo'shilamiz. B. G. Ananovning so'zlariga ko'ra, "biografik usul - bu insonning shaxs va faoliyat subyekti sifatida hayot yo'li haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdir (inson hujjatlari tahlili, zamondoshlarining ko'rsatmalari, inson faoliyati mahsulotlari va boshqalar)".

Muhokamalar va natijalar. 1990-yildagi "Psixologiya" lug'atida biografik usullarning quyidagicha xususiyatlari ko'rsatilingan: "Tadqiqot, diagnostika, kuzatish va inson hayot yo'lini loyihalash usullari". Insonni tarix va istiqbollari sharoitida o'rganishga asoslangan. Shaxs borlig'ini rivojlantirishda uning shaxsiy boshqalar bilan munosabatlarni rivojlantirish, ya'ni shaxsni rivojlantirishning hayotiy dasturlari va ssenariyalarini qayta qurish, uning biznes, oilaviy va ma'naviy hayotini, tabiiy va ijtimoiy muhitini tashkil etish muhimdir. Zamonaviy psixologiyada biografik metodning faol rivojlanishi va uning texnik vositalarining kengayishi kuzatilmoqda, bu usul haqida ko'plikda gapirish imkoniyatini beradi. Ko'pincha, ushbu usullar psixologiyada psixobiografik deb nomlanadi, chunki ushbu fanga mansubligini, uning hayot subyekti sifatida shaxsning psixologik ko'rinishlari va hayot mexanizmlariga yo'naltirilganligini ta'kidlashni istaydi. Bizningcha, eng muhim va o'ziga xos narsa "voqea", "hayotiy voqea" tushunchasidir. Bu hodisa, hayotning yangi yo'nalishi, insonning ichki dunyosini va ijtimoiy xulq-atvorini qayta qurish uchun poydevor qo'yadigan, boshqacha qilib aytganda, uning burilish nuqtasi bo'lgan muhim oqibatlariga olib keladigan hayot haqiqatidir. Shaxsning individual hayotiy faoliyatining aniqlangan uning o'ziga xos turmush tarzi, mehnat, ijtimoiy va siyosiy faoliyat, kundalik hayot va dam olish, xatti-harakatlar va faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan, xarakterli shakllari mavjud. Hayotning ushbu obyektiv xarakteristikasi subyektiv - turmush tarzi bilan to'ldiriladi, ya'ni ma'lum bir turmush tarzini ta'minlaydigan psixologik mexanizmlar tizimi.

90-yillarda K.A. Abulxanova-Slavskaya biografik metodning kontseptual apparatini hayot pozitsiyasi, hayot istiqboli, hayot chizig'i va boshqa tushunchalar bilan boyitdi. Bundan tashqari, shaxs hayotining bir xil faoliyatini uzoq muddatli o'rganish haqida emas, balki retrospektiv ya'ni o'tmishdagi hayot faoliyatini ham o'rganish muhimdir. Retrospeksiya orqali shaxs agar o'tmishda shunday voqea-hodisa bo'lmaganda kelajakda shunday bo'lmas edi degan mulohazada fikr yuritishiga sabab bo'ladi va o'tmishga nazar tashlash orqali biografik usulda kelajak loyihalashtiriladi. Ushbu xususiyatlar tufayli biografik usul insonning tug'ilishidan o'limigacha individual hayot miqyosida rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish uchun keng qo'llaniladi.

Biografik metod - bu gumanitar bilimlarning alohida yo'nalishi. Vilgelm Diltey biografik usulni gumanitar tadqiqotlarning eng yuqori va asosiy shakli deb hisobladi. Uning rudimentlari qadimgi Misrdan uchraydi. Qadim zamonlardan buyon taniqli insonlar biografiya obyekti bo'lgan. Qadimgi dunyoda Seutoniusning mashhur "O'n ikki Sezarning tarjimayi holi", Plutarxning tarjimayi holi bunga misol bo'la oladi. O'rta asrlarda milodning IV asrida faylasuf-ilohiyotshunos Avgustinning shaxsiy hayoti "E'tirofi" yozilgan va bu muborak janr sifatida o'sha davrda keng tarqaldi. Shuningdek, faylasuflarning biografiyasi yozilishi keng targ'ib qilinib, ular "Avliyolar hayoti" deb nomlana boshlandi. Biografik metod hayotiy adabiyot axloqiy xabarga ega va odamlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Uyg'onish davri (B. Sellini), ma'rifat davri (Jan-Jak Russoning "E'tirofi")ning ma'lum bo'lgan avtobiografiyalari bunga misol. Rus biografik adabiyotida mulkdor Andrey Timofeevich Bolotovning tarjimayi holi (18-asr), dekabristlar xotiralari, rus rassomi Mariya Bashkirtsevaning (19-asr) nashr etilgan kundaliklari va boshqalar. Bunday asarlar bir vaqtning o'zida adabiyot, tarix va psixologiya janri hisoblanadi.

Biografik metod haqida uslubiy jihatdan sotsiologlar psixologlar biografik tadqiqotlar tajribasini umumlashtirib, quyidagi xulosalar va tavsiyalarga kelishdi:

- 1) shaxsiy hujjatning mazmuni ma'lum bir mavzu bilan cheklangan bo'lsa, avtobiografik materiallarning ishonchliligi va to'liqligi yuqori bo'ladi;
- 2) odamlar boshqalar haqida gapirishdan ko'ra o'zlari haqida xabar berishga tayyor, shuning uchun bu egosentrizmni hisobga olish va undan foydalanish kerak;
- 3) hatto o'qimishli odamlar ham guvohi bo'lgan voqealarni har tomonlama yoritishda qiynaladilar. Ular tomonidan taqdim etilgan dalillarni tekshirish kerak;
- 4) shaxsiy hujjatlarning ishonchliligi yoki ularga bo'lgan ishonch darajasi muallifning tasvirlangan voqealarga munosabati bilan belgilanadi.

Biografik metodda psixologiya sohasida turli nazariy tadqiqotlar olib borilgan va ular olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan. Buni misollar davomida ko'rsak. Qo'shma Shtatlarda 30-yillarda iqtisodiy tushkunlik davri haqida R. Anjell tomonidan taniqli tadqiqot mavjud. Uning ko'rsatmasi bilan Amerika tarixining ushbu davridan omon qolgan 50 kishi berilgan sxema bo'yicha biografiyani tuzdilar va tahlil qilib o'rgandilar. Psixologiyada biografik janrda kim birinchi bo'lganligini aniqlash qiyin. Odatda, Ditrix

Tiydemanning 1787-yilda yozilgan “Bolaning aqliy qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha kuzatuvlar” kitobi kelib chiqishi bilan qayd etilgan.

Charlz Darvin bola rivojlanishining biografik kuzatuvlarini o‘tkazdi. U o‘ziga xos tarzda U.S. Freydning biografik uslubiga murojaat qildi, u uchun bemorlarning o‘tgan hayot haqidagi xotiralari va, ayniqsa, bolalik taassurotlari psixoanalizning asosiy materiali bo‘lgan. M.Gandi, M.Lyuter, V.Uilson va boshqa 20-asr va undan qadimgi siyosat va madaniyat arboblarning tarjimai holi N.A. Ribnikov biografik metodning ixlosmandidir. Biografik metodning psixologiya uchun ahamiyati Rossiyada birinchi bo‘lib psixologning turli sohalarida biografik metodning faol targ‘ibotchisi bo‘lgan psixolog Nikolay Aleksandrovich Ribnikov (1880-1960) tomonidan isbotlangan.

1917-yilda N.A.Ribnikovning “Psixologiyadagi biografik metod” maqolasi nashr etilgan bo‘lib, unda biografik metodning ishlatilishining asosiy yo‘nalishlari va shakllari bayon qilingan. Talabalarning hayotiy yo‘lini monografik o‘rganishda talabalar o‘zlarining tarjimai hollarini yozishlari kerak, so‘ngra psixolog bilan uning rejasi bo‘yicha suhbatlashishlari kerak, ammo bu shaxsiy tarixdan aytib o‘tilgan faktlarni sanab o‘tish kerak deb ta‘kidlaydi. Avtobiografik taqdimot va intervyuning asosiy yo‘nalishlari quyidagicha edi:

1. Ota-ona oilasining xususiyatlari.
 2. Oila a‘zolarining o‘rtacha daromadi, turmush darajasi, turmush sharoiti, ma‘lumot darajasi. Psixologik muhit, oilaviy munosabatlar.
 3. Oilaviy hayotning asosiy voqealari.
 4. Intim aloqa, do‘stlarning xususiyatlari, boshqalari.
 5. Tashkilotlar va guruhlar.
 6. Turli tashkilotlarda, jamoalarda ishtirok etish. Shahar, mamlakat, dunyo hayotidan esda qoladigan voqealar.
 7. Ta‘lim faoliyatining xususiyatlari.
 9. Sevimli va yoqmagani narsalar. Ilmiy daraja. Ta‘lim vazifalariga munosabat. Ilmiy, ilmiy-ommabop va ma‘lumotnomalar bilan tanishish.
 10. Qiziqishlar va sevimli mashg‘ulotlar.
 11. Hayotning turli davrlarida o‘qishning xususiyatlari (hajmi va repertuari). Sevimli asar va personajlar, o‘qigan narsangizga bo‘lgan hissiyotlar.
 12. Esda qolarli filmlar, spektakllar, ko‘rgazmalar. Turli to‘garaklarga qatnashish.
 13. Professional izlanishlar sohasidagi qiziqishlar va o‘qish.
 14. Mutaxassislikni tanlash tarixi.
 15. Yakuniy tanlov oldidan namunalar bo‘lganmi? Kasb-hunarga oid kanallar va ma‘lumot manbalari.
 16. Jismoniy rivojlanish jarayoni.
 17. O‘tmish kasalliklari, hayotning turli davrlarida umumiy sog‘liq.
- Mana shu savollar orqali R.A.Ribnikov talabalarning hayotiy jarayonlarini o‘rgangan va talabalar o‘zlarining e‘tibordan uzoqda qolgan shaxsiy berilgan ma‘lumotlari orqali kundalik va kelajak rejalariga o‘zgartirishlar kiritib naqsadlarini belgilaganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki har bir davrda bu biografik metod o‘z uslubicha unumli yoritilgan va foydalanilgan, lekin bugungi kundagi qiymati o‘zgarmagan. Bu metodning zamonaviy psixologiyada qo‘llanilishi va rivojlanishi kelajak yoshlarni jamiyatga integratsiya qilishda, shaxsiy imkoniyatlarini aniqlashda, eng asosiysi, hayotini loyihalashtirishda ahamiyatlidir.

Adabiyotlar

1. Карлейля Т. и Нэмира Л. Проблема биографического метода в отечественной историографии XIX - XX вв. // Исторические чтения КГПИ. Выпуск VI. Коломна: Коломенский государственный педагогический институт, 2009. С. 28-33. (0,5 п.л.).
2. Султанова З.В. Психологическая характеристика некоторых основных проективных методик: Курс лекций. - Владикавказ: Изд-во Сев.-Осет.гос.ун-та, 2002. - 89 с.
3. Мещеркиной Е.Ю., Семенов В.В. Биографический метод: История, методология, практика / под ред. – М.: Ин-т социологии РАН, 1994.
4. Абросимова Е.А. Биографическая ретроспектива как структурная часть Я-концепции личности // Вестник интегративной психологии: Вып. 9. -Ярославль: “МАПН”, 2011. -С. 35-36.
5. Абросимова Е.А. Биографическая ретроспектива как психологическая проблема // И Вестник института психологии и педагогики: Вып. 11. - Челябинск, 2009. - С. 3-7.

Gulnoza QURBONOVA

Buxoro davlat tibbiyot instituti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,
dotsent

Mexriniso KOYILOVA

Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasini oshirish markazi
Buxoro filiali o'qituvchisi

DEVIANT XULQLI O'SMIRLARNI MEHNAT VOSITASIDA TARBIYALASH

Ushbu maqolada deviant xulqli o'smirlarni mehnat vositasida tarbiyalash va ularning kelajakda jamiyatning teng huquqli fuqarosi sifatida faoliyat yuritishiga imkoniyatlar yaratilishi to'g'risida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: deviantlik, kriminologiya, psixiatriya, narkologiya.

В статье даются рекомендации по воспитанию девиантных подростков посредством труда и созданию возможностей для их функционирования в качестве равноправных граждан общества в будущем

Ключевые слова: девиант, криминология, психиатрия, наркология.

This article provides recommendations for the upbringing of deviant adolescents through labor and the creation of opportunities for them to activate as equal citizens of society in the future.

Keywords: deviant, criminology, psychiatry, narcology.

Kirish. O'smirlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi va bugungi kunda sotsiologiya, kriminologiya, pedagogika, psixologiya, psixiatriya, narkologiya, deviantologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning doimiy tadqiqot muammosi hisoblanadi.

Mazkur masala dolzarb ijtimoiy muammo sifatida yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi ijtimoiy dastur ishlab chiqish va bunda huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'limiy va sog'liqni saqlashga doir ustuvor vazifalarni aniq belgilash hamda amalga oshirishni taqazo etadi.

Asosiy qism. Deviant xulqli o'smirlarni sog'lom hayotga qaytarish muammosining yechimini topishda ta'lim muassasalarida ularning qiziqishi, qobiliyatlari, mahalliy shart-sharoitlar va ixtisosliklarga bo'lgan ehtiyojini hisobga olib, kasb-hunar sirlarini egallashga imkon yaratish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ularni qobiliyati va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilmog'i zarur [5]. Chunki yoshlarning qobiliyati va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hozirgi zamonda jadal sur'atlar bilan sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, qolaversa, mulkchilik shakllari va bozor munosabatlaridan kelib chiquvchi zaruriyatdir. Ana shu xususiyatlarni rivojlantirgan holda yoshlarni kelajakda mehnat bozorida raqobatlasha oladigan kadrlar etib tayyorlash mumkin.

Bozor iqtisodi sharoitida mamlakat aholisi va, ayniqsa, yoshlarning bilimni oshirish hamda insonparvarlik g'oyalari asosida yangicha fikrlaydigan qilib tarbiyalash masalasini qo'ydi. Zero, mamlakatni rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiyaning tarixiy ildizlarini, zamonaviy iqtisod, biznes, marketing asoslarini yoshlarga chuqur o'rgatish zarur. Shunga ko'ra, bo'lg'usi mutaxassislarni mustaqil va ijodiy fikrlashga odatlantirish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalashga o'rgatish, bu borada yetarli nutqiy malakaga ega bo'lish, rasmiy-idoraviy ish yuritish uslubini puxta egallashlarini ta'minlash vazifasi ixtisoslikka kasbiy tayyorgarlikning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning tarixiy ildizlari – ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan o'lmas asarlar bizga bebaho manba bo'lib xizmat qiladi [4].

Markaziy Osiyoda iqtisodiy fikrlarning shakllanishi buyuk ensiklopedist-allomalar va mutafakkirlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning nomi bilan uzviy bog'liq.

Ular o'z asarlarida mehnatning ijtimoiy taqsimotiga katta o'rin ajratishgan. Forobiy boyliklarni insonning ishlab chiqarishda ishtirokiga qarab adolatli taqsimlash tarafdori bo'lgan, urush va qullikni qoralagan, davlatlarar iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan [1].

Abu Rayhon Beruniy inson ehtiyojini faqat pul, mol-dunyo bilan emas, balki mehnat, izlanish, yaratish, qurish, bunyod qilish, ilm olish, bilish orqali qondirish lozimligini e'tirof etadi.

Mutafakkir Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" (Saodatga eltuvchi bilim) asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib shunday yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli-hushli bo'lsa, iqtisodni yaxshi o'zlashtirsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi" [2].

Ulug' bobokalonimiz ta'kidlaganlaridek, farzandlarimizga kasb-hunar va zamonaviy bilimlarni o'rgatishimiz kerak. Toki ular o'zlari qiziqqan kasb va hunarni o'rganib, hayotdan ta'lim olib, bilimdon

bo'lsinlar, chinakam insoniy go'zallikka erishsinlar, boqimandalikka, yalqovlikka, o'g'irlik va harom-xarish ishlarga o'rganmasinlar.

Bugungi kunda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish hamda kasb-hunardan dunyoda faqat boyluk va mol-dunyo to'plash uchun emas, ezgulik va vatan taraqqiyoti uchun foydalanish kerak. Demak, boyluk ham hunar egalariga va bilimdon-tadbirkorlarga munosibdir.

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiyning iqtisodiy g'oyalari uning "Chor devon" "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Vaqfiya", "Munshaot" va boshqa asarlarida o'z ifodasini topgan [3]. Uning fikricha, mehnat - jamiyatning asosiy belgisi, uni ishlab chiqaruvchilar rivojlantiradi. Shuning uchun ularga ortiqcha soliqlar solinmasligi, savdo-sotiqning rivojlanishi uchun bozorlardagi mahsulotlar bahosi me'yorida bo'lishini ta'minlash lozim. U jamiyat boyligining manbayi mehnat deb hisoblaydi va soliqlarni oshirishga qarshi chiqadi, moliyaviy tartib-intizomni mustahkamlash, savdo-sotiqni rivojlantirish tarfdori edi. A.Navoiyning fikricha, adolatli iqtisodiy siyosat feodal jamiyatidagi qiyinchiliklar, ziddiyat va muammolarni bartaraf imkonini beradi.

Muhokamalar va natijalar. Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida mehnatning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida uning ahamiyatni tobora ortib bormoqda. Mehnat bozorining shakllanishi esa iqtisodiy ta'limning rivojlanayotgani va uning to'g'ri yo'lga qo'yilayotganidan dalolat beradi. Aslida boshqarish usullarida fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalaridan foydalanib, samarali mehnat qila bilish ham iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilaydi. Zero, keng ma'noda, iqtisodiy rivojlanish moddiy va ma'naviy boyluklarni ishlab chiqarish bilan bog'liq. Chunki ularsiz inson ijtimoiy subyekt sifatida rivojlana olmaydi [6].

Shuningdek ijtimoiy rehabilitatsiya markazlarida xavf ostida bo'lgan o'smirlarni mehnatga jalb qilish dolzarb masalalardan biridir.

Bu markazlarda xavfli o'smirlar mehnatini qayta tiklash muammosini nazariy jihatdan o'rganish ushbu tadqiqotning gipotezasini ishlab chiqishga imkon berdi: erta yoshdagi bolalarni mehnatni qayta tiklash o'smirlikning jismoniy va ruhiy funksiyalarini qayta tiklash, sotsializatsiyaga yordam berish, ularni maxsus tashkil etilgan pedagogik sharoitlarda munosib ish faoliyatiga jalb qilish orqali amalga oshirishdir.

Mehnatni qayta tiklash quyidagi hollarda samarali bo'ladi:

- ijtimoiy rehabilitatsiya markazlarida xavf ostida bo'lgan o'smirlarning mehnat rehabilitatsiyasi jarayoniga dastur-diaagnostika yondashuvi taqdim etiladi;
- mehnatni rehabilitatsiya qilishning mazmuni, shakllari va usullarini takomillashtirish;
- mehnatni qayta tiklash jarayonida xavf ostida bo'lgan o'smirlarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash va mehnat vositasida tarbiyalash - xulqida og'ishi bo'lgan o'smirlar bilan ishlashning asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy yoshlarning katta qismida ko'pincha ishlashni xohlamaydigan, atrof-muhitga nisbatan iste'molchi munosabatda bo'lish singari ong shakllangan, shuning uchun o'smirni mehnatga tayyorlash va ularning samarali faoliyati zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu, ayniqsa, tarbiyasi og'ir o'smirlar uchun muhimdir. Ular uchun, mehnat faoliyati juda ko'p ta'lim va tarbiyaviy jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan, shu jumladan, kollektivning shaxsga bevosita ta'sir qilish bilan bog'liq jarayon bo'lishi mumkin.

Zamonaviy o'smirlar jamiyatning kelajakdagi fuqarosi bo'lib, turli munosabatlarni tartibga solish va nizoli holatlarni hal qilish yo'lida ularni o'qitishga ehtiyoj mavjud.

O'smirlar o'zlarini yolg'izlik holatida his qilishi mumkin. Tashqi aloqa va qo'pol munosabatlar orqasida bu chuqur yolg'izlik holati kuzatilmaligi mumkin. Bu o'smirlik davrida mavjud bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarning kengayib borishi bilan bog'liq bo'lib, ular quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- mazmunli shaxslararo munosabatlarni o'rnatishga bo'lgan ehtiyojlar;
- do'stlik munosabatlarni kengaytirish, katta yoshdagi turli ijtimoiy yo'nalishlar va ijtimoiy tajribalar bilan tanishishga bo'lgan ehtiyojlar;
- turli ijtimoiy guruhlarga tegishli bo'lgan ehtiyojlar [7].

Yuqorida qayd etilgan ijtimoiy ehtiyojlarning kengayib borishi o'smirlarni oila va maktab kabi yetakchi institutlardan begonalashishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan ishchi jamoasida ish jarayonida va katta yoshdagilar bilan muloqotda bir xil muqobil fikrlarni paydo bo'lishi, barkamol shaxslarning me'yoriy fazilatlarini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish hamda hamkasblar bilan muloqot qilish imkonini berdi.

Yoshlar kattalar bilan yaqin aloqada bo'lishlari kerak, faqat tengdosh bilan aloqa zarur munosabatlarning butun doirasini ta'minlay olmaydi, shuning uchun ham kattalar bilan haqiqiy aloqalar o'rnatish ijtimoiy hayotda keng imkoniyatini yaratadi, natijada o'smirlik davrida ularlarning yashashi uchun ijtimoiy jihatdan zarur bo'lgan xatti-harakatlar shakllanadi.

Mavjud muammoni hal qilish va mehnat faoliyati orqali amalga oshirish mumkin, ammo u hamkorlik tamoyillari asosida ijtimoiy va ma'rifiy ishlarni chinakam folklor an'analari bilan chuqur izchillik bilan bog'lashga, xalqparvarlik va o'zaro yordamga asoslangan xalq tabobati qoidalariga asoslangan. Ayniqsa, bugungi kunda deviant o'smirlarning ijtimoiy moslashuvi uchun zarurdir.

Ijtimoiy-ma'rifiy ishlardagi faollikka asoslangan yondashuvni qo'llagan holda, ijobiy ehtiyojlar, motivlar, xatti-harakat normalari, faoliyat orqali faoliyat yuritishni o'z ichiga olgan jarayon (bu yoshlar maxsus ijtimoiy-psixologik yordamga muhtoj yuqori xavfli guruh) bo'lib, shaxslararo muloqot, uyushgan ta'limiy ta'sir.

Ijtimoiy va ma'rifiy ishlarda deviant xulqlilar bilan ishlash yondashuvini joriy qilishda o'qituvchilarning vazifalari:

- ular o'smirlar guruhining pedagogik salohiyatiga va, eng avvalo, jamoatchilik fikriga asoslanib, norma va qoidalar, jamoaviy an'analar, rahbarlik hodisasi va kollektivning ijtimoiy guruhlash kuchi to'g'risida ma'lumotnoma guruh sifatida e'tirof etadilar; ular yangi bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni amalga oshirish jarayonida mahorat bilan bog'liq faoliyatning obyektiv tarkibiy qismlarining shakllantiruvchi salohiyatini tushunadilar; ijtimoiy ta'lim tizimini faoliyat asosida, o'zaro bog'liqlik va munosabatlardan kelib chiqadigan tizimni yaratishga imkon beradigan subyektiv komponentlar; jarayonning tashkiliy-tarkibiy qismlari. Bunday fazilatlarini shakllantirishga yordam beradigan tadbirlar intizom, mas'uliyat, sadoqat, samarali hamkorlik qobiliyati;

- uning mazmuni va tuzilmasini maqsadli tartibga solish yo'li bilan biznes va norasmiy muloqot imkoniyatlaridan to'liq foydalanish; odamlar bir-biri bilan o'zaro munosabatlari (aloqa interaktiv tomoni), axborot uzatish darajasida (aloqa axborot tarafi).

Xulosa. Shunday qilib, jamiyatni ijtimoiy rivojlanish va rivojlantirish uchun o'smirlarning xatti-harakatlariga maqsadli ta'siri bilim faoliyati va shaxsning mehnat faoliyati shakllarini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: "A.Qodiriy" nashriyoti.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. -T., 1992-yil.
3. Alisher Navoiy. O'n tomlik asarlar to'plami. -Toshkent: "G'.G'ulom" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011-yil.
4. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. -T.: "O'zbekiston", 2013.
5. Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyeva G.A. Deviant xulqli yoshlar bilan profilaktik tadbirlar olib borish yo'llari // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. - 2011. - №3
6. Taylakov T.N., Asadov Y.M. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash mexanizmlari. -Toshkent: "Kamalak" nashriyoti, 2017.
7. Taylakov N.I. va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. -Toshkent: "Kamalak", 2017.

Ulug'bek JUMAYEV

Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrası dotsenti
psixologiya fanlari nomzodi

O'SMIRLAR ONGI VA TAFAKKURI RIVOJLANISHIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI VA INTERNET TA'SIRINING PSIXOLOGIK TADQIQI

Hozirgi globallashuv jarayonida shaxs ongiga hujumlardan saqlanish, har kimning ongida kuchli ma'naviyatni shakllantirish, yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish, har bir fuqaroning ongida mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish muhimdir. Bizning jamiyatimiz, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga nisbatan manipulyatsiyaga qarshi talabchan xatti-harakatlar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy maqolada o'smirlarning ongiga ta'sir qiluvchi salbiy omillar va ularni bartaraf qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *globallaashuv jarayoni, o'smir, kompyuter texnologiyalari, Internet, axborot hujumi, xulq-atvor, psixologik usul.*

В нынешнем процессе глобализации важно избежать атаку на разум, формировать сильную духовность в мышлении каждого, защищать молодежь от деструктивных идей, формировать идеологический иммунитет в сознании каждого гражданина. Требование поведения против манипулирования нашим обществом, нашими национальными и духовными ценностями - одна из самых актуальных проблем. В данной научной статье рассматриваются негативные факторы, влияющие на сознании подростков и социально-психологические механизмы их устранения.

Ключевые слова: *глобализация, подростковый возраст, компьютерные технологии, Интернет, информационная атака, поведение, психологические методы*

In the current process of globalization, it is important to avoid attacks on the human mind, to form a strong spirituality in the minds of everyone, to protect young people from destructive ideas, and to form ideological immunity in the minds of every citizen. The requirement of behavior against the manipulation of our society, our national and spiritual values is one of the most pressing problems. This scientific article examines the negative factors affecting the consciousness of adolescents, and the socio-psychological mechanisms of their elimination.

Key words: *globalization, adolescence, computer technology, Internet, information attack, behavior, psychological methods*

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida shaxs ongini egallashga qaratilgan xurujlardan saqlanish, har bir kishi ongida mustahkam ma'naviyatni shakllantirish, yoshlarni destruktiv guruhlar ta'siridan asrash, jamiyatimizdagi har bir fuqaro ongida milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda mafkuraviy immunitet, xavfsizlikni ta'minlashda antimanipulyativ, assertiv xulq-atvorni tarkib toptirish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadigan masalalardan biridir. Bu esa kelajakda shaxs xavfsizligi, qolaversa, jamiyat hamda davlatning xavfsizligini ta'minlanishda garov vazifasini o'taydigan omillardan hisoblanadi.

Destruktiv g'oyalardan himoyalanişning ilmiy asoslarini yaratish, destruktiv guruhlarining faoliyat mazmuni, ishlash uslublari, targ'ibot usul va vositalarini ilmiy uslublar yordamida o'rganib, ulardan ijtimoiy-psixologik himoyalaniş mexanizmini ishlab chiqishning zaruriyati ushbu muammoning dolzarbligini asoslaydi. O'zbekiston Respublikasining barqarorligiga, aniqrog'i, uning ijtimoiy, ma'naviy yuksalishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan destruktiv diniy, madaniy, ekstremistik va terroristik oqimlar, guruhlar faoliyatini nazariy-amaliy tahlil etib, destruktiv guruh, g'oya tushunchalarining genezisi, mohiyat va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyanan holda ta'rif berish, tasniflash, yoshlarning ushbu g'oyalar ta'siriga tushib qolmasligi uchun muayyan ijtimoiy-psixologik asosni yaratish hozirgi kunda psixologiya, pedagogika va umuman barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan muhim vazifalardandir. Mazkur masala, ya'ni yoshlarning destruktiv g'oyalar ta'siriga tushish muammosi alohida tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Asosiy qism. Bugungi kunda bir qator destruktiv guruhlar butun dunyo mamlakatlari hududlarida faoliyat yuritib, bu davlatlar siyosiy, ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy hayotida bir qancha muammolar tug'dirib kelmoqda. Birgina Rossiya Federatsiyasida 400 dan ortiq destruktiv guruh sifatida ro'yxatga olingan tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Afsuski, bizning mamlakatimizda ham ayrim guruhlar yoshlarni turli yo'llar bilan o'z ta'sirlariga jalb etishga intilib, diniy, madaniy, ma'naviy, ijtimoiy hamda siyosiy sohada jamiyat va davlat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqdalar.

Barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirish muhim strategik masalalardan biri bo'lib, mamlakatimizning demografik xususiyatlarini inobatga olsak, bu nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga

ega vazifalardan hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida inson ongi va qalbi uchun turli usul va vositalar yordamida keskin olib borilayotgan kurashlar davom etmoqda. Mazkur harakatlar bevosita yoshlarga yo'naltirilgan bo'lib, ularda milliy an'ana va qadriyatlarimizga, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatga nisbatan salbiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgandir. Bu muayyan ommaviy axborot vositalari, ommaviy san'at va madaniyat yordamida kerakli bo'lgan g'oyalarni shakllantirish, yo'l-yo'riqlar berish orqali amalga oshirilmoqda. Natijani jamiyatning diniy, madaniy, ijtimoiy, ma'naviy sohalarida namoyon bo'layotgan ekspansiya holatlarida ham kuzatish mumkin. Ayni holatlarning o'z navbatida fojiali xarakterga ega bo'lgan, quyidagi oqibatlariga olib kelishi ehtimoli bor:

- yoshlar ijtimoiy aloqalar doirasining torayishi;
- qadriyatlar mazmunining o'zgarishi;
- yoshlarning faqat bugungi kun uchun yashab, istiqbolni o'ylamasligi;
- “Men” siymosining deformatsiyalashuvi;
- psixologik tushkunlikning yuzaga kelishi (ichki beqarorlik, ichki ziddiyat, ijtimoiy qo'rquv, salbiy xarakter xislatlarining aksentuatsiyalashuvi);
- o'z o'rni oila, ish, o'quv jamoasidan o'zga joylardan topishga intilish.

Umumjahon muammolaridan biri hisoblangan yoshlarning destruktiv guruhlar ta'siriga tushishini tadqiq qilish borasida ko'plab xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlarida va, shu jumladan, respublikamizda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularda mazkur muammoning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, statistik, demografik, huquqiy va hududiy xususiyatlar har tomonlama ilmiy tahlil qilishga harakat qilinadi.

Xorij va sobiq ittifoqda bir qator soha mutaxassislari yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik, giyohvandlik va alkogolizm kabi illatlarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillar va ularning oldini olish, shaxsda antimanipulyativ, assertiv xulqni shakllantirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.

E.Bern, D.Karnegi, E.Shostrom, A.Maslou, P.M.Granovskaya, F.V.Bassin, A.I.Kochetov, I.A.Nevskiy, Z.A.Astemirov, V.N.Myasishev, K.E.Igoshev, L.M.Zyubin, A.Buryak, Y.N.Volkov, Y.V.Zaika, B.T.Kondrashchenko, L.I.Dolgova, G.G.Bochkareva, E.B.Melnikova kabi bir qator olimlar o'z tadqiqotlarida destruktiv guruhlar faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni tadqiq etishga harakat qilganlar. V.P.Sheynov, V.B.Shapar, I.Vagin, N.N.Kozlov, L.Mixaylov, V.Solomin, G.M.Andreyeva, L.I.Bojovich, I.P.Bashkatov, B.T.Kondrashchenko, A.N.Leontev, N.D.Levitov, G'.B.Shoumarov, E.G'oziyev, V.M.Karimova, N.S.Safayev, B.M.Umarov, R.S.Samarov, Z.T.Nishonova, N.A.Sog'inov, T.Malikova, A.X.Yugay, S.M.To'ychiyeva kabi Rossiya va O'zbekiston psixolog olimlarining ta'kidlashlaricha, shaxs ongi, xulqi hamda faoliyati mazmunini ularni qurshab olgan muhit belgilaydi. Ularning fikriga ko'ra, kishi ongi, xulqi, xarakteri mikro va makro muhitdagi faoliyati orqali boshqariladi. Ijtimoiy muhitdagi nosog'lomlik esa kishi ongi va xulqida turli og'ishlarni keltirib chiqaradi. Shaxsni manipulyativ tarzda boshqarishda avvalo, ong faoliyatining o'rni, mexanizm va qonuniyatlarini nazariy va amaliy talqin qilib, so'ng antimanipulyativ xulqni shakllantirish zarurdir. Bu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagi vazifalarni amalga oshirishga ahamiyat berilishi maqsadga muvofiq:

- yoshlarning ta'lim-tarbiyasi jarayonini turli mezonlar asosida o'rganish, destruktiv guruhlar bilan aloqalarining vujudga kelishi sabablarini aniqlash;
- destruktiv guruhlar qanday paydo bo'lishi, faoliyat doirasining kengayishini, o'z tarkibiga yoshlarni jalb qilish usul va vositalarini o'rganish;
- yoshlarni destruktiv g'oyalar va guruhlar ta'siridan saqlashning psixologik uslublarini aniqlash, amaliyotchi psixolog va pedagoglar uchun ishlanmalar yaratish;
- yoshlarning turli ta'sirlarga berilmasligi yuzasidan mafkuraviy himoya, immunitet tizimini yaratish, assertiv xulq-atvorni shakllantirishning psixologik modelini ishlab chiqish;
- ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul xodimlari, huquq-tartibot idoralari va mahalla faollarini mazkur masalalar yuzasidan xabardorlik, savodxonlik darajasini oshirish va ulardan ekspertlar tanlash;
- destruktiv g'oyalar ta'siriga tushgan yoshlarning hududiy, demografik, statistik, yosh va jinsiy xususiyatlarini o'rganish;
- yoshlarning destruktiv g'oyalar ta'siriga tushishi sabab va motivlarini o'rganish;
- destruktiv g'oyalar ta'siriga tushgan yoshlar shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish va ularning tipologik tavsifnomasini tuzish;
- jins xususiyatlari bilan bog'liq ravishda yoshlik davridagi psixologik himoya ko'rinishlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilish;

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL


• shaxsning yoshlik davrini tavsiflovchi hissiy-irodaviy, kommunikativ, intellektual xususiyatlarini tadqiq etish;

• shaxsning individual-psixologik tavsifi va turli himoya mexanizmlari xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik, bog'liqlikni o'rganish.

Hozirgi paytga kelib jahonda bo'lib o'tayotgan chuqur ijtimoiy o'zgarishlar ilgari yetarli darajada ahamiyat berilmagan bir qator fenomenlarga yangicha nazar bilan qarashni taqozo etmoqda.


Oilada ota-onalar g'oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini o'rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan pedagog olim H.Norqulovning ta'kidlashicha, tadqiqotda ishtirok etgan 45% ota-ona farzandlarining yurish-turishini qattiq nazorat qilishini, 30% yaxshi gapirish orqali tushuntirishini, 25% esa tarbiyalash jarayonida farzandlari bilan fikr almashish, suhbatlashish, tushuntirish usullaridan foydalanishlarini bildirishgan.

1-diagramma. Oilada ota-onalar farzandlarini yurish-turishini nazorat qilish darajasi




Tadqiqot natijasi 80% ota-ona “Diniy aqidaparastlikka qarshi kurashish tadbirlarida qatnashganmisiz?” degan savolga “Ha” deb, 10% “Yo‘q” va 10% “Hech kim aytmagan” deb javob berganligini ko‘rsatgan. Binobarin, aksariyat ota-onalar bunday yig‘ilishlarga borib, fikrini bildirib, farzandi tarbiyasi bilan shug‘ullanayotganligidan dalolat berib turadi.

2-diagramma. Ota-onalarning “Diniy aqidaparastlikka qarshi kurashish tadbirlarida qatnashganmisiz?” savolga munosabati ko‘rsatkichlari




So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksariyat ota-onalar (60%) “Yot g‘oyalarga kirish yoshlar orasida ko‘p uchrayaptimi yoki kammi?” degan savolga “Kam” deb, 10% esa “Ko‘p” deb javob berishgan, 30% bu haqda hech qanday ma‘lumotga ega emasliklarini bildirishgan. Bu xalqimiz destruktiv g‘oyalarga qarshi kurashish har bir insonning vazifasi ekanligini tushunib yetayotganligidan dalolat bermoqda.

3-diagramma. Ota-onalarning “Diniy aqidaparastlikka qarshi kurashish tadbirlarida qatnashganmisiz?” savolga munosabati ko‘rsatkichlari




Ota-onalarning yot g‘oyalarga munosabati o‘rganilganda so‘rovda qatnashgan ota-onalarning 70% ushbu savolga “Egosentrizm”, 15% esa “Diniy aqidaparastlik”, 10% “Vahobiylik” destruktiv g‘oyalar ekanligini bildirishgan va 5% “Bilmayman” deb javob berishgan.

4-diagramma. Ota-onalarning yot g'oyalarga munosabatini o'rganish ko'rsatkichlari




Demak, yot, destruktiv g'oya deganda ota-onalarning tushunchalarni idrok etishlari ijobiy holdir. Ota-onaning farzand tarbiyasiga mas'ulligi borasida respondentlar fikri o'rganilganda, so'ralganlarning 90% bola tarbiyasiga ota-ona, 10% esa mahalla-maktab mas'ul, deb javob berishgan.

5-diagramma. Ota-onaning farzand tarbiyasiga mas'ulligi borasida respondentlar fikri bo'yicha ko'rsatkichlar



Bu esa farzand tarbiyasiga birinchi navbatda ota-ona mas'ulligi, qolaversa, jamoatchilik, ta'lim muassasalarining ham bu muhim ishdan chetda turishi mumkin emasligi xususida samarali tushuntirish, targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishi zaruriyatini ko'rsatadi. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, ota-onaning o'z farzandi tarbiyasiga mas'ulligining o'rnini hech narsa bosa olmaydi. "Yot g'oyalar ta'siri kuchaygan sharoitda siz o'z o'ringizni qanday tushunasiz?" degan savolga aksariyat ota-onalar (65%) ijobiy, ya'ni ogohlikni, oilada tarbiyani yanada kuchaytirishlarini bildirishgan. Bundan tashqari, "Diniy aqidaparastlikka qarshi kurash kimning vazifasi?" degan savolga ham ota-onalarning ko'pchiligi (60%) "Mening vazifam" deb javob berganlar.

6-diagramma. Ota-onalarning "Yot g'oyalar ta'siri kuchaygan sharoitda siz o'z o'ringizni qanday tushunasiz" degan savolga javob ko'rsatkichlari



Umuman, olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari aksariyat ota-onalarning farzand tarbiyasiga munosabati ijobiy hamda diniy aqidaparastlik, diniy oqim va yot g'oyalarga qarshi kurash tarafdorlari ekanligini ko'rsatgan. "Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilishda siz ota-ona sifatida o'z rolingizni qanday tushunasiz?" deganda 100% ota-ona "tarbiyani kuchaytirish zarur" deb javob berishgan.

Hozirgi zamon ota-onalaridagi farzandlarida fuqarolik ongi, pozitsiyasi, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar shakllantirilishiga nisbatan beparvolik o'ta og'ir oqibatlarga olib keladi. Ma'lumki, tabiat, yashash uchun kurash qonunlariga ko'ra eng kuchli jonzoqlar hayotda yashab qoladi. Majoziy ma'noda aytganda, hozirgi vaqtdagi globallashuv sharoitida ham psixologik, mafkuraviy, g'oyaviy jihatdan kuchli fuqarolarga ega davlatlar jahonda o'zining munosib o'rniga ega bo'ladi. Zero, jahonning eng ilg'or deb tanilgan davlatlari (AQSH, Yevropa mamlakatlari va boshqa davlatlar)da bo'lib o'tayotgan turli noxush

hodisalar, terrorchilik aktlari mazkur vaziyatlar, destruktiv holatlar, faoliyat barcha uchun kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Globalashuv jarayoni deb atalayotgan hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari, internet hayotimizga shiddat bilan kirib kelib, uning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bo'lib qoldi. Internet mafkuraviy muammolar bilan masalalarni hal etishda muhim vositalardan biriga aylanib ulgurdi. Biroq shu bilan birga uning imkoniyatlari bilan birga jahon global axborot to'riining aniq, ochiq-oydin tasavvur qilish lozim bo'lgan tahdid va xavf-xatari mavjudligini ham nazardan qochirmaslik lozim. Komp'yuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borishi natijasida kompyuterdan ish faoliyatlarida foydalanuvchilar bilan birga internet hamda kompyuter o'yinlariga haddan tashqari berilib, addikt sifatida shakllanib qolgan insonlar soni ortib bormoqda. Barcha sohalardagi yangiliklarga, eng avvalo, yoshlarning qiziqish bildirishini nazarda tutsak, ayni paytdagi kompyuter texnologiyalari addiktlarining aksariyatini 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etmoqda.

G'arb mamlakatlarida rasmiy ravishda "kompyuterdan patologik foydalanish" istilohidan foydalanishadi. Bugungi kunda ushbu atama, so'z birikmasi (kompyuterdan patologik foydalanish) hali internet va kompyuterga nisbatan yuzaga keladigan psixologik qaramlik xususida mutaxassislarda yakdil fikr shakllanmaganligiga qaramay, kompyuterni ijtimoiy maqsadlardan o'zga maqsadlar uchun ham uzluksiz qo'llovchi shaxslarga nisbatan ishlatilmoqda.

Umuman olganda, zamonaviy kompyuter texnologiyalariga qaramlik, tobelik (addiksiya) ikki xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin:

- internet-qaramlik (internet-addiksiya);
- kompyuter o'yinlariga haddan tashqari berilish.

Bu ikkala ko'rinishning umumiy va xususiy jihatlari mavjud. Kompyuter qaramligining umumiy xususiyatlari sirasiga o'zaro bog'liq bir qator psixologik va fiziologik simptomlarni kiritish mumkin.

Psixologik belgilar quyidagilar:

- kompyuter qarshisida eyforiya holati yoki qulaylikni his etish;
- kompyuter bilan ishlashdan o'zini to'xtata olmaslik;
- kompyuter qarshisida o'tkazilayotgan vaqtning tobora ko'payib borishi;
- oila va do'stlar, kishilarga nisbatan e'tiborning kamayib borishi;
- kompyuterdan boshqa joylarda depressiya, achchiqlanish hissining kuzatilishi;
- ish beruvchilar va oila a'zolariga o'z faoliyati yuzasidan yolg'on ma'lumotlarning berilishi;
- ish yoki o'qish faoliyati bilan bog'liq muammolarning mavjudligi.

Jismoniy (fiziologik) belgilarga quyidagilar kiradi:

- karpal kanal sindromi (qo'llar va barmoqlardagi asab tolalarining muskullarning zo'riqib ishlashi natijasida zararlanishi);

- ko'zlarning quruqshab qolishi;
- boshning ba'zan qattiq og'rishi;
- yelka, orqadagi og'riqlar;
- o'z vaqtida ovqatlanmaslik, ovqatni ba'zan kanda qilish;
- shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik;
- uyquning buzilishi.

Kompyuterdan patologik foydalanish umuman olganda alkogolizm yoki giyohvandlik (kimyoviy qaramlik, tobelik) singari kishini tubanlikka yetaklamasligi mumkin. Biroq, uning kishi shaxsi rivojiga salbiy ta'sir etishini inkor qilib bo'lmaydi. Addiksiya xususida gap ketganda kompyuter o'yinlarining shaxs ruhiyatiga ta'siri masalasi albatta tahlil etilishi zarur. Ayrim addiktlar va ularning ota-onalari, qarindosh-urug'lari bilan suhbat o'tkazgan tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, addiktlarda yuqori darajadagi xavotir va depressiya ko'zga tashlanib turadi. Addiktlarning yaqinlari ularning haddan tashqari jizzaki, jahldor, hissiy jihatdan noturg'un ekanliklarini ta'kidlaydilar. Kompyuter o'yinlari addiktlari o'yinga nisbatan doimiy ehtiyojni his qiladilar, biroq shu bilan birga doimiy ravishda frustratsiya holatida bo'lganliklari sababli shu ehtiyojni qondirolmasslikdan aziyat chekadilar. Bunday g'ayritabiiylik, paradoksni tushunishda addiktlarning virtual (hayoliy) va real olamga daxldor psixik xususiyatlarining tavsifi yordam beradi. Ushbu tavsifga ko'ra (darvoqe, uni ko'pchilik addiktlar ma'qullashadi), muammoni quyidagi tarzda yoritish mumkin: addiktlarning real olamda doimiy ravishda frustratsiya va tushkun kayfiyat holatida bo'lganliklari ularda yuqori darajadagi xavotirlanish va depressiya holatini keltirib chiqaradi. Bu klinik-psixopatologik metod yordamida aniqlashtirilgan. Kompyuter o'yinlari vaqtida ular ongida qanday jarayonlarning kechishini aniqlash ancha murakkabdir, chunki, o'yindan chalg'ish yoki chalg'itishga bo'lgan har qanday urinish bu virtual, hayoliy olamni tark etishni anglatadi. Biroq, addiktlar bilan bo'lgan suhbatlardan ma'lum bo'lishicha, o'yin jarayonida ularning kayfiyati ancha ko'tariladi, chunki bu paytda ijobiy hissiyotlar

kuchayadi. Kayfiyatning ko'tarilishi bog'liq ravishda kechadigan ijobiy hissiyotlar kompyuterda o'ynash quvonchini ko'z oldiga keltirib oldindan rohatlanish bilan ham bog'liq bo'ladi. Biroq, o'yindan so'ng, ya'ni virtual olamni tark qilganlaridan keyin ular yana ilgarigidek tushkun, so'niq kayfiyatga qaytadilar. Ko'pchilik addiktlar ijtimoiy hayotga yaxshi moslasha olmaydigan kishilardir. Ularda ko'pincha maishiy, oilaviy, ish faoliyati, qarama-qarshi jins vakillari bilan bog'liq muammolar uchrab turadi. Shuning uchun addiktlarga real olam zerikarli, yoqimsiz, xavfli tuyuladi. Ayni sabab inson qoidalarni o'zi belgilaydigan, barcha narsaga ruxsat etilgan virtual olamda yashashga intiladi. Mantiqan olganda ham, virtual olamni tark etish addikt uchun yoqimsiz holatdir, chunki u yana o'z xohlamaydigan olamga qaytishga majbur bo'ladi, yana kayfiyati tushadi, o'zini har tomonlama noxush his etadi. Shuning uchun, addiktlarda kayfiyat yomon bo'lishining sababi bir tomondan kompyuter o'yinlariga bo'lgan doimiy ehtiyojning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi tomondan shu ehtiyojni qondirish imkonining yo'qligidir. Hissiy-emotsional sohada ularda og'ishlar borligining yana bir sababi subyektiv darajada o'z faoliyatlari (kompyuter o'yinlari)ning foydasizligini anglashlari va psixologik qaramlik oldida o'z o'zliklarini his qilishlaridir. Bu o'ziga xos kognitiv dissonans, ya'ni ijtimoiy jihatdan ma'qullanadigan hayot bilan addiktning hayoti o'rtasidagi nomuvofiqlikni bildiradi. Boshqacha aytganda, addiktlar mudom o'zlarini o'zlari inkor qiladigan sharoitda yashaydilar. Bu jihat g'alati tuyulsa-da, haqiqatdan ham ko'pchilik kompyuter o'yinlarining ashaddiy ishqibozlari o'z xatti-harakatlari to'g'risida jiddiy mulohaza yuritadilar. "Qiladigan shuncha ishim bor edi, men esa tuni bilan kompyuter o'ynadim" qabilidagi fikrlar ularni qiynaydi. Ayrim addiktlar uchungina kompyuter o'yinlari psixologik himoya vazifasini bajarishi mumkin.

Ta'kidlanganidek, ko'pchilik hollarda addiktlar real vaziyatdagi dezadaptatsiya (moslasha olmaganlik) holatlarini virtual olamdagi kompyuter personajlari roliga kirish orqali bartaraf qilishga harakat qiladilar. Addikt o'z virtual "Men"ini topishga intiladi, chunki bu "Men" kuchliroq, aqlli roq bo'lib, u qurol ishlatishi mumkin, uning xohlagan narsani sotib olishga imkoni yetadi. Lekin inson o'zining real dunyoda yashayotganini ham esidan chiqarmaydi, shu tariqa hatto shaxs ongining ikkiga bo'linishi kuzatilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan virtual olamdagi o'ta qudratli qiyofasidan voz kechib, o'z "Men"iga qaytish addiktlarni qanoatlantiradigan ish emas. RIA "Новости" agentligi "Дружеский Рунет" fondining 3500 dan ko'proq o'smir orasida o'tkazgan so'rovi natijalariga tayanib xabar berishicha, hozirgi vaqtda 15-17 yosh oralig'idagi mamlakat yoshlarining yarmidan ko'prog'i internetda deyarli "yashayotganligi" Rossiya Federatsiyasi psixologlarini qattiq tashvishlantirmoqda. Bu yoshlarning 90% internetga shaxsiy kompyuterlardan ulanishadi. Statistika ko'ra, 62% voyaga yetmagan foydalanuvchilar internetdagi har qanday mazmundagi saytlarga kirishga intilishadi. Bunda bola yoki o'smir psixikasini jarohatlovchi ma'lumotni uchratish ehtimoli juda kattadir. Internetdan foydalanishda uning salbiy emas, balki bolalar qobiliyatlarini o'stirishi, aqliy imkoniyatlarini oshirishi singari ijobiy jihatlariga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning "men"i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofida qilarga, ayniqsa o'z o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. Uning o'z shaxsiga bo'lgan e'tibori kuchayadi. O'smirlik davrida shaxs egosentrizmi boshqa davrdagilarga qaraganda eng yuqori darajaga yetadi. Bu davrda o'smir o'z shaxsiyatini boshqalardan ustun qo'yadigan, o'ziga ko'proq bino qo'yadigan bo'lib qoladi. Shu davrda o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid qilib emas, balki tom ma'noda o'zining xatti-harakatini nazorat qilish, o'zining yurish-turishi, kiyinishi, tashqi ko'rinishiga astoydil e'tibor berish, pardoz-andoz bilan shug'ullanish kabi holatlar kuzatiladi. Shu davrda o'smirning tashqi ko'rinishi, shaxsiyatiga oid bildirilgan arzimagan nojo'ya gap uning uchun jiddiy salbiy kechinmalarning kechinilishiga asos bo'lishi mumkin. O'smirlik davrining xarakterli xususiyatlaridan yana biri - bu davrda o'smirlarda kuzatiladigan o'smirlik avtonomiyasi holatidir. O'smirlik avtonomiyasining huquqiy avtonomiya, emotsional avtonomiya, makoniy avtonomiya kabi turlari farqlanadi. Ma'lumki, bola dunyoga kelgan kundan boshlab kimningdir qaramog'iga muhtoj bo'ladi. Ota-onasi va boshqa yaqinlari uni oziqlantiradi, kiyintiradi, tarbiyalaydi va bolani muntazam nazorat ostida tutadi. Ular bolani har tomonlama qo'llab-quvvatlab turadilar va bola bunday qo'llab-quvvatlash, daldalarga muhtojlik his etib turadi. O'smirlik davrida esa bola o'z hayotini, xavfsizligini ta'minlash borasida nisbatan mustaqillikka erishadi. Endi u o'zini o'zi himoya qila olishi, lozim bo'lsa o'zi o'z imkoniyatlari darajasida mehnat qilib, yetarli darajada daromad qilishi, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o'zi qondira olishi mumkin bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan huquqiy avtonomiya ayni vaqtda bola o'smirlik yoshiga yetishi bilan unga qator huquqiy imkoniyatlar berilishi bilan xarakterlanadi. Muayyan huquqiy imkoniyatlarga ega bo'lish va bundan o'smirning xabardorligi unda huquqiy avtonomiyaning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Bunday avtonomiyaga ega bo'lish o'smirda o'z xatti-harakati uchun javobgarlik, mas'uliyatlilik hissini yuzaga keltiradi. O'smirlik avtonomiyalaridan yana biri hissiy-emotsional avtonomiyadir. Ma'lumki, bola dunyoga kelgan ondan boshlab u onasi va atrofida qilarning emotsional, hissiy qo'llab-quvvatlashiga, mehr-

muhabbatini namoyon qilishiga, erkalashiga ehtiyoj his qiladi. Shuning uchun ham ilk bolalik yoshidagi, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni suyub, erkalab ularni quchib, boshini silab, yoqimli gaplar va muomala bilan ularga hissiy yaqinlik namoyon qilinsa, ular bundan quvonib, xursand bo'ladilar va erkalayotgan shaxsga nisbatan talpinadilar. Buni yosh bolalarning onasiga suykalishi, ularning pinjiga suqilishi, ularga erkalinishi hollarida kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, bolalar o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida nizo-tortishuvlarga duch kelganida va ayniqsa tengdoshlaridan "jabrlanganda", "yengila boshlaganidan", ota-onasidan va atrofida yaqinlaridan emotsional dalda, hissiy qo'llab-quvvatlash kutadi va bu borada ularga murojaat qiladi. Agar o'z vaqtida shu hissiy daldani ola olsa, o'zini erkin, tetik, g'olib his qiladi va ular bilan quvonib yuradi. O'zining kichkinagina hayotida duch kelgan "muammolari"ni hal qilishda kattalar yordamiga muhtojlikni his qiladi, ulardan muntazam foydalanishga intiladi. O'smirlilik davrida esa aksincha, o'smir endi "yosh bola" emas, endi u "katta odam", katta odam esa mustaqil bo'lishi, o'z muammolarini o'zi hal qilishi kerak. Bu davrda kattalar yordamiga murojaat qilish tengdoshlar tomonidan qoralanadi, va buni o'smirning o'zi ham xohlamaydi. Bu davrda o'smirlarga kattalar tomonidan oldingidek ko'rsatiladigan iltifot, erkalashlar erish tuyuladi. Endi ular o'zlarini erkalab, silab-siypashlarini, "arzimagan narsalar" uchun kattalar tomonidan bildiriladigan olqishlarni "yoqtirmaydi". Endi ular atrofdagilarni hissiy qo'llab-quvvatlashlaridan holiroq bo'lishga, o'z muammolarini o'zlari shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko'chada, bog'chada, maktabda yuz bergan voqealar haqida uyidagilarga shikoyat qilib ota-onasidan yordam so'ragan bo'lsalar, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu haqda ota-onasiga bildirmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning "ishlariga" aralashmasliklarini xohlaydi. Bularning barchasi o'smirlarda bevosita kuzatiladigan emotsional avtonomiyaning ta'siridir. O'smirlarda kuzatiladigan avtonomiya holatining yana biri makoniy avtonomiyadir. Bunga ko'ra o'smirlar imkon qadar o'z xonasida yolg'iz qolishga, biron bir ishni bajarayotgan yoki biron bir joyda bo'lgan vaqtlarida imkon qadar yolg'iz bo'lishga ayniqsa o'z ota-onasi, oila a'zolari nazaridan chetroqda bo'lishga, o'z o'y hayollari bilan mashg'ul bo'lib vaqt o'tkazishga intilib qoladi. Suhbatlashsa ham asosan o'z tengdoshlari, yaqin o'rtoqlari bilangina muloqotda bo'lib o'z ota-onasi bilan imkon qadar kamroq muloqotda bo'lishga intilib o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi. Ayni vaqtda o'smirda kuzatilayotgan bu hodisalarning asl sababini tushunmagan ayrim ota-onalar ularning bunday holatidan xavotirlanib, ular bilan oldingiga qaraganda qo'proq qiziqib qoladilar. Boshqacha qilib aytganda ularning avtonomiyasiga "bostirib kiradilar". Buni esa o'smirlar yoqtirmaydi. Bunday holatlar o'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarida kelishmovchiliklar, nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lishi mumkin. Ko'pincha "o'tkinchi" deb tavsiflanadigan o'smirlilik davrida organizm, asab tizimi og'ir va uzoq vaqt davomida ta'sir qiladigan ta'sirotlarga hali bardosh bera olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda asab tizimi tormozlanish holatiga o'tishi mumkin. Bu esa organizmning o'ziga xos himoya mexanizmi hisoblanadi. Mazkur davrning asosiy faoliyati o'qish bo'lib, o'smirning nafaqat bilim, malakalarni egallashi, balki maslak, e'tiqod, ehtiyoj va motivlarni, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishi ham muhimdir. Internet esa hozirgi zamonda ushbu jarayonda katta ahamiyat kasb etadi. Kishilarda axborot ko'rsatadigan ta'sirga nisbatan javob, uni qabul qilish reaksiyasi har xildir. Ta'bir joiz bo'lsa, axborot, ma'lumotning psixikaga ta'siri borasida eng "kuchsiz" qatlam-yoshlar deyish mumkin.

Hozirgi vaqtda fanning yangi tarmog'i - axboriy (kompyuter) psixologiyasi yo'nalishi shiddat bilan rivojlanmoqda.

Ushbu yo'nalishda quyidagi muammolar tadqiq etiladi:

- insonning tobora takomillashib borayotgan kompyuter texnologiyalari, axboriy oqim oldidagi qo'rquvi (kompyuterofobiya);

- shaxsning insonlar bilan emas, balki kompyuter va uning vositasida muloqot qilishga intilishi – "informomaniya";

- kompyuterda ishlash jarayonida kishilarning toliqishi;

- kompyuterga qattiq bog'lanib qolishning oldini olish. Kompyuter, internetga qattiq bog'lanib qolish giyohvandlik singari asta-sekin, bosqichma-bosqich rivojlanib boradigan jarayondir. Bu kasallikning uch bosqichi mavjud:

Birinchi bosqichda ko'pincha muammolardan chekinish, ularni unutish uchun global tarmoq, internetga oshiqiladi.


Ikkinchi bosqichda shaxsning internetdan uzilishi juda qiyinligi ko'zga tashlanadi. Ya'ni, bu bosqichda internetda o'tkazilayotgan vaqt miqdori tobora ko'payib boradi.

Uchinchi bosqich - to'liq qaramlik bo'lib, unda inson internetda o'tkazayotgan vaqti ilgarigidan ko'proq bo'lmasa, oladigan huzur-halovati kamayayotgandek bo'ladi. Buni giyohvand qabul qiladigan narkotik modda miqdorining ko'payib borishiga qiyoslasa bo'ladi. Bu holatni quyidagicha izohlash, tushuntirish mumkin.

Insonning o'zi haqida tasavvurlari shakllanishi yosh davrlariga bog'liq bo'lib, odatda o'smirlik davrida "Men" timsoli to'la tarkib topmagan bo'ladi. Bunday hollarda virtual, hayoliy timsollar o'smirning bu boradagi ehtiyojlarini qondirishga yordamga keladi. Jamiyatda to'la ravishda o'zini o'zi namoyon qilolmagan shaxs virtual reallikda, hayoliy makonda buni amalga oshirishga harakat qiladi. Mazkur holat internet qaramlikda yuzaga keladi. Muomala, muloqot, ijtimoiylashuv jihatdan muammolari bo'lmagan shaxs esa virtual olamdagi faoliyatga ehtiyoj sezmaydi. Ko'pgina adabiyotlarda yozilishicha, internetga qaram kishilarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga mansub shaxslarning masalan, onlayn o'yin vaqtida kayfiyatlari ko'tarinki bo'ladi. Ular guruhiy o'yinlarni o'ynashni xush ko'rishib, o'yinni yutgan paytlarda boshqalar tomonidan rag'batlantirilishni yoqtirishadi. Mana shu narsa ular uchun muhim bo'lib, kompyuter, internet ular uchun ijtimoiy ma'qullanish vositasidir. Ikkinchi guruhga mansub insonlar esa hayotlaridagi muayyan bir qiyinchiliklardan qochish uchun internetga murojaat qilishadi. Internet ular misolida ancha chuqur muammo (masalan jismoniy kamchiliklar, o'zini o'zi baholashning past darajasi)ning simptomi, belgisi hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan jinoyatchilik va internet o'yinlari orasidagi bog'liqlik ham aniqlangan. O'yinchilar virtual olamda qo'llaridagi qurol bilan ma'lum bir bosqichga yo'l olganlarida ularning miyasi xuddi real olamda shu harakatni bajargan kabi munosabat bildiradi, reaksiya ko'rsatadi. Internet o'yinlardagi zo'rvonlik muammosi to'g'risida keyingi vaqtlarda juda ko'p gapirilmogda. Olimlar eng yuqori muvaffaqiyat barcha jonzotni o'ldirish bilan baholanadigan kompyuter o'yinlarida aksariyat vaqtlarini o'tkazadigan bolalar, insonlar tomonidan jamiyatga estetik, axloqiy, ma'naviy zarar yetkazilishini ta'kidlaydilar. Voqelikdan chekinishni istaydigan kishilar me'yor degan tushunchani unutib, juda ko'p vaqtlarini kompyuter qarshisida o'tkazadilar. Natijada real voqelikdan vaqtincha emas, butunlay uzilib qolish xavfi yuzaga keladi. Kompyuterdagi rolli o'yinlarning kishi psixikasiga ijobiy jihatini shunday ta'riflasi bo'ladi: shaxs stressdan xalos bo'lish, muammolardan chalg'ish maqsadida ma'lum vaqt mobaynida kompyuterda o'ynashi mumkin. Patologik holatlarda esa buning teskarisi ko'zga tashlanadi, ya'ni inson fiziologik ehtiyojlarini qondirish, real hayot qandayligini unutib yubormaslik uchungina kompyuterdan zo'r-bazo'r "uziladi". Ehtiyojlarning qolgan qismi hayoliy olamda qondiriladi. Bunday kishi, o'smir uchun real olam xavfli tuyula boshlaydi. 3D-Action (uch o'lchamli) o'yinlarga qattiq bog'lanib qolgan bir kompyuter addiktining aytishicha, kompyuter o'ynashni to'xtatib, ko'chaga chiqqach, qo'lida qurol yetishmayotganini his qiladi. "Quolsiz o'zimni himoyasiz his qilaman va tezroq uyga qaytib, yana kompyuter o'ynashga kirishaman", deydi. Ko'rinib turibdiki real voqelikdan qochishga intilish bu hisning tobora kuchayib borishiga sabab bo'ladi.

Kiberxavfsizlik masalalariga butun dunyoda alohida e'tibor berilmogda. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2002-yildayoq "Kiberhudud xavfsizligini ta'minlash yuzasidan Milliy strategiya" qabul qilingan edi. Belorussiyada 2010-yili "Internetning milliy segmentidan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmon qabul qilindi. Buyuk Britaniyada 2011-yili bo'lib o'tgan tartibsizliklarda ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarni vaziyatni izdan chiqarishga chaqirgan yoshlar aniqlanib, jinoiy javobgarlikka tortildilar. Xuddi shu singari Rossiya aholisida ham internet axborot, ma'lumot manbasi sifatida aholida eng ko'p ishonch uyg'otmogda. Moskva davlat universiteti ekspertlari tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, 36,9 % respondent aynan internet mamlakat va dunyoda bo'lib o'tayotgan voqea-hodisalar to'g'risida haqqoniy, to'liq ma'lumot berishiga ishonadi. Ikkinchi o'rinni federal televidenie ma'lumotlari egallagan (34,1 %). Uchinchi-to'rtinchi o'rinlarni (27,4%) axborotning norasmiy manbalari - qarindosh-urug'lar, do'stlar, hamkasblar, shu bilan birga ta'lim muassasalari pedagoglari, mahalliy nashrlar ma'lumotlari tashkil etadi.


7-diagramma. "Internet axborot, ma'lumot manbasi sifatida" so'rovnomaga aholi fikri ko'rsatkichlari



18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlarning baholari ham Rossiya aholisining umumiy bahosidan unchalik ko'p farq qilmaydi. Biroq, aynan internet orqali yoshlar ongiga faol targ'ib qilinayotgan

turli destruktiv g'oyalar singishi ehtimoli ko'pligini 48 % respondent ushbu manbani birinchi o'ringa qo'yish orqali tasdiqlagan. Ikkinchi o'rinni diniy ta'lim beradigan shaxslar (34,2 %), uchinchi o'rinni do'stlar va qo'shnilar (17,6 %) egallagan. Destruktiv g'oyalar manbasi sifatida keyingi o'rinlarda turli broshyura, maqola va adabiyotlar (10,5 %), xorijda ta'lim olish (9,8 %), ta'lim muassasalari (8,0 %), qarindosh-urug'lar (8,0 %), har xil radiostansiyalar (5,3 %) omillari ko'rsatilgan. So'rovga jalb etilgan rossiyaliklarning deyarli yarmi (46,2 %) internetda destruktiv g'oyalar targ'ib etilayotgan materiallarni doimo uchratishlarini, 20,6 % ko'pincha, 25,6 % aksariyat hollarda duch kelishlarini bildirishgan.

8-diagramma. Internet orqali yoshlar ongiga faol targ'ib qilinayotgan turli destruktiv g'oyalar singishi ehtimoli bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma ko'rsatkichlari



Biroq, yoddan chiqarmaslik kerakki, destruktiv g'oyalarni targ'ib qilish usullari xilma-xil bo'lib, ularda doim ham mavjud tuzumga qarshi ochiqdan-ochiq harakat qilish unsurlari ifodalanmasligi mumkin. Xususan, terrorizmning oxirgi yillarda turli ko'rinishlari vujudga keldi va internetda e'lon qilinayotgan ushbu mazmundagi materiallar odatlanilgan, shakliy mezonlarga javob bermasligi ehtimoli mavjud. Masalan, aholi ongiga ta'sir ko'rsatish uchun jamiyatda mavjud turli muammolarga irqiy, diniy, milliy tus beriladi va ularni bartaraf etishda radikal xatti-harakatlarga e'tibor qaratish lozimligiga urg'u beriladi. Yoki destruktiv g'oyalarni targ'ib qilishning nisbatan payqash mumkin bo'lgan shakli - mazkur harakatlarni oqlash, ularni legitimlashtirishga urinish.

Destruktiv targ'ibot-tashviqotning o'zgacha ko'rinishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- muayyan irq, din, millat vakillariga, ijtimoiy guruhga nisbatan salbiy ustanovkalarni, adovat tuyg'usini shakllantirish;

- muayyan destruktiv xatti-harakatlarga nisbatan xayrixohlikni tarkib toptirish (ularga masalan, suisidni targ'ib qiluvchi yoki ekstremistik harakatlarni qo'llab-quvvatlovchi saytlar faoliyati misol bo'la oladi).

Albatta, internetning imkoniyatlari faqat salbiy jihatlarda aks etmaydi. Uning o'ziga xos ijobiy tomonlari ham mavjud. Ular sirasiga ma'lumotga darhol ega bo'lish, axborot va ma'lumotlarning turfa xilligi, shaxsning o'zini namoyon qilishga yordam beruvchi muloqot imkoniyatining mavjudligi, ta'lim borasida internet imkoniyatlarini ko'rsatish mumkin. Internetning ijobiy tomonlarini inkor etmagan holda uning eng kam sarf-xarajat bilan yoshlar orasida samarali destruktiv faoliyat olib borish imkoniyati mavjudligini ham ta'kidlash lozim. Har kuni turli ijtimoiy tarmoqlar ("Facebook", "MySpace", "Twitter", "Habbo Hotel", "Friendster", "Tagged.com", "Одноклассники", "Мой мир", "В контакте", "В кругу друзей", "Mening olamim", "Sinfdosh" va hokazolar)da milliardlab insonlar bir-birlari bilan virtual muloqotga kirishmoqdalar, turli saytlarga kirmoqdalar, bloglarda o'z fikrlarini bayon etib, boshqalarning mulohazalari bilan tanishmoqdalar. Yoshlarda destruktiv g'oyalarga qarshi hali mafkuraviy immunitet to'la shakllanmaganligini, ularning eshitgan yoki o'qigan ma'lumotiga juda tez ishonishini nazarda tutsak, bu ancha e'tibor qaratish zarur bo'lgan jarayondir.

Muhokamalar va natijalar. Axboriy-psixologik xavfsizlik borasidagi bunday tahdidlarga qarshi kurashishda, eng avvalo, huquqiy asosni mustahkamlash lozim, deb hisoblaymiz. Bu boradagi tahdidlar doim

ham mamlakat ichkarisidan chiqavermasligini, ularning chetdan turib tashkillashtirishga urinish hollari mavjudligini ham unutmazlik zarur.

Psixologlar tomonidan hozirgi kunda “axboriy-qo‘poruvchi omil” degan tushuncha iste‘molga kiritilgan. Haqiqatdan ham internetda tarqatilayotgan qo‘poruvchilik ruhidagi axborotlar ba‘zan harbiy harakatlarni amalga oshirgandan ham ko‘proq samara berishi mumkin.

Xususan mazkur axborotlarning shaxsga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- kishilarning axloqiy-psixologik holatini, dunyoqarashi, siyosiy nuqtayi nazari va e‘tiqodini maqsadli ravishda o‘zgartirishga nisbatan qaratilgan axboriy bosim, xuruj;
- noto‘liq, ataylab buzilgan, noto‘g‘ri ma‘lumot va axborotlarning tarqatilishi;
- to‘g‘ri ma‘lumotning kishilar tomonidan noto‘g‘ri idrok etilishini ta‘minlashga intilish.

Axboriy ta‘sirning foyda yoki zarari uning o‘zi emas, balki ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan natijasi bilan tavsiflanadi. Zero, axboriy ta‘sir mohiyati uning muayyan jarayonlarni boshqarishga nisbatan imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Aniqlanishicha, hayoliy olamda ko‘p vaqt o‘tkazuvchilar gipnozga beriluvchan shaxslar bo‘lishadi. Kompyuter o‘yinlari dasturini ma‘lum maqsadlar asosida, kishini “zombilashtirish”ga xizmat qiladigan so‘zlar vositasida tuzish esa mutaxassislar uchun murakkab ish emas.

Umuman olganda, nazarimizda o‘smirlar, yoshlarni internetning salbiy ta‘siridan himoyalash uchun bir qator ishlarni amalga oshirish zarur.

Eng avvalo, me‘yorga amal qilish kerak, ya‘ni bolaning kompyuter oldida o‘tkazadigan vaqtini belgilab, chegaralab berish lozim. Uning o‘rniga turli badiiy, ilmiy kitoblarni o‘qish, musiqa, sport bilan shug‘ullanishga undash maqsadga muvofiq. Shifokorlarning tavsiyasiga ko‘ra, birinchi sinf o‘quvchilari kuniga 10 daqiqa, ikkinchi-beshinchi sinf o‘quvchilari 15 daqiqagacha kompyuterda ishlashlari mumkin. O‘rta umumta‘lim maktablarining 6-9 sinf o‘quvchilari 20-25 daqiqagacha, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari talabalari yarim soatdan bir soatgacha kuniga kompyuter qarshisida o‘tirishlari tavsiya etiladi. Shu bilan birga, internetning ma‘lum bir saytlari va portallariga kirishni chegaralovchi dasturlardan foydalanilgani ham ma‘qul. Bu ishlarni amalga oshirish orqali internetning o‘smirlar psixikasiga ko‘rsatadigan salbiy ta‘sirini kamaytirish mumkin.

Hozirgi globallashtirish jarayonida yoshlarning turli destruktiv guruhlar, g‘oyalar tomonidan targ‘ib qilinayotgan qadriyatlar ta‘siriga tushib qolish xavfi tobora ortib bormoqda. Zero, kerakli, muhim hayotiy qadriyatlarni va yo‘nalishlarni shakllantirish ancha murakkab jarayon bo‘lib, u irodaviy zo‘r berish yoki ko‘rsatmalar orqali emas, balki mavjud an‘analalar va tartiblar asosida tarkib toptiriladi. Yoshlarning muhim hayotiy rejalari ular uchun asosiy hisoblangan, hayotiy ahamiyatga molik yo‘nalishlar xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Hayotiy ahamiyatga molik yo‘nalishlar yigit va qizlar yon-atrofidagi muhit, yaqinlariga xos qadriyatlar tizimi asosida shakllanadi. Yoshlarga yaqin muhit, shaxslar esa o‘ziga xos, zamonaviy yoshlar submadaniyati ko‘rinishlarini egallagan shaxslardir. Yoshlar submadaniyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, qadriyatlar tuzilmasining xususiyatlari qay darajada chuqur o‘rganilganligi, shuningdek, hayotiy yo‘nalishlarining ehtimoliy deformatsiyalanishuvi jihatlari qanchalik tahlil qilinganligiga qarab ularga maqsadga muvofiq psixologik-pedagogik ta‘sir ko‘rsatish hamda psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida fikr yuritish mumkin. Zamonaviy yoshlar har xil qadriyatlar va yo‘nalishlarga ega bo‘lib, ularning vujudga kelishida yigit va qizlarning ijtimoiylashuvi, tarbiyasi singari bir qator tashqi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda turli shaxslarda har xil hayotiy pozitsiya shakllanishi mumkin. Ayrim yoshlar juda osonlik bilan ijtimoiy hayotga maqsadga muvofiq tarzda moslashsalar, boshqalarida bu juda qiyinlik bilan kechadi. Yosh avlod vakillariga psixologik-pedagogik ta‘sir ko‘rsatish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash bir qator jihatlarga ko‘ra muhimdir. Eng avvalo, ta‘kidlash lozimki, yoshlar barcha jamiyatlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, istiqbolidir. Yoshlar shaxsining shakllanishi butun dunyoda murakkab siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar kechayotgan bir paytga to‘g‘ri kelayotgan ekan, ularni to‘g‘ri tarbiyalashda albatta, katta avlodning ko‘magi zarur bo‘ladi. Yigit va qizlarga zaruriy psixologik-pedagogik maslahat, yordam ko‘rsatish, ularda tegishli xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish, kuch-g‘ayratini to‘g‘ri o‘zanga yo‘naltirish, ongini destruktiv g‘oyalar ta‘siridan muhofaza qilish shaxs, davlat va jamiyat xavfsizligini ta‘minlashning muhim omillaridan biridir. Rasmiy yoshlar uyushmalari, tashkilotlariga yigit va qizlar, o‘smir, o‘spirinlarni ko‘proq jalb etish ularni to‘g‘ri tarbiyalash, adekvat, maqsadga muvofiq psixologik-pedagogik yo‘naltirishda katta ahamiyatga ega.

Psixologik-pedagogik ta‘sir doirasida quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratilishi maqsadga muvofiq:

- yoshlarning kasbiy, kognitiv, ijtimoiy faoliyat sohalarida muhim strategik yo‘nalishlarni aniqlab olishlariga yordam beradigan qadriyatlar tizimini shakllantirish;
- ijtimoiy takomillashuv va mas‘uliyat hissini tarkib toptirishga ko‘maklashuvchi ma‘naviy yuksalish, tafakkur madaniyati ko‘nikmalarini rivojlantirish;

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

- yosh avlod mansub bo'lgan ijtimoiy guruh vakillarida jamiyatga foyda keltirish bilan bog'liq faoliyat turlari bilan shug'ullanishni nazarda tutadigan qadriyatlar tizimini, yo'l-yo'riqlarni tarkib toptirish.

Yoshlar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ta'sir yo'nalishlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- mazmuniy yo'nalish (rasmiy yoshlar tashkilotlari, uyushmalari faoliyatiga tatbiq etish mumkin bo'lgan, amaliy xarakterdagi, qadriyat ahamiyatiga ega pedagogik komponentlar mazmuni, shakl, usullarini yaratish);

- ijtimoiy-pedagogik yo'nalish (zamonaviy yoshlarning turli qatlamlariga mo'ljallangan ma'naviy-ma'rifiy, pedagogik tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan tizimni hayotga tatbiq etish);

- dasturiy-tuzilmaviy yo'nalish (yoshlarning o'zaro birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish);

- iqtisodiy yo'nalish (sport jamoalari, klublari, konstruktiv mazmunda faoliyat olib boradigan rasmiy va norasmiy yoshlar tashkilotlarini moddiy rag'batlantiruvchi va moliyalashtiruvchi manbalarni aniqlashtirish);

- innovatsion yo'nalish (nazorat shaklidagi odatiy pedagogik ta'lim-tarbiya usulidan faol fuqarolik pozitsiyasini, yuksak axloqiy ong, ijobiy hayotiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan rivojlanish modelini yaratish).

Xulosa. Yoshlarda muvaffaqiyatga erishish borasida maqsadga muvofiq stereotiplarni shakllantirishda jamoat tashkilotlari, pedagoglar, ta'lim muassasalari, oila, ommaviy axborot vositalari, ota-onalar tegishli tarzda birgalikda faoliyat olib borishlari lozim. Ota-ona (oilalar), ta'lim muassasasi va jamoatchilik hamkorligini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik o'zaro aloqa modeli tizimli yo'lga qo'yilishi zarur. Ushbu model konkret muassasa, tashkilotlar hamda davlat va jamiyatning turli tuzilmalari, bo'g'inlari darajasida faoliyat olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Abduxalilov A. Diniy ekstremizm: kecha va bugun. Jamiyat va boshqaruv. -2002. -№2. -B.66-68.
2. Бутовская М.Л. Агрессия и примирение как проявление социальности у приматов и человека. Общественные науки и современность. 1998.№ 6.
3. Венгерова А.Б. Информационная ситуация может способствовать как прогрессу, так и деградации общества. Компьютер и право, № 1, 1994.
4. Геген Н. Психология манипуляции и подчинения. - Питер, 2005.
5. Грачев Г.В. Мельник И.К. Манипулирование личностью. Организация, способы технологии информационно-психологического воздействия. -М., 2002.
6. Жумаев У.С. "Социально психологические особенности международных и межкультурных связей человечества". Педагогик маҳорат журнали, 2019 йил, 4-сон, 112-117 бетлар.
7. Jo'rayev S., Abdusamatov A. Terrorism - xalqaro xavfsizlikka tahdid qonun himoyasida. -2001. - №9. -B.21-25.
8. Донцова А.И., Засурского Я.Н., Матвеевой Л.В., Подольского А.И. Информационная и психологическая безопасность в СМИ. -М., 2002.
9. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo, g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. -T.: "Ijod dunyosi", 2002.
10. Norqulov H. Oilada yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyasi. – Toshkent, 2005.
11. Столяренко Л.Д. Основы психологии. - Ростов-на: "Феникс", 2000.
12. Tolipov F. Terrorizmning milliy va mintaqaviy xavfsizlikka solayotgan tahdidi. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. -2001. -№3. -B.22-31.
13. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. -М.: "Республика", 1994.
14. Хассен С. Освобождение от психологического насилия. Деструктивные культы, контроль сознания, методы помощи. -СПб., 2002.

Internet manbalar:

1. www.google.ru
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz

Azizjon SATVALDIYEV

Andijon mashinasozlik instituti
gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

INSON HARAKATLARIDA VA SHAXSLARARO MUNOSABATLARIDA IRODANING KUCHI

Maqolada kishining o'zida bo'ladigan ixtiyorsiz harakatning paydo bo'lishi irodaviy zo'r berish bilan yengilish, vazminlik, kishining o'z-o'zini, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini qo'lida tuta bilish, ularni boshqarishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: iroda, vazminlik, ixtiyorsiz harakatlar, faoliyat, irodaviy zo'r berish, psixologiya.

В статье рассматривается мысль о том, что возникновение непроизвольного действия, которое происходит в самом человеке, преодолевается волевым усилием, сдержанностью; способностью человека держать себя, свои стремления, чувства и страсти в руках, управлять ими.

Ключевые слова: воля, сдержанность, непроизвольные действия, активность, волевое усилие, психология.

The article considers the idea that the emergence of an involuntary action that occurs in the person himself is overcome by volitional effort, restraint, the ability of a person to hold himself, his aspirations, feelings and passions in his hands, to manage them.

Key words: will, restraint, involuntary actions, activity, volitional effort, psychology.

Kirish. Insonning ichki qarshiliklari uning o'ziga xos bo'lgan ma'lum holatidir. Kishi tinch harakatsiz va hech qanday faoliyatsiz holatda bo'lishi mumkin. Masalan, bunday holat dam olayotganda, uxlayotganda, toliqqanda va kasal paytda bo'ladi.

Iroda - odamning o'z faoliyati va psixik jarayonlarini o'zi boshqarishda namoyon bo'ladigan qobiliyati. Inson irodaviy harakatini amalga oshirarkan, o'ziga hukmron ehtiyoj va xohishlariga qarshi turadi: iroda uchun "men xohlayman" degan kechinma emas, balki "kerak", "bajarishim shart" degan kechinma xosdir.

Asosiy qism. Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Iroda mehnatda paydo bo'ladi va toblanadi. Irodaning ong'dagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yo'l-yo'riqlarini oldindan aniqlab, ma'lum qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo'ladi. Odamda irodaning qay darajada ekanligi maqsadni qanday ro'yobga chiqarishida ko'rinadi. Irodaviy harakat jarayonlarida kishi ichki va tashqi to'siqlarga duch keladi. Ichki to'siqlar kishining o'ziga, uning ichki mayllariga xos holat. Kishining ichki mayllarini yengish, o'zini boshqarish va o'z ustidan hukmronlik qila bilish layoqati ichki iroda deb ataladi. Tashqi to'siqlar tevarak-atrofdagi voqelikda uchraydi. Kishining ana shunday tashqi to'siqlarni yengish layoqati tashqi iroda deb ataladi. Irodaviy faoliyatda tashqi to'siqlarni yengish (tashqi iroda) ichki to'siqlar (ichki iroda)ni yengish bilan uzviy bog'liq.

Irodaning muhim sifatlari: o'zini tuta bilish, dadillik, qat'iylik, chidam va toqat, prinsipiiallik, mustaqillik kabilar. Iroda kuchi shu sifatlarning qay darajada namoyon bo'lishiga qarab belgilanadi. Kishi yuksak g'oyalarga asoslangan ongli qat'iyat va sabot bilan o'z harakati yo'lidagi to'siqlarni yengar ekan, u kuchli iroda egasi hisoblanadi. Iroda kishining xarakteri bilan uzviy bog'liq, uning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Ko'pincha, kishining o'zida bo'ladigan ixtiyorsiz harakatning paydo bo'lishi irodaviy zo'r berish bilan yengilish, susaytirish va yo'q qilib yuborilishi lozim bo'ladi. Ayni shu chog'da keraksiz harakatlarni o'zgartirish yoki to'xtatishga to'g'ri keladi. Ixtiyorsiz harakatlarning paydo bo'lishi kerakli irodaviy harakatlarni susayib yoki batamom to'xtatib qo'yishi mumkin. Shuning uchun qabul qilingan qarorni bajarishda paydo bo'ladigan ixtiyorsiz harakatni irodaviy zo'r berish bilan yengishga to'g'ri keladi. Kishi irodaviy zo'r berganida, ixtiyorsiz harakatni batamom yo'qotib yubormaydi, balki uni biroz o'zgartiradi yoki bunday harakatning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Ixtiyorsiz harakatni bosishga vazminlik deb ataladi.

Iroda, avvalo, kishining o'z-o'zini, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini qo'lida tuta bilish demakdir. Iroda- kishining o'z-o'zini iroda qila bilish, o'z xulq va faoliyatini ongli ravishda tartibga solish hamda boshqara olish qobiliyatidir.

Inson o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirishga qarshilik qilayotganda to'sinliklarni yengadi, voqelikni o'z maqsadiga muvofiq ravishda o'zgartiradi va uni o'z ehtiyojlariga moslaydi.

Shu jihatdan biz faoliyatni biror bir turini olib qaraydigan bo'lsak: masalan tadbirkorlik faoliyatida. Ma'lumki bugungi kunda tadbirkorlik bilan jamiyatimizda erkaklar ham ayollar ham birdek faoliyat olib

bormoqdalar. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki inson o'z harakatlarini, ya'ni ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlarini boshqara olishda ko'proq erkarklarga nisbatan ayollarimizda irodalilik, mas'uliyatlilik hissi yuqoriroq nisbatni ko'rsatadi.

Professional faoliyat jarayonida erkaklar va xotin-qizlarning o'zlarini qanday tutishlari, maqomlari va bu jarayonlardagi ularning jinsidan kelib chiqadigan o'ziga xos psixologiya olimlarni hamisha qiziqtirib kelgan. Chunki ishlab chiqarishning manfaatlaridan kelib chiqiladigan bo'lsa, qaysi jins vakili boshqarganda, mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi, degan savol ham fan, ham amaliyot uchun o'ta dolzrabdir. Bu o'rinda shuni e'tirof etish joizki, ishlab chiqarish sur'atlari nihoyatda tezlashgan ushbu zamonda xotin-qizlar erkaklar bilan teppa-teng ishlab chiqarishning barcha sohlarida mehnat qilish bilan birgalikda, boshqaruv jarayonlariga ham kirib kelmoqdalar.

Muhokamalar va natijalar. Shaxslararo munosabatlar nazarda tutilgan holatlardagi segregatsiya asosan ijtimoiy ustanovkalar va stereotiplar shaklida o'zaro munosabatda bir shaxsning boshqa shaxs yoki guruhni idrok qilishi, o'zini o'zgalar doirasida tasavvur qilishi va shunda aniqlanadigan ajratuvchi belgilar vositasida namoyon bo'ladi. Ya'ni, agar bu hodisani gender munosabatlar sohasida tasavvur etilsa, bu – yashirin yoki oshkora tarzda erkaklar va xotin-qizlar birgalikda faoliyat ko'rsatadigan sharoitlarda har ikki jins vakilining o'z jinsiy belgilari nuqtayi nazaridan qarama-qarshi jins vakili yoki o'zini muayyan jins vakili sifatida idrok qilish oqibatida ba'zi bir tafovutlarning borligini hamisha his etish va undan foydalanishdir. Bu holat, ayniqsa, erkaklarda oshkoraroq namoyon bo'ladi. Albatta, tadqiqotlar jarayonida tomonlarning o'zlarini qanday tutishlari, ularning xulq-atvori olimlarni qiziqtirdi. Ularning ikki ta'lim muassasasida o'tkazgan izlanishlari oqibatida bunday menejmentning quyi-dagi xususiyatlari aniqlandi:

1) ishdan belgilangandan ortiq faollik ko'rsatish, ya'ni ayollar erkaklarga nisbatan ishxonada ko'proq qolib ketish hisobiga o'zlarini yaxshi irodali xodim, ishchan mutaxassis sifatida ko'rsatadilar;

2) "feminin uslub" - erkaklar bilan muloqat qilganda, muzokaralar olib borish chog'ida faqat ayollargina xos bo'lgan usullarni qo'llash orqali erkak kishini ishlashga majbur qilish, ya'ni, aynan u yoki bu yumushni boshqalar usiz eplay olmasliklariga ishora qilish;

3) "sahna ortida ishlash"- erkaklarga nisbatan ayollar jamoada aslida haq to'lanmaydigan, lekin ishdan tashqari paytlarda jamoa a'zolari bilan shug'ullanishga (ixtiyorsiz harakatlar, masalan, biror shaxslararo nizoni bartaraf etishga ishtirok etish, talaba-yoshlar biror masalada mushkul ahvolda qolgan bo'lsalar, ularni qo'llab-quvvatlash, qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish kabi) vaqt topa oladi;

5) "niqob"dan foydalanish – ayollar o'z shaxsiy va emotsional hayotida oid ma'lumotlarni birovlariga bildirmaslikka, farzandlari, erlari bilan paydo bo'lgan muammolarni oshkora etmaslikka harakat qiladilarki, aks holda, ular unchalik yaxshi ishlamaydigan xodimlar qatoridan o'rin egallab qolishlari mumkinligidan cho'chiydilar (ichki iroda).

Irodaviy sifatning tarkib topishida mehnatning ahamiyati katta. Kishining qaror topgan qarashlari, dunyoqarashi, irodaviy xulq- atvorning muhim sababidir.

Irodaviy jarayonlar oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy kishi hech ikkilanmasdan ko'zlagan maqsad sari boradi, u nimaga va qanday yo'l bilan erishajagini aniq biladi. Murakkab maqsadni tanlashga ikkilanish, harakatni tanlashga qiynalish. Bunday hollarda irodaviy harakat murakkab xarakterga ega bo'ladi va ikki bosqichga ajratiladi:

1) tayyorgarlik;

2) bajarilish.

1. Niyatni, maqsadni anglashni, ba'zan motivlar kurashi bilan qarorga kelishini, ish olib boriladigan metodlarni tanlashni o'z ichiga oladi. Masalan, oliy o'quv yurtiga kirish bosqichlari.

2. Qarorning bajarilishi. Kishi faoliyati davomida o'zini xarakterlab beradigan irodaviy sifatlarni hosil qiladi. Ayrim xususiyatlar kishini yanada faol qiladi, bu hol yarim sharlar po'stlog'idagi qo'zg'alish jarayonlarining ustunlik qilishi bilan bog'langan bo'ladi, boshqa sifatlar yoqimsiz psixik jarayonlarga va harakatlarga halaqit berishda, ularni to'xtatib qolishda nomoyon bo'ladi.

1. Aktivlik bilan bog'liq bo'lgan sifatlarga : qat'iylik, dadillik, sabr matonat (o'jarlik emas), mustaqillik (negativizm emas. Negativizm qanday qilib bo'lsa ham tashqaridan bo'ladigan ta'sirga qarshilik ko'rsatishga intilish xususiyati xosdir). Irodali kishi ta'sirga beriluvchan bo'lmaydi. Mustaqillik o'z xatti-harakatlarini jamoaning fikri va irodasiga bo'ysunmaslik kerak degan ma'noni bildirmaydi. Biroq "podaga o'xshab harakat qilish tuyg'usi" degan tuyg'uga ham berilmaslik kerak. Ko'pgina yomon odatlar (ichkilikbozlik, chekish va hokazolar) irodasi zaif kishilarga aynan mustaqil bo'lmagan, ta'sirga beriluvchan va taqlid qilishga moyil bo'lgan kishilarga yopishib oladi. Harakatlarni mustaqil bajarish o'z kuchiga ishonch hosil qilishda yordam beradi, bu ishonch kishining muhim irodaviy xususiyatidir.

2. Nomaqbul psixik jarayonlar va harakatlarning tormozlanishi bilan bog'liq iroda sifatlari: chidam (o'zini tuta bilish), bardoshlilik, sabr-toqat, intizomlilik va uyushqoqlik, puxtalik kiradi. Irodasi sustlikning

nomoyon bo‘lish doirasi xuddi kuchli irodaning xarakterli sifatlari kabi rang-barangdir. Irodasi sustlikning eng chekka darajasi psixika normasi chegaradan tashqarida bo‘lishi mumkin. Irodaning ijobiy fazilatlari, uning kuchini nomoyish qilishi faoliyatning muvaffaqiyatini ta‘minlaydi, kishi shaxsini eng yaxshi tomonidan ko‘rsatadi. Bu kabi irodaviy fazilatlarning ro‘yxati juda katta: qahramonlik, sabotlilik, qat‘iylik, mustaqillik o‘zini tuta bilish va ko‘pgina boshqalar. Xususan qat‘iylik irodaning induvidual fazilati bo‘lib, mustaqil ravishda mas‘uliyatli qaror qabul qilish hamda uning faoliyatda so‘zsiz amalga oshirish qobiliyati va malakasi bilan bog‘liqdir.

Irodaviy fazilatni baholash atiga birgina “kuchli-kuchsiz” o‘lchovi bilan ifodalanmaslik kerak. Irodaning axloqiy tarbiyalanganligi, agar hal qiluvchi bo‘lmasa ham, muhim ahamiyatga egadir. Irodaviy ko‘rinishlar xarakteristikasi, ularning ma‘naviy bahosi irodaviy akt amalga oshirilishining asosida qo‘yilgan motivning sotsial ahamiyatiga bog‘liqdir.

Xulosa. Har bir talabada irodani rivojlantirish va uni mustaqil ravishda tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Irodani ongli ravishda tarbiyalash jarayoni qanchalik tez boshlansa shunchalik ko‘p muvofiqiyatlarga erishish mumkin.

Adabiyotlar

1. Ivanov I.P. Umumiy psixologiya. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashryoti, 2008-y.
2. G‘oziyev E., Meliqulova N. Ijtimoiy psixologiya. -T., 2009 – 146 b.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2012. – 148 b.
4. Xolmatova M. Gender masalasi va uni O‘zbekistonda hal etishning o‘ziga xosligi. O‘zbekistonda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning roli va gender muammolari. -Toshkent: “Fan”, 1999.–B. 23

Firuza SIROJIDDINOVA
Andijon mashinasozlik instituti
gumanitar fanlar kafedrasida doktoranti

MEHNAT SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Maqolada mehnat samaradorligi - iqtisodning muhim sifatiy ko'rsatkichi, moddiy ishlab chiqarishni samaradorlik darajasi, mehnatning unumdorligi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o'qish va o'qitish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda yechimlarning samaradorligi o'z hayotiy faoliyatini saqlash va intellektual layoqatlarini yanada rivojlantirish uchun moddiy va ma'naviy ne'matlardan foydalana olish borasida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: samaradorlik, ishlab chiqarish, intellektual layoqat, daromad, rentabellik, ijtimoiy sharoitlar, psixologik omillar.

В данной статье представлена информация об эффективности труда - важном качественном показателе экономики, уровне эффективности материального производства, производительности труда, эффективности общественного производства, эффективности обучения, эффективности принятых законов и правил и решений по использованию материальных и духовных благ для поддержания своей жизнедеятельности и дальнейшего развития интеллектуальных способностей.

Ключевые слова: эффективность, производительность, интеллектуальная способность, доход, прибыльность, социальные условия, психологические факторы.

This article presents opinions on labor efficiency-an important qualitative indicator of the economy, the level of efficiency of material production, labor productivity, the efficiency of social production, labor efficiency, the effectiveness of education and training, the effectiveness of adopted laws and regulations and decisions on the use of material and spiritual goods to maintain one's life and further develop intellectual abilities.

Key words: efficiency, productivity, intellectual ability, income, profitability, social conditions, psychological factors.

Kirish. Mehnat samaradorligi, unumdorligi muammosi har doim har qanday davlatni, tashkilotni va har bir insonni ijtimoiy muhim, zaruriy masalalaridan biri bo'lib qoladi. Mehnat samaradorligi – iqtisodning muhim sifatiy ko'rsatkichi, ya'ni uning texnika bilan ta'minlanganligi va mehnat kvalifikatsiyasidir. Moddiy ishlab chiqarishning samaradorlik darajasi bu mehnatning unumdorligi, daromat, rentabellik, sarf qilingan mablag'ni qoplay olish va boshqa ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi – bu ishlab chiqilayotgan mahsulotlarning soni, bitta ishchiga yuklatilgan normani bajarish yoki ma'lum bir mahsulotga sarf qilingan vaqt hisoblanadi. Mehnat samaradorligini hal qilishning murakkabligi bir qancha obyektiv sharoitlar bilan bog'lanadi. Bular jamiyatda sodir bo'layotgan dinamik jarayonlar, ijtimoiy sharoitlar, iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy texnik holatlar, demografik, siyosiy va ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 23-sentyabr kuni tasdiqlandi. Ushbu qonunda shaxs kamoloti eng asosiy masala qilib olingan. Respublikamizda ko'rsatib o'tilgan vazifalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida oila, tarbiya, muassasalari, ishlab chiqarish korxonasi va jamoat tashkilotlarida pedagogik psixologiyadan foydalanish ta'lim va tarbiyaning shaxslararo ijobiy munosabatlar o'rnatishning, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning garovidir.

Asosiy qism. Mehnatga layoqatli kishilarning umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarligi, fan sohasidagi bilim darajasi, sihat-salomatlik, turmush darajasi mehnat salohiyati sifat jihatlarini ifodalaydi. Mehnatga layoqatlilik insonning ma'lum bir ishini bajarishi uchun zarur bo'lgan mehnatga bo'lgan qobiliyatidir. O'z navbatida, mehnatga layoqatlilik quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Umumiy mehnatga layoqatlilik – bu, kishida maxsus tayyorgarlik va malaka talab qilmaydigan mehnatga bo'lgan qobiliyatni ifodalaydi, u jismoniy, psixo-fiziologik va boshqa belgilar bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.

2. Kasbiy mehnatga layoqatlilik – bu, maxsus bilimni, alohida malakani talab qiluvchi aniq mehnat turiga bo'lgan qobiliyatlarini ma'lum ishlab chiqarish va tabiiy sharoitlarda maxsus bajariladigan mehnatga bo'lgan qobiliyatidir.

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlarida jamiyat mehnat salohiyati sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishda professional (kasb-korlik) mehnatga layoqatlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Mehnatga layoqatlilik ishchi kuchining imkoniy unumdorligidan iborat bo'lib, uning sifatiga, ya'ni xodimning bilimi, malakasi, kasb-korligiga bog'liqdir hamda mehnatning unumdorligida ro'yobga chiqadi.

Samaradorlik so'zi – bu eng ko'p uchraydigan umumiy tushunchalardan biri bo'lib, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xil sohalarida juda keng ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o'qish va o'qitish samaradorligi, davolash va davolanish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda yechimlarning samaradorligi va hokazolar.

Ishlab chiqarish va mehnat samaradorligi - korxonada miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlarning foydali natijalar berishi, olingan iqtisodiy samaraning muayyan qiymatga ega bo'lgan resurslarni qo'llagan holda eng yuqori ishlab chiqarish hajmiga erishishga sabab bo'lgan ishlab chiqarish omillari, resurslar sarflariga nisbati bilan tavsiflanadi. Mehnat samaradorligi korxonada faoliyatining yakuniy natijasini ko'rsatadi. Miqdoriy jihatdan mehnat samaradorligini mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mehnat miqdori bilan o'lchash mumkin, lekin mehnat sarfini aniq o'lchash ancha qiyin. Shu sababli, ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi; ishlab chiqarish vositalaridan va kapitaldan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi. Korxonalarda mehnat samaradorligining umumlashgan ko'rsatkichi tovar ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi hisoblanadi, undan tashqari puldagi harajatlar birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, balans foydani asosiy va aylanma fondlar yigindisiga nisbati, to'la tannarx ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Mehnat unumdorligining o'sishi sur'atlari, mehnatni tejash va mahsulot hajmi o'sishida mehnat unumdorligi hissasi kabi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Mehnat samaradorligi texnik samaradorlik (ishlab chiqarish hajmi), iqtisodiy samaradorlik (mehnat unumdorligi, mehnat resurslari, asosiy fondlar, aylanma resurslar), ijtimoiy samaradorlik (moddiy resurslar, foyda) hisobiga shakllanadi.

Ishchi kuchi, deganda insonning mehnat qilish layoqati, ya'ni uning hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan jismoniy va intellektual sifatleri tushuniladi, u asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, jamiyat boyligining birlamchi omili hisoblanadi. Ishchi kuchi ishlab chiqaruvchi va iste'molchi sifatida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqaruvchi sifatida u ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi hamda inson hayotiy faoliyati uchun zarur moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratadi.

Iste'molchi sifatida o'z hayotiy faoliyatini saqlash va intellektual layoqatlarini yanada rivojlantirish uchun moddiy va ma'naviy ne'matlardan foydalanadi.

Mehnat resurslari – bu mamlakat aholisining mehnatga layoqat yoshiga yetgan va zaruriy jismoniy rivojlanishga hamda xalq xo'jaligida mehnat qilish imkonini beradigan aqliy layoqatlarga ega bo'lgan bir qismidir. Mehnat resurslarining soni jamiyat ayni vaqtda ega bo'lgan jonli mehnat potensial miqdorini tavsiflaydi.

Muhokamalar va natijalar. Ishlab chiqarishda mehnat samaradorligini hisoblashdan maqsad samaradorlikka nimalar hisobiga erishilganini aniqlash va yana qanday omillar evaziga uni oshirish mumkinligini belgilashdan iborat. Y.A.Rodionova o'zining "Zamonaviy korxonada xodimlarini psixologik omillari" deb ataluvchi ilmiy ishida "xodimning samaradorligi" tushunchasi ilmiy ishlarda kam ishlatilishini, lekin bu tushuncha amaliyotda keng yoyilganligini ko'rsatib o'tadi. Adabiyotlarda "samaradorlik" tushunchasi asosan iqtisod nuqtayi nazaridan qaraladi. Uni psixologik omillar asosida o'rganish esa bu muhim va zaruriy jarayondir. Bu haqida D.Parmenter o'zining "Ключвые показатели эффективности" asarida ko'rsatib o'tadi.

Mehnat samaradorligi ko'p hollarda faoliyatni ratsional tashkil qilishda, har xil texnik qurilmalar, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish va boshqarish jarayonlarini unumli tashkil qilish kabilar bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, mehnat samaradorligi bu inson bilan, uning ruhiy-psixologik holatlari bilan bog'liqdir.

Mehnat samaradorligini o'stirish muammosi mehnat psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun mehnat psixologiyasida olib borilayotgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari aynan mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan. Kasblarga xos samaradorlikni o'rganishga qaratilgan iqtisodiy adabiyotlar ko'pdir. Lekin O'zbekiston sharoitida mehnat samaradorligini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish birinchi marotaba amalga oshirilmoqda.

Samaradorlik – bu jamiyatni, insonning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mehnat natijasidir. Inson o'z mehnati tufayli yangi bir mahsulotlarni yaratadi. Bu mahsulotlar o'zi va jamiyat uchun foydali hisoblanadi. Lekin inson mehnatni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Uning mehnat qilishi natijasida charchab qolishi, malakalarini o'stirib borishi, uning dunyoqarashidan kelib chiqqan ma'naviy darajasi, mehnat jamoasidagi o'zaro muloqat imkoniyatlari va shu kabi ko'plab omillar mavjudki,

ular mehnat samaradorligiga o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Bular insonni mehnati natijasi bo'lgan mahsulotlarni yaratishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Samaradorlikni o'z navbatida, ichki va tashqi samaradorlikka ajratish mumkin. Ichki samaradorlik – bu tejamkorlik (iqtisod qilish), ya'ni mavjud resurslarni eng yaxshi (optimal) ravishda taqsimlash va foydalanish imkoniyatidir. Tashqi samaradorlik – tashkilotning maqsadlariga erishish darajasini belgilaydigan menejment natijaviyligini bildiradi.

Boshqa so'z bilan aytganda samaradorlik (eng keng ma'noda) bu ishning pirovard natijasi (harakat, faoliyat, hukm surish), u jamoat amaliyotining o'lehoviga aylanadi, ayniqsa ishlab chiqarishning. Ishlab chiqarish samaradorligi - bu jarayon mahsuli, masalan fan va texnikani oxirgi yutuqlarini joriy qilish faqat iqtisodnigina emas, balki ijtimoiy, siyosiy va jamiyat hayotining boshqa tomonlarini, mehnat jamoasini, hamda uning alohida a'zolarini o'z ichiga oladi.

Mehnat unumdorligi – ishlab chiqarish jarayonida kishilar mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligi. Mehnat unumdorligi ishlovchining ma'lum vaqt birligi (soat, smena, oy, yil) ichida tayyorlagan mahsulot hajmi bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligi tarmoqlari va korxonalarda mehnat unumdorligi yalpi yoki sof mahsulot asosida hisoblanadi. Yillik mahsulot hajmini o'rtacha ishlovchilar soniga bo'lish orqali bir ishlovchi hisobiga yaratilgan mahsulot aniqlanadi.

Xulosa. Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining kamayishi demakdir. Mehnat unumdorligi yuqori bo'lsa, jamiyat har bir xodim hisobiga ko'proq mahsulot tayyorlash, binobarin, o'zining o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mehnatning asosiy kapital bilan ta'minlanishini yaxshilash, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va yangi texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xodimlarning malakasi va texnik tayyorgarlik darajasi, madaniyati, ma'lumoti oshirish mehnat unumdorligi o'sishining eng muhim omillaridandir. Mehnat samaradorligining oshib borishi jamiyat uchun zaruriy jarayondir. Demak jamiyat har doim mehnat mahsulotlariga ehtiyoj sezib turadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. –B.32.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. –B, 64.
3. Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. / Oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot sohasi bo'yicha talabalari uchun darslik. – T.: "O'qituvchi", 2001. – B. 280. (- 480 b.)
4. Aliyev I.T. Psixologiya va pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiyalar".
5. G'oziyev E., Meliqulova N. Ijtimoiy psixologiya.-T., 2009 – 146 b.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2012. – 148 b.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM

Dildora KAXAROVA

Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrası o'qituvchisi,
Buxoro shahar skolioz bilan kasallangan
bolalar uchun ixtisoslashgan sanatoriy turidagi
23-son maktab-internat direktori

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV O'QITISH VA UNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Maqolada maktabgacha yoshidagi nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'zaro muloqot jarayoni, atrof muhitni idrok etishi, tarbiyaviy muhiti ham hamma vaqt yaxshi, mo'tadil bo'lishi, hamisha alohida e'tiborda tutilishi, pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ota-onalar va pedagoglarning nazaridan chetda qolmasligi, uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini ekanligi, bu esa g'oyat muhim o'rin egallashi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, integratsiyalashgan ta'lim, alohida ehtiyojli bolalar, teng huquqlar, ko'nikmalar, ta'lim, alohida yondashuv.

В статье исследуется область дошкольного образования как основное звено в системе непрерывного образования и жизненно важную роль в воспитании и подготовке к школе всесторонне здорового и гармоничного ребенка.

Ключевые слова: инклюзивное образование, интегрированное образование, дети с особыми потребностями, равные права, навыки, образование, особый подход.

The article states that the field of preschool education is the main link in the system of continuing education and plays a vital role in the upbringing and preparation for school of a comprehensively healthy and harmonious child.

Key words: inclusive education, integrated education, children with special needs, equal rights, skills, education, special approach.

Kirish. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198 sonli Farmonida o'z tasdig'ini topdi.

"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ga muvofiq tarzda 2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan ta'lim bosqichlari, xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari ta'limining zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, metodik adabiyolarning yangi avlodini yaratish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishni takomillashtirish taqozo etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ham ta'lim jarayonining ilk bo'g'ini bo'lgan – maktabgacha ta'lim muassasalari muammolariga bag'ishlangan tadbirda: "Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.", degan edi. Bu haqiqat bevosita alohida ko'makka muhtoj bolalarga ham tegishli bo'lib, ularning ta'lim-tarbiyasi ham alohida e'tiborga muhtoj muammolardan biridir.

Mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan: "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" [1] ishlarini yo'lga qo'yish, bu jarayonda yengil nogironligi bo'lgan bolalarni inklyuziv o'qitish masalasi ham mamlakat miqiyosida amalga oshirish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Yurtimizda keng dunyoqarashga ega barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda ijtimoiy himoyaga muhtojligi bo'lgan nogiron bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda tarbiyalanishi va o'qishini, ular bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishini hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bu borada Navoiy shahridagi 26-maktabgacha ta'lim muassasasida olib borilgan tadqiqotlar davomida sog'lom bolalar bilan birga tayanch-harakat a'zolarida va nutqida nuqsoni mavjud, zaif eshituvchi va zaif ko'ruvchi bolalar ham tarbilanayotir. Ayni paytda fikrlashi va o'zini tutishi jihatidan bolalar orasida deyarli tafovut sezilmaydi. Ba'zida jismoniy nuqsoni bor bolalar ham turli mashg'ulot va o'yinlar jaryonida o'zidagi kamchilikni unutilib yuborishadi. Bu ularning ongida moslashuv hissi paydo bo'layotganini ko'rsatadi.

L.S.Vigotskiy bola shaxsi ruhiy dunyosi rivoji va taraqqiyotida muomalaning ahamiyati borasida: "Bola shaxsiy faolligi namoyon bo'lishining asosiy yo'li kattalar bilan muomalasi hisoblanadi. Uning tashqi olamga munosabati hamisha boshqa odam orqali amalga oshiriladi", – deb ta'kidlaydi [3].

Tadqiqot davomida nogironligi bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birga o'ynab, mashg'ulotlarda erkin qatnashayotganliklari ma'lum bo'ldi va ularning o'z-o'ziga xizmat qilishida o'zgalardan kam bo'lmagan faoliyati kuzatildi. Eng asosiysi, defektolog, tarbiyachi, shifokor va psixologlarning doimiy nazorati, ular uchun maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar, tibbiy muolajalar ularning sog'lom bolalar kabi jamoaga qo'shilib, ijtimoiy moslashuviga zamin tayyorlayotgani namoyon bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan inklyuziv ta'lim tarbiyalanuvchilari didaktik harakatli, syujetli-rolli o'yinlarda, ommaviy tadbirlarda, sport musobaqalarida topshiriqlarni sog'lom tengdoshlaridek bajarishga intilayotganliklarini tadqiqotda ilgari surilgan nazariy qarashlarning amaliy isboti deyish mumkin. Bu inklyuziv ta'limning yuksak samarasidir. Muassasada bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish uchun ota-onalar, mahalla faollari, psixologlar va boshqa mutaxassislar ishtirokida ochiq eshiklar kuni, davra suhbatlari, treninglar o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Inklyuziv o'qitishning maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab yo'lga qo'yilishi alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalarning tarbiyalanishi va bilim olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu umumta'lim maktablarida tahsil olishda aqliy va jismoniy nuqsoni bor bolalarda tengdoshlari qatori darslarni o'z vaqtida o'zlashtirish, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini shakllantirishga mustahkam zamin tayyorlaydi. Sinfdoshlari bilan do'stona munosabatda voyaga yetayotgan yengil nogironligi bo'lgan bolalar darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishga erishadilar. Maxsus mashqlar hamda qo'shimcha mashg'ulotlar asosida xotirasi yoki eshitish qobiliyati zaif o'quvchilarda sezilarli o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Ayni vaqtda, uyda ta'lim oluvchi nogironligi bo'lgan bolalarni belgilangan muddatlarda umumiy dars mashg'ulotlariga jalb qilish ham yaxshi natija berishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalari inklyuziv ta'limida yengil nuqsoni bo'lgan bolalarning zaif jihatlarini hisobga olgan holda, qobiliyatiga qarab qo'shimcha mashg'ulotlar olib boriladi. Shunda bolaning jamoada ishlay bilish, faoliyatlarini hamkorlikda rejalashtirish, xatti-harakatlar mazmunini boyitish, madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirish kabi ijtimoiy moslashuv jarayoni ham tezlashadi. Bundan tashqari, mazkur mashg'ulotlarda yengil nogironligi bo'lgan bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmasi, kattalar hamda o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar maktabga qadam qo'yayotganida nafaqat qancha bilimga egaligi, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorlik darajasi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalarni biror faoliyatga o'rgatishgina emas, unda o'ziga ishonch hissini orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish, xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish ham muhim ahamiyatga molikdir. Eng muhimi, alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalar o'zlarini jamiyatning teng huquqli a'zosi ekanliklarini his qilib turishlaridir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida 6-7 yoshli bolalarning maktab hayotiga tayyorgarligini aniqlashda asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi darajasi maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'priq vazifasini o'taydi. Oila yoki MTMdagi ta'lim-tarbiya sharoitlaridan maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash asosiy masalalardan biridir. Bu jarayonda maktabgacha yoshdagi alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar mazkur vaziyatga alohida yondashuv zarurligini ham inobatga olishlari maqsadga muvofiq bo'ladi [2].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi hamisha ularning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Bu holat alohida yordamga muhtojligi bo'lgan bolalarda ikki baravar hayajonli ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalarni MTMda ham, oilada ham maktab ta'limiga tayyorlash, ularni juda

qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan avvaldan tanishtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi. Yetakchi mutaxassislarining fikriga ko'ra maktabga tayyorgarlik tushunchasi alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan va sog'lom bolalarni maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi: jismoniy, ruhiy, aqliy va maxsus tayyorgarlik kabi.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-mator muvofiqligining rivojlanganligi darajasi bilan izohlanadi.

Rivojlanganlikning asosiy belgilari o'ziga xos jismoniy imkoniyatlarning alohida jihatlarida ham ko'rinadi. Masalan, suyak tuzilishida, past bo'yli bolalarda o'z yoshiga ko'ra tana, bo'y va og'irlikdagi nomutanosiblik, tanadagi muvozanat buzilishlari, yurak-qon tomir tizimidagi fiziologik yetishmovchiliklar, tez toliqishlar, jismoniy yuklamalarni bajarishdagi imkoniyatlarning pastligi shular jumlasiga kiradi.

Jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun yoshga mos bo'lishi lozim bo'lgan bo'y, vazn, bosh, ko'krak aylanasi me'yoriy ko'rsatkichlari hamda qo'l mushaklari va asosiy harakat organlaridagi nuqsonlarni aniqlash usullari berilgan. Kasalliklar va ularga moyillik bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvlar ham yashash joyidagi bolalar poliklinikalarida tor mutaxassis shifokorlar guruhi tomonidan olib boriladi. Ruhiy tayyorgarligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'ziga, o'simlik va jonivorlar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, yaratuvchilikka munosabatda yuzaga keladigan shaxsiy madaniyatning shakllanganligi ham bolalarni, xususan, alohida yordamga muhtojligi bo'lgan bolalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, umuman, bolaning, xususan, yengil nogironligi bo'lgan bolaning maktab ta'limiga tayyorligi uning ongida qanday umumiy axloqiy tamoyillar mustahkamlanganligi, u tomonidan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va umuminsoniy qadriyatlarining tan olinganligi, "nima yomonu nima yaxshi"ligini anglagani bilan belgilanadi. Bolalarning, xususan, yengil nogironligi bo'lgan tarbiyalanuvchilarning ruhiy tayyorgarligidagi eng muhim jihat ularning ichki pozitsiyasi shakllanganligi yoki motivatsion tayyorgarligi, ya'ni ularning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishga, topshiriqlarni bajarishga, tengdoshiga yordam berishga bo'lgan ehtiyoji bilan birga maktabga borish istagi ham nazarda tutiladi. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar shaxsining rivojlanishi ko'pincha oiladagi tarbiya bilan ham bevosita bog'liqdir.

Tortinchoq yoki qo'rqqoq bolalar ko'proq qat'iy nazoratda ushlab turiladigan, bola tashabbusi qo'llab-quvvatlanmaydigan oilalarda shakllanadi va oxir-oqibatda ular faqat kattalar yoki birovning ruxsati bilan harakat qiladigan mute, tanbal odamga aylanib qoladi. Bolalarni ortiqcha maqtayveradigan, noo'rin siylayveradigan oilalarda ular ko'pincha boshqarilmaydigan, haddan tashqari faol, kattalar va tengdoshlari bilan muomala qilishni bilmaydigan, aniq asoslari bo'lmasa-da, buyruq berishga va yetakchi bo'lishga intiladigan bo'lib tarbiyalanadilar.

Alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalar o'z holiga qo'yib qo'yilgan, nazoratsiz, unga nisbatan befarqlik hukmron bo'lgan oilaviy muhitda voyaga yetayotgan bo'lsalar, ularning fe'l-atvorida hissiy ojizlik, g'amginlik, serzardalik, jangarilik, qat'iyatsizlik kabi salbiy alomatlar paydo bo'la boshlaydi. Alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalarning aqliy tayyorgarligi obrazli va mantiqiy fikrlash, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqillikning, o'z-o'zini nazorat qilishga va boshqarishga imkoniyatning shakllanganligi hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtira bilish kabi ko'nikmalarni qamrab oladi.

Psixologiya ilmida xotira aqliy rivojlanishning bir ko'rsatkichi sifatida e'tirof etiladi. Xotira (agar bola eshitganlarini yaxshi eslab qolsa) eshitish, (bola eshitgan va ko'rganlarining asosiy mazmunini aytib bera olsa) mazmunni eslab qolish kabi turlarga bo'linadi. Bolalarning ko'rib, eshitib, eslab qolishi bilan bog'liq xotirasini rivojlantirish uchun mashq qildirish befoya. Chunki u har bir odamda tabiatan mavjud bo'ladi. Mazmunni eslab qolish xotirasini yaxshilash uchun esa albatta mashq qildirish kerak bo'ladi. Bolalarning aqliy rivojlanganlik darajasidan tashqari jismoniy, shaxsiy-psixologik rivojlanishi ham ularni maktabga tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

a) harakatning asosiy turlarini rivojlantirish:

- sog'lig'iga qarab yurish va yugurishning barcha turlarini to'g'ri bajarish, shart-sharoitga muvofiq ulardan foydalanish;
- dastlabki holatlarda turib jismoniy mashqlarni aniq, ritmik, ko'rsatilgan maromda, musiqaga mos, og'zaki ko'rsatmalarda aytilganiday bajarish;
- gavdani to'g'ri tutish, sog'lig'iga qarab sport o'yinlari unsurlari ishtirok etadigan (suzish, voleybol, futbol, hokkey, stol tennisi, badminton) o'yinlarda ishtirok ettirish;

b) tana qismidagi mushakchalarni rivojlantirish:

- qo'l panjasi va barmoqlar harakatchanligini ta'minlash (barmoqlarni yengil siqish, yozish),

barmoqlarni o'ynatish (barmoqlarda o'yin ko'rsatish, barmoqlar soyasida tomosha ko'rsatish va boshqalar);
- tashqi muhit o'zgarishlariga bardoshlilik, kasalliklarga tegishli qarshilik ko'rsatish, ularning nisbatan yengil va qisqa muddatda asoratlarsiz o'tishi;

- yaxshi ishtaha (ayrim ovqat turlariga salbiy munosabatlarisiz);

- o'zining jismoniy qiyofasi va sog'lig'i haqida tasavvur shakllantirish, sog'lom turmush tarziga erishish (madaniy-gigiena malakasini rivojlantirish, har kuni ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarishga odatlantirish, bu hamda boshqa malakalar ahamiyatini tushunish);

d) aqliy-psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari:

- har qanday savolning mohiyatiga kirib unga to'g'ri javob bera olishi voqea-hodisalarga munosabat bildira olishi, fikr aytishi va xulosalar chiqara bilishi;

- o'z fikri va qarashlarini asoslay bilishi, zarurat bo'lganda qarashlarini himoya qila olishi;

e) tevarak-atrofni tushunish, bilish ko'rsatkichlari:

- qayerda yashashini (mamlakat, shahar, qishloq, uy manzili, diqqatga sazovor joylar va boshqalar) bilishi;

- zamon va makon haqida tasavvurni shakllantirish va ularni tushuna bilishi (bir yil necha oy, bir hafta necha kun, necha soat, chap-o'ng va hokazo);

- o'z oilasining tarixi to'g'risida (oilasi avval qayerda yashagan, buvasi va buvisi nima bilan shug'ullanishgan, ularning hayoti biznikidan nimasi bilan farq qiladi va hokazo):

- ko'chalar, tuman, shaharlar, yirik tarixiy voqealar hamda davrlar (mustaqillik davri), o'z mamlakatining davlat ramzlari, davlat bayramlari va o'z xalqining urf-odatlarini hamda an'analari haqida muayyan tasvurga ega bo'lish;

- jonli va jonsiz tabiat hodisalarning sabab va oqibatli bog'lanishlari, o'zaro mutanosibligini bilish (nega qor yog'adi, qor nima uchun qo'lda eriydi, qishda o'simliklar nega bargsiz bo'ladi);

- insonning tabiatga ta'siri haqida tasavvuri bo'lishi, bunday ta'sirning natijalari (tabiatga qiziqish va muhabbatni shakllantirish, tabiatning holati, unga inson hayotining manbai sifatida ehtiyotkor munosabat va shu kabi oddiy ekologik tushunchalar).

Bu jarayonda alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning:

a) ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichi:

- umuminsoniy axloq-odob qoidalarini o'zlashtirish (nima yaxshi-yu, nima yomon tushunchalarini shakllantirish, mumkin va mumkin emas, xohish va burchlilik tushunchalarini ajrata bilish, vaziyat taqazosiga muvofiq axloq-odob doirasidagi muomala va kayfiyatni tanlay bilish);

- o'z tashabbusi bilan, shuningdek, do'stlari tashabbusi bilan tanish va notanish bo'lgan katta yoshdagi kishilar, o'zidan kichik yoshdagilar bilan erkin muomala qila olish;

- fe'l-atvorning ijobiy xususiyatlarini qaror toptirish (keng fe'lilik, e'tibor, g'amxo'rlik, o'zaro yordam, mehribonlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, narsalarga, inson mehnatiga hurmat va ehtiyotkor munosabat, estetik ong asoslarini shakllantirish, go'zallikka, tabiat ajoyibotlariga, adabiy, badiiy, musiqiy asarlarga, amaliy san'at namunalari va boshqalarga qiziqishni rivojlantirish);

- mustaqillikni rivojlantirish (o'z shaxsiy faoliyatini tashkil etish uchun turli xil vositalarni: o'yin, tomosha ko'rsatish, tasvirlash, qurish-yasash, o'yin faoliyatining turli jarayonida yuzaga keladigan maummolarni mustaqil hal eta bilish);

- o'zini-o'zi (o'g'il bola, qiz bola) jinsidan kelib chiqqan holda anglash, o'z imkoniyatlari, qobiliyati, xatti-harakatini baholay bilish, katta yoshdagilar, tengdoshlari o'zidan yosh jihatdan kichiklar davrasida o'z o'rnini anglash, boshqalarni tushunish, o'zgalarning qiziqishlari, ehtiyojlari, istaklarini hurmat qilish, kayfiyatini, oldidagi muammolarini ko'ra bilish, o'z xatti-harakatlarini o'zgalar nazari bilan baholay olish va hokazo.

Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolaning o'z-o'zini anglashidagi muhim jihat uning o'z qadr-qimmatini his etishi, o'ziga bo'lgan munosabatni anglashi va baholay bilishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bola uchun o'z shaxsiga ortiqcha baho berish tabiiy va qonuniy hol. Bu uning uchun o'ziga xos shaxsiy himoya, o'z kechinmalariga quloq tutish, o'zining hayajonli holatlarini: "men xursandman", "men xafa bo'ldim", "men yaxshiman", "men roziman" tushunish, boshqa birovga nisbatan: "yashavor", "zo'r" kabi so'zlarni ishlatishlari bilan belgilanadi;

b) intellektual (aqliy rivojlanish) ko'rsatkichi:

- fikrlashni rivojlantirish (obrazli, mantqiiy, ijodiy, abstrakt); atrofdagilar bilan muomala qila bilish, o'ziga qarata aytilgan gapni tushunish, so'zlashishga kirishish, aniq-tiniq gapirish, savollarga javob qaytarish, boshqalarga savol berish;

- alohida o'yinlarni tashkil qilish, o'yin uchun kerakli materiallar va zarur narsalarni tanlay bilish;

- "men o'zim qilaman" degan muayyan qat'iyatlilikning shakllanganligi (ayrim mehnat malakasi,

turmush va tabiatdagi tartibning buzilishini payqash, o'yinchoqlarni tuzatish, bog'lab-mahkamlash, idishlarni yuvish, uyda xo'jalik ishlariga qarashish, dasturxon tuzashga yordamlashish, oshxona jihozlaridan foydalana bilish, o'z ust-boshini tuzatish) va boshqalar;

- boshlagan ishini oxiriga yetkazishga odatlantirish (ya'ni, mehnatning samarasi va foydasini anglab yetish);

d) tasviriy faoliyatini rivojlantirish ko'rsatkichlari:

- jamoada ishlay bilish, ishni hamkorlikda rejalashtirish, faoliyat mazmunini boyitish;

- musiqaga mos harakatlana olish, o'ziga nisbatan ishonchni his etish;

- suratlardagi predmetlar, rang tasvir namunalarini farqlash, ranglarni ajratish;

e) xotirani rivojlantirish ko'rsatkichlari:

- mexanik xotirani (eshitish) rivojlantirish, eshitishga qaratilgan vazifani tinglash va yodda saqlashni uddalash, ko'rganlarini so'z orqali yoki amalda ifodalash, ko'rsatish;

- ko'rish xotirasini rivojlantirish, ko'rganini yodda saqlash va uni so'z orali yoki amalda ifodalash, ko'rsatish;

- fikriy xotirani (mantiqiy) rivojlantirish, ko'rganini yoki eshitganini so'zma-so'z emas, balki uning asosiy mazmunini o'z so'zlari bilan ifodalab berishni uddalash;

f) tasavvurni (abstrakt fikrlash) rivojlantirish ko'rsatkichlari:

- fikrlab, obrazlarga yoki narsalarga tayanmay, oddiy vaziyatlarni, harakatlar muntazamligini yoki turli xil faoliyatlarining pirovard natijalarini o'zida tasavvur eta bilish, faoliyat;

- xatti-harakatlari oqibatini oldindan tasavvur etishni uddalash;

g) ijodkorlikni rivojlantirish ko'rsatkichlari:

- o'zining individual, takrorlanmas obrazini yaratish;

- faoliyatning barcha turlari mazmunini boyitishni bilish;

- hikoyalar, ertaklar, topishmoqlar va hokazolar o'ylab topish.

Muhokamalar va natijalar. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqi qanchlik rivojlanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutqning mantiqiy rivoji, bolaning kattalar yordamisiz mustaqil fikrlashi, til birliklaridan erkin foydalana olishi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o'z tasavvurini tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji, ya'ni uning namunani oson va erkin takrorlay olishi, naqsh chizish, aytib turib yozdiriladigan (diktant), bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, maxsus tayyorgarliklar alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni savodxonlikka o'rgatish va maktabning 1-sinf o'quv dastur materiallarini DTS talablari darajasida egallash haqidagi tushunchalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozimki, alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarga o'qishni, uning ustiga, tez o'qishni va yozishni o'rgatish unchalik muhim emas. Asosiysi, bolalarning lug'at boyligini oshirish, undan ongli va faol foydalana olishini, tovushni tiniq eshitishini, so'zlarni aniq talaffuz qilishini, so'zlarni o'rinda ishlata bilishini, taxmin etish va "Uchinchi ming yillikning bolasi" dasturining savodxonlik bo'yicha talablariga javob bera olishini, oddiy bilimlarni, matematik tasavvurlarini egallashiga erishishdir.

Agar alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarda qo'l mushakchalari yetarli darajada rivojlangan bo'lsa, ular maktabda 1-sinf ta'limi jarayonida 2-3 oy davomida o'qish va yozish texnikasini qiyinchiliksiz egallab oladi. Maxsus tayyorgarlikning asosiy ko'rsatkichlari bu – faoliyatning tushunib yetilishi va erkinligi, ijodiy tasavvurning rivojlanganligi hisoblanadi. Bu sifatlar alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalarda maktabgacha yosh davrining so'nggida savodxonlik, matematik, o'ziga xos faoliyatining, ya'ni o'yin, konstruksiyalash (qurish-yasash), chizish ko'nikma-malakalarini egallash asosida paydo bo'ladi.

Ijodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan alohida e'tiborga muhtoj bolalar yangi o'quv materialini mustaqil tushunib yetishga, izlanish faoliyatiga, pedagoglar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishga tayyor bo'ladi. U bilishga qiziquvchan, faol, tashabbuskor bo'lib, nafaqat kattalar tomonidan taklif etilgan topshiriqlarni bajarishga, balki o'zi va boshqalar oldiga ham yangi vazifalarni qo'ya oladi.

Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan muassasalarning boshlang'ich sinf o'qituvchilari maktabgacha yoshdagi alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni qabul qilishda bolaning oilada yoki maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim olganligidan qat'iy nazar, o'quv faoliyatining ma'lum bir ko'nikmalariga ega bo'lsada, baribir ma'lum muddatgacha bola maktabgacha yoshdagi davrning o'ziga xos xususiyatlarni saqlab turishini inobatga olish lozim bo'ladi. U hali o'quv faoliyati uchun kerakli bo'lgan sifatlar va uddaburonlikka ega emas. U bu xislatlarni o'quv jarayoni davomida egallashni davom ettiradi. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni maktab hayotiga kirishishi bilan uning sistematik maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rishni davom etadi. Albatta, bu jarayon alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar vakolatining oshib borishini hisobga

olgan holda, yuqorida sanab o'tilgan - jismoniy, shaxsiy, aqliy va maxsus tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, bolaning faolligi hisobga olinsa, uning bu xususiyati maktabda jismoniy tarbiya darslarida, katta tanaffusda, shuningdek, sinfdan tashqari ishlar jarayonida qondirilishi zarur. Buning uchun boshlang'ich sinf bolalariga yoshiga xos fikrlashini, tasavvurini, izlanishini faollashtiradigan va o'quv faoliyatining boshqa muhim ko'nikmalarini hosil etadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratish kerak bo'ladi.

Xulosa. Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalarida, asosan, ta'limning birinchi yilida maktabgacha yoshdagi alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan va sog'lom bolalarga ma'qul keladigan faoliyat turi o'yinlar ekanligini hisobga olgan holda o'yin usullarini kengroq qo'llash zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk o'qitish bosqichida "bog'cha"da ham, maktabda ham ularga o'qishda birdan qat'iy belgilangan talablarni qo'yish mumkin emas. Namuna sifatida MTM va maktabdagi ta'lim shakllari mutanosibligi taqsimotini keltirish mumkin. Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va tayyorlov guruhida – 80 foiz o'yin – 20 foiz mashg'ulot; birinchi sinflarda (1-yarim yillikda) – 60 foiz o'yin – 40 foiz dars; birinchi sinflarda (2-yarim yillikda) – 30 foiz o'yin – 70 foiz dars; katta va tayyorlov guruh tarbiyachilari va 1-sinf o'quvchilarining asosiy vazifasi – ta'limning birinchi bosqichida alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan va sog'lom bolalarning hayotiy faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos shakl hamda metodlarini ta'minlashdan iboratdir. O'yin faoliyati bolalar uchun ma'lum muddat yetakchi bo'lib qolishi va bundan birdan voz kechmaslik, balki u sekin-asta tabiiy holda o'z o'rnini boshqa, ya'ni o'quv faoliyatiga bo'shatib berishini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 3-son, 79-modda.
2. Борытко Н.М. Моделирование воспитательного процесса: Воспитательная деятельность: методология, содержание, технологии. /Под ред. В. А. Тятина. – Астрахань: "Школа", 2001. –С. 62.
3. Выготский С. Л. Собрание сочинений. В 6 томах. Т. 2. – М.: "Педагогика", 1984. –С. 17
4. <https://kun.uz/.../mirzиеv-maktabgaca-talim-tizimi-xakida...>

Азизбек САЙФУЛЛАЕВ

Бухоро давлат университети таянч докторанти (PhD)

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ДАРСЛАРИДА АХБОРОТ-КОМУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Замонавий технологияларнинг имкониятларидан фойдаланишда чекловлар йўқ. Кўпинча ўқитувчилар бу технология имкониятларини тўлиқ ўрганмаганликлари ҳисобига азият чекадилар. Ахборот-коммуникация технологиялари ўқув фанларининг назарий ва услубий бўлимларига доир мавзуларни самарали ва мустақил равишда ўзлаштириши имконини беради.

Калит сўзлар: таълим жараёни, ахборот-коммуникация технологиялари, ўқув материали, ақлий фаолият, назарий материал

Ограничений в использовании возможностей современных технологий нет. Учителя часто страдают из-за того, что не полностью изучили возможности этой технологии. Информационно-коммуникационные технологии позволяют эффективно и самостоятельно осваивать темы теоретико-методических разделов учебных дисциплин.

Ключевые слова: учебный процесс, информационно-коммуникационные технологии, учебный материал, умственная деятельность, теоретический материал

There are no restrictions in using the capabilities of modern technologies. Teachers often suffer because they have not fully explored the possibilities of this technology. Information and communication technologies allow you to effectively and independently master the topics of theoretical and methodological sections of academic disciplines.

Key words: educational process, information and communication technologies, educational material, mental activity, theoretical material.

Таълим жараёнида замонавий технологиялардан фойдаланиш жамиятда рўй бераётган интеграция ва ахборот жараёнлари, глобал таълим маконига киришга йўналтирилган янги таълим тизимини шакллантириш билан изоҳланади [1, 6]. Ҳозирги кунда замонавий компьютер технологияларига асосланган таълим педагогик фаолиятда ишларни сифатига боғлиқ. Замонавий коммуникация технологияларидан фойдаланиш натижасида таълим жараёнида ўқитувчининг фаолиятида сезиларли ўзгаришлар содир рўй бермоқда. Ўқув курслари мураккаблашмоқда, ўқув материаллари сифатига қўйиладиган талаблар ўсиши сезиларли даражада кўзга ташланмоқда.

Ахборот-коммуникация технологиялари ахборотни тақдим этиш имкониятларини сезиларли даражада кенгайтиради. Мактаб таълимини ривожланишнинг ҳозирги босқичида компьютер техникаси билан жиҳозланаш масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда [4, 28]. Мактаб ўқувчиларига бошланғич синф машғулотларида компьютер ёрдамидан фойдаланиш, уларнинг ақлий фаолияти назарий материалларни тез ўзлаштирилишига ёрдам беради, билим ва кўникмаларини эгаллаши янада қизғин ва хилма-хил бўлади.

Компьютерни дарснинг барча босқичларида қўллаш мумкин. Янги материални тушунтиришда ўқув жараёни мувофиқлаштирилади, йўналтирилади, олиб борилади ва ташкиллаштирилади ҳамда компьютернинг ўзи бутун мавзуни "тушунтиради" [3, 14]. Видеоеъзув, товуш ва матндан фойдаланган ҳолда, ўқувчи ўрганилган жисмоний ҳаракат ҳақида тўлиқ тушунчага эга бўлади, ҳаракатлар кетма-кетлигини моделлаштиришни ўрганади, бу эса дарсни янада мазмунли ва қизиқарли ўтишига ёрдам беради.

Билимларни мустаҳкамлаш босқичида компьютер анъанавий дарс муаммосини ҳал қилишга имкон беради - шахсий билимларни ҳисобга олиш, шунингдек, ҳар бир ҳолатда олинган билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришга қўмаклашади.

Ўқув курсини компьютерлаштириш учун ўқитувчи қуйидаги босқичларни изчил бажариши керак:

1) фанга доир ўқув-услубий материалларни электрон вариантини тайёрлашни бошланиши бўлган компьютер курсининг мақсад ва вазифаларини шакллантириш;

2) электрон нашр турини (мультимедиади маърузалар, электрон дарслик, электрон маълумотнома, тест ва мониторинг дастурлари) танлаш;

3) ўқув матнлари, график ва анимацион парчалар, видеолар, овозли матнларни тайёрлаш;

4) ўқув режа сценарийсини ишлаб чиқиш ва гиперҳаволаларга навигация схемасини тузиш;

5) олдинги кадамлар натижалари бўйича ўқув курсининг электрон нашри схемасини тузиш ва таҳрирлаш;

б) тайёр маҳсулотни тузатиш ва синовдан ўтказиш;

7) ўқитувчилар учун кўрсатмалар ишлаб чиқиш;

8) тайёрланган электрон нашрлар асосида ўқув жараёнини ташкил этиш.

Компьютер ёрдамида такрорлаш босқичида ўқувчилар турли хил муаммоларни ҳал қилишади. Натижада, барча ўқувчилар ҳаракатларини такомиллаштириш ақлий фаолиятига киритилади [2, 19]. Материални ўзлаштиришда уларнинг мустақиллик даражаси ўқитувчи томонидан тартибга солинади. Билимларни компьютер билан бошқариш анъанавий тарзда таққослаганда бир қатор афзалликларга ва булар қуйидагилар:

Индивидуал ёндашувга олиб келади

ўқувчилар топшириқларининг тезлигини ҳар хил ҳисобга олади;

машқлар қийинчилик даражасига қараб фарқланади;

баҳолашнинг объективлигини оширади;

Ўқувчиларнинг муваффақиятлари ва хатоларининг батафсил ёзиб қўйилади. Назорат шаклларига эса: ўзини ўзи бошқариш, ўзаро назорат, олинган билимларни амалда ижодий қўллашни киритишимиз мумкин. Уй вазифаси сифатида, ҳар бир ўқувчи ҳаракатларининг (югуриш, сакраш ва ҳқ) элементларини тўпламини олиши мумкин, шундан у тўпланган материал асосида барча спорт композицияларини тузиши керак.

Техник янгиликлар ва дастурий таъминотларнинг ривожланиши доимий равишда ўсиб бормоқда [6, 124]. Ўқитувчининг билим ва тажрибаси мунтазам равишда тўлдирилиб борилади. Ўзларининг муаммоларини ечиш учун дарсларда ўқитувчи ҳар хил турдаги компьютер дастурларидан, ўқув электрон манбаларидан фойдаланиши мумкин: буларга қуйидагиларга киради.

Маълумотнома: интернет орқали керакли маълумотларга кириш.

ўқув дастурлари: улар кўникмаларни шакллантиради ва бирлаштиради ҳамда талабаларнинг мустақил машғулоти учун ишлатилади. Ушбу дастурлар назарий материал аллақачон сотиб олинганида қўлланилади.

ўқув дастурлари: асосан янги материални тушунтириш учун фойдаланилади.

Намойиш дастурлари: тавсифий характердаги ўқув материалларини кўргазмалар намойиш қилиш учун, турли хил кўргазмалар куруллар (расмлар, фотосуратлар, видеоклиплар, плакатлар). Намойиш дастурлари ўқитувчига маълум бир бошланғич позициясини визуал равишда кўрсатишга ёрдам беради. Чунки кўпинча кўрсатиш ва бир вақтнинг ўзида айтиб бериш ноқулай. Жисмоний маданият чекланмаган миқдордаги ҳаракатлар, позициялар, жисмоний машқлар, шу жумладан инсоннинг кундалик ҳаётига умуман хос бўлмаган машқларни ўз ичига олади, шунинг учун унинг ўзига хос терминологияси мавжуд. Энди эса ўқувчилар сафини қуриш ва қайта қуриш диаграммалари кўриб чиқадиган бўлсак, кўргазмалар куруллар ўқувчиларга яхшироқ йўл топишга ёрдам беради ва бунга назорат дастурлари мисол бўла олади.

Назорат дастурлари: билим ва кўникмалар даражасини бошқариш. Ушбу дастурлар тест кўринишидаги турли хил тест элементларидир. Улардан индивидуал ёндашув сифатида фойдаланилади, улар ўқувчиларнинг муваффақиятлари ва хатоларининг батафсил расмини келтириб чиқарадилар.

Компьютер ёрдамида такрорлаш босқичида ўқувчилар турли хил муаммоли вазиятларга ечим топишади. Натижада, барча ўқувчилар ақлий фаолиятга йўналтирилади [5, 129]. Материални ўзлаштиришда уларнинг мустақиллик даражаси ўқитувчи томонидан тартибга солинади.

Билимларни компьютер ёрдамида бошқариш анъанавий таълим билан таққосланганда бир қатор афзалликларга эга ва улар қуйидагилардан иборат:

- индивидуал ёндашув қўлланилади: ўқувчиларнинг вазифаларни бажаришдаги ҳар хил тезликлари ҳисобга олинади, машқлар қийинчилик даражасига қараб фарқланади;

- баҳолашнинг холислигини оширади;

- ўқувчиларнинг ютуқ ва камчиликларининг батафсил тасвири қайд этилади.

Бундан ташқари, кўргазма куруллар нафақат расм, балки мустақил билим манбаи сифатида ҳам қўлланилиши мумкин, ўқувчиларнинг самарали изланишларини, илмий-тадқиқот ишларини ташкил қилиш лозим [7, 18]. Масалан, жисмоний тарбия ўқитувчиси раҳбарлигида ҳар бир ўқувчи учун алоҳида, умумий мустаҳкамлаш машқлари тўпламини танлаб, сўнгра ишлаб чиқилган комплексларни медиа маҳсулоти шаклида амалга ошириш мумкин. Бунинг учун расмларни намойиш этиш, мусиқани танлаш, матнли қўшиқ яратиш зарур. Ўқувчилар томонидан яратилган маҳсулот энг яхши кўргазмалар курули бўлади.

Ахборот компьютер технологияларидан фойдаланиш жамият томонидан мактабга қўйилган ушбу муаммоларни ҳал қилишнинг мумкин бўлган усули бўлиши мумкин [8, 36]. Ушбу стандарт бошланғич таълимнинг асосий таълим дастурини самарали амалга ошириш ва ўзлаштириш учун шарт – шароитларни таъминлашга, шу жумладан, барча ўқувчиларни, айниқса, махсус таълим шароитларига муҳтож бўлганларни иқтидорли болалар ва ногирон болаларни индивидуал ривожлантириш учун шарт-шароитларни таъминлашга қаратилган.

Бошланғич синф жисмоний тарбия дарсларида ҳаракатли ўйинлар тўғрисида қисқача маълумот, ўйин қоидалари, ўйинни ўтказиш тартиби, ўйин давомида бажариладиган ҳаракатлар тўғрисидаги маълумотлар билан таништиришда ўқитувчи ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиб ўтса, ўйин тўғрисида ўқувчиларда тасаввур ва кўникмаларни ҳосил бўлишига муайян даражада хизмат қилади. Бошланғич синф ўқувчиларига жисмоний тарбия дарсларида ўйинлар тўғрисида маълумотлар беришда PowerPoint, MacromediaFlash, 3DstudioMax ва бошқа дастурларда ёрқин ранглардан фойдаланиб [10, 49], тайёрланган анимацияларда фойдаланиши мумкин. Қуйида биз ушбу дастурлар ёрдамида дасрда давомида фойдаланиш мумкин бўлган баъзи ўйинлар тўғрисида тўхталиб ўтамиз.

Устунчаларни айланиб ўтиш. Ўйин мазмуни. Умумий шарт чизигида бир неча жамоанинг тўрт нафардан иштирокчилари колонналарда саф тортиб туради. Ҳар бир жамоанинг иштирокчилари белгиланган ҳудудда жойлашиб оладилар иштирокчилар олдидан ҳар 1-1,5 метрга, 100 метр масофага доиралар чизилади. Раҳбарни сигналидан кейин жамоаларнинг охириги турган ўйинчилари ўйинни бошлаб беришади. Биринчи иштирокчи олдиндаги учта иштирокчидан айланиб ўтиб белгиланган жойга келгандан сўнг навбатдаги иштирокчини шарт олишига рухсат этилади. Белгиланган масофага ўйин қоидаларини бузмасдан биринчи етиб келган жамоа ғолиб ҳисобланади.


Ўйиннинг тавсифи. Раҳбарни сигналидан кейин жамоаларнинг охириги турган ўйинчилари ўйинни бошлаб беришади. Биринчи иштирокчи олдиндаги учта иштирокчидан айланиб ўтиб белгиланган жойга келгандан сўнг навбатдаги иштирокчини шарт олишига рухсат этилади. Жамоанинг ҳар бир иштирокчиси машқни масофа бўйлаб 8-10 мартагача багаради. Белгиланган масофага ўйин қоидаларини бузмасдан биринчи етиб келган жамоа ғолиб ҳисобланади.

Ўйиннинг қоидалари. 1. Иштирокчи белгиланган доирадан чиқиб кетиши мумкин эмас. 2. Устунларни айланиб ўтаётганда унга тегиб сойдан силжитишга йўл қўйилмайди. 3. Ҳаракатни бошлаган иштирокчи белгиланган жойга етиб келмагунча қолган иштирокчилар ҳаракатни бошламайдилар.


“Ётиқ ва тик тўсиқлардан ошиб югуриш” ўйини.

Ўйинга тайёрланиш. Ўйновчилар 3-5 та жамоага бўлинадилар. Жамоалар майдончанинг бир томонидаги чизик орқасида бир қатордан 3-4 метр оралиқда сафланиб турадилар. Майдончанинг энига устунчалар қўйилиб, уларга 60 см баландликда резина ёки арқонча тортилади. Арқончадан 5-8 метр нарида кенлиги 100-150 см “чукур” чизилади ёки ажратилади. Майдончанинг қарама-қарши томонидаги деворчадан 2 метр берида ҳар бир жамоанинг рўпарасига тўлдирма тўплар қўйилади.

Ўйиннинг тавсифи. Ўқитувчининг сигналидан сўнг ҳар бир жамоанинг биринчи бўлиб турган ўйинчилари эстафета таёқчасини олдиндан ушлаб югура бошлайдилар, улар олдин арқон ёки резина устидан, сўнг чукурчанинг устидан сакраб ўтиб, тўлдирма тўп атрофидан ўнг томон билан айланиб, яна чукурча ва арқон устидан ошиб, ўз жамоаларига қайтиб келадилар. Шарт чизиги орқасида турган ўз жамоасининг навбатдаги ўйинчиларига таёқчани бериб, ўзлари қаторнинг охирига бориб турадилар. Қолган ҳамма ўйинчилар ҳам шу ҳаракатни такрорлайди. Қайси жамоа вазифани хатосиз ёки кам хатога йўл қўйган ҳолда биринчи



1-расм. Ўқувчиларнинг ўйин давомидаги ҳаракатларининг тасвири



2-расм. Ўқувчиларнинг ўйинни бажаришлари учун кичик гуруҳларга ажратилиши

бўлиб тугатса, ўша жамоа ютган ҳисобланади.

Умумий ўрта таълим мактабларида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш таълим сифатини оширишга хизмат қилади. Бунда педагогик жараённинг мазмунини такомиллашади, ўқув жараёнига инновацион моделлар жорий этилади, шунингдек, ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорликдаги фаолияти йўлга қўйилади. Ўқув жараёнига ахборот-коммуникация технологияларни тадбиқ қилиш, таълим муассасасида технологик, педагогик ва ташкилий ишлар билан боғлиқ қийин ва кўп қиррали масалаларни ечишни талаб этади.

Адабиётлар

1. Векслер В. А., Рейдель Л.Б. Интерактивные тренажеры и их значение в учебном процессе // NovaInfo, No. 41-1, 2016., – с. 10.
2. Baron Naomi S. Words Onscreen. The fate of reading in a digital world. – Oxford : Oxford University Press, 2015. – 321 p.
3. Boon L. The Cluster Approach: Issue-Specific Briefing Paper Humanitarian Aid in Complex Emergencies University of Denver. 2012. –P. 2.
4. Porter M.Y. The Massachusetts Higher education and Knowledge. Cluster The Microeconomics of Competitiveness 2010. – P. 27-30.
5. Смирнова И.Е. Начало Web-дизайна. С.Пт: “БХВ - Петербург”, 2005. – 238 с.
6. Stuart Gray. Information Technology in a Global Society for the IB Diploma: Black and White Edition. CreateSpace Independent Publishing Platform. 2011.–United Kingdom. –316 - p.
7. Иванова Е. О., Осмоловская, И. М. Теория обучения в информационном обществе – 2-е изд. – М. : Просвещение, 2014. – 189 с.
8. Ядровская, М. В. Модели и моделирование в педагогике: монография / М. В. Ядровская. – Ростов-на-Дону, 2014. – 359 с.
9. Guseva A.I., Lebedeva A.V., Sheina E.A. Scorm 2004 training simulators in e-learning system for training bachelors during study of computer science // Международный журнал экспериментального образования. 2013. № 6. – С. 51-54.
10. Чугунов, И. Е. Внедрение тренажеров для Интернет-тестирования в образовательный процесс. – Уфа: УГАЭС, 2011. – 101 с.

Navro'za SALOXITDINOVA

Termiz davlat universiteti

boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLARARO ALOQADORLIKNING PEDAGOGIK ASOSLARI (Aniq va tabiiy fanlar misolida)

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda fanlar integratsiyasining hozirgi holati adabiyotlar sharhi, manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, fanlar integratsiyasining mazmuniy ma'nosiga sharh berilishi uning asl mohiyatini va vazifasini to'la ifodalay olgan. Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi munosabatni qay darajada to'g'ri tashkil etilishi va buning o'z navbatida ta'lim olish sifatiga sezilarli darajada ta'sir etilishiga ham urg'u berilgan. Hamda maqolada pedagoglar fikri keltirilishi va bu asosda natijaning dalillanishi negizida fanlar integratsiyasi jarayonini loyihalashtirish g'oyasi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, o'quv fani, pedagogik texnologiya, innovatsion, fanlararo aloqadorlik, o'quv jarayoni, ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi, integrativ yondashuv, pedagogik integratsiya.

В статье описывается современное состояние интеграции наук в начальное образование на основе обзора литературы, источников. Также интерпретация смыслового значения интеграции наук смогла полностью выразить ее сущность и функцию. В статье также подчеркивается, насколько правильно организованы отношения ученика и учителя в процессе начального образования, что, в свою очередь, оказывает значительное влияние на качество образования. В статье также выдвигается идея построения процесса интеграции дисциплин на основе мнения преподавателей и доказательства результата.

Ключевые слова: интеграция, педагогическая наука, педагогическая технология, инновации, междисциплинарная связь, учебный процесс, образование, студент, учитель, интегративный подход, педагогическая интеграция.

This article describes the current state of integration of sciences in primary education on the basis of literature reviews, sources. Also, the interpretation of the semantic meaning of the integration of sciences has been able to fully express its essence and function. The article also emphasizes the extent to which the student-teacher relationship in the primary education process is properly organized, which in turn has a significant impact on the quality of education. The article also puts forward the idea of designing the process of integration of disciplines on the basis of the opinion of teachers and the proof of the result.

Key words: integration, teaching science, pedagogical technology, innovation, interdisciplinary connection, learning process, education, student, teacher, integrative approach, pedagogical integration.

Kirish. Boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalash integratsiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtayi nazardan juda muhim bo'lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Hozirgi zamon ilm berish tizimi yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, tafakkuri rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglashga, ularning mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Maktablarda o'rgatiladigan fanlarning tarqoqligi maktab bitiruvchisida bir ko'rinishli (fragmentar) dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Atrof-muhitga jiddiy munosabatlar poydevori boshlang'ich sinflarda o'rgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta'limning natijasi maktab ta'limining birinchi bosqichiga bog'liq yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgari tushunchalarni ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang'ich sinflarda iqtisodiy ta'limning barcha tarkibiy qismlarini o'zlashtirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

Asosiy qism. Integratsiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Quyida integratsiya jarayonini o'rganishda va shu o'rinda ahamiyatlilik darajasini buyuk pedagoglarning fikrlari misolida ko'rsatib o'tamiz:

Ulug' didaktik olim Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir - biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak"[1, 260]. Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondashib, uning rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar.

D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak"[2, 123].

I.V.Pestalossi o'quv darsliklaridagi bog'liqlik masalasiga keng to'xtalib o'tar ekan: "Bir-biri bilan bog'liq fanlarni keltirgan, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla" -deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi, hatto xavfliligini ta'kidlaydi.

O'tmish pedagogikasida integratsiyalashning didaktik ta'sirining ruhiy-pedagogik xususiyati hamda psixologik-pedagogik bog'liqligi to'g'risida K.D.Ushinskiy shunday deydi: "Har qanday fan tomonidan xabar qilinayotgan bilim va g'oya dunyo va hayotga keng nigoh va yorituvchan holatda berilishi lozim". Fanlararo bog'liqlik nazariyasining ishlab chiqilishida K.D.Ushinskiy juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, metodika rivojida X.V.Stoyunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqa pedagoglar samarali ish olib bordilar. Fanlararo aloqadorlik yoki integratsiyaning maktablarda o'qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko'p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqildi. Jumladan, I.D.Zverev qarashlariga ko'ra fanlararo bog'lanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqilligini oshiradi. Shuningdek, ularning fanlarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish bilan birga mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantiradi va ekologik madaniyatni tarbiyalashga katta yordam beradi.

I.T.Suravegina biologiya darslarida fanlararo bog'lanishni qo'llash orqali biologiyani o'qitish jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning biologiya va boshqa fanlarga bo'lgan qiziqishini orttirishni tadqiq qilgan. Olimaning nuqtayi nazarida biologiyani boshqa o'quv fanlari bilan bog'lamasdan o'qitishni tasavvur qilish qiyin. "Fanlararo bog'lanishni to'g'ri yo'lga qo'yish va undan mohirlik bilan foydalanish o'quvchilarning tabiat haqidagi bilimlari tizimini shakllantirishga xizmat qiladi"- deb ta'kidlaydi.

Biolog-metodist olimlar N.M. Verzin va V.M. Korsunskaya fanlararo bog'lanish ikki xil: gorizont va vertikal bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan [3, 34]. Olimlar gorizont fanlararo bog'lanish bir sinf, bir chorak, yarim yillikda o'qitilayotgan fanlar o'rtasida, vertikal fanlararo bog'lanish esa avvalgi sinflarda o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanish orqali amalga oshirilishini qayd etgan.

Darhaqiqat, bir qator ilmiy ishlar boshlang'ich maktablarda fanlararo va fanlar ichidagi bog'liqliklar muammosiga bag'ishlangan bo'lib, o'quv qo'llanmalari integratsiyasini asta-sekin yaratib, yo'lga qo'yish masalalariga qaratilgan. Jumladan, T.L.Ramzayev, G.N.Akvilev, N.Y.Vinelkin, G.V.Beltyukov va boshqalar. Keyinchalik markazlashtirilgan fanlar o'zida bolaning ongini kengaytiruvchi mavzular paydo bo'ldi. Bola ulg'aygan sari uning dunyoqarashi kengayib, ongida oila, maktab, tuman, shahar, mamlakat, insoniyat, koinot kabi tushunchalar paydo bo'la boshlaydi va ilm darajasi ham o'sib boradi.

XX asr boshlarida pedagogika yo'nalishida bir nechta qiziqarli ishlar bilimlarni integratsiyalash yo'lida olib borildi. Bu yo'nalishda ayniqsa boshlang'ich ta'lim sohasida ilg'or siljishlar ro'y berdi.

Jumladan, hozirgi vaqtda integratsiya muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumta'lim maktablarida integratsiya deganda biz yangi pedagogik izlanishlarni, pedagogik jamoada ijodiy o'sishni, o'quvchilar ongiga singdirishning qulay usullarini qo'llash mahoratini tushunamiz. Fanlarni integratsiyalash orqali dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim;
- fanlararo aloqadorlikka oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;
- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin;
- dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarning insonparvarlik jihatlarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak;

- mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, Respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak;

Umuman olganda, integratsiya darsi bir-biriga mos bo'lishi lozim.

Muhokamalar va natijalar. XIX-XX asrlar oralig'ida pedagogikada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursini yaratishga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, bu ishlar A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov, V.N.Maksimova, S.P.Baranova, M.N.Skatkin nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular boshlang'ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz tabiat haqidagi bo'linmagan kursni kirgizishni tavsiya etgan [4, 266].

Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag'ishlangan. Bu muammolar o'quv fanlarini integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish zonasidir. Mazkur ta'lim sohalari mazmunini o'zlashtirish va egallangan o'zaro aloqador bilim, ko'nikma, malakalarni bilish, amalda qo'llash jarayoni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilmagan.

Boshlang'ich maktab fanlarining integratsiya aloqalari kam ishlab chiqilgan bo'lib, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarining ishlashi va o'rganish obyekti tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin?

Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlari umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruratini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich, tabiat haqidagi elementar bilimlarni birlashtirish; oraliq - fanlar bo'limlarini bo'lish integratsiyasi; yakuniy - tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi.

Tabiat yoki fan haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlarga nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biron bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddada tizimli tasavvurlardir. Ular biron bir mavzu, fan yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biron bir fanni bilish yangi dalil va tushunchalarning tanilishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarning eng oddiy umumlashtirilishi sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa ayni muddao bo'lar edi. Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlar tizimining bilishini ta'minlaydi, o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlarini aks ettiradi. Fanlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilishga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasidagi bo'shliqlikni aniqlashga imkon beradi.

Bayon qilingan psixologik dalillar boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu borada S.P.Baranov, S.R.Bolotin va V.A.Slastenlarning "Pedagogika" kitobida darslarda qo'llaniladigan fanlararo bog'lanish ko'rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta'lim muammolari aks etmagan. L.N.Buxareva o'zining "Boshlang'ich maktab o'quv mashg'ulotlarini o'lkashunoslik asosida integratsiyalash" maqolasida "Integratsiya - differensiya jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish va bog'lash jarayoni bo'lib, yangi, butun yaxlit bilimlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko'rinishdir", deb ta'kidlaydi. O'quv fanlari orasida integratsiya fanlar tizimini inkor etmaydi va integratsiya tizimini takomillashtirish kamchilliklarni bartaraf etish yo'li bo'lib, fanlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondashuv - differensiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushuntirishga tayanadi Integratsiya xususidagi ijobiy fikrlar bilan bir qatorda uning salbiy omillari xususida ham fikrlar mavjud. Jumladan, Y.M.Kolyagin va O.L.Aleksenko: "O'quv fanlarining chegaralangan soni - olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni, olamning haqiqiy ko'rinishini, qismlarning o'zaro bog'liqligini o'zaro aks ettira olmaydi" - deb, fanlararo integratsiyaga salbiy munosabat bildirishadi [5, 136].

Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsadda vazifalarga ega bo'lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butun birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiyani amalga oshirish o'quvchilarga yordam berishdir. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, keyinchalik esa bitiruvchilar u yoki bu fanlarni o'rganib, shu bilan, ko'nikmalarni boshqa fanlarni o'rganishda qo'llashga qiynalib, ularga mustaqil fikrlash, olingan bilimlarga o'xshash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari yetishmayapti. Bularning hammasi boshlang'ich sinflardagi turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning o'zaro kelishmovchiligi tufayli sodir bo'lmoqda. Bu holda integratsiya bir fan bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatning almashinishi emas, balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettuvchi yangi didaktik ekvivalent (mos bo'lgan, o'xshash, keng keladigan narsa)larni yaratish jarayonidir. Psixolog olimlar E.N.Kabanova va Millerning fikricha, "O'qituvchiga hali uchramagan vazifa asosida bilim ko'nikma va qobiliyatlarni mustaqil ko'chirilishi aqliy rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir". U o'zining "Boshlang'ich sinflarda ta'limni integratsiyalash tajribasi" ishida maktab ta'limini integratsiyalashning muhimligiga e'tiborini qarasa, L.P.Elkanin integratsiya darsini samarali qilish vositasi, fanlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli"- deb hisoblaydi [6, 182].

Ta'limni integratsiyalashning maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashning muhim prinsipi sifatida maydonga keldi. Integratsiyalashgan ta'lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omili bo'lib qoldi. Fransuz olimi Dj.Dyuning fikricha, "Ayni paytda ta'limda uning og'irlik markazini siljitishga qaratilgan o'zgartirishlar boshlanadi. Bu o'zgarishlar, Kopernikning tabiatshunoslikda olam markazini Yerdan Quyoshga siljitgan inqilobga juda o'xshab ketadi. Bizning misolimizda bolalar (o'quvchi) Quyosh kabi, uning atrofida esa ta'lim vositalari girdikapalak bo'lib aylanadi. Bolalar, atrofida shakllantirilayotgan vositalarning markazidir"-deb qaraladi [7, 437].

G.F.Fedorsovning integrativ-tematik yondashuvi ham fanlarni integratsiyalab o'qitishning pedagogik asoslari bo'lib hisoblanadi. Integrativ-tematik yondashuvda o'quv jarayonining mazmuni, metodik va tashkiliy birligi sifatida o'quv fanining mavzusi olinadi. Har bir mavzuning yetakchi g'oyalari bir tomondan kursning yetakchi g'oyalari tegishli bo'ladi, ikkinchi tomondan bu g'oyalar mohiyatini ochib beradi, ya'ni mavzuni o'rganish jarayonida yetakchi g'oyalar aniqlashtiriladi o'quv fanining yetakchi g'oyalari (tushunchalar, qonunlar, hodisalar va nazariyalar) o'rganadigan materiallarning mohiyatini ifodalaydi, ichki birligi va organik yaxlitligini ta'minlaydi. Bunday yondashuv o'qitishni sarmazmun va metodik birlikdagi uyushgan, samarali tashkil etishga yordam beradi.

A.N.Zaxlebniy va M.V.Reshkovlar fanlarni integratsiyalashni maktabdagi alohida fanlar mazmunida o'quv dasturi va darsliklardagi bog'lanishlarni hisobga olgan holda amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, o'quv materiallarni integratsiyalashga intilish so'zsiz ravishda jahonda ham, milliy pedagogikamizda ham tabiiy va yetakchi xarakter kasb etadi [8, 92].

Integratsiya pedagogik holat sifatida ikkita an'anaga ega: avvalo aytish lozimki, ayrim maktab fanlari integrativ xarakterga ega [9, 81]. Ko'pincha bu fan ichidagi integratsiya darajasi bo'lib: masalan, savodga o'rgatish darslari (o'qishni va yozishni) - o'sha davridayoq integratsiyalashgan dars edi. Shuningdek, maktabdagi adabiyot darsi yagona maqsad asosida amalga oshirilgan. Bunday o'zaro bog'langan adabiyotni o'rgatish, o'qish malakasini takomillashtirish, ijodiy fikrlash, ijod qilish malakalarini birlashtirishga qaratilganligi fikrimizga dalildir. Biroq, bugungi kunda maktab fanlarini birlashtirishga nisbatan yangi yondashuv bosqichi boshlanadi. Fanlararo bog'liqlikda turli bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni yaqinlashtirish, yaxlit holda integratsiyalash muammosiga murojaat qilmoqda.

Ta'limdagi integratsiyaning mohiyati nima bilan xarakterlanadi?

"Integratsiya" tushunchasi ta'lim jarayoniga tadbir etilganda ikkita ma'noni anglatadi:

- birinchidan, bu maktab o'quvchilarida bizni o'rab turgan atrof-olamni bir butunlikda deb qabul qilishga erishish (bunda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida maydonga chiqadi);
- ikkinchidan, fanga doir bilimlarni umumiy jihatlarini yaqinlashtirish (bunda integratsiyaga ta'lim vositasi sifatida qaraladi).

Bugungi kunda fanlarni integratsiyalash muammosi pedagogik jamoaga, o'quvchilarga ta'sir etishning yangi pedagogik vazifalari samarali yechimini faol izlashga qaratilgan yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Hozirgi vaqtda o'qitish va ta'lim berishdagi integratsiya muammosiga yanada kuchli e'tibor qaratilmoqda. Biroq, yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, integratsiya jarayon sifatida fundamental ilmida ham uning shaxobchalarida ham paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda zamonaviy maktabda integratsiyani pedagogik muammolarning yechimini topuvchi, maktabdagi faoliyatini yaxshilashga, pedagoglar jamoasining salohiyatini oshiruvchi, ularga ta'sir etishning optimal yo'llarini topishga xizmat qiluvchi omil deb qaralmoqda. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi bo'lmay, balki fanlararo sintez bo'lib, alohida tizimlarning yaqinlashishi bog'lanishi va yagona bir yangi narsalarning yaratilishidir. Integratsiya - differensiyani aksini bo'lib, unga teskari bo'lgan jarayondir. Uni quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq [10, 212]:

- o'quv fanlari va fanlar orasidagi mazmuni integratsiyalab o'rganish;
- turli o'quv fanlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
- ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o'quv kunini integratsiyalash;

Professor B.S.Abdullayeva ham fanlararo aloqadorlikni quyidagi turlarga ajratadi [11;108]:

- mazmunli;
- operatsion;
- metodik;
- tashkiliy.

U ta'kidlaganidek, ko'nikma, malakalar fikrlash jarayonlari orqali o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etadi. A.G'ulomov hamda H.Ne'matovlar ta'kidlashicha, integrativ jarayonlar boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarni har tomonlama bilimli qilish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Unda o'quvchilar badiiy uslubni adabiyot fanidan, ilmiy uslubni biologiyadan, kimyo, fizika, matematika fanlaridan olingan materiallar asosida o'rganishlari nazarda tutiladi.

Metodist B.Ziyomammedov va Sh.Abdullayevalar o'quv jarayoni texnologiyasi alohida olingan bitta darsga, bitta mavzuga yoki o'quv fanining bir qismiga, butun o'quv faniga tuzib chiqilishi lozimligini ta'kidlab, uning 5 ta tamoyili borligini ko'rsatadi [12, 208]:

Birinchi - muayyan dars, mavzu, qism, o'quv fanidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish.

Ikkinchi - darsni yoki o'quv fanini modullarga ajratib har bir moduldan kutilgan maqsadga va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish.

Uchinchi - modul ichida test sinovlarini tuzib chiqish.

To'rtinchi - maqsadlarga yetish usullarini aniqlash.

Beshinchi – bir butunlik tamoyiliga asoslanib, dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklar va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish hisoblanadi.

Integratsiya tafakkurni o'stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya - o'quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasidir. Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o'quv fanlarining soni kamayib, samarasi yaxshi bo'ladi, tahsil oluvchilari mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, mustaqil tarzda ijodiy mulohaza yuritishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javob tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamalikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish yo'larini tushunishga imkon yaratdi. Integrativ ta'limda - fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish o'rganiladi.

Xulosa. Boshlang'ich maktab ta'lim va tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Hozirgi kunda tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan ta'lim yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish ma'lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda gap faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash usulida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan.

Chet el tajribasi bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ko'pgina mamlakatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu ekologik yo'nalishga ega bo'lgan integratsiyalashgan fanlar jahon hamjamiyatida o'quvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to'g'risida xabar beradi.

Adabiyotlar

1. To'xtayev A., Hamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. - Toshkent: "O'qituvchi", 1994. - B. 260.
2. Shodimetov Y.Sh. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. 1 qism. -Toshkent: "O'qituvchi", 1994. – B. 123.
3. Turdiqulov E.O. Inson va havo. O'qituvchilar uchun qo'llanma. -Toshkent: "Yozuvchi", 2002. - B.34.
4. Бухарева Л. Н. Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе (начальная школа 1991г №8). -С.266.
5. Колягин Ю.М., Алексеев О.Ж. Интеграция школьного обучения. // Нач.шк.-1990, № 9. С.136.
6. Mavlonova R., Rahmatqulova N. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash. –Toshkent, 2011. -B. 182.
7. Omonov H.T. Olamning umumiy ilmiy manzarasini yaratishda fanlar integratsiyasi va differentsiatsiyasining roli // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. -2007. - № 3. -B.437.
8. Rahmatullayeva M. Sinf va maktabdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarda tabiat estetikasiga qiziqishni shakllantirish. Avtoref. diss. ... kand. ped. nauk. –Toshkent, 2005. -B.92.
9. O'zbekiston Respublikasining Atrof - muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi. - Toshkent: "Adolat", 1998. –B.81.
10. Раченко И.П. Интегрированная педагогика. Част 1. Пятигорск: Изд. Пятигорского государственного лингвистического университета, 1997. –С.212.
11. Norbo'tayev X.B., Salohiddinova N.M. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. //Zamonaviy ta'lim.- 2019. № 4. - B.108.
12. Ziyomammedov B. Ekologiya va ma'naviyat. –Toshkent: "Mehnat", 1997. -B.208.

Egambergan XUDOYNAZAROV

Urganch davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA OG'ZAKI MASHQLARNING METODIK TASNIFI VA ULARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Ushbu maqolada boshlang'ich matematik ta'limda og'zaki mashqlardan foydalanishning metodik tasnifi va ulardan foydalanishning didaktik shart-sharoitlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: og'zaki mashqlar, metodik tizim, motiv, faoliyat, fikrlash faoliyati.

В данной статье описана методическая классификация использования устных упражнений в начальном математическом образовании и дидактические условия их использования.

Ключевые слова: устные упражнения, методическая система, мотивация, деятельность, мыслительная деятельность.

This article describes the methodological classification of the use of oral exercises in primary mathematical education and the didactic conditions for their use.

Keywords: oral exercise, methodical system, motivation, activity, intellectual activity.

Kirish. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan yangi ta'lim konsepsiyasida "O'qitish sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy qilish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik fikrlash faoliyatini barvaqt rivojlantirish; boshlang'ich ta'limning shaxs kamolotini ta'minlovchilik imkoniyatlari bilan o'quvchilarda matematik fikrlash faoliyatini og'zaki mashqlar vositasida shakllantirishga xizmat qiladigan metodikani ishlab chiqish; matematika darslarida og'zaki mashqlardan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda foydalanish yo'llari va metodlarini takomillashtirish hamda joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyatining yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Matematikani o'qitishning rivojlantiruvchi tizimida o'quvchilar bilish faoliyatlarini faollashtiruvchi vositalardan biri bo'lgan og'zaki mashqlardan unumli foydalanish texnologiyasini ishlab chiqishda mavjud metodik yondashuvlarga tayanildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan darslarning tarkibiy qismlari va tuzilishi haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Mazkur maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonining binar yoki majmuaviy xarakterga egaligi, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilganligi ham ta'lim oluvchilarda matematik fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda o'ziga xos o'rin egallaydi. Shu maqsadda biz o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan og'zaki mashqlar tizimidan foydalanish texnologiyalarni tanlash va tavsiya etishga harakat qildik.


Asosiy qism. Biz o'z tadqiqotimizda kompetensiyaviy yondashuv tamoyiliga tayandik. Kompetensiyaviy yondashuvning asosini o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar tashkil qiladi.

Kompetensiyaga "Pedagogika" ensiklopediyasining 2-jildida quyidagicha ta'rif berilgan: Kompetensiya (lot. competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 3) shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilishi darajasi; 4) u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlikni ifodalovchi atama.

Kompetensiyalar o'quv materiallari yordamida hosil bo'ladi. O'quv materiali I.F.Teslenkoning ta'kidlashicha: "har qanday o'quv jarayonining mazmuni va asosini tashkil qiladi. O'qitish va o'qish o'quv materialiga tayanadi [4]".

O'quvchilarda matematik fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda o'quv materiali mazmuni muhim o'rin egallaydi. O'quv materiali "faoliyat" tushunchasi bilan uzviy bog'liq.

Faoliyatning tarkibiy tuzilishi quyidagi chizmada o'z ifodasini topgan



Faoliyatning tuzilishi

Faoliyat tushunchasi tizimlashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, ushbu tizimda og'zaki mashqlar markaziy o'rin egallashi haqidagi g'oyani ilgari suramiz. Ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsiga yo'naltirilib muammoli tashkil etilsa o'zlashtirilgan bilimlar ularning faoliyatiga singadi. Mazkur vaziyatda o'qituvchi

o'quv jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, o'quvchilar bilimlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun o'quv jarayoni o'quvchilarda zarur motivlarni hosil qilishi mumkin.

Motiv (lot. moteo-harakatlantiraman, fransuz.- undovchi sabab) – shaxsni aqliy, amaliy harakatga va xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bog'liq mayl yoki sababiyat [5, 280].

Insonlarni faoliyatga yo'llovchi o'ziga xos vosita, tashqi turtki - stimul deb ataladi. Motiv o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Paydo bo'lishi uchun uni uyg'otuvchi tashqi turtki zarur. Shuning uchun o'qish motivlarini shakllantirish muammosi tabiiy ravishda paydo bo'ladi.

Ta'limning shaxsga yo'naltirilganlik mazmuni o'qish metodlaridan qaysi biri o'quvchilar uchun muhimroq va qadrliroq bo'lsa u shu bilan aniqlanadi.

O'qitish o'qituvchining o'quvchilarga bilimlarni turli usullar va vositalar yordamida taqdim etishga qaratilgan harakati, o'qish esa darslik va o'qituvchi tomonidan bilimlarni o'zlashtirish, amalda qo'llash jarayonidir. I.Y.Lernerning ta'biricha, ta'limning asosiy tarkibiy qismi faoliyatdir. Shuning uchun ham o'qish va o'qitish pedagoglar va o'qituvchilarning ta'lim mazmuni ustida birgalikda bajaradigan faoliyati hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni bilan o'qish va o'qitish jarayoni orasidagi o'zaro munosabatlar R.G.Safarova, M.Maxmudov, B.Adizov, G.Najmiddinova, R.Nurjanova, F.Qo'chqarovalarning ishlarida muayyan darajada yoritib berilgan.

V.V.Krayevskiy o'quv jarayoni tuzilishini bir nechta darajalarga ajratadi: didaktika nuqtayi nazaridan, ta'lim mazmunini uzatuvchi o'qitish va o'qishning yagona faoliyati sifatida, metodika nuqtayi nazaridan ta'lim predmetning aniq materiallari asosida o'qitish va o'qish faoliyatini amalga oshirish shakllarining majmuasidir. Yuqorida I.Y.Lerner [1] tomonidan keltirilgan ta'lim jarayonini talqin etish didaktika darajasiga tegishli. Metodika darajasida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi o'quv materiallarining mazmuni asosida amalga oshiriladi. O'quv materialining mazmuni tanlanadi va o'quv adabiyotlarining mazmunida o'z ifodasini topadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'quv jarayoni metodika nuqtayi nazaridan o'qituvchi va o'quvchining maqsadga erishish, mazmunni o'zlashtirish jarayonidagi hamkorligi sifatida qaraladi.

O'quvchilarning aqliy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan og'zaki mashqlarni tuzishni tavsiflash masalasida I.Y.Lerner o'quv jarayonida ijodiy faoliyat strukturasi qurish zarurligini ta'kidlagan.

O'quvchilarning matematik fikrlash faoliyatini faollashtirishga intilish, og'zaki mashqlar agarda muayyan bir tizimda olib borilsa juda samarali bo'ladi degan fikr to'g'riligini ko'rsatdi. Og'zaki mashqlarning metodik tizimi tuzilishini, uning elementlari va o'zaro aloqalarini ko'rib chiqishda tizimli yondashuv zarurligini ta'kidlab o'tish kerak. Faqat shunday yondashuvgina hozirgi kunda har bir o'quv fanini o'qitish sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan aniq vaziyatlarni tanlash imkoniyatini yaratadi.

Bunda A.M.Pishkalo [3] tomonidan taklif etilgan yondashuvga tayanish lozim. U o'quv jarayoni metodik tizimini yaratishda tizimli yondashuv juda qulay hisoblanadi, degan g'oyani ilgari surgan. Muallif ushbu tizimni matematika o'qitish uchun qo'llab, uni "Matematika o'qitish metodikasi" deb atagan.

Og'zaki mashqlar metodik tizimini I.Y.Lernerning o'quv jarayoni doirasidagi ijodiy faoliyatning bir turi deb aytgan fikriga asoslanib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika o'qitish metodikasi tizimi ichidagi kichik tizim sifatida qarashni tavsiya qilamiz.

Og'zaki mashqlar metodik tizimi asosini rivojlantiruvchi ta'lim tashkil qilishini va u zamonaviy o'quv jarayoni asosida tuzilganligini hisobga olgan holda, bu o'rinda "faoliyat" tushunchasini nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bizning vazifamiz A.M.Pishkalo [3] tomonidan ishlab chiqilgan matematika o'qitish metodik tizimidagi kamchiliklarni hisobga olib, og'zaki mashqlar metodik tizimini yangi ko'rinishda yaratishdan iborat.

A.M.Pishkalo tomonidan ishlab chiqilgan umumiy holatlarga amal qilgan holda biz ham og'zaki mashqlar metodik tizimini muayyan bir metodik tizim qismlari majmui deb tushunamiz. Uning yetakchi, dastlabki qismi sifatida og'zaki mashqlarning aniq maqsadini ko'rsatish mumkin. Chunki boshlang'ich sinf matematika darslarida og'zaki mashqlarni to'g'ri va aniq tanlash asosida ushbu metodik tizimning samaradorligiga erishish mumkin.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlari, imkoniyatlari, motiv va layoqatlarni hisobga olgan holda matematika o'qitish tizimining rivojlanib boruvchi umumiy maqsadlarini belgilash lozim. O'qitishning ma'lum bir davri o'quvchilarda fikrlash faoliyatini rivojlantirishning muayyan faoliyat maqsadlari, mazmuni bilan mos kelishi kerak. Og'zaki mashqlarni o'tkazish jarayonida, agar o'qituvchi va o'quvchi faoliyati to'g'ri tashkil qilinsa, ta'lim maqsadlari tasnifi yordamida shaxs maqsadlarining rivojlanishini aniqlash mumkin.

Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. O'quv faoliyati davomida nazariy-amaliy xarakterdagi o'quv materiallari mohiyatini anglash.
2. Matematik muloqot uslublari, amaliy harakatlar, ma'lumot va tushunchalarni o'zlashtirishda aqliy operatsiyalarni bajarish olish.
3. Matematikani o'rganish jarayonida tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini namoyon qila olish.
4. Matematika darslarida o'quvchilarda ijodiy faoliyat tajribasini shakllantira olish.

Har qanday maqsad faqat faoliyat natijasida amalga oshadi. Maqsadni belgilash faoliyatning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Og'zaki mashqlarni bajarish turli xil aqliy faoliyatni keltirib chiqaradi. Buni hisobga olgan holda og'zaki mashqlar tizimini ishlab chiqishda faoliyat uslubiga tayanish, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini tizimli jarayon sifatida o'rganishni tavsiya qilamiz. Asosan bir xil mavzudagi og'zaki mashqlar o'zlashtirishi past, yoki o'zlashtirishi uncha yuqori bo'lmagan o'quvchilar uchun juda muhim.

Bir turdagi og'zaki mashqlarning uzluksiz ishlatilishi o'quvchilarda fikrlash faoliyatining susayishiga olib keladi, chunki ular faqat birinchi misolni yechishdagina qoidadan foydalanadilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, og'zaki mashqlar matematika o'qitish jarayonining asosiy qismini tashkil qiladi. Shunday qilib, o'quvchining fikrlash faoliyati, og'zaki mashqlarni bajarish ketma-ketligi, ularning boshqa turdagi og'zaki mashqlar bilan integratsiyasi, og'zaki mashqlar tuzilishi orasida ma'lum bir qonuniyatli bog'liqlik bor.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, og'zaki mashqlar metodik tizimida ularning tuzilish jihatdan yaxlitligi, o'quvchilar tomonidan bajarish tartibi bilan bog'liq jihatlari juda muhim hisoblanadi. Og'zaki mashqlarni bajarish aniq tashkiliy shakllarga ega: sinf bilan yalpi ishlash, ayrim o'quvchilar bilan individual ishlash, guruhlar bilan ishlash va h.k.

Bundan kelib chiqadiki, og'zaki mashqlarni bajarishning tashkiliy shakllari ular metodik tizimining muhim bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Og'zaki mashqlardan foydalanish maqsadlari, ularning tuzilishi, o'quvchilarning fikrlash faoliyati, og'zaki mashqlar mazmuni va tashkil etish metodikasi bilan bevosita bog'liq.

Og'zaki mashqlardan foydalanish maqsadlari, ularning mazmuni, o'quvchilarning fikrlash faoliyati, og'zaki mashqlarning bajarilish ketma-ketligi, tashkil etish metodlari orasida funksional xarakterga ega bo'lgan aloqadorlik mavjud.

O'quvchilarda matematik fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda og'zaki mashqlardan foydalanish jarayoni muayyan qonuniyatlarga tayanilgan holda tashkil etiladi.

Bu, eng avvalo, bir yoki bir nechta komponentlarning o'zgarishi tufayli boshqa ba'zi komponentlarda, shuningdek, butun tizimda ma'lum o'zgarishga olib keluvchi qonuniyatlar, tizimning ichki tuzilishi bilan bog'liq. Shunga ko'ra ko'rsatilgan komponentlarni yaxlit o'rganish talab etiladi.

Og'zaki mashqlar metodik tizimining tashqi aloqalar qonuniyatlari bilan, uning ayrim komponentlariga shaxs psixologiya, didaktika, tarbiya nazariyasi, bola fiziologiyasi va gigiyenasi nuqtayi nazaridan turli ta'sirlar bo'lishi bilan xarakterlanadi. Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarga turli metodlar yordamida ta'sir ko'rsatiladi. Og'zaki mashqlar metodidan foydalanish ham o'quvchilarda matematik fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Tizimlar orasidagi aloqalarning murakkabligidan kelib chiqadiki, og'zaki mashqlar ta'lim metodlarini amalga oshirish shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan tizimni tarkib toptirish uning tarkibiy qismlarini alohida ajratishni taqozo etadi. Shu tariqa qismlar orasidagi aloqalar, ularning mazmuni aniqlanadi.

An'anaviy metodikada "nega o'qitiladi?", "nimani o'qitiladi?" va "qanday o'qitiladi?" savollariga javob izlanadi. Shunga ko'ra o'quv jarayonining tarkibiy qismlari muayyan izchillikda ifodalanadi.

Boshlang'ich sinf matematikani o'qitish jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish munosabati bilan tizimli yondashuvga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki o'quv jarayonining tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorlikka ega bo'lib yagona tizimni tashkil etadi.

Matematika o'qitish metodikasining asosini o'quv maqsadlari tashkil etib, u ijtimoiy buyurtma asosida shakllantiriladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy maqsadi o'quvchini har tomonlama rivojlantirishdan iborat. Shuning uchun ham matematika o'qitish metodikasining o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganishda pedagogik shart-sharoitlarini belgilab olish talab qilinadi. Mazkur shart-sharoitlar o'qitish maqsadlari bilan bevosita bog'liq. O'qitish maqsadlarini shakllantirishda yaqin, oraliq va yakuniy maqsadlar o'zaro farqlanadi. O'quv jarayonining asosiy maqsadi o'quvchilarga bilim berish, rivojlantirish va tarbiyalashdan iborat.

Muhokamalar va natijalar. Biz o'z yondashuvlarimizni aniqlashtirishda A.M.Pishkalo [3] tomonidan asoslangan matematika o'qitish metodikasi prinsiplariga tayandik.

Tizimli yondashuvni amalga oshirish metodikasi A.G.Kuznesova, N.V.Kuzmina, S.K.Nikulin, P.I.Pidkasistiy, V.A.Slastyonin, A.V.Tutolmin tomonidan ishlab chiqilgan.

V.P.Bespalkoning ta'biricha, metodik tizim "Muayyan sifatlarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish maqsadiga yo'naltirilgan, uyushgan va oldindan rejalashtirilgan pedagogik ta'sir o'tkazishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlarning majmui" hisoblanadi.

Matematika o'qitish jarayonining metodik tizimi E.Yangiboyeva, M.Jumayev, M.Zaynitdinova, Qosimov, L.I.Bojenkova, Y.A.Bunimovich, O.B.Episheva, G.L.Lukankin, A.G.Mordkovich, A.M. Pishkalo, Y.A.Perminov, S.A.Samsonova, I.G. Lipatnikova, V.I.Snegurova va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

I.G. Lipatnikova [2] ilmiy-pedagogik tadqiqotlarida og'zaki mashqlardan foydalanish mavjud metodik tizimni asosi va to'liq qamrab olishini ko'rsatib ilmiy asoslab beradi.

N.V.Kuzminaning izlanishlarida matematika o'qitishning metodik tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: har biri muayyan metodik vazifani bajaruvchi, o'qitishning maqsadi, tarkibi (mazmuni), shakllari, uslublari va vositalari.

Matematika o'qitish metodik tizimining quyidagi o'ziga xos belgilari mavjud:

- 1) asosiy maqsadga erishish imkoniyatini yaratuvchi tarkibiy qismlarning to'liqligi;
- 2) tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga tobeligi;
- 3) tarkibiy qismlarni birlashtirish uchun zarur bo'lgan yetakchi g'oyaning mavjudligi;
- 4) tizimni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarda umumiy xususiyatlarning yuzaga kelishi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning metodik tizimi muayyan talablarga javob berishi lozim. Birinchidan, u diagnostik xarakterga ega bo'lishi, ya'ni maqsadlarning natijalarga mos kelishini belgilashi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani o'rgatish jarayonida asosiy maqsadga erishish zarur. Ikkinchidan, mavjud metodik tizim boshlang'ich sinf o'qituvchisining ish tajribasiga va metodik bilimiga bog'liq bo'lmagan holda bir xil darajada foydalaniladigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, taqdim etilayotgan metodik tizim moslashuvchan, ya'ni o'zgarishlarga, yangilanishlarga moslashishi, turli sharoitlarda ishlatilishi, yangi metodik amallar bilan to'ldirilish imkoniga ega bo'lishi talab qilinadi.

Bizningcha boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning metodik tizimi mavjud metodik tizimni takomillashtirishni talab qiladi. O'tkazilgan so'rovlar, tajriba-sinov ishlari natijasida biz tizimni ta'lim motivatsiyasi va nazorat diagnostika komponentalari bilan takomillashtirdik [6]. Mavzu doirasida tizimli, faoliyatli, integrativ xarakterga ega bo'lgan yondashuvni taklif qildik.

Tizimli yondashuv bizga matematikaning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan, uni faoliyatda egallashga yo'naltirilgan murakkab tizim shaklidagi yaxlit tarkibini tasavvur qilish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani o'rgatish tizimini loyihalashtirish va amaliyotga tatbiq etish asoslari matematika bo'yicha metodik ishlarda o'z aksini topgan: ilmiylik, asoslilik, integratsiya, differentsiatsiya, insoniylik va insonparvarlik, o'rin almashinuvchanlik, qulaylik, uzluksizlik kabi umumdidaktik va umummetodik tamoyillardan tashqari, ikkita guruhga birlashtirilgan tamoyillar olingan:

a) umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida matematikani o'rgatishning metodik tizimini takomillashtirish va uni amaliyotga tatbiq etishning umumiy tamoyillari;

b) umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida matematika o'qitish jarayoni tarkibini tanlash tamoyillari.

Xulosa. Shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning mavjud metodik tizimi ochiq tizim hisoblanadi. Ushbu tizim muntazam tarzda zarur metodik ta'minot bilan boyitiladi. Mazkur metodik tizim muayyan tamoyillarga tayanadi.

Adabiyotlar

1. Лернер И.Я. Процесс обучения и его закономерности. – М.: "Педагогика", 1992. -174 с.
2. Липатникова И.Г. Устных упражнения в системе развивающего обучения математике в начальной школе: дисс. на соискание уч.ст.канд. пед. наук. -Екатеринбург, 1999. -168 с.
3. Пышкало А.М. Обучение младших школьников. – М.: "Просвещение", 1973. -247 с.
4. Тесленко И.Ф. Формирование диалектико-материалистического мировоззрения учащихся при обучении математике. -М.: "Просвещение", 1979. -136 с.
5. Falsafa. Qomusiy lug'at. –Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", "ShARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. -496 b.
5. Xudoynazarov E.M. Matematika o'qitish metodikasi. – T.: "Nodirabegim", 2020. – 199 b.

BOSHLANG'ICH SINFLAR TA'LIMIDA USLUBIY INNOVATSIYALARNING TURLARI VA KO'RINISHLARI

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda metodik innovatsiyalarning mohiyatli, tashkiliy-faoliyatli va maqsadli joriy etilishi haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standarti malaka talablariga javob beradigan, tizimli yangilash uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy aspektlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, davlat ta'lim standarti, malaka talablari, boshlang'ich, ta'lim.

В данной статье рассматриваются вопросы внедрения основных видов методических инноваций в начальное математическое образование, в частности, соответствие методических инноваций содержательного, организационно-деятельного и целевого типов требованиям ГОС НОО и другим требованиям современной системы образования. А также проведен всесторонний анализ теоретических и практических аспектов, обеспечивающих системное обновление начального математического образования.

Ключевые слова: инновация, Государственный образовательный стандарт, требования квалификации, начальное, начальное математическое образование.

This article discusses the substantive, organizational and targeted implementation of methodological innovations in primary education. The theoretical and practical aspects of primary education, that meet the qualification requirements of the state education standard and that are required for systematic updating, are thoroughly analyzed.

Key words: innovation, State education standard, qualification requirements, primary education.

Kirish. Ta'lim sohasidagi islohotlar o'rganib chiqish va tahliliy xulosalariga ko'ra, ta'lim-tarbiya metodlarining yangilanish jarayoni juda sekin borayotganligi ta'kidlash mumkin. Gap ta'lim texnologiyalari va ularning tub mohiyati haqida borar ekan, shuni aytish kerakki, o'qitish va ta'lim berishning har qanday metod va metodikalariga muayyan o'rganish obyekti xosdir. Shuningdek, muayyan fan bo'yicha o'qitishning shakli, texnologiyasi, dars berish vositalari, metod va metodikalari o'quvchilarning yosh toifasiga bevosita bog'liq bo'ladi (masalan, quyi sinf, o'rta sinflar, yuqori sinflar, talabalar). Demak, dars berish metod va metodikasini ishlab chiqishda o'quv fanining o'ziga xosligi va o'quvchilarning yosh bo'yicha toifasi hisobga olinishi shart.

Asosiy qism. Boshlang'ich matematik ta'lim uchun uslubiy innovatsiyalarni loyihalashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish konsepsiyasining navbatdagi bosqichi uslubiy innovatsiyalarni loyihalashtirishning asosiy manbalarini o'rganib chiqish va ularni ta'lim tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar asosida ishlab chiqishdan iboratdir. Bunda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- boshlang'ich matematik ta'limning o'ziga xos jihatlari;
- boshlang'ich matematik ta'lim uslubiy tizimining asosiy komponentlari;
- zamonaviy boshlang'ich matematik ta'limda amalga oshirilishi shart bo'lgan o'zgarishlar.

Zamonaviy boshlang'ich matematik ta'limda:

- yangi standartlarda maqsad tamoyili;
- o'quvchilarning qobiliyatini maqsad sari yo'naltirish;
- "bilim" faktoridan "fikrlash", "izlash", "topish" faktorining muhimroq ekanligini anglata borish;
- ta'lim amaliyotida tasavvur va amaliy tasavvur faktorlarining ustuvorligini ta'minlash;
- ta'lim oluvchilarning ochilmagan qirralarini, yangi imkoniyatlarini yuzaga chiqarib borish;
- o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda "o'ylash, mulohaza qilish, yaratish va mavzuning yangi ufqlarini kashf etish" muhitini yaratish;
- ta'lim jarayonida har bir darsni yondashuv, texnologiya, uslub, usul jihatdan yangilab borish kabi omillarga alohida e'tibor qilish talab etiladi.

Boshlang'ich matematik ta'limda innovatsiyalarning turini qabul qilishdan oldin uslubiyot fanining asosiy savollarini aniqlab olish lozim bo'ladi. Uslubiyot fanining asosiy savollariga javob uslubiy innovatsiyalar tizimida asosiy maqsadni o'zida mujassam etmog'i kerak. "Qanday o'qitish kerak?", "Nima uchun o'qitish kerak?", "Nimani o'rgatish kerak?" degan savollarning javobi uslubiy innovatsiyalarning maqsadlariga muvofiq bo'lishini ta'minlash zarur. Mazkur savollarning javoblari boshlang'ich matematik ta'lim amaliyotida eng ko'p qo'llanilayotgan uslubiy innovatsiyalar tizimidagi alohida olingan muayyan innovatsiya turining asosini tashkil etadi. Zamonaviy matematik ta'limda eng ko'p foydalanilayotgan innovatsiyalarni asosan ikkiga bo'lish mumkin:

1. Maqsad faktoriga asoslangan innovatsiya. Uni innovatsiyaning maqsad turi deb atash mumkin. Maqsad faktoriga asoslangan innovatsiya boshlang'ich matematik ta'limda keng foydalaniladigan innovatsiyalar tizimining eng asosiy komponentidir. Dars davomida o'qituvchi o'tilayotgan mavzuning maqsad va vazifalarini chuqur singdirishi kerak. Har bir matematik atamaning, qo'llanilayotgan har bir matematik amalning hayotda qo'llanilish sohasini, ahamiyatini o'quvchilar muhokamasiga havola etib, ular bilan hamkorlikda to'g'ri xulosaga kelinishini ta'minlash kerak. O'qituvchiga "maqsad aniq bo'lmay turib harakat strategiyasi va dars o'tish usulini aniqlashtirib bo'lmaydi" degan qoida asosida dars jarayonini tashkillashtiri tavsiya etiladi.

2. Mohiyat va tashkiliy faoliyat faktoriga asoslangan innovatsiya. Innovatsiyaning mazkur turini "mohiyat va tashkiliy faoliyat innovatsiyalari" deb nomlash o'rinli bo'ladi. Boshlang'ich matematikada, boshqa aniq fanlar singari hamma raqam, amal, atama, fanga bog'liq tushuncha o'z mohiyatiga ega. O'sha mohiyatni to'liq anglamasdan aniq bir mavzuni o'zlashtirish mumkin emas. Boshlang'ich matematik ta'limda mohiyat va tashkiliy faoliyat faktoriga asoslangan innovatsiyalarning samarasi shundan iboratki, o'qituvchi mavzuning mohiyati, fanning asosi va negizi haqidagi boshlang'ich tushunchalarni yetkaza olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, "kesma", "burchak", "shkala" kabi tushunchalarning asl mohiyatini bilib olishni o'quvchilarning o'zlariga havola qilish, ayni o'rinda so'zlarning mohiyatiga e'tibor qaratishni tavsiya qilib, o'quvchilarning o'zaro bahs-u munozaralari uchun mavzu topib berib, bu bahsni boshqarib borishi yaxshi natija beradi. Toki sinfdagi har bir o'quvchi bu uchta boshlang'ich tushunchaning asl mohiyatini bilmaguncha bahs va muhokamani davom ettiraverish kerak.

Uslubiy innovatsiyalarni turlarga bo'lishdan maqsad ularning qo'llanilish tartibini va ketma-ketligini aniqlashtirib olish uchun foydali deb hisoblanadi. Ammo shuni aytish kerakki, innovatsiyalarni turlarga faqat shartli ravishda bo'linadi. Negaki, aksar uslubiy innovatsiyalar ko'pqirralidir. Shuningdek, uslubiy innovatsiyalar tizimi tushunchasi ta'limga qo'yiladigan davriy talablar asosida rivojlanishda, takomillashishda davom etmoqda hamda bu rivojlanish va takomillashuv shaxsiy va shaxsga yo'naltirilganlik sharoitida sodir bo'lmoqda, ya'ni, boshlang'ich matematik ta'limda asosiy uslubiy savol shunday qo'yiladi: "Kimni o'qitish?", "Kim o'qitishi?" katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich matematik ta'limda uslubiy innovatsiyalarni loyihalashtirish bosqichida amaliyotga tatbiq etiladigan barcha uslubiy innovatsiyalar innovatsiyalar tizimining uchta asosiy turidan biriga mansub bo'lishi talab etiladi. Bu uchta asosiy uslubiy innovatsiyalar quyidagilardir:

1. Maqsadli
2. Mohiyatli
3. Tashkiliy faoliyatli

Uslubiy innovatsiyalar tizimini tashkil qiladigan bu 3 ta turdagi uslubiy innovatsiyalarning har biri boshlang'ich matematik ta'limga joriy etiladigan innovatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Didaktik innovatsiyalarning boshlang'ich matematik ta'limda yetarlicha samara berolmaganining va BTDS (Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlari) talablariga javob bera omasligining asosiy sabablari tubdan tahlil etilganda shu narsa aniq bo'ldiki, boshlang'ich sinflarga matematika o'qitish jarayonida innovatsiyalar, asosan, amaliy ko'rinish kasb etishi kerak ekan. Shuningdek, uslubiy innovatsiyalar tizimidagi har bir innovatsiya turidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar ekan. Tahlillar va tadqiqotlar natijasida yana shunday xulosaga kelindiki, boshlang'ich matematik ta'limning zamonaviy bosqichida uslubiy innovatsiyalarni quyidagi tamoyillar asosida joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- "Matematika" ta'limiy sohasining negizi fanning mazmun-mohiyatini qamrab olishi;
- BTDS talablarini boshlang'ich matematik ta'limga to'liq tatbiq etish;
- didaktik innovatsiyalarning ana'alarini amaliy innotvasiyalarga tatbiq etish.

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, boshlang'ich matematik ta'limning uslubi, usuli, texnologiyasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar unda:

Birinchi, matematika fanining o'ziga xos tomonlari to'liq qamrab olinishi kerak. Ikkinchi, boshlang'ich matematik ta'lim qanday uslub, usul va texnologiya olib borilganda ham BTDS talablariga to'liq amal qilinishiga erishish zarur. Uchinchi, didaktik innovatsiyalarni boshlang'ich matematik ta'lim sohasiga tatbiq etganda fanlarga bog'liqlik faktoridan kelib chiqish tavsiya etiladi.

Milliy ta'lim va zamonaviy ta'lim talablari hamda davlat ta'lim standartlarining, shuningdek, boshlang'ich matematik ta'limni olib borish uchun qabul qilingan BTDSning asosiy jihatlardan biri shuki, har bir o'quvchilarda har bir o'quv fani uchun universal o'quv amaliyoti (keyingi o'rinlarda – UO'A)ni shakllantirish kerak. Savol tug'iladi: "UO'A uslubiy innovatsiyalarning qaysi turiga to'g'ri keladi?". Ushbu savolga javob topish uchun uslubiy hujjatlarni to'liq tahlil qilib, zamonaviy ta'limning "Eng asosiy maqsad" faktori asosida tadqiqot olib borish zarurati tug'iladi. Milliy ta'lim tizimining "O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimining fundamental negizini hosil qiluvchi ta'limning mazmun-mohiyati" kabi hujjatlarni tadqiq qilish natijasida yuqorida keltirib o'tilgan savolga javob topildi. Jumladan, mazkur hujjatda shunday deyiladi: "Universal o'quv amaliyoti ta'lim usuli, shakli, uslubi, o'quv fani mazmunining asosini

tashkil etadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarining yaxlitligini ta'minlaydi" [2, 66]. Bundan kelib chiqadiki, dars jarayoni aynan UO'A muhiti yaratishni maqsad qilgan holda olib borilishi lozim.

Shunday qilib, UO'A boshlang'ich matematik ta'lim uchun ishlab chiqiladigan uslubiy innovatsiyalar tizimidagi har qanday ko'rinishdagi innovatsiyaning tarkibiy qismi bo'la oladi. Boshlang'ich matematik ta'limga joriy etiladigan uslubiy innovatsiyalarning tarkibiy qismida UO'A bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilinishi lozim:

- maqsadli innovatsiyalarning tarkibiy qismi bo'lganda – UO'A boshlang'ich matematik ta'limning o'ziga xos jihatlari va fanlararo bog'liqliklardan kelib chiqiladi;

- mohiyatli innovatsiyalarning tarkibiy qismi bo'lganda – UO'A matematik vazifalarni boshqa o'quv fanlari bilan uyg'unlashgan ko'rinishi sifatida talqin qilinadi; bunda matematik topshiriq didaktik nuqtayi nazardan ham hal qilinishi ko'zda tutiladi;

- tashkiliy faoliyat innovatsiyalarning tarkibiy qismi bo'lganda – UO'A loyihalashtiriladigan va ishlab chiqiladigan uslubiy innovatsiyalar (usul, uslub, shakl, dars vositalari, resurslar bilan ta'minlanish kabi faktorlar)ning milliy ta'lim tizimida joriy qilingan ta'lim standartlari, birinchi navbatda BTDTS talablariga muvofiqligini aniqlash mezonini bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutiladi.

Universal o'quv amaliyoti "maqsad" tamoyilining birlamchiligi bilan xarakterlidir. Bunda ta'lim oluvchi nuqtayi nazaridan o'qituvchining "kim ekanligi", "nimani o'rgatayotgani" va "qanday o'rgatayotgani" muhim sanaladi. Ta'lim beruvchi nuqtayi nazaridan "kimga o'rgatilayotgani", "nima o'rgatilayotgani" hamda "qanday qabul qilinayotganlik faktorlari asosiy sanaladi.

Uslubiy innovatsiyalarning sanab o'tilgan turlaridan qaysi biri birlamchiligini aniqlashda UO'Aning samaradorligidan, o'quvchining shaxs sifatidagi o'rnidan, o'qituvchining qaysi usul, uslub, shakldan foydalanayotganligidan kelib chiqiladi. Amaliyotda boshlang'ich matematika o'qitishning uslubiy innovatsiyalari quyidagi tartibda qo'llanilgan holllari ham tatqiq qilingan:

1. Mohiyatli. 2. Tashkiliy faoliyatli. 3. Maqsadli.

Muhokamalar va natijalar. Uslubiy innovatsiyalar tizimining bu xil tartibda joriy etilishi "maqsad" faktorining so'nggi planga tushib qolishini anglatmaydi. Maqsad dars davomida anglashilib boradi. Shu jihatdan ushbu sxematik tartibda didaktik innovatsiyalarning qo'llanilishi samaraliroq va osonroq bo'ladi. Boshlang'ich matematik ta'limda uslubiy innovatsiyalarni turlarga ajratishning asosiy maqsadi tizimda didaktik innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish va shu yo'l bilan joriy etilgan innovatsiyalarning BTDTST hamda milliy ta'lim tizimining zamonaviy andozalariga muvofiq kelishini ta'minlashdir. Didaktik innovatsiyalarning keng qo'llanilgan hollarida ham fanlararo bog'liqlikka alohida e'tibor qaratgan holda, asosiy matematik tushunchalar, matematik fikrlash, borliqni anglashning matematik usuli mazkur innovatsiyalarning fundamental negizini tashkil etishini ta'minlash talab qilinadi. Boshlang'ich matematik ta'limda qo'llanilayotgan uslubiy innovatsiyalar turining mohiyatini belgilash uchun asos sifatida quyidagi mezonlarni keltirish mumkin:

- matematika fani bo'yicha rejalashtirilgan yangi natijalar;

- "O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimining fundamental negizini hosil qiluvchi ta'limning mazmun-mohiyati";

- matematika fani bo'yicha yangi darsliklar yaratish tajribalari;

- amalda qo'llanilayotgan uslubiy innovatsiyalarning samaradorlik darajasi;

- boshlang'ich matematika o'qitishda muvaffaqiyat bilan qo'llanilayotgan uslubiy innovatsiyalarning yangi joriy etilgan innovatsiyalardan farqlanish darajasi;

- boshlang'ich matematik ta'limda fanning asosiy komponentlari (masalalar yechish va matematik tushunchalar).

Xulosa. Shuni aytish joizki boshlang'ich matematik ta'lim uchun uslubiy innovatsiyalarni loyihalashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish konsepsiyasining mazmun-mohiyati, zamonaviy ta'limni yangi bosqichga olib chiqish va matematik ta'limni mohiyatli, tashkiliy faoliyatli va maqsadli faktorlar ko'rinishida tizimli tahlilini shakllantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.

2. Мордкович А.Г. Беседы с учителями математики: Учеб.-метод. Пособие/ А.Г. Мордкович. – 2-е изд., доп. И перераб. – М.: ООО Издательство "Оникс": ООО Издательство "Мир и Образование", 2008. – 336с.

3. Фундаментальное ядро содержания общего образования. Проект (2009-2010). – М.: "Просвещение", 2010 – 48 с.

4. Ягодин Д.В. Экономический аспект инноваций в образовании – URL: http://www.yspu.yar.ru/vestnik/uchenuye_praktikam/35_2

5. Абдусаматов.А.С The role of didactic and methodological innovations in the implematation of primary mathematics education: ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> . 11.11.2020 (1867-1871 Стр).

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'RGANISH

Muxayyo MADUMAROVA

Farg'ona politexnika instituti
o'zbek tili va adabiyoti
kafedrası o'qituvchisi

NOLISONIY VOSITALAR ORQALI IFODALANADIGAN TANBEHLAR TAHLILI

Maqolada nolisoniy usul orqali berilgan tanbeh tinglovchiga lisoniy vositalar orqali ifodalangan tanbehdan ham ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkinligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: paralingvistika, noverbal, nolisoniy, ekstralingvistika, semantizasiya, idrok.

V статье отмечается, наказание в виде выговора, сделанный с помощью ненормативной лексики, может оказать на слушателя более сильное воздействие, чем выговор, выраженный с помощью языковых средств.

Ключевые слова: паралингвистика, невербальная, нелинейная, экстралингвистика, семантизация, познание.

The article notes that a reprimand made with the help of profanity can have a stronger impact on the listener than a reprimand expressed with the help of linguistic means.

Key words: paralinguistics, nonverbal, nonlinear, extralinguistics, semantization, cognition.

Kirish. “Inson ko‘rinishidan hech narsa demasa ham, ichida hamisha gapiradi” deydi buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiy va bu fikrini davom ettirib, yana shunday yozadi: “So‘z - idrok qilishda so‘zga muhtoj bo‘lganlar uchundir. So‘zsiz idrok etganlarning so‘zga qanday ehtiyoji qoladi? Idrok esa bilganlar uchun ko‘klarning, yerning hammasi so‘zidir. Hafif bir sasni eshitganga baqirib-chaqirishning nima hojati bor?...”

Bularning hammasi tilshunoslikning “paralingvistika” – “nolisoniy vosita” deb atalmish o‘ta qiziqarli va o‘ta zarur bo‘limi bilan bevosita bog‘liqdir.

Mutaxassilarning fikriga qaraganda, odamlar o‘zaro muloqotlar chog‘ida o‘zlari aytmoqchi bo‘lgan fikrning faqat 7 foizinigina so‘z, qolgan 38 foizini ohang va 55 foizini imo-ishoralar orqali bayon etar ekanlar. Biroq mana shunday katta soha o‘zbek tilshunosligida nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham juda kam darajada o‘rganilganligi uchun tanbehning paralingvistik vositalar bilan bog‘liq tomonlari haqida so‘z yuritishdan avval tilshunoslikning bu katta sohasi haqida ba‘zi bir fikrlarni bildirib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Ilmiy uslubda “paralingvistika” atamasi faolroq qo‘llanishligi bois avval shu termin lug‘aviy ma‘nosi xususida to‘xtalamiz.

Asosiy qism. Paralingvistika - tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, “tilga yondash” degan ma‘noni anglatadi va tilshunoslikda bu termin ostida fikrni nolisoniy yo‘l bilan bayon qilish nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra “noverbal”, “nolisoniy”, “ekstralingvistika” so‘zlari bu atamaga sinonim sifatida qo‘llaniladi.

“Insonning har bir tabiiy fizik harakati kinetik noverbal vosita jumlasiga kirmasdan “nutqning aloqa jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan kishi harakati noverbal vosita sanaladi...” (G.V.Kolshanskiy.)

Inson o‘z nutqini ma‘lum harakatlar bilan birgalikda yo‘naltirishi va bu harakatlar o‘ziga xos ma‘no kasb etishi doimo psixolog, sotsiolog va lingvistlarni birdek qiziqtirib kelgan hamda ularning tadqiqot obyektlariga aylanib ulgurgan.

Daftlab psixologlar noverbal vositalarni “Ifodali xatti-harakatlar” deb nomlaganlar va ularni “Ekspressiv xulq” rubrikasi ostida emotsional doira kontekstida tadqiq etganlar. Bunga Ch. Darvinning “Выражение эмоции у человека и животных” nomli asari turtki bo‘lganligini ta‘kidlaydilar. Rus psixologlari esa “Ifodali xatti-harakatlar”ni ijtimoiy personal nuqtayi nazaridan noverbal xulq (xatti-harakat), noverbal kommunikatsiya sifatida baholaydilar.

XX asrning qirqinchi yillarida psixolog S.L. Rubinshteyn ifodali harakatlarga izoh berar ekan, “Ifodali harakatlar nutqqa ma‘lum darajada aralashib, qo‘shilib ketadi va ular xabar yetkazish, ta‘sir etish quroliga aylanadi”, deb ta‘kidlaydi. Chunki noverbal vositalar idrok etishning spetsifik obyekti hisoblanadi va uning elementlaridan: Nimani ifoda etadi? Qanday ifoda etadi? Nima uchun ifoda etadi? kabi savollarga javob topish imkoni mavjud. Ya‘ni, so‘zlovchining nutqidan uning nima gapirayotgani bilinsa, uning shu nutqni bayon etish jarayonidagi xatti-harakatlaridan qanday gapirayotgani ko‘rinadi. Zero, kommunikativ vaziyatlarda adresant nutqiga aralash holatda kelgan noverbal vositalar lisoniy birliklar bilan birgalikda nutqqa qo‘shimcha ma‘no qo‘shib keladi. Boshqacha qilib aytganda, noverbal vositalarni psixologlar idrok qilish, tanish, sharhlash orqali ularning o‘ziga xos semantizatsiyasini o‘qish mumkinligini e‘tirof etadilar.

Noverbal vositalarning, aynan, ana shu o'ziga xos semantizatsiyasi paralingvist, ekstralingvist, psixolingvist, sotsiolingvistlarni doimo o'ziga jalb qilib kelgan va tilshunoslikda bir qator tadqiqotlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Kommunikativ aktidagi noverbal vositalarning o'rni, roli, ma'nosi, ishlatilish xususiyatlari bir qator filosof, psixolog, sotsiolog va tilshunos olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan bo'lsa-da, sotsiumning ijtimoiy vazifasi: kasbi, hunari bilan bog'liq jihatlari hozircha o'z tadqiqini kutmoqda. Shuning uchun turli kasb egalari muloqot xulqining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda ularning ana shu muloqot xulqida ma'lum o'rinni egallovchi noverbal vositalardan qay tarzda va qanday foydalanishiga, ulardan anglashiladigan o'ziga xos semantizatsiyalarga e'tibor qaratdik.

Shu o'rinda kommunikatsiyada qo'llanuvchi noverbal vositalarning turkum va turlari haqida qisqacha to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Rus psixologi V.A. Labunskaya o'zining "Нoвeрбaльнoе пoвeдeниe" asarida kommunikativ aktda kishilar tomonidan ijro etiladigan noverbal vositalarni turkum, tur, komponent va elementlarga ajratadi. Unga ko'ra, noverbal vositalar dastlab ekstralingvistika, prosodika, kinesika, takesika kabi turkumlarga ajratiladi. Turkumlar o'z navbatida turlarga, ya'ni ekstralingvistika - pauza, yo'talish, xo'rsinish, kulish va yig'lash kabi turlarga; prosodika - talaffuz, ovoz, temp, tembr, kabi turlarga; kinesika - ekpressiya, averbal harakatlar, ko'z qarash kabi turlarga; takesika statik va dinamik to'qnashishlar kabi turlarga bo'linadi va ular ham o'z navbatida komponent va elementlarga ajraladi.

Umuman olganda, noverbal vositalarga nutqqa qo'shimcha ekspressiv bo'yoq beruvchi harakat sifatida qarab kelingan va qadimdan bu muammo bilan olimlar shug'ullanganlar. Zero, noverbal vositalar adresantning ichki dunyosini ko'rsatib turadi. Ya'ni, shaxs ichki ruhiy olamining tashqi ko'rinishi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, noverbal vositalarni nutqning tasviri, surati deb hisoblash mumkin. Binobarin, noverbal vositalar aynan muloqot davrida joriylangan nutqqa qo'shimcha tarzda nutqning sotsial regulyativ (sozlash - D.M.) vazifasini bajaradi.

Noverbal vositalar bevosita kommunikatsiya jarayonida nutqqa qorishib unga emotsional ko'rinish, ekspressiv "jon kiritish" uchun xizmat qilar ekan, turli kasb egalari muloqot xulqiga xos bo'lgan shunday xatti-harakatlar ham borki, ular nutqqa qo'shilmaydi, ya'ni nutq ishtirokisiz qo'llaniladi. Turli kasblar xarakteriga xos bo'lgan noverbal xatti-harakatlarni professional yoki sotsial noverbal xatti-harakatlar sifatida baholash mumkin. Bu esa har bir ijtimoiy soha vakiliga tegishli noverbal xatti-harakatlarni ajratib olish mumkinmi degan haqli savolni tug'diradi.

Muhokamalar va natijalar. Kuzatishlarimizdan har bir sotsium o'z ijtimoiy sohasi talabiga ko'ra ma'lum funktsiyani bajarish bilan birga ana shu fuksiyaga tegishli bo'lgan noverbal vositalardan foydalanishi ma'lum bo'ldi. Bunga ko'plab misollarni keltirish mumkin: birgina serqatnov ko'chada transportlar va piyodalar harakatini tartibga solayotgan DAN xodimi harakatlarini ko'z oldingizga keltiring. Uning har bir harakatlari ko'cha harakati qatnashchilariga ma'lum informatsiyani beradi, ya'ni DAN xodimi o'ziga xos noverbal xatti-harakatlar orqali haydovchilar va piyodalar bilan kommunikatsiyaga kirishadi. Harakatni tartibga soluvchi DAN xodimi (регулировщик)ning harakatlaridan "to'xtang", "yuring", "tayyorlaning" kabi semantizatsiyalar (tanbeh, ogohlantirish, buyruq)ni tushunish mumkin. Yoki harbiy sohaga xos noverbal vositalarning mavjudligini harbiylarning o'zaro kommunikativ munosabatlarida ham kuzatish mumkin. Ularning qadam olishi, o'zini tutishi, salomlashuv va murojaat bosqichlarida bajaradigan o'ziga xosligi bilan ajralib turishi barchaga ma'lum. Shuningdek, topshiriq bilan faoliyat ko'rsatayotgan bir guruh harbiylar guruh boshi (komandir) bilan oradagi masofadan qat'iy nazar maxsus noverbal xatti-harakatlar yordamida ma'lumot almashadilar. Chunonchi, komandirning chap qo'lni ko'tarib, kaftini musht qilishi "harakatlanishni to'xtating" ma'nosini, shu holatda mushtini yozib yuborishi "Berkinging!" ma'nosini, ko'rsatkich barmog'ini yuqoriga qilib, havoda doira chizishi "O'rab oling!" ma'nosini anglatadi.

Darsga kirganda o'qituvchi: o'quvchilarning o'rinlaridan turib unga salom berishini kutadi.

Dars paytida shovqinni bosish, o'quvchilarga tanbeh berish uchun ruchkasini stolga urib taqillatib "tinchlaning", ko'rsatkich (указка)ni ko'rgazmaga tekkizib "e'tibor qiling" kabi signallarni berish bilan kommunikatsiyaga kirishadi.

Bulardan ko'rinadiki, tanbeh faqat so'z va gaplar vositasidagina emas, imo-ishora, xatti-harakatlar orqali ham berilishi mumkin. Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasidan olingan quyidagi parchada fikrimizga oid quyidagilarni o'qiyimiz: "Nodirmohbegim sandal ichidan oyog'ini uzatib Unsinning boldirini chimchiladi, ko'zi bilan "xayriyat tushunmadi, bas qil, gapirma" deb ishora qildi..."

Odob-axloq mavzusida o'tkazilgan bahs-munozaralardan birida so'z olgan talabamiz mavzuga oid quyidagi hayotiy voqeani hikoya qilib bergan edi: "O'tgan kuni dadam ikkalamiz choy ichmoqchi bo'ldik. Shu payt televizorda qiziq ko'rsatuv boshlanib qoldi. Men choyni damlab, dasturxonga olib kelib qo'ydimu piyola olib kelish esimdan chiqib, televizor ko'rib qolibman. Shu payt dadam "piyola olib kelmaysanmi?" deyish o'rniga boshlaridan do'ppilarini olib, choynakka tutdilar va "quy!" degan ma'noda menga qaradilar. Men darrov gapga tushundim va uyalib ketdim..."

Nolisoniy vositalar orqali tanbeh berishning tur va usullari rang-barang va juda ko'p bo'lib, oddiygina tomoq qirib qo'yish, norozi ohangda gapirishlardan tortib bir ma'noli qarab qo'yishlar orqali ham sodir etilishi mumkin. Ayniqsa, otalarning oddiygina tomoq qirib qo'yishlarida ham olam-olam ma'no yashiringan bo'ladi. Bu haqda O'zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning "Tomoq qirish" nomli she'ri ham bor:

*Ota kelganligin doim qishu yoz
Tomoq qirishidan bilar edilar.
Bolayu kattalar chiqardi peshvoz,
Barsday yurishidan bilar edilar.*

*Bu ayol oldinam bemalol edi,
Uddalay olmadi erga shamlilikni.
Qabul qilolmadi erkakning didi
Ayoldagi bu tur xotirjamlikni.*

*...Endi u yo'lbars yo'q, tortmasdan sergak,
Bemalol o'tirar uyda ayol, oy.
Erkak shunday bo'lsa, kelganda erkak
Ayol tipirchilab topmay qolsa joy...*

*...Ayol endi hushyor, qulog'i ovda,
Yig'lab eslar erin har bir kirishin.
Endi tushlarini qilar bezovta
Shovqin. Va erkakning tomoq qirishi..*

Tanbehlar o'rinli va o'rinsiz, muloyimlik va qo'pollik bilan amalga oshirilganligiga bog'liq holda odamlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni o'rinli va odob doirasidan chiqmagan holda qilingan do'stona dashnomlardan eshituvchilar naf ko'rsa, bemavrid va o'ta qo'pol tanbehlar juda xunuk voqealarga, hatto o'limga ham sabab bo'lib qolishi mumkin. Jumladan, sobiq ittifoq davrida shovinizmning xunuk odatlarini o'zlariga kasb qilib olgan amalparast guruhlar "byuro" degan so'zni kishilar yuragiga g'ulg'ula soladigan, qalbni larzaga keltiradigan bir qurol darajasiga aylantirib olgan edilar. Natijada ko'plab rahbarlar byuroda muhokama etilganidan yoki kurakda ham turmaydigan xunuk so'zlar orqali haqoratlanganlaridan uylariga ham yetib bormay yoki byuro xonasi ostonasidayoq yuraklarini changallab jon berganlar. O'sha paytlar bunday voqealar juda ko'payib ketganligidan O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning quyidagi to'rtligi dunyoga kelgan bo'lsa ham ajab emas:

*Parvo qilmang, bo'lmaganni bo'ldiramiz,
Paymonasi to'lmaganni to'ldiramiz.
Bir zamonlar otar edik, osar edik,
Endi esa majlis qilib o'ldiramiz.*

Johil ota-onasi yoki o'zi tarbiyaga muhtoj o'qituvchisi tomonidan qilingan nojo'ya tanbehlar tufayli o'z joniga qasd qilgan o'smir yoshidagi o'quvchilar ham juda ko'payib ketgan edi o'sha paytlarda. Bunga misol sifatida O'tkir Hoshimovning "Qalbingga quloq sol" qissasi personajlarini eslash mumkin. Unda maktab direktori Vasila Nazarovna 9- sinf o'quvchisi Dilfuzaga dars paytida juda qo'pol tanbeh beradi. Ota-onasini maktabga chaqirtirib, jamoatchilik o'rtasida sharmandasini chiqarishini aytadi. Bundan qattiq ta'sirlangan Dilfuza sirka ichib, olamdan ko'z yumadi. Bulardan ko'rinadiki, tanbehni turli nuqtayi nazardan har xil tur va usullarga bo'lib o'rganish mumkin. Jumladan:

1. Milliylik nuqtayi nazaridan: umuminsoniy va bir millatga aloqador tanbehlar.
2. Hudud nuqtayi nazaridan: faqat bir hudud vakillari o'rtasidagina qo'llanadigan tanbehlar.
3. Umumiylik va individuallik nuqtayi nazaridan: ko'pchilik tomonidan bir xilda, alohida shaxslar tomonidan o'ziga xos usulda qo'llanadigan tanbehlar.
4. Axloq nuqtayi nazaridan: o'rinli va o'rinsiz tanbehlar.
5. Mahorat nuqtayi nazaridan: me'yorida va muloyimlik bilan, me'yorni bilmasdan va qo'pollik bilan qilinadigan tanbehlar.

Xulosa. Nolisoniy vositalar muloqot jarayonida so'zdan o'n karra ko'proq qo'llaniladi va bularning hammasi tanbehlariga ham tegishlidir.

Nolisoniy usul orqali berilgan tanbeh tinglovchiga lisoniy vositalar orqali ifodalangan tanbehdan ham ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: "Наука", 1974. – С. 80.
2. Леонтьев А. А. Слово о речевой деятельности. – М.: "Наука", 1965. – С. 114.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent, 2007. – B. 184.
4. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fanl. dokt. dis. avtoref. – Toshkent, 2000. – B. 48.

Mahbuba SOBIROVA

Namangan davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

MATN TAHLILI ASOSIDA O'QUVCHILARNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Maqolada ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda insonparvarlik xususiyatlarini tarkib toptirish, o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: matn, insonparvarlik, kompetensiya, pragmatik kompetensiya, og'zaki va yozma nutq, matn tahlili, gumanizm.

В статье рассматриваются идеи формирования гуманных качеств у учащихся через работу над текстом на уроках родного языка, формирование у учащихся прагматической компетентности.

Ключевые слова: текст, гуманитарные науки, компетенция, прагматическая компетенция, устная и письменная речь, анализ текста, гуманизм.

The article discusses the ideas of the formation of humane qualities in students through the work on the text in the lessons of the native language, the formation of pragmatic competence in students.

Key words: text, humanities, competence, pragmatic competence, oral and written speech, text analysis, humanism.

Kirish. An'anaviy o'zbek tili o'qitish metodikasi fani avvalgi o'qitish tizimida asosiy e'tiborni til qoidalarni yod olish, til hodisalarini tahlil qilish kabi nazariy bilimlarni egallashga qaratgandi. So'z boylikni oshirish, matn ustida ishlash asosida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, uslubiyat masalalari ilmiy grammatizm sohasida qolib, ularga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash odat tusiga kirgandi.

Mustaqillik davrida ona tili o'qitish metodikasi yangilanish davriga o'tdi. Sh.Yusupova, R.Safarova, A.G'ulomov, B.Qobilova, I.M.Toshev, N.I.Bekniyazova, S.Adilova, M.Rixsiyeva, H.Muhitdinova, R.Yo'ldoshev, T.Ziyodova, A.Hamroyev va boshqa metodist olimlarning ilmiy tadqiqotlari o'zbek tili o'qitish metodikasi fani rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. "O'zbek tili" doimiy anjumanlarida (O'TDA) (1991-2018-yillar), "Til va adabiyot ta'limi" jurnali sahifalarida ona tilidan dastur va darsliklar mazmunini yangilash, amaliyotda tilshunoslik qonun-qoidalarini emas, tilning o'zini, uning nutqiy imkoniyatlarini o'rganish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammosi va yechimlari ko'tarildi. Ta'limni takomillashtirish, o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirishda badiiy matn imkoniyatlaridan keng foydalanish masalalariga e'tibor qaratildi.

Asosiy qism. Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish zarurligi, bilim berishda chet eldagi ilg'or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish kerakligi Prezidentimiz tomonidan ham ta'kidlandi. "Ulug' allomalarimiz – Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda" [1].

Ma'lumki, milliy va umummadaniy kompetensiya umumiy tayanch kompetensiyalardan biri bo'lib, u vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur ma'naviy sifatlar o'quvchilarga ona tili o'qitish asnosida dars materiallari orqali singdirilishi ko'zda tutilgan. Darsda qoida va ta'riflarni asoslash uchun keltiriladigan jumlar, mashg'ulot davomida bajariladigan topshiriq va mashqlar ushbu maqsadga yo'naltirilishi lozim. Pragmatik aspektda qaraladigan bu sifatlarning botiniy jihati bevosita ona tiliga munosabat bilan bog'liqdir. Insonga mehr va oqibat negizi ham ona tilimiz ko'ksidagi ma'naviyat bulog'idan suv ichadi.

Tilning, uning tabiati va imkoniyatlarining to'laqonli yuzaga chiqishi badiiy matn orqali voqelanadi. Ona tili darslarida olinayotgan nazariy bilimlarni o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinadigan insoniylik ruhi singdirilgan matnlar vositasida ko'nikma va malakalarga aylantirish ma'rifiy-didaktik vazifa bo'lishi bilan birga ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, sinfdagi o'quvchilarning matnni qay darajada tushunishlari, idrok qila olishlarini aniqlashi lozim.

Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, so'zni o'qish, so'zning lug'aviy ma'nosini, kontekstual ma'nosini anglash, sintaktik strukturani to'g'ri hal etish, shuningdek, matn mazmunini

bo'laklarining o'zaro bog'lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo'ladi. "Har bir o'quvchida qabul qilish qobiliyati har xil bo'lganligi uchun matnni bir xilda o'qib chiqqanlar tushunishning har xil darajasida bo'ladi. O'qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida o'quvchining qaysi darajada turganini aniqlashi, matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo'nalish berishi mumkin. Masalan, matnni tushunishning dastlabki darajasi assotsiativ darajada bo'lsa, unda o'quvchida matn mavzusi, matn uslubi va matndagi so'zlarga assotsiatsiyalar vujudga keladi. Keyingi daraja leksik-morfologik daraja bo'lib, bunda o'quvchilar matndagi so'zlarni va ularning ma'nosini tushunadi. Uchinchi daraja kontekstual daraja bo'lib, unda so'zlarning kontekstual ma'nolari anglashiladi. Fikrimizcha, matn bilan bog'liq mashg'ulotlarda aynan shu uchinchi darajaga ko'proq e'tibor berilishi kerak, chunki unda so'zlarning matn ichida qanday ma'noda kelayotgani anglashiladi, demakki, so'zlar alohida birlik darajasidan matn mazmunining tarkibiy qismi darajasiga ko'tariladi" [2, 221].

Muhokamalar va natijalar. 7-sinfda matn ustida ishlash, tahlil qilish ishlari davomli amalga oshirib kelinayotgan bo'lsa, o'quvchilarning aksari o'qib tushunishning yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi darajalarini birdaniga o'zlashtira oladilar. O'quvchilarning qolgan qanchadir qismini ham shu darajaga yetkazish va so'ng imkon qadar butun sinfni keyingi idrok bosqichi (uchinchi darajaga) ko'tarish uchun quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

1. Matndan ko'chma ma'nodagi so'z va iboralarni toping.
2. Bu so'z va iboralarning alohida olingandagi (atash) ma'nosini aniqlang.
3. Ularning matndagi ma'nosiga ko'ra sinonimlarini keltiring.
4. Bu so'zlarning o'rniga atash ma'nosi yoki sinonimlarini qo'llab, so'z birikmasi tuzing.
5. Hosil qilingan so'z birikmalari asosida matnni qayta tuzing. Qayta tuzgan matningiz bilan oldingi matnni solishtiring va badiiy matndagi ushbu so'zlarning nechog'lik o'rinli qo'llanganligini izohlang kabi.

Ona vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish mazmunidagi badiiy matnlar ustida ishlash orqali pragmatik kompetensiyani shakllantirishda o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan qurollantirish ham ta'lim samaradorligini oshiradi. Chunki matn zamiridagi insoniylik g'oyalari keng tarzda tahlil qilingandagina chuqur his qilinishi va o'zlashtirilishi mumkin.

7-8-sinf o'quvchilarida atrofni, insonlarni kuzatish, ularni baholash, voqelikka tanqidiy nazar bilan munosabatda bo'lish ortib boradi. Shu bois ham badiiy matnni til sathlari bo'yicha analiz va sintez jarayonida, til birliklariga nutq vaziyatlarida pragmatik yondashish borasida o'ziga xos munosabat shakllana boradi. Sinflar yuqorilab borgani sari matn tahlili orqali o'quvchilar pragmatik kompetensiyalari rivojlanib boradi. Matnlar ustida ishlash, til hodisalarini nazariy va amaliy idrok etish, his qilish darajalari o'sadi, fikrlari nisbatan teranlashib boradi. Shu tufayli yuqori sinfda mustaqil fikr, erkin mulohaza nisbatan yuqoriroq ekanligini maktab tajribalarimizda kuzatdik.

7-sinfning 4-choragida "Tasviriy va muhokama ko'rinishidagi matnlar" mavzusi, 9-sinfning 4-choragidagi "Matn va uning maqsadi. Hikoya matni", "Muhokama matni" mavzulari, 10-sinf 3-chorakdan boshlab, nutq uslublari va ularning o'ziga xosligi o'rgatiladi. Ayniqsa, shu chorakdagi 41-darsda "Badiiy uslub", 42- va 43-darsda "Esse - ijodiy matn" mavzularini o'tishda insoniy ehtiyojlar, oqil farzandning insoniyliigi, go'zallik insoniylikdaligi, noinsoniylik halokatga eltishi, e'tiborsizlik – millat fojiasi ekanligi xususidagi; har narsaning boshi – ilm ekanligi, ezguliklarning boshi yaxshilikligi, ustoz chin insonligi, yaxshi qo'shnichilik, farzandlarni insoniy qilib tarbiyalash to'g'risidagi; yaxshilik, kechirimlilik, mehr-muhabbat ulashish fazilati, mehmondo'stlik – insoniylik ramzi ekanligi, odamiylik unutilmasligi, insoniylikka doimo mukofot borligi mazmunidagi matnlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda. Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekiston uchun olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi; milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi hamda xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotdan maqsad o'quvchilarga o'qib tushunishi uchun hayotda ko'proq ishlatiladigan matnlarni taklif qilish bilan ular uchun umumiy va ahamiyatli bo'lgan natijalarni aniqlashdir.

Hozirgi zamonning eng muhim xususiyatlaridan biri – inson turmush tarzining barcha sohalariga ilmiy-texnika yutuqlarining tezkorlik bilan kirib, turmushning barcha jabhalari baynalminallashuviga kishilar faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini kuchaytirayotgan bo'lsa-da, o'z navbatida, insoniyat uchun

dahshatli xavf-xatarni ham vujudga keltirmoqda. Bashariyat umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg'unlashtirish orqaligina vaziyatdan chiqa oladi.

Xulosa. Demak, maktabda ona tilini o'qitishda pirovard maqsadga yetishning bosh omillardan biri matn tahlili orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish va shu asosda milliy qadriyatlarni singdira borishdir. Til o'qitish maqsadidan kelib chiqib, insonparvarlik mazmunidagi badiiy matnlarni dars materiallari sifatida qo'llash, ular vositasida o'qib tushunish, ifodali o'qish, o'qib tushunganlarini so'zlab berish, matn tahlili, matndan olgan taassurotlarini hissiy bo'yoqdorlikni ta'minlovchi lisoniy birliklar vositasida og'zaki va yozma shaklda ifodalash malakalariga egalik o'quvchilar pragmatik kompetensiyasi takomiliga turtki beradi. O'quvchilarni gumanizm ruhida tarbiyalashda va pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda insonparvarlik mazmunidagi matnlarning o'rni beqiyos.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. 2019-yil 23-avgust.
2. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent, 2019. – 221 b.
3. Sobirova M. Assimilation of human qualities during the process of working with text (Matn bilan ishlash jaryonida insoniy fazilatlarini o'zlashtirish). International Scientific Journal "Theoretical & Applied Science" SOI: 1.1/TAS DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020 <http://T-Science.org>; THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGY IN THE TEACHING OF HUMANISM IN LANGUAGE EDUCATION. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.zo.o. "iScience", 2021.Part3-234p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH.pdf>, str. 98-105.

Shaxnoza XOLIQOVA

Andijon davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

MULOQOT QILISHDA SO‘ROQ GAPLARINING O‘RNI

Ushbu maqolada ona tili ta’limida mavzularni tushunish va tushuntirishdagi muloqot jarayonida yengillikni ta’minlash maqsadida so‘roq gaplar tuzishning oddiy darak gap ko‘rinishidagi ma’lumotlarni yetkazishdan ko‘ra afzalligi, uni mavzularga tatbiq etish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: muloqot, so‘roq gaplar, til bo‘limlari, so‘z turkumlari, fonetika, undosh tovushlar tasnifi.

В данной статье исследуется преимущество использования анкет для передачи информации в форме простых предложений, для облегчения процесса понимания и объяснения тем в обучении на родном языке, а также способы их применения к темам.

Ключевые слова: диалог, вопросительные местоимения, языковые разделы, фразы, фонетика, классификация согласных.

This article discusses the advantages of using questionnaires to convey information in the form of simple sentences in order to facilitate the process of understanding and explaining topics in mother tongue education, and how to apply them to topics.

Key words: dialogue, interrogative pronouns, language sections, phrases, phonetics, consonant classification.

Kirish. Bilamizki, muloqot jarayonida har qanday so‘roq ortida ma’lum bir narsani bilishga intilish maqsadi yotadi. Inson yaralibdiki, u boshqa mavjudotlardan, avvalo, ong va nutqqa egaligi bilan farqlansa, yana olamni anglash, atrofnii bilishga intilishi bilan bu fikrni isbotlaydi. Hatto ayrim kichik yoshdagi bolalar bu borada anchagina faol bo‘lganliklari bois ruscha aytganda, “почемушка” deya e’tirof etiladilar ham. Bunga sabab sifatida P.I.Ivanov va M.E.Zufarovalarning bu boradagi yondashuvlariga e’tibor qaratamiz: “Bolalar to‘g‘ri tarbiyalanib borganlarida, ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshiga yetganlarida, ularda tilning grammatika shakllarini amaliy ravishda egallash juda tez qadam bilan olg‘a qarab boradi. Shu yoshda bolalar murakkab gap sintaksisini ham egallab oladilar. Bolaning nutqida bir-biri bilan bog‘langan qo‘shma gaplar paydo bo‘ladi. Bolalarning nutqida sodda gap, bosh gap, ergash gap va hokazolar aniq ko‘rina boshlaydi. Ularning nutqlarida murakkab gaplar ishlatiladi. Bu gaplarda biror sabab, maqsad, xulosa, izoh, shart va shu kabilar aks ettirila boshlaydi. Nutqning tuzilishidagi bu murakkab shakllar tafakkurning murakkabroq shakllari o‘shib borishiga bog‘liqdir. Bolalarda nutq o‘shining ana shu bosqichida hodisalarning sabablari va bir-biriga bog‘lanishi to‘g‘risida turli savollar tug‘ilaveradi. Shu yoshdagi bolalar kattalardan muttasil: “Nega?”, “Nima uchun?” deb so‘rayveradilar”[1].

Bolalardagi bu faollik ularning kichikligidanoq muloqot qilishga ehtiyoji kuchliligidan dalolatdir. Kichik yoshdagi bolalarning mukammal rivojlanishi uchun ham moddiy, ham ma’naviy ehtiyojlari qondirilishi zarur. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, o‘quv qurollari kabi turli vositalar ularning jismonan rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lsa, atrofdagilar bilan jonli muloqot qilish, fikr almashish ularning aqliy o‘shiga bevosita xizmat qiladi. Shunday ekan, muloqot jarayoni pedagogikaning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri bo‘lib qolaveradi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarda fanlarni o‘zlashtirish jarayonida muloqotga bo‘lgan ehtiyoj, qiziqishlar asosida tug‘ilajak savollar tobora ortib boraveradi.

Natijada maktabda o‘qitilayotgan barcha fanlarni o‘rganish asnosida o‘quvchilarning lug‘at boyligi ortadi, fikrlashi teranlashadi, har qanday so‘z yoki atama bo‘lmasin, mazmun-mohiyatini tushunishga intiladi. Biroq bu ko‘ringanidek oson emas, buning uchun har bir o‘quvchi o‘z ona tilini mukammal bilishi va uni amalda ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Chunki barcha fanlarni o‘rganishning ilk bosqichi baribir o‘z ona tiliga borib taqaladi.

Shunday ekan, ona tili darslarining samaradorligini oshirishda umumta’lim maktabi o‘quvchilarining mavzuni puxta va chuqur o‘zlashtirishiga qaratilgan e’tibor hamon dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Lekin yana shuni ham qo‘shimcha qilish mumkinki, ona tili darslarida savolli topshiriqlar yoki ritorik so‘roq gaplar va uning uslubiy vazifalaridan foydalanish nihoyatda samarali usullardan hisoblanadi. Biz quyida ona tili ta’limida mavzularni tushunish va tushuntirishdagi muloqot jarayonida yengillikni ta’minlash maqsadida so‘roq gaplar tuzishning oddiy darak gap ko‘rinishidagi ma’lumotlarni yetkazishdan ko‘ra, uning afzalligi haqida fikr yuritamiz. Hozirda, hatto shunday kitoblar mavjudki, mavzular ma’lumot sifatida yoritilmay savol-javob ko‘rishida taqdim etilgan. Fikrimizning isboti sifatida faqat savol-javob ko‘rinishida chop etilgan Shavkat Yangiboyev, Safarali Qurbonov, Shahnoza

Qahhorovalarning “Ona tili va adabiyot” savol-javob kitobini hamda Nargiza Erkaboyevaning “Adabiyot fanidan savol-javoblar to‘plami (7000 savolga 7000 javob)”ni fikrimizning dalili sifatida keltirish mumkin. Bu kabi usullarda bola aynan qaysi mohiyatga e’tibor berishi kerakligi aniq bo‘ladi va yodda saqlanishi oson bo‘ladi. Mazkur usulni ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan muloqot qilish chog‘ida, mavzuni muhokama qilishda amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Asosiy qism. Ma’lumki, “Har qanday fan sohasining shakllanishi va rivojlanishi ushbu soha obyektiga nisbatan qiziqish paydo bo‘lishidan boshlanadi. Qiziqishdan esa savollar tug‘iladi” [6], – deydi tilshunos olim Shahriyor Safarov. Savolni to‘g‘ri va mantiqli tuzish esa har galgidek nutq so‘zlovchidan mahorat va malakani talab qiladi. Odatda, o‘quvchi o‘ziga ma’lum ma’lumotga tayanib noma’lum bo‘lgan obyektga qarata so‘roq beradi. Bu esa tilshunoslikda gapning aktual bo‘linishidagi tema (ma’lum) va rema (yangi) atamasi bilan ifodalanadi. Bu haqida batafsil A. Nurmonov, N. Mahmudov, A. Ahmedov, S.Solixo‘jayevalarning “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi” kitobida shunday ta’kidlanadi: “Savol gapning shu kommunikativ markazini – remani aniqlash uchun beriladi. Jumlaning tema qismi avvaldan ma’lum bo‘lganligi uchun savolda ham aynan takrorlanadi. Shunga ko‘ra, birinchi holatda (Karim nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘lganda) Karim – tema (ma’lum), Moskvaga ketdi – rema (yangi), ikkinchi holatda (Moskvaga kim ketdi? so‘rog‘iga javob bo‘lganda) Moskvaga ketdi – tema (ma’lum), Karim – rema (yangi); uchinchi holati (Karim qayerga ketdi? so‘rog‘iga javob bo‘lganda) Karim ketdi – tema (ma’lum). Moskvaga – rema (yangi) hisoblanadi” [5].

So‘roq gaplar asosan yuqorida aytilganidek, biror narsani bilishga qo‘yilgan birinchi qadam, desak yangilashmaymiz. Biroq so‘roq gaplarning hammasi ham doimo sof bo‘lavermaydi. Ya’ni ritorik savollar o‘quvchidan javob talab qilmaydi yoki boshini qimirlatib qo‘yish bilan kifoyalanadi. Ammo o‘qituvchining bu usuli uni doim hushyor tutadi. Ritorik so‘roq gaplarda nutq so‘zlovchi garchi javobini o‘zi yaxshi bilsada, gap strukturasi savol ko‘rinishida yaratadi. Bunga faqat birgina sababni ko‘rsatish nojoiz.

Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xoliyorovning “O‘zbek tilidan universal qo‘llanma” kitobida yozilishicha, ritorik so‘roq gapda javob talab qilinmaydi, javobi o‘zida yashiringan va barcha uchun ma’lum bo‘ladi: **Men uning to‘satdan kelib qolishini qaydan bilay?** Ritorik so‘roq gap quyidagi ma’noni ifodalashi mumkin:

- “tasdiq”: **Bu Vatanda nimalar yo‘q!**
- “inkor”: **O‘zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga!**
- “taajjub”: **Bu nimasi?!**
- “tashvish”: **Meni tashlab ketmaysanmi?!**
- “g‘azab”: **Maqsad nima, maqsad?!**
- “gumon”: **Paxta ham yaxshi ochilmagandir?**
- “kuchli hayajon”: **Tokaygacha ezilamiz, ota?![4]**

Bundan tashqari, ona tili darslarida so‘roq gaplardan foydalanish nutqning ta’sirli, jozibador bo‘lishi bilan birga mavzuni tushunishga va tushuntirishga oson usullardan hisoblanadi. Masalan, tilshunoslikning morfologiya bo‘limidani so‘zlarni turkumlashda ham dastlab so‘roqlarning ahamiyatini aytib o‘tish kerak. Ya’ni ona tili darslarida so‘zlarni turkumlarga ajratish quyidagi so‘roqlarga javob berishdan boshlanadi:

1. Gapda mustaqil lug‘aviy ma’noga egami?
2. Gapda mustaqil so‘roqqa egami?
3. Gapda mustaqil gap bo‘lagi vazifasiga egami?

Agar mana shu uchala savolning hammasiga baravar ha (+), ha (+), ha (+) deb javob berilsa mustaqil so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish); yo‘q (–), yo‘q (–), yo‘q (–) deb javob berilsa yordamchi so‘z turkumlari (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama); agar vaziyatga qarab har ikki javobga ega bo‘lsa, ya’ni (+), (+), (+) holatda bo‘lsa oraliqdagi so‘z turkumlari (undov, modal, taqlid) deya baholanadi. Demak, yuqoridagi usulga asoslangan holda o‘quvchilarga ona tili darslarida qator mavzular mohiyatini tushuntirayotganda savollar tuzib, ayni shu savollarga javob berishdek yondashuv oddiy darak holatida ma’lumot yetkazib qo‘yishdan afzalroq bo‘ladi.

Shu o‘rinda ayrim malakali o‘qituvchilarning ham darslarda ma’ruza o‘qish davomida savol bilan murojaat etish usulini ko‘p bora qo‘llaganlining guvohi bo‘lganimiz. Masalan, tilshunoslik mavzusida ma’ruza o‘qish chog‘ida, **Tilshunoslik o‘zi nima?** qabilida gap boshlaydi. Yoxud sintaksis mavzusini o‘qitishda, **Gap deb nimaga aytiladi?** kabi ilk savol va unga javobni o‘qituvchining o‘zi namuna qiladi. Bu kabi usullar yana yuqorida aytilganidek darak gaplar bilan ifodalashdan ko‘ra o‘quvchilarning diqqatini kuchliroq jalb qiladi, tushunishni osonlashtiradi va mavzuni eslab qolishi uchun samarali ta’sir ko‘rsatadi. Chunki o‘quvchilarni ikki toifaga: gumanitar fanlarga qiziqadigan yoki aniq fanlarga qiziqadigan kabi. Bunday savolli vaziyat ularni mavzuga doir masalaning aynan qaysi jihatiga yondoshishi kerakligiga aniqlik kiritadi. Bizning nazarimizda, ona tili ta’limida fonetika bo‘limida undosh tovushlar klassifikatsiyasi mavzusini o‘qitishda ham tushuntirishni dastlab savol berishni tashkil etishdan boshlash ayni muddao.

Sababi, tajribalar shuni ko'rsatadiki, leksikologiya, morfologiya bo'limlarini o'zlashtirishda o'quvchilar fonetikachalik qiynalmaydilar. Fonetika bo'limi odatda boshqa bo'limlarga nisbatan biroz qiyinchilik tug'diradi. Tilshunos olim B.Madaliyev ham fonetik tahlil haqida fikr yuritayotganda, fonetika til o'qitishda murakkab bo'lim hisoblanadi, deb ta'kidlagan edi. Uning aytilishicha, "O'quvchilar fonetikani o'rganishlari natijasida hozirgi o'zbek adabiy tilining muhim talaffuz qoidalari bilan tanishadilar, talaffuz bilan yozuvning o'zaro munosabatini, tovush bilan harf o'rtasidagi munosabatni anglab oladilar. Bu ma'lumotlar o'quvchilarning orfoepiya normalarini egallashlari hamda orfografiya qoidalari o'zlashtirishlari uchun zarurdir. O'quvchilarda nutq tovushlari haqida malaka va ko'nikma bo'lgandagina, ona tilidan beriladigan ma'lumot chuqurlashtirilishi va ularning savod darajalari yuqori ko'tarilishi mumkin. Buning uchun o'quvchilar fonetikadan o'tilgan nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirishlari zarur"[3]. Shu bois, umumta'lim maktablarida fonetika bo'limidagi mavzularni tushuntirishda ham savol javob usulida tashkil etish mumkin. Shunga ko'ra,

Undosh tovushlar:

- 1) hosil bo'lish o'rniga ko'ra;
- 2) hosil bo'lish usuliga ko'ra;

3) ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra bo'linadi, deyishdan avval unga qo'shimcha tarzda uchta savolni ko'ndalang qo'yish kerak, ya'ni:

1. Qayerda hosil bo'ladi? (yoki qayerda to'siqqa uchraydi?)

2. Qanday hosil bo'ladi? (yoki qay usulda hosil bo'ladi?)

3. Nimalar ishtirokida hosil bo'ladi? kabi.

Tushuntirishdagi bu kabi savolli usullar o'quvchilardan biroz ko'proq e'tibor talab qilish bilan birga ularning mavzu mohiyatini anglamasdan ko'r-ko'rona yod olishiga yo'l qo'ymaydi. O'quvchilarda faollikni oshiradi. Ko'pdan beri amalda qo'llanib kelinayotgan "Tez yurar poyezd", "Zakovat" kabi qator o'yinlarning ijobiy natijalari barchaga ma'lum. O'quvchilarning muloqot qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi usuldan foydalanish ham kutilgan natijani beradi. O'yin-musobaqa darsining nomi oddiygina "Bilasizmi?" deb nomlanadi. **Bilasizmi? so'zi odatda ritorik holatlarda passiv so'roq o'rnida ko'proq qo'llaniladi, ya'ni javob talab qilinmaydi.** Masalan: "Bilasizmi, men sizni juda hurmat qilaman" yoki "Bilasizmi, men bugun nima sotib oldim" kabi. Ammo bizning o'yin-musobaqamizda bu so'zning ahamiyati kattadir. Chunki sarlavhaning o'ziyoq tinglovchini bir muddatga bo'lsa-da o'ylashga, o'zidagi bilimlarni taftish qilishga undaydi. Ayniqsa, so'roq ohangi va uning yuki tinglovchini diqqatini torta oladi. (Shu o'rinda ko'pchilik sevib tomosha qiladigan bir ko'rsatuv nomini tilga olsak: "How it is made?" Tarjimasi: "Bu qanday tayyorlanadi?")

Muhokamalar va natijalar. O'qituvchi ma'lum mavzuni o'rgatib bo'lgach, darsni mustahkamlash qismida har bir o'quvchiga aynan shu savol bilan yuzlanadi. O'quvchilar esa bir-birining javoblarini takrorlamagan holda tezlik bilan mavzuga aloqador bo'lgan o'zi bilgan faqat bitta qoidani yoki fikrni eslab javob berishi kerak bo'ladi. Masalan, fonetika bo'limining undosh tovushlar tasnifi mavzusida mana shunday qo'llanadi:

O'qituvchi: Bilasizmi? so'rog'ini o'rtaga tashlaydi.

1-o'quvchi: Men undosh tovushlar alifboda **24** ta ekanini bilaman.

2-o'quvchi: Men undosh tovushlar **3** xil holatga ko'ra tasnif qilinishini bilaman.

3-o'quvchi: Men **b, p, m** lab-lab tovushlar deb atalishini bilaman.

4-o'quvchi: Men **m, n, ng, l, r** tovushlarini sonor tovushlar deb bilaman.

5-o'quvchi: Men sirg'aluvchi undoshlarni sanab bera olaman, ular **s, z, v, f, g', x, j, sh, l, r, y, h.**

6-o'quvchi: Men jarangli tovushlarning **8** tasi o'z jarangsiz juftiga ega ekanini bilaman, ular **b-p, d-t, g-k, j-ch, v-f, s-z, g'-x, j-sh.**

7-o'quvchi: ...

Shu tariqa o'qituvchining nazorati va o'quvchilarning navbati bilan mavzu yuzasidan takrorlash olib boriladi. Javob bera olmagan o'quvchi o'yin so'ngigacha tik turgan holatda tinglaydi va o'ziga tegishli xulosa chiqaradi.

Bu o'yin-musobaqaning ahamiyati shundaki, har bir o'quvchida tez va to'g'ri javob berish mas'uliyati shakllanadi. Bir-birining javoblarini diqqat bilan tinglab kamchiliklarini bartaraf etadi. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida jonli muloqot o'rnatiladi, bu esa o'quvchilar nutqining yanada rivojlanishiga olib keladi. Ketma-ket yodlashga o'rganib qolgan bolalar uchun alohida bir usul bo'ladi (masalan, ingliz tilidagi so'zlarni ham aynan ketma-ketlikda yodlab olish noto'g'ri bo'lgani kabi). Xususan, o'qituvchilar uchun esa, barchani birdek baholash imkoniyati tug'iladi, mavzuning o'rganilish darajasi aniqlanadi, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarni saralab oladi.

O'quvchilarning muloqot qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi usuldan foydalanish ham kutilgan natijani beradi. Ya'ni, o'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha murojaat qiladi:

Savol: "Oltin beshik" deganda nimani tushunasiz, tasavvur etasiz?

Quyidagi savollarga javob bering:

Sezyapsizmi?

Eshityapsizmi?

Tasavvur qilyapsizmi?

Nimalarni?

O'quvchilar javob beradilar:

1-o'quvchi: Sof oltindan yasalgan beshikni tushunaman. Unga mohir usta mahorat bilan ishlov bergan. Bezaklari, naqshlari jimjimador.

2-o'quvchi: Men "Oltin beshik" deganda o'zim tug'iliboq belangan, onamning allalari sadosida uxlagan o'zimning beshigimni tushunaman.

3-o'quvchi: Men bu jumlada muqaddas joylarni tushunaman. Ayniqsa, ona Vatanimni tushunaman. "Ona yurtning – oltin beshiging" deb ota-bobolarimiz tomonidan bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham biz Vatanimizni ardoqlaymiz.

So'ngra o'qituvchi o'zi yakunlaydi:

Juda to'g'ri, lekin bilasizlarmi, bu jumla haqida yanada ko'p va xo'p gapirish mumkin. Go'dak ulg'ayishida bevosita beshik, belanchak, halinchak kabi vositalarning ahamiyati katta. Lekin nima uchun aynan beshik so'ziga nibatan "oltin beshik" atamasi qo'llanadi? Beshik so'zining o'zi muqaddas. Yana uni oltin so'zi bilan birga qo'llanishida esa ajib bir hikmat bor. Go'dak bu dunyoga mehmon bo'lib kelar ekan, u avvalo, o'z beshigida halovat topadi va miriqib orom oladi. Mustahkam, qulay, xosiyatli bitta beshik bir oiladagi bir necha bolaga emas, balki bir necha avlodga xizmat qilishi mumkin. Ayni shu fazilatlariga ko'ra ham ona Vatan so'ziga qiyoslanadi. Har qanday inson o'zi tug'ulib voyaga yetgan diyorida o'zini erkinroq va baxtior his etadi va o'z kindik qoni to'kilgan maskanni hech qanday oltinlarga alishmaydi. Aksincha, ona zaminining o'zi oltinga tengligiga iqror bo'ladi. G'azal mulkning sultoni Alisher Navoiy ham ushbu ruboiyni bejizga bitmagan:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg'a tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Ko'rinib turibdiki, savol-javobda tasavvur, idrok, tafakkur keng rivojlangan bo'ladi. Aslida savol-javob – bu so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi vosita. Unda har ikki tomon ham birdek mas'uliyat bilan yondoshishi kerak. Dars jarayonida o'qituvchining savoli kimga qaratilishidan qat'iy nazar unga bir qancha dalillar, isbotlar, qiziqarli faktlar bilan javob berilishi hech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, so'z insonga bevosita kuzatishda berilmagan narsa va hodisalar haqida axborot bera oladi. Shuning uchun ham hayvonot faqat bir olamga – sezgi orqali his qilish mumkin bo'lgan predmetlar olamiga ega bo'lsa, inson ikki olamga – sezgi orqali his qiladigan olam bilan birga, so'z orqali ifodalanadigan obrazlar, munosabat, sifatlar dunyosiga ega bo'ladi [2]. Xulosa qilib aytganda, savol-javoblar, bahs-munozaralar orqali o'quvchi kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim jarayonida ahamiyatli hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. –T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. -254 bet.
2. Лурья А.Р. Язык и сознание. –М.: МГУ, 1979. -С.37
3. Madaliyev B. Ona tili darslarining samaraliligini oshirish. (5-sinf ona tili o'qituvchilari uchun qo'llanma). –T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1969. 34-bet.
4. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma: abituriyent va talabalar uchun. 3-nashri. – T.: "Akademnashr", 2011. -241 b.
5. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –T.: O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 1992. 95-bet.
6. Safarov Shaxriyor. Pragmalingvistika. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 12-bet.

Сауле ИШАНОВА

Каршинский государственный университет
кафедра немецкого языка и литературы
преподаватель немецкого языка

МЕТАФОРА И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

В статье рассматриваются метафорические модели, по которым выстраиваются концепты ВОЗНИКНОВЕНИЕ и ИСЧЕЗНОВЕНИЕ в немецком языке на примере предложений изменения. С этой целью проводился детальный анализ словарных статей и примеров. Анализируются интерпретационные механизмы, к которым прибегает сознание с целью актуализации выше упомянутых концептов.

Ключевые слова: предложения изменения, концепт, метафора, метафорическая модель, интерпретация.

Maqolada o'zgartirishlar takliflari misolida nemis tilida KO'RISH va YO'QOTISH tushunchalari qurilgan metaforik modellar o'rganilgan. Shu maqsadda lug'at yozuvlari va misollar batafsil tahlil qilindi. Muallif yuqorida aytib o'tilgan tushunchalarni amalga oshirish uchun ongga murojaat qiladigan talqin mexanizmlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: o'zgartirish bo'yicha takliflar, tushuncha, metafora, metaforik model, talqin.

The article examines the metaphorical models by which the concepts of APPEARANCE and DISAPPEARANCE are built in the German language on the example of proposals for change. For this purpose, a detailed analysis of dictionary entries and examples was carried out. The author analyzes the interpretational mechanisms to which consciousness resorts in order to actualize the above-mentioned concepts.

Key words: proposals for change, concept, metaphor, metaphorical model, interpretation.

Процессы или события очень часто становятся концептами благодаря метафоре. В предложениях изменения информация о процессе фокусируется на “изменении по фазам” [2, 209]. Изучение семантики глаголов, функционирующих в рамках этого логико-семантического типа предложений, позволило выявить, что очень часто фазовое значение передают не фазовые глаголы, а, например, глаголы движения, подвергаясь при этом метафоризации [3, 2016].

Согласно Лакоффу метафорические выражения порождаются сознанием, а не языком. Их источником являются ассоциации, пересекающие концептуальные области: ассоциативные связи из области-цели перебрасываются в область-источник. Метафора - это пересечение ряда понятийных областей в концептуальной сфере. В связи с этим наблюдается сознательный отрыв обозначающего от обозначаемого и перенесение его на другой концепт. В основе метафорического переноса лежит скорее не объективное сходство предметов, а субъективно устанавливаемое людьми соответствие между двумя сферами. При рассмотрении метафоры в когнитивном аспекте исследователи акцентируют внимание на понятийной специфике метафоры [4, 2004]. Метафорические отношения можно объяснить как результат перенесения характеристик одного концепта на характеристики другого концепта. Когнитивная семантика дает возможность понять метафорические и метонимические отношения с точки зрения их переосмысления в терминах понятий, связанных с хранением и обработкой информации. Н.Н.Болдырёв обращает внимание на то, что концептуальная метафора служат для вторичной репрезентации знаний о мире, что тесно связано с “системой оценки эмоционального значения и глубинного смысла” [5, 258].

В основе метафорической интерпретации лежат природа концептуальной метафоры и понятие языковой интерпретации, это “механизм интерпретации и вторичной репрезентации знаний о мире” [1, 43]. По определению Болдырева “интерпретация представляет собой процесс и результат субъективного понимания человеком мира и себя в этом мире, процесс и результат субъективной репрезентации мира, основанной, с одной стороны, на существующих общечеловеческих представлениях о мире и, с другой стороны, на его личном опыте взаимодействия с ним” [1, 43]. Концептуальные области с множеством их составляющих, а также их языковые репрезентации посредством метафоры вступают во взаимодействие. Так возникают межконцептуальные связи, количество которых определяется множеством концептов, составляющих данные концептуальные области. В соответствии с тремя основными функциями человеческой познавательной активности, выделяются три типа интерпретации: селекция, классификация и оценка. Каждый человек владеет индивидуальной концептуальной системой, обладающей собственной структурой и содержанием в

соответствии с его индивидуальным способом выборочной (селективной) репрезентации мира. “Собственно языковая интерпретация внутри этой системы сводится, прежде всего, к обозначению, в том числе посредством метафор, вещей и событий окружающего мира” [1, 44]. В случае с классифицирующей интерпретацией язык необходим для объединения объектов, выяснения их общих характеристик и обозначения абстрактных понятий. Оценочная интерпретация свойственна исключительно языковой интерпретации знания. Она опирается на “схематизацию и структурирование познавательного опыта (объектов и событий). В соответствии с коллективной и индивидуальными системами норм, идеалов, стереотипов, ценностей и оценок на основе определенных оценочных шкал, принятых в рамках той или иной культуры” [1, 45].

Рассмотрим [2] процесс метафорической интерпретации в случае взаимодействия концептов “ВОЗНИКНОВЕНИЕ”/“ИСЧЕЗНОВЕНИЕ” и “ДВИЖЕНИЕ” при описании событий и процессов. Актуализация определенных характеристик концепта “ДВИЖЕНИЕ” и соответственно концептуальных характеристик “ВОЗНИКНОВЕНИЕ” / “ИСЧЕЗНОВЕНИЕ” позволяет проинформировать об особенностях протекания события или процесса. Концепт “ДВИЖЕНИЕ” характеризуется такими признаками как ХАРАКТЕР ДЕЙСТВИЯ, ИНТЕНСИВНОСТЬ, СКОРОСТЬ, НАПРАВЛЕННОСТЬ. Анализ глаголов, содержащих в своих значениях сему “движение”, позволяет выделить следующие метафорические модели:

Приходить - возникать, идти навстречу - возникать

Использование данной метафоры обусловлено существующей в сознании носителей языка образной моделью, в соответствии с которой ситуация “возникновение” концептуализируется как результат перемещения в пространстве - появление в другом месте, близком к наблюдателю (говорящему): *Die Steige herauf katep Schritte. / Вверх по лестнице шли шаги. Licht kat irgendwoher./ Откуда-то появился свет. Nicht nur Träume, wie der böse Franz Moor meint, nein auch Erinnerungen kommen manchmal aus dem Bauch./ Не только мечты, как считал злой Франц Моор, но также иногда и воспоминания приходили из живота.*

Возвращаться - возникать вновь

Эта модель является подвидом предыдущей. В её основе лежит знание о том, что всякое приближение к наблюдателю воспринимается как распознавание объекта, его идентификация, следовательно, как его возникновение:

Die Erinnerung kam in der letzten Woche zurück/ Воспоминание вернулось на последней неделе.

Подниматься - возникать, скользить вверх - возникать; всплывать - возникать

Посредством этих моделей ситуация возникновения осмысливается носителями немецкого языка как подъём вверх некоторого объекта, который попадает в фокус восприятия при его возвышении над другими объектами: [2] *Unter den Umstehenden erhob sich ein bedrohliches Gemurmel./ Среди стоящих вокруг поднялось угрожающее бормотание. Langsam stieg ein Leuchten an den Wänden empor./ Медленно поднималось по стенам сияние. Das Licht glitt wieder sanft an den Wänden empor./ Свет снова мягко скользит постепенно наверх. Endlich taucht ein schwankender Schein auf der Straße auf, verschwindet ,taucht auf... / Наконец, колеблющийся свет появляется на улице, исчезает, появляется:*

Преодолевать препятствие - возникать

Смысл преодоления препятствия ассоциируется с процессом возникновения, поскольку наблюдается переход через некую черту, за которой объект может быть идентифицирован наблюдателем: *...und gurgelnde Geräusche entranen sich seiner Kehle.../ и булькающие шумы вырывались с силой из его горла ... Alle Erinnerungen brechen erneut aus ihr hervor./ Все воспоминания вновь вырвались из неё наружу.*

Течь - возникать

Возникновение метафорически осмысливается как движение воды - быстрое и всепроникающее. Вновь наблюдается переосмысление параметров движения: мгновенное распространение в пространстве с высокой степенью проникновения и как результат констатация появления объекта: *Helles Licht ergoss sich in den Flur./ Светлый свет разлился в прихожей. Erinnerungen fließen wie aus einer surrealen Welt!/ Воспоминания текли как из сюрреалистичного мира!*

Ползти - возникать

В основе метафоры лежит признак перемещения в пространстве с возможным приближением к наблюдателю. Важной оказывается негативная оценка, связанная с движениями пресмыкающихся животных. Это проявляется в том, что глагол употребляется для фазовой характеристики субъективно неприятных явлений: *Grauschwarz kroch die*

Dämmerung ins Zimmer./ Сероцёрные сумерки вползали в комнату. *Die Erinnerungen kriechen in ihr hoch./* Воспоминания ползут в ней вверх.

Падать - возникать, опускаться - возникать

В этой модели переосмыслиется ситуация возникновения как появление сверху. Основой переноса для употребления глагола **fallen** в отношении световых процессов является расположение источника света в верхней части пространства. *Aus einigen Fenstern fiel matter Lampenschein./* Из некоторых окон падал слабый свет ламп. *Die Dämmerung senkte sich bereits über die Stadt./* Сумерки уже опускались на город.

Проникать - возникать

Интерпретация явления как обладающего способностью проникать через определённые препятствия на его пути и как следствие становится наблюдаемым, ведет к метафоризации значения глагола **dringen**: *Licht drang durch die geschlossenen Lider./* Свет проникал через закрытые веки. *Aus dem Schlafzimmer drang das geschäftige Poltern seiner Frau./* Из спальни доносилась хлопотливая возня его жены. *Wie oft werden da dieselbe nicht auch noch die Arbeit und ihre Erinnerung dringen!/?* Как часто будут проникать в то же самое не только работа и воспоминания!

Удаляться - исчезать

В основе данной метафоры лежат межконцептуальные связи областей ДВИЖЕНИЕ и ИСЧЕЗНОВЕНИЕ, а именно связь характеристик перемещение в пространстве с удалением от наблюдателя и в результате не наблюдаемость события/процесса: *das Geschrei der Schulklasse entfernt sich./* Крик класса удаляется. *Schritte entfernten sich./* Шаги удалялись. Из примеров следует, что не наблюдаемость может стать результатом перемещения в пространстве как самого наблюдателя, так и источника звука, знание этого факта не вызывает разрыва меж концептуальных связей.

Уходить - исчезать

В данном случае устанавливаются связи подобные выше упомянутым, но не наблюдаемость, воспринимается как результат перемещения в пространстве прочь от воспринимающего: *Die Kopfschmerzen gingen weg./* Головная боль проходила. *In der Wendezeit haben wir uns verloren, die Liebe ging weg./* В поворотный момент мы потерялись, любовь ушла.

Улетучиться - исчезать

Переход в газообразное состояние жидкого или твердого тела предполагает исчезновение его прежней формы, что служит возникновению меж- концептуальной связи концептов УЛЕТУЧИТЬСЯ и ИСЧЕЗАТЬ: *die Euphorie an den Börsen vorerst verfliegen./* Эйфория на биржах временно испарилась.... *und der Geruch verfliege sofort/* ..и запах немедленно исчезнет. *Wochen verfliegen wie Stunden /* Недели пролетали как часы.

Утекать - исчезать

“Нельзя войти дважды в одну и ту же реку”, - это выражение, приписываемое Гераклиту Эфесскому, красноречиво объясняет метафорические связи концептов ТЕЧЬ и ИСЧЕЗАТЬ. Движение воды воспринимается людьми как проходящее мимо, уносящее из поля зрения то, что находится у неё на поверхности, как ведущее к не наблюдаемости: *Es geht auch um Zeit –Zeit die verfließt, verrinnt./* Речь идет о времени - время утекает, проходит мимо. *Unser Tod ist die Form, in der unser Leben verfließt./* Наша смерть - это форма, в которой наша жизнь исчезает.

Остановиться - исчезать

Межконцептуальные связи концептов ОСТАНОВИТЬСЯ и ИСЧЕЗАТЬ основываются на знании о том, что прекращение движения в пространстве, положение в одном и том же состоянии приводит к потере характеристик ИЗМЕНЕНИЕ, ПОЯВЛЕНИЕ: *Die Tage vergehen und die Zeit bleibt stehen. /* Дни проходят и время останавливается. *Doch der Vorwurf blieb stehen bis heute./* Все же, упрек остался до сегодняшнего дня..

Тонуть (погружаться) - исчезать

Погружение в воду или другую жидкую среду ведёт к исчезновению из поля зрения наблюдателя, что соответственно даёт возможность создать связь между данными концептами и использовать соответствующую метафору: *Die Hoffnung sinkt rapide./* Надежда тонет быстро. *Morgenglanz und Freude sinken./* Блеск утра и радость исчезают (досл. тонут). *Diese Erwartungen sind stark gesunken./* Эти ожидания сильно опустились.

Таким образом, метафоры образуют реконструируемые метафорические концепты, базирующиеся на межконцептуальных связях, обусловленных определенными языковыми стереотипами у носителей языка. Употребляя метафору, индивидум рассчитывает на коллективное знание и на определенные закономерности, смыслы, которые дают возможность партнеру по

коммуникации правильно идентифицировать информацию. Как правило, происходит перенос образной структуры с простых представлений на более сложные или новые явления. В качестве источника для образа в нашем случае служит перемещение в пространстве. В результате метафорического переноса ВОЗНИКНОВЕНИЕ объекта представляется как более близкое положение объекта к наблюдателю, а исчезновение как результат удаления объекта от наблюдателя. Использование достижений когнитивной семантики позволило выявить регулярные метафорические модели, имеющие языковую природу, и объяснить их появление.

Естественным образом возникают следующие вопросы: Что такое концепт? Что такое метафорический концепт? Что такое метафорические выражения? Очевидно, что метафорический концепт должен быть концептом определенного рода. Выражаясь аналитически, метафорический концепт – это концепт. Поэтому, не ответив на первый вопрос, нельзя получить ответ на второй. Вместе с тем, в работах, посвященных исследованию концептов, как правило, игнорируется существование метафорических концептов. Существуют многочисленные определения концепта.

В статье приводится обзор описанных в лингвистическо-философской литературе взглядов на природу метафоры, ее структуру, сущностные свойства и функции в речи. Обсуждается дискуссионный вопрос о путях понимания и интерпретации художественного текста, в том числе декодирования метафорических выражений. В статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкивается старшеклассник в ходе интерпретации текста, содержащего метафорические выражения. Автор приводит данные экспериментального исследования, которое нацелено на выявление способности распознавать и толковать метафорические выражения в художественном тексте, выделяются типичные ошибки и анализируются их причины. Основные проблемы сводятся к нераспознаванию метафор или приписывание метафоризации выражениям с прямыми номинациями, неумению осознать авторский замысел, увидеть сигналы скрытого смысла. Неспособность проявляет на лексическое значение слов вследствие бедности лексикона, слабого представления о расширенном значении слова, способах переноса значения. На основе анализа данных эксперимента автор делает выводы методического характера. В качестве важных направлений работы рекомендуются анализ метафорических выражений, развитие ассоциативного мышления, освоение способов интерпретации метафорических выражений с опорой на регулятивные структуры текста, фоновые знания, сравнение разных вариантов интерпретации.

В современной лингвистическо-философской литературе метафору описывают не только как один из тропов, основанный на переносе свойств одного предмета или объекта на другой на основании их сходства, но и как любой тип переноса значения слова: “В расширительном смысле термин “метафора” относят также к другим видам переносного значения слова” [Виноградов 1963: 128]. В когнитивной лингвистике метафора получила новое определение: под ней понимается не просто перенос значения, троп, средство создания образности текста, а ментальная операция, участвующая в концептуализации и категоризации опыта человека и устанавливающая соотношение между языком и мыслительными процессами. В структуре метафоры М. Блэк выделяет два компонента – фокус и рамку.

Исследуется, что для интерпретации метафор в равной степени, следующие факторы: знание природы и метафоры, ее функций, умение распознать метафорическое выражение в тексте, понимание спектра прямых и переносных значений использованных лексем, представление о возможных трансформациях смысла, которые возникают под воздействием контекста и системы общепринятых ассоциаций, быстро активизирующихся в сознании при восприятии концепта и связанных с особенностями менталитета народа, поскольку в силу культурно-исторических причин. Одни и те же метафоры у представителей разных культур могут вызывать разные ассоциативные ряды, знание исторического фона создания текста и текстового времени, знание символики использованных лексем, осознание намерения и замысла автора, что связано с наличием у читателя коммуникативной компетенции, наличие в когнитивной базе реципиента рецептивных схем, обеспечивающих восприятие скрытых смыслов, а также развитого ассоциативного мышления.

Задача формирования умения интерпретировать метафорические выражения требует рефлексии, предметом которой будет как итог деятельности, так и ее способы. Целесообразно задать вопрос: “Какие приемы работы помогли нам понять текст?”, и в результате поиска ответа учащиеся должны прийти к выводу о том, что адекватная интерпретация стала возможной благодаря актуализации фоновых исторических и социокультурных знаний, толкованию архаизмов, анализу эмоционально-оценочной информации, скрывающейся за метафорическими выражениями, и определению авторского мотива использования средств.

Чтобы применить рецептивную схему, читатель должен заметить сигнал скрытого смысла,

обратить на него внимание. Этот процесс связан, во-первых, с рефлексивной деятельностью, которая состоит, прежде всего, в осмыслении собственного понимания: что я понял? почему я понял так? почему понял так, а не вопросы психолингвистики теоретические и экспериментальные исследования иначе? Что еще я должен понять? Таким образом, первый шаг в толковании метафорических выражений – их распознавание. М. Блэк указывает, что пониманию метафоры способствует знание исторического фона, анализ словесного окружения метафорически использованной единицы и интонация: “Вычленение и интерпретация метафоры может нуждаться в обращении к особым обстоятельствам ее произнесения” [8, 157]. Кроме того, по М. Блэку, значение метафорического выражения должно реконструироваться с учетом намерений говорящего, а это уже лежит в сфере коммуникативной компетенции читателя. Чтобы понять, что имеет в виду пишущий, используя метафорические выражения, следует выяснить, считает ли автор использованное метафорическое выражение единственно возможным для передачи смысла, который не может быть передан никакими эквивалентами в прямых номинациях, или лишь стилистическим приемом, или его применение нацелено на некую игру с читателем, поскольку “читателю приятно решать головоломки, или он радуется умению автора наполовину скрыть, наполовину обнаружить истинный смысл, или же он находится в состоянии “приятного удивления” [8, 160]. Непрямое сообщение, отраженное через специально подобранные лексико-грамматические и другие метафорические структуры ХТ, интерпретируется читателем с опорой на возникающие при чтении ассоциации, череда которых способствует выстраиванию образно-символической системы, связанной с культурой общества, принятой в нем символикой: “В художественном слове читается культурный подтекст, создающий общий смысл произведения” [6, 174]. Скрытые смыслы становятся ясными за счет элиминирования текстовых лакун (смысловых скважин), при котором реципиент соединяет текстовую информацию с имеющимся в его долговременной памяти объемом фоновых знаний энциклопедического характера. Варианты интерпретации этого фрагмента были очень разнообразны. Часть учащихся связала замысел автора с книгой, стихотворным творчеством, значением поэзии в жизни людей, ценностью классической литературы. Причем замысел автора связали с констатацией трудолюбия народа, важности любого труда, утверждением того, что умственный труд отличается от физического, о том, что раньше труд ценили больше, считают, что цель автора сравнить и показать. По мнению автора, у каждого свой талант, малый предмет может иметь большое значение, у каждого свое понимание. Вывод: неадекватная интерпретация метафорического выражения может быть связана с неправильным выделением объекта метафоризации. Так, в данном случае в качестве объекта метафоризации школьники выделили не только труд в поле, но и работу вообще, книгу, процесс стихосложения, природу и талант.

Выше названные результаты исследования позволяют обобщить выводы о том, что умение толковать метафорические выражения сформировано недостаточно. Основные проблемы при этом сводятся к нераспознаванию метафор, неспособности опереться на лексическое значение слов вследствие бедности лексикона учащихся, их слабому представлению о расширенном значении слова, способах переноса значения. Вероятно, значительную роль в способности толковать метафоры играет ассоциативное мышление, которое развито недостаточно, в связи с чем им не удается осмыслить авторские ассоциации, на основе которых и построено метафорическое выражение. Особую трудность представляют метафоры, передающие чувства и эмоции человека (автора, героя), так как эмоциональная информация остается вне поля зрения. Кроме того, стоит отметить и недостаточную сформированность социокультурной компетенции и узость энциклопедических знаний, что, безусловно, создает препятствие для толкования метафор и опознавания в них реалий настоящего и прошлого: не видя авторский мотив для метафорического переноса, не осознают предметно-логические связи объектов вещного мира. Отметим также и стремление за всяким выражением искать скрытые смыслы, даже там, где их нет. Думается, что причина этого в том, что боится не распознать аллегорию и мораль, а следствие – приписывание автору намерения, которого у него не было. И последнее: искаженная интерпретация метафор напрямую связана с несформированностью умений текстовоспринимающей деятельности, которая в идеале должна опираться на регулятивные структуры текста – лексемы, знаки препинания и другие сигналы, направляющие процесс восприятия читающего. [В результате можно не заметить в тексте те элементы, которые способствуют иницированию поиска сигнала скрытого смысла и правильному определению субъекта и объекта метафоризации, осознанию способа и основания переноса значения, признака или имени и очерчиванию рамки метафоры. Сказанное определяет важность методического обоснования работы над распознаванием и интерпретацией метафорических выражений в тексте.

Литературы

1. Болдырев Н.Н. Метафорическая интерпретация отношений человека с окружающим миром / Н.Н. Болдырев // Когнитивные исследования языка. 2014- Вып. XVIII. - 42-47с.
2. Борисовская И.В. Одна из возможностей исследования концептов- сценариев / И.В. Борисовская // Когнитивные исследования языка. - 2015. - Вып. XXI. - 207-210с.
3. Борисовская И.В/ Особенности глаголов, репрезентирующих концепт- сценарий “ВОЗНИКНОВЕНИЕ” (на материале немецкого языка) / И.В.Борисовская // Филологические науки. Вопросы теории и практики. - 2016.- № 8 (62).- Ч.2. - 55-58с.
4. Лакофф Дж. Метафоры, которыми мы живем: пер. с англ. / Дж. Ла-кофф, М. Джонсон. -М.: “Эдиториал УРСС”, 2004. - 256 с.
5. Лурия А.Р. Язык и сознание / Под ред. Е.Д. Хомской. 2-е изд. - М.: Изд-во МГУ, 1998. - 258 с.
6. Любичева Е.В., Ольховик Н.Г. От текста к смыслу и от смысла к тексту учебное пособие / Под ред. Е.В. Любичевой. СПб.: Сага; Азбука-классика, 2005. -203 с.
7. Арутюнова Н.Д. Метафора. Лингвистический энциклопедический словарь. -М., 1990. -306 с.
8. Блэк М. Метафора. Теория метафоры: сборник статей. Пер. с англ., “Прогресс”, 1990. 153-172с.
9. Болотнова Н.С. Коммуникативная стилистика текста. Словарь-тезаурус. -М.: “Флинта”, 2009. -384 с.
- 10.Скляревская Г.Н. Метафора в системе языка. СПб.: ФилФак СПбГУ, 2004. -235 с.
11. Мастерство перевода. -М., Изд-во “Международные отношения”, 1995. -275 с.

Solijon AZIZOV

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti

**YOZUV KOMPETENSIYASI: INNOVATSION METOD, MASHQLAR ZANJIRI VA
TA'LIM MUHITI
(Filologik oliy ta'limda ingliz tilini o'qitish misolida)**

Maqolada filologik oliy ta'limda talabalarning yozuv kompetensiyasini blended ta'lim muhitida innovatsion metodlar asosida tizimli takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, ta'limning har ikki platformasida (onlayn va offlayn) bo'lajak mutaxassislarni bosqichma-bosqich maxsus topshiriqlar va mashqlar zanjiri yordamida tayyorlashning amaliy natijalari va ayni jarayonda o'qituvchi tomonidan yaratiladigan ta'lim muhitining roli ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotning umumiy natija va xulosalariga asosan muallif tomonidan yoritilgan.

Kalit so'zlar: yozuv kompetensiyasi, innovatsion metod, blended ta'lim, filologik oliy ta'lim, pedagogik tajriba, uzviy ta'lim.

В данной статье обсуждаются теоретические и практические основы повышения письменной компетенции студентов с использованием инновационных методов в blended среде обучения в высшем образовании, а также практические результаты обучения будущих кадров с использованием конкретных заданий и комплексов упражнений на обеих платформах обучения (онлайн и оффлайн), а роль образовательной среды, создаваемой учителем, подчеркивается автором на основе общих результатов и выводов исследования, проводимого по данной теме.

Ключевые слова: письменная компетенция, инновационный метод, blended обучение, высшее филологическое образование, педагогический опыт, подключенное образование.

This article discusses the theoretical and practical basis of improving students' writing competence through innovative methods in the environment of blended learning in higher education, as well as the practical results of training future personnel with the help of particular tasks and sets of exercises on both platforms of education (online and offline) and the role of the educational environment created by the teacher is highlighted by the author based on the general results and conclusions of the research that is being conducted on this matter.

Key words: writing competence, innovative method, blended learning, philological higher education, pedagogical experience, connected learning.

Kirish. Ma'lumki, chet tillarni o'qitish tizimi uzviy va uzluksiz rivojlanib boruvchi ta'lim jarayonidir va unda zamon talabi, shart-sharoitiga asosan metodlar yaratiladi, yondashuvlar shakllantiriladi va ularga mos bo'lgan ta'lim vositalari amaliyotga joriy etiladi. Ayni ta'lim jarayonidagi eng muhim bo'lgan jihat shuki, til o'rganuvchilarning chet tilidagi asosiy nutq faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishda chet tili o'qituvchisining maqbul metod, yondashuv va ta'lim vositalaridan til o'rganuvchilarning amaliy dars mashg'ulotlaridagi potensialiga tayangan holda samarali va tizimli foydalana olishidir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining 2020-yil 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan yo'llagan tabriklarida quyidagi fikrlarni bildirgan edilar: **"Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak"** [1]. Ta'limning quyi bosqichlarida bo'lgani singari, oliy ta'limda ham talabalarni bo'lajak mutaxassis kadr sifatida tayyorlashda professor-o'qituvchilarning ilm-fanda tadbiq etilayotgan eng so'nggi innovatsion yutuqlardan samarali foydalana olishida (1) *pedagogning ushbu ijobiy yangiliklardan xabardorligi* (tadbiq etilayotgan metod, yondashuv va vositalardan yetarli darajaja xabardorligi), (2) *talabalarning, ya'ni til o'rganuvchilarning har tomonlama tayyorligi* (ularning yuqorida qayd etib o'tilgan asosiy elementlardan foydalana olish darajasi, amaliy dars jarayonlaridagi umumiy samaradorlikka hissa qo'shishdagi potentsiali), (3) *yaratilgan ta'lim muhiti* (ta'lim muassasasida, xususan, auditoriyada ham o'qituvchi, ham til o'rganuvchilar uchun amaliy dars jarayonlarini tashkil etish va ularda ishtirok etishda barcha zarur shart-sharoitning mavjudligi) va (4) *natijadorlik uchun umumiy harakatning majudligi* (pedagog sifatida o'qituvchi-professorlarning ta'limning har ikki platformasida tashkil etiladigan dars jarayonlarining sifati va mazmuni uchun javobgarligi, til o'rganuvchilarning esa o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan barcha o'quv materiallari va topshiriqlariga nisbatan faol bo'lishi va bu bosqichda har ikki tomonning bir maromda tizimli harakat olib borishi) o'zining dolzarbligini amalda namoyon etadi.

Nutq faoliyati turlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hisoblanuvchi tinglash, gapirish, o'qish va yozish til materiali (fonetika, leksika va grammatika) to'g'risidagi bilimlarni egallash va takomillashtirishni nazarda tutuvchi lingvistik kompetensiya til o'rganuvchilarga, ya'ni filologik oliy ta'limda talabalarga bo'lajak mutaxassis sifatida mukammal bilim olishlarida muhim ahamiyatga egadir. Zero, butun bir jarayonning uzviylikda va chambarchas tarzda tashkil etilishi kelgusida har ikki tomon uchun ham istiqbolli natijalarga erishishga yordam beradi.

Hozirgi zamon nuqtayi nazariga ko'ra, oliy ta'limda blended (aralash) ta'lim shaklining bosqichma-bosqich joriy etib borilishi ta'lim jarayonida sifat, mazmun, uzviylik va uzluksizlik omillarini amaliy jarayonlarda sezilarli darajada ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bu shaklda dars mashg'ulotlarining ham offlayn (oliy ta'lim muassasasida), ham onlayn (raqamli platformalarda) olib borilishi pedagogdan nutq faoliyati turlari bo'yicha har bir ko'nikmani rivojlantirishga doir maxsus dastur (reja) shakllantirishni talab etadi. Ushbu maqolada filologik oliy ta'limda tahsil oluvchi bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining yozuv kompetensiyasini blended ta'lim muhitida takomillashtirish mavzusida muallif tomonidan olib borilayotgan tadqiqot yo'nalishidagi tajriba davomida qo'llanilgan innovatsion metod, mashqlar zanjiri va yaratilgan ta'lim muhitining nazariy va amaliy ahamiyati yuzasidan olingan umumiy natijalar va xulosalar batafsil tahlil etiladi.

O'z o'rnida tanlangan va innovatsion usulda joriy etilgan metod nutq ko'nikmalarini, jumladan, yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga, mashqlar zanjiri olingan bilimlarni mustahkamlashga, yaratilgan ta'lim muhiti esa butun bir dars jarayonlarining sifatli va samarali olib borilishiga xizmat qiladi. Yozuv kompetensiyasi chet tili o'rganuvchilarining gapirish kompetensiyasi kabi amaliy ko'nikmalaridan biri sifatida o'qituvchining ular (til o'rganuvchilar) bilan muntazam dars mashg'ulotlarini olib borishini taqozo etadi va bu omil amalda ayni kompetensiyani takomillashtirish maqsadida har ikki ta'lim platformasida tashkil etilgan dars mashg'ulotlarining barcha bosqichlarida o'quv materiallari, mashqlar va vazifalarni o'zaro mutanosiblikda tayyorlashida yaqqol namoyon bo'ladi. Blended ta'lim shaklida butun nazorat o'qituvchida bo'ladi va dars mashg'ulotlarini ta'limning har ikki platformasida belgilangan ma'lum bir reja asosida ketma-ketlikda talabalar e'tiboriga taqdim etib boradi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatni qayd etish joizki, blended ta'lim muhitida talabalarining taqdim etilgan materiallar va topshiriqlarni nisbatan mustaqil o'zlashtirishlari ularning bo'lajak mutaxassis kadr sifatida shakllanishlarida o'zining amaliy natijalarini ko'rsatadi. Maqolaning keyingi qismlarida tadqiqot yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning tahlili natijalari batafsil taqdim etiladi.

Asosiy qism. Oliy ta'limda bo'lajak mutaxassis kadrlarning olingan nazariy bilimlarni o'z navbatida amaliy jarayonlarda ham qo'llab borishi ularning har tomonlama mustahkam bilim olishlariga imkoniyat yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan eng muhim vazifalardan biri o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan **amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga** yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tishdir [2]. Xususan, yozuv kompetensiyasini takomillashtirish doirasida oliy ta'lim muassasalarining chet tillarini maxsus o'rganishga ixtisoslashgan fakultetlari bakalavr bosqichida tahsil oluvchi talabalar (1) hisobot tarzidagi maqolalar, (2) ta'lim materiallari uchun ko'rsatmalar, (3) ma'lumotnoma shakllari va so'rovnoma, (4) biznes va mutaxassislikka doir xatlar, (5) insholar, hisobotlar, tahlillar, (6) bitiruv malakaviy ishi, (7) mavzu tanlash bayonoti va (8) tarjimai holning turli shakllari [3] kabi talablarni to'liq o'zlashtirishlari lozim. Yozuv kompetensiyasi matn muallifiga g'oyalarni aniq va ravon ifodalash, o'zaro fikrlarni muhokama qilish va turli qarashlarni tahlil qilish imkonini beradi [8, 58] va ayni jihatlar yuqorida tilga olingan yozma nutq materiallarini shakllantirishda ham muhim jihatlar hisoblanadi. Natijada, samarali yozish ko'nikmasi boshqalar, ya'ni o'qituvchilar, tengdoshlar, hamkasblar va jamoa bilan ishonarli tarzda muloqot olib borishda muhim ahamiyatga egadir [5].

Jumladan, yozuvning boshqa nutq faoliyati turlaridan asosiy farqi uning o'qitish maqsadi emas, balki ta'lim vositasi sifatidagi maqomidir [6, 283] va unga bo'lgan bunday yondashuv 1970-yillarda Djeyms Britton, Djanet Emig va Djeyms Moffett kabi mashhur olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning natijalari asnosida paydo bo'lgan deyish mumkin [13, 209]. Keyinchalik ilm-fanda bu yo'nalishda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borildi va amalda ikki qarama-qarshi fikrlar oqimi paydo bo'ldi, ya'ni birinchi oqim vakillari yozuvning insonning fikr yuritish va ta'lim olishdagi ijobiy ta'sirlarini amalda isbotlab berdi [7; 12], ikkinchi oqim vakillari esa o'zlarining yozuvning ta'lim vositasi sifatidagi maqomiga qarshi tanqidiy fikrlari 1990-yillarda amalga oshirgan izlanishlarida ilgari surishdi [4; 10; 11]. Bu holat yozuv kompetensiyasining ayni shu maqomi doirasida izchil tadqiqotlar olib borishga turtki bo'ldi.

Umuman olganda, yozuv kompetensiyasi talabalarning berilayotgan ta'lim to'g'risidagi tushunchalarini takomillashtirishga, qarashlarini o'zgartirishga va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan topshiriqlarni bajarishlarida samaralidir, ammo undan faqat ma'lumotlarni to'plashda foydalanish kutilgan natijalarga erishishda samarasizdir [13, 213]. Filologik oliy ta'limda ingliz tilida talabalarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirish misolida esa bu jarayonni blended ta'lim muhitida maxsus qismlarga ajratgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda o'qituvchining amalda foydalanayotgan chet tilini o'qitish metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda ayni kompetensiyani takomillashtirishda **topshiriq asosida til o'rgatish** (*ing.* Task-based language teaching (TBLT)) metodidan foydalanildi. Topshiriq asosida til o'rgatishda til o'rganuvchilar asosiy o'rganilayotgan chet tilidan foydalangan holda ma'lum bir topshiriqlarni bajarishadi va bu jarayonda, albatta, o'qituvchi ularning til vositalaridan qay darajada to'g'ri va samarali foydalana olayotganliklarini to'liq nazorat qilib boradi. Bajarilgan topshiriqning barcha natijalari o'qituvchi uchun til o'rganuvchilarning amaldagi o'zlashtirish darajasini baholash imkoniyatini yaratib beradi. Shuningdek, avstraliyalik olim Devid Nunan o'zining 2004-yilda nashr etilgan "*Topshiriq asosida til o'rgatish*" ("Task-based language teaching") nomli asarida topshiriqning ikki turini keltirib o'tgan: maqsadli topshiriqlar va pedagogik topshiriqlar. **Maqsadli topshiriqlar** sinfdan tashqari – real hayotda bajarilsa, **pedagogik topshiriqlar** til o'rganuvchilar tomonidan sinfxonada amalga oshiriladi. Devid Nunan maqsadli topshiriqlarning til bilan bog'liq bo'lmasligini ma'qullaydi va pedagogik topshiriqlarni bajarish davomida talaba topshiriqning shaklidan ko'ra ma'nosiga asosiy e'tiborini qaratgan holda o'rganilayotgan chet tilini tushunib foydalanishi maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi [9]. Zero, blended ta'lim muhitida tashkil etilgan har bir dars jarayoni talabaning dars jarayonlarida nisbatan mustaqil va faol bo'lishini taqozo etadi, chunki dars mashg'ulotlari mavzularining bir-biriga uzviy bog'liqligi ulardan jarayonga shunday yondashishni talab etadi.

Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotning tajriba-sinov ishlarini olib borishda talabalarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda ikkita asosiy mazu tanlab olindi: (1) biznes va mutaxassislikka doir xatlar; (2) paragraf va uning turlari. O'qituvchi tomonidan barcha o'quv materiallari va topshiriqlar har ikki ta'lim platformasida berib borildi. Ayni ikki turdagi mavzular uchun maxsus dastur yaratildi va u quyidagi shaklda taqdim etildi:

1. Talabalarga har yangi mavzu oldidan onlayn ta'lim platformasi (Telegram ijtimoiy tarmog'idan foydalanildi) orqali qisqacha infografik ma'lumot taqdim etildi (onlayn).

2. Ta'lim muassasasida dars jarayonlari tashkil etilganda o'tiladigan mavzuga doir so'zlar jamlanmasi ("Vocabulary" yoki "Useful words" deb nomlangan maxsus materiallar) taqdim etildi va ularning yozma matnda qay tarzda foydalanilishi to'g'risida talabalarga o'qituvchi tomonidan ma'lumot berildi (offlayn).

3. Keyingi bosqichda yangi mavzu innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qituvchi tomonidan tushuntirildi va bu jarayonda asosiy e'tibor dars mashg'ulotlarining sifati va mazmuniga qaratildi (offlayn).

4. Mavzu yuzasidan topshiriqlar talabalarning o'zlashtirish darajasi va dars mashg'ulotlaridagi ishtirokiga ko'ra individual, juft, guruh va jamoa bo'lib ishlash tartibiga moslashtirilgan holda taqdim etildi. Talabalar topshiriqlarni bajarib bo'lgach, o'qituvchi bilan birgalikda barcha yutuq va kamchiliklarni muhokama qilishdi. Jumladan, yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda rioya qilingan bu yondashuv bir qator samarali natijalarga erishish imkonini berdi (bu to'g'risida batafsil ma'lumotlar maqolaning keyingi qismida) (offlayn).

5. An'anaviy dars jarayonlarining so'nggi qismida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda talabalarining dars jarayonlaridagi ishtiroki baholab borildi va ularning e'tiborlariga havola etildi.

6. O'tilgan mavzular bo'yicha uyga vazifalar va mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar onlayn ta'lim platformalarida muntazam taqdim etib borildi, jumladan, Telegram ijtimoiy tarmog'ida tashkil etilgan virtual kanallar va guruhlar bu jarayonda asosiy ta'lim vositasi sifatida foydalanildi (onlayn).

7. Shuningdek, virtual ta'lim platformasida talabalarining yozuv kompetensiyasini oshirishda samarali manba sifatida o'qituvchi tomonidan maxsus videoroliklar tayyorlandi va bu media mahsulotlarda asosiy e'tibor yuqorida tilga olingan xat turlari va paragraflarni yozishda amal qilinishi lozim bo'lgan grammatika, leksika va punktuatsiya qoidalariga bag'ishlandi (onlayn).

8. Bundan tashqari, talabalar olgan bilimlari yuzasidan, ham nazariy, ham amaliy materiallar asosida raqamli ta'lim platformalarida muntazam tekshirildi va baholandi. Masalan, Telegram ijtimoiy tarmog'idagi guruh va kanallarda talabalar uchun nazariy savollar ochiq test shaklida taqdim etildi (bunda asosiy maqsad talabalarni baholash sifatida belgilanmadi), Google Forms paketlari tarkibidagi "Assessment" ("Baholash") bo'limi yordamida esa talabalar amaliy bilimlarini sinab ko'rishdi va natijalar har ikki platformada ham taqdim etib borildi (onlayn).

9. Olingan natijalar o'qituvchi uchun talabalarning o'zlashtirishdagi natijalarini yaqqol ko'rish imkoniyatini yaratdi va raqamli ta'lim platformalarida, ayniqsa, Telegram ijtimoiy tarmog'ida o'qituvchi nisbatan past ko'rsatkich ko'rsatayotgan talabalar bilan qo'shimcha dars mashg'ulotlarini olib bordi (onlayn).

10. Dars mashg'ulotlari yakunlangach, talabalarning amaliyotga tadbiiq etilgan barcha tajriba-sinov vositalari, ya'ni ta'lim texnologiyalari, metod va ta'lim muhiti to'g'risidagi fikr-mulohazalarini o'rganish maqsadida innovatsion usulda Google Forms paketlari tarkibiga kiruvchi "Exit Ticket" (Chiqish chiptasi) va "Course Evaluation" (Kursni baholash)lardan foydalanildi (onlayn).

Yuqorida tilga olingan barcha bosqichlar uzluksiz va uzviy tajriba-sinov ishlariga bosqichma-bosqich joriy etib borildi. Xususan, filologik oliy ta'limda blended ta'lim muhitining shunday yo'sinda joriy etilishi ham o'qituvchi, ham talabalar uchun qulay innovatsion shart-sharoitda hamkorlikda faoliyat olib borishlari uchun zamin yaratdi. Bundan tashqari, ta'limning har ikki platformasida dars mashg'ulotlarini bir maromda tashkil etib borish har bir chet tili o'qituvchisi uchun o'z individual rejasi asosida ish yuritishga imkon beradi. Maqolaning quyidagi qismida tadqiqotning tajriba-sinov ishlarida olingan barcha amaliy natijalar va ularning izchil tahlillari taqdim etiladi.


Muhokamalar va natijalar. Avvalo, tadqiqot asosida belgilangan tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti belgilandi. Mazkur universitetning 1-bosqich talabalarining 75 nafari va yozuv kompetensiyasi bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib boruvchi 5 nafar o'qituvchisi tajriba-sinov ishlarini olib borishda ishtirok etish uchun jalb qilindi (1-jadval). Tajriba-sinov ishlarining asosiy jarayonini boshlashdan oldin o'qituvchilar jamoasi bilan bajariladigan ishlar to'g'risida dastlabki tushuntirish ishlari olib borildi va ayni yondashuv talabalar bilan ham amalga oshirildi, chunki talabalarning blended ta'lim muhitiga va ushbu jarayonda tadbiiq etiluvchi barcha vositalar bilan qisman bo'lsa-da tanish bo'lishi tadqiqot natijalarining samarali bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ta'lim muassasining va tajriba-sinov ishlarida ishtirok etuvchi barcha qatnashchilarning blended ta'lim muhitini yaratishga tayyorligi tekshirildi va kerakli chora-tadbirlar ko'rildi.

1-jadval


№	Ishtirokchilarning demografik ma'lumoti	103-guruh	105-guruh	122-guruh	123-guruh	124-guruh	128-guruh	o'qituvchilar
1.	Yoshi	17-18	8	9	6	8	7	9
		19-20	5	4	6	5	5	3
		28-35						
2.	Jinsi	erkak	3	4	3	4	2	2
		ayol	1	9	9	9	1	1
		0				0	0	

Tajriba-sinov davomida ikki asosiy tadqiqot metodidan foydalanildi: sifat va miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot metodlari. Birinchidan, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida o'qituvchilar bilan tajriba-sinov ishlarining so'nggida suhbat o'tkazildi. Ikkinchidan, miqdor ko'rsatkichlarini aniqlashda talabalar orasida so'rovnoma onlayn formatda – Google Forms paketlari yordamida o'tkazildi. So'rovnomaning taqdim etishdan oldin talabalarga har bir savol va takliflar kiritish bo'limlari to'g'risida ma'lumotlar berildi. Zero, talabalarni bo'lajak mutaxassis sifatida tayyorlashda so'rovnomaga kiritilgan savollarning mazmun-mohiyati muhim ahamiyatga ega bo'lishi nazarda tutildi. So'rovnomaga kiritilgan savollar mazmun-mohiyatiga ko'ra uch asosiy qismga bo'lindi va ular asosiy o'rganilayotgan chet tili – ingliz tilida aks ettirildi: innovatsion metod, mashqlar (topshiriqlar) zanjiri va ta'lim (blended) muhiti. So'rovnomalarni to'liq yakunlashlari uchun ikki soat vaqt belgilandi va bu jarayon onlayn shaklda amalga oshirildi. Mazkur muddatni belgilashda talabalarning texnik va ijtimoiy holati inobatga olindi.

So'rovnomada taqdim etilgan dastlabki savollar jamlanmasi topshiriq asosida til o'rgatish metodi to'g'risida bo'ldi: "Yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda joriy etilgan topshiriq asosida til o'rgatish metodi yordamida tayyorlangan quyidagi qaysi loyiha(lar)ni siz ma'qullaysiz?" ("On improving the writing competence, which of the following project(s) prepared utilizing the method of TBLT do you approve of?"). So'rovnoma natijalariga ko'ra, 70 nafar ishtirokchi (93%) "Daralar oldi qisqacha ma'lumotlar" berilganligi, 65 nafar ishtirokchi (86%) "Mavzuga doir so'zlar jamlanmasi" taqdim etilganligini, 73 nafar ishtirokchi (97%) "Mavzularning innovatsion taqdimoti" amalga oshirilganligini, 75 nafar ishtirokchi (100%) esa "Videoroliklar namoyishi" joriy etilganligini ma'qullashdi (2-jadval). Ushbu natijalardan ma'lumki, amalga oshirilgan loyihalar talabalarning yozuv kompetensiyasini yanada oshirishda va ularning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashda o'z ahamiyatiga ega bo'ldi.



So‘rovnomaning navbatdagi savollar jamlanmasi yozuv kompetensiyasi doirasida talabalar uchun tajriba-sinov uchun ishlab chiqilgan mashqlar zanjiriga bag‘ishlandi: *“Yozuv kompetensiyasini takomillashtirishingizda quyidagi qaysi mashqlar zanjirini ma’qullaysiz?”* (Which of the following sets of exercises do you approve of on improving your writing competence?). Tajriba-sinov ishlarini olib borishdan oldin talabalarning bo‘lajak mutaxassis sifatida kelgusida faoliyat olib borishlarini hisobga olib, mashqlar zanjiri ayni kompetensiyaning turli rakurslariga asosan tuzildi va bu dars mashg‘ulotlarining sifat va mazmun kategoriyalarini yanada oshirishga xizmat qildi. Albatta, mashqlar qiyinlik darajasi turlicha bo‘ldi, yani ular osondan murakkablikka ko‘tarilgan tarzda shakllantirildi. Shuningdek, talabalar har bir mashqlar zanjirini basharib bo‘lganlaridan so‘ng o‘qituvchi bilan birgalikda xato va kamchiliklar ustida qo‘shimcha mashg‘ulotlar olib borildi. Natijada, talabalar nafaqat til o‘rganuvchi sifatida balki bo‘lajak mutaxassis sifatida ham amaliy ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishdi. O‘z o‘rnida chet tillarni o‘qitish tizimida bunday yondashuvning tadbiiq etilishi auditoriyada samaradorlik koeffisientini oshirishda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Jumladan, olingan natijalar quyidagicha ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi: ishtirokchi talabalarning 70 nafari (93%) *“Xat yozishga doir mashqlar”*ni, 74 nafari (98%) *“Paragraf yozishga doir mashqlar”*, 72 nafari (96%) *“Grammatikaga doir mashqlar”*ni, 69 nafari (92%) *“Leksikaga doir mashqlar”*ni va 73 nafari (97%) *“Gap turlariga doir mashqlar”*ni ma’qul ko‘rib, ijobiy natijalarni taqdim etishdi (3-jadval).




So‘rovnomaning so‘nggi savollar jamlanmasi tadqiqot yo‘nalishida asosiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim jihat sifatida dars mashg‘ulotlarida yaratilgan ta‘lim muhiti to‘g‘risida bo‘ldi. Aslini oganda chet tillarni o‘rgatish va o‘rganish jarayonida har qanday katta-kichik omil muhim ahamiyatga egadir. Xususan, oliy ta‘limda talabalarning bo‘lajak mutaxassis sifatida tahsil olishlari inobatga olinsa, amalda yaratilgan ta‘lim muhiti har ikki tomon uchun ham muvaffaqiyatli natijalarga erishishning eng bosh omillaridan biri ekanligini qayd etish joiz. XXI asr taraqqiyotlaridan kelib chiqqan holda ta‘lim jarayonlarini tashkil etish bugungi kunda o‘tgan asrlarga nisbatan sezilarli darajada har tomonlama innovatsion ta‘lim muhitini yaratishga imkon berdi. Zero, blended ta‘lim muhitini yaratish tajriba-sinov ishlarida ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilar va amaliyotda qo‘llanilgan ta‘lim vositalari va texnologiyalariga bevosita bog‘liq bo‘ldi. Jumladan, ta‘lim muhiti doirasida talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi yondashuvi va holati, ta‘limning har ikki platformasida talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar, o‘qituvchining talabalar bilan hamkorlikda olib borgan faoliyati kabi asosiy omillar e‘tibor markazida bo‘ldi. So‘rovnoma natijalariga

#4, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО*PEDAGOGICAL SKILL

ko'ra, 72 nafar talaba (96%) "Topshiriqlarni bajarish jarayoni"ni, 74 nafar talaba (98%) "Materiallar muhokamasi jarayoni"ni, 69 nafar talaba (92%) "Hamkorlikda ishlash jarayoni"ni, 71 nafar talaba (94%) "Baholash va "feedback" olish jarayoni"ni va 75 nafar talaba (100%) "Fikr-mulohazalarni o'rganish jarayoni"ni ma'qullashdi (4-jadval).


4- jadval



Yuqoridagi jadvallarda aks ettirilgan ijobiy natijalar talabalar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarining ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lganini tasdiqlaydi. Tadqiqotning ushbu bosqichi yakunlangach, olingan natijalar o'qituvchilar e'tiboriga havola etildi va ular bilan barcha jarayon batafsil muhokama qilindi.

O'qituvchilar (5 nafar) bilan olib borilgan suhbat tadqiqot davomida belgilangan asosiy ishlarning va rejalarning umumiy natija va xulosalarini shakllantirishga yordam berdi. Suhbat davomida berilgan savollar yuqorida taqdim etilgan uch asosiy omil asosida ishlab chiqildi. Olingan natijalarga ko'ra, o'qituvchilar topshiriq asosida til o'qitish metodining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishdagi ahamiyatini tajriba-sinov ishlarida kuzatilgan natijalarga binoan ijobiy baholashdi (4 ishtirokchi (80%)). Mashqlar zanjiri doirasida talabalar e'tiboriga havola etilgan mashq va topshiriq turlari to'g'risida barcha o'qituvchilar ijobiy fikr bildirishdi va ayni jarayondagi uzviylik va uzluksizlik omillarini tadqiqotning muvaffaqiyatli jihatlari sifatida baholashdi (5 ishtirokchi (100%)). Shundan so'ng o'qituvchilar bilan yaratilgan ta'lim muhiti to'g'risida muhokama olib borildi va o'qituvchilarning barchasi ushbu bosqichdagi barcha jihatlarni dars mashg'ulotlarining sifat va mazmun kategoriyalarini yanada samarali ta'minlashdagi dolzarb ahamiyatini qayd etishdi (5 ishtirokchi (100%)) (5-jadval). Ayniqsa, talabalarning topshiriqlarni turli shakllarda bajarishga jalb etilganligi, o'tilgan mavzularni offlayn dars jarayonlarida muntazam keng muhokama qilinganligi, o'zlashtirish ko'rsatkichlarining raqamli texnologiyalar vositasida taqdim etilganligi va barcha jarayonlar to'g'risida ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini innovatsion usulda o'rganish yondashuvining joriy etilganligi barcha o'qituvchilarning diqqat-e'tiborini tortdi.

5-jadval



Xulosa. Yuqorida ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar va tajriba-sinov ishlarining umumiy natija va xulosalari asosida olingan yakuniy xulosa shuki, filologik oliy ta'limda talabalarning bo'lajak mutaxassis sifatida ta'lim olishlarida o'rganilayotgan asosiy chet tili misolida yozuv kometensiyasini takomillashtirishdagi dolzarblik har tomonlama ahamiyatlidir. Maqolaning kirish va asosiy qismida belgilangan muhim vazifalarga ko'ra, tajriba-sinov ishlari davomida olingan yakuniy natijalar quyidagi xulosalarni keltirib chiqardi:

1. Talabalarning ta'lim olishida amaliy ko'nikma sifatida yozuv kompetensiyasini takomillashtirish doirasida nazariy va amaliy asoslarga ega bo'lgan tizim yaratildi. Jumladan, oliy ta'limda nazariy va amaliy

bilimlarni o'zlashtirishda mutanosiblikning yaratilishi amalda samarali natijalarga erishish imkoniyatini berdi.

2. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish yozuv kompetensiyasini takomillashtirish doirasida dars mashg'ulotlarini o'qituvchining o'z yondashuvi, ta'lim metodi va texnologiyasi yordamida qulay va samarali tashkil etishga zamin yaratdi.

3. Ushbu tadqiqotning muhim jihati sifatida blended ta'lim texnologiyalari yozuv kompetensiyasini takomillashtirish misolida amaliy jarayonlarga muvaffaqiyatli joriy etildi.

4. Talabalar bilimni baholash tizimi texnologiyalarini yanada takomillashtirgan holda baholashning ular bilan bevosita aloqasiz shakllari raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida yozuv kompetensiyasi misolida amaliyotga joriy etildi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi – "Xalq so'zi" gazetasi № 207 (7709), 01.10.2020.

2. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PF-5847-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari. -Toshkent, 2013.

4. Ackerman J.M. (1993). The promise of writing to learn. *Written Communication*, 10, 334–370.

5. Crowhurst M. (1990). Reading/writing relationships: An intervention study. *Canadian Journal of Education*, 15, 155-172.

6. Jalolov J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. –T.: "O'qituvchi" NMIU.

7. Langer J.A. (1986). Learning through writing: Study skills in the content areas. *Journal of Reading*, 29, 400–406.

8. McNamara D. S., Crossley, S. A., & McCarthy, P. M. (2010). Linguistic Features of Writing Quality. *Written Communication*, 27(1), 57–86.

9. Nunan D.. *Task-based Language Teaching* (pp. 1-16). -New York: "Cambridge University Press", 2004.

10.Smagorinsky P. (1995). Constructing meaning in the disciplines: Reconceptualizing writing across the curriculum as composing across the curriculum. *American Journal of Education*, 103, 160–184.

11.Stotsky S. (1995). 'The uses and limitations of personal or personalized writing in writing theory, research, and instruction. *Reading Research Quarterly*, 30, 758–776.

12.Tierney R.J., O'Flahavan, J.F. and McGinley, W. (1989). The effects of reading and writing upon thinking critically. *Reading Research Quarterly*, 24, 134–173.

13.Tynjälä P. (1998). Writing as a Tool for Constructive Learning: Students' Learning Experiences during an Experiment. *Higher Education*, 36(2), 209-230.

Elvira TURSUNNAZAROVA

Navoiy viloyat xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish hududiy markazi
tillarni o'qitish metodikasi kafedrası
katta o'qituvchisi,
Navoiy davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi

NOMUTAXASSIS O'QITUVCHILARNING INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISH MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA MNEMONIKA USULLARINING IMKONIYATLARI

Mazkur maqolada ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarning motivatsiyasi muammosi tadqiq etilib, bunda mnemonik usullar vositasida motivatsiyani hosil qilish uchun tajribaviy mashg'ulotlarda qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik texnologiyalar: "Zukkolar" usuli, "Disput" usuli, "Analogiya" usuli, "Kim chaqqon?" usuli, "Mustahkamlash" usuli imkoniyatlari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, ingliz tilidagi so'zlarni mnematik yodlash, ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilar uchun taqdim qilinadigan mnemonika usullari haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: nomutaxassis o'qituvchilar, mnematik yodlash, motivatsiya, "Zukkolar" usuli, "Disput" usuli, "Analogiya" usuli, "Kim chaqqon?" usuli, "Mustahkamlash" usuli.

В статье исследуется проблема мотивации учителей-неспециалистов в процессе изучения английского языка, включая педагогические технологии, которые могут быть использованы на экспериментальных уроках для создания мотивации с помощью мнемонических методов: "Умный" метод, метод "Диспут", "Аналогия", "метод", "Кто умен?" метод, метод "Укрепление". Также рассматриваются методы мнемонического запоминания английских слов, мнемонические приемы, предоставляемые учителям-неспециалистам в процессе изучения английского языка.

Ключевые слова: учителя-неспециалисты, мнемоническое запоминание, мотивация, метод "Умный", метод "Диспут", метод "Аналогии", "Кто умен?" метод, метод "Усиление".

The article examines the problem of motivating non-specialist teachers in the process of learning English, including pedagogical technologies that can be used in experimental lessons to create motivation using mnemonic methods: "Smart" method, "Dispute" method, "Analogy". method, "Who is smart?" method, method "Strengthening". It also discusses the methods of memorizing English words mnemonic, mnemonic techniques provided to non-specialist teachers in the process of learning English.

Key words: non-specialist teachers, mnemonic memorization, motivation, "Smart" method, "Dispute" method, "Analogy" method, "Who is smart?" method, method "Gain".

Kirish. Ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarning motivatsiyasi ular ruhiy hayotining rag'batlantiruvchi asosi, shaxsning xulq-atvorini belgilaydigan psixologik sabablar to'plami ekanligi tadqiqotlardan ma'lum.


Ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarning motivatsiyasi ehtiyojlar, motivlar va maqsadlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu yerda ehtiyojni nomutaxassis o'qituvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan "muhtojlik holati" sifatida qarash mumkin [1, 95].

Asosiy qism. Organizmning evolsion rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, uning ehtiyojlari shunchalik yuqori bo'ladi. Darhaqiqat, inson jismoniy ehtiyojlardan tashqari bir qator moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarga ega. Ko'pincha ehtiyojlar ikki asosiy turga bo'linadi - biologik (hayotiy) va axboriy: biologik ehtiyojlar organizmning hayotiy faoliyatini ta'minlaydi, axboriy ehtiyojlari kognitiv va ijtimoiy ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Demak, ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarda motivatsiyani shakllantiradigan motivlar paydo bo'lishi lozim. Buning eng samarali yo'li - ta'lim jarayoniga mnemonika usullarini tatbiq etish bo'lib hisoblanadi. Ushbu motivlar mnemonik usullar natijasida vujudga keladi. Ingliz tilini o'rganish ehtiyojini qondirish uchun faoliyatni boshlash uchun rag'bat sifatida motivlar keng va moslashuvchan xarakterga ega bo'lishadi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarda faoliyat uchun ko'plab motivlar uchraydi: oddiy so'zlarni yod olish istagidan tortib, murakkab aqliy ishni bajarish niyatigacha ushbu jarayon davom etadi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida moslashuvchanlik ehtiyojini har xil yo'llar bilan qondirish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Agar, ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchining maqsadi - bu ingliz tilida erkin so'zlasha olish, muloqot qila olish istagini amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, unda, ichki motivatsiya (intrinsiv) mavjud ob'ektdan, bajarilgan faoliyatdan qoniqish olish bilan bog'liq holda kechadi. Bunda mnemonik usullardan

foydalanish orqali ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarda o'rganilayotgan obyektga nisbatan qiziqish, rag'batlanish shaklida paydo bo'ladi.

D.Hoshimova fikricha, "mnemonika-miyada vizual tasvirlar orasidagi bog'lanishlarni bevosita yozib olishga asoslangan, yodlangan ma'lumotlarning muhim elementlarini bildiruvchi "ichki yozuv" tizimi" [2, 91]. Ingliz tilidagi so'zlarni mnematik yodlash to'rt bosqichdan iborat (2.1-rasm): ingliz tilidagi so'zlarni tasvirlargakodlash, yodlash (ikkita tasvirni birlashtirish), ketma-ketlikni yodlash va xotirada joylashtirish (fiksasiya). Masalan, ikki yuz raqamdan iborat ketma-ketlikni, 50-100 telefon raqamlari ro'yxatini, xronologik jadvalni, nutq rejasini, latifalar to'plamini, yangi xorijiy so'zlarni, grammatik qoidalarni va hokazolarni yodlash zarur bo'lganda mnemonik usullar yordam beradi. Shunday qilib, bir qator sonlar mnemist tomonidan ham oldinga, ham teskari tartibda ko'paytirilishi mumkin.

2.1-rasm. Ingliz tilidagi so'zlarni mnematik yodlash



2.1-rasmda ifodalanganidek, ingliz tilidagi so'zlarni mnematik yodlash to'rt bosqichdan iborat bo'lib, til o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy mnemonikaning texnik arsenali turli xil ma'lumotlarni bir xil tarzda yodlashga imkon beradigan birlashtirilgan yodlash texnikasi to'plamidan iborat. Yodda saqlashning asosiy usuli – bu assotsiatsiyani shakllantirish usuli (yodlangan ma'lumotlarning elementlarini kodlovchi tasvirlar to'plami). Mnemonika har bir elementni bitta idrok etishdan ma'lumotni yodlashga imkon beradi. Masalan, Men mnemonik kalitni topishim kerak – In eeded to find themnemonikkey; The album is named after a mnemonik used by music students to recall the notes (EGBDF) on the lines of the treble clef-(EGBDF)-albom nomi – musiqa maktabi o'quvchilari tomonidan notalar ketma-ketligini yodlashda foydalaniladigan mnemonik usul.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilar o'qilgan, yoki, eshitilgan so'zlar shunchaki tovushlar to'plami sifatida qabul qilinadi va ularni xotirada saqlash qiyinchilik tug'diradi. O'qituvchi kun bo'yi lug'at ustida o'tirishi mumkin va bir hafta o'tgach, xotirada mutlaqo hech narsa qolmaganini bilib olishi muqarrar. Lug'atni yodlash uchun juda ko'p texnikalar ixtiro qilingan. Ulardan biri mnemonikadir. Usulning mohiyati shu kabi eslab qolish qiyin bo'lgan ma'lumotlarni mantiqiy "tirgak" bilan eslab qolishdan iborat. Noma'lum so'z bilan ba'zi birikmalarni topish lozim. Bunda birikma haqida o'ylashda so'zning o'zi va uning ma'nosi darhol xotirada paydo bo'ladi. Ma'lumki, lug'atdagi so'zni ko'rganda, ingliz tilini o'rganishni boshlovchilar faqat harflarni - grafik belgilarning ma'nosiz ketma-ketligini ko'rishadi. Ularni yodlash raqamlarning tasodifiy qatori kabi qiyin. Agar o'rganilayotgan ingliz tilidagi so'zlarni vizual yoki tovushli tasvirga qo'shsa, bu so'z shifr bo'lishni to'xtatadi. Rasm yoki tovushni eslaganda, so'zning o'zi esga olinadi. Bunday assotsiativ aloqalar juda kuchli bo'lib, ingliz tilini o'rganish uchun mnemonika xizmat qiladi.

Masalan, Skeng onlayn maktab dasturida aynan shu samarali usul ishlatiladi. Lug'at yaxshi esda qolishi va uzoq vaqt xotirada qolishi uchun har bir so'zda faqat tarjima va transkripsiyasi emas, balki ushbu so'z bilan bog'liq bo'lgan maxsus maslahatlar - giflar, rasmlar, qisqa videofilmlar bo'lgan o'z kartalari mavjud. Ushbu fokuslar o'quvchilarga kuniga 10-30 ta yangi so'zlarni yodlashga imkon beradi. Bundan tashqari, inglizcha so'zlarni yodlashning juda ijodiy usuli bor, ular uchun ona tilidagi akkordlarni tanlash lozim. "aqli"(SMART) so'zini eslab qolish uchun oy nomi –martni (sSMART) eslab qolish kerak. Yoki,

Whatever [voteva] — hamma, barcha: "Ottava (shahar nomi) hamma xokkeychi"


Yeagle [igl] – burgut: "Burgutning tirnoqlari o'tkir, shuning uchun, u uchganda, egil..."

Age [eydj] — yosh: "bEYDJigingda yoshing ko'rsatilgan bo'lishi kerak"

Mana shu tarzda tasodifiy 100 ta so'zni (raqamni) o'rtacha 6 soniya oralig'ida ketma-ket yodlash mumkin.

Zamonaviy talqinda mnemonika ma'lum bir tizimda ishlatiladigan ma'lumotlarni saqlash texnikasi va usullarining butun majmuasini bildiradi va mnemonika atamasi ushbu mnemonikada belgilangan usullarning amaliy qo'llanilishi sifatida talqin etiladi.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilar uchun bir necha turdagi mnemonika usullaridan foydalanishni tavsiya etish mumkin(2.2-rasm).



2.2-rasmda aks ettirilganidek, ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilar uchun qofiyalash; yodlangan ma'lumotlarning boshlang'ich harflaridan semantik iboralarni shakllantirish; undosh so'zlar yordamida uzoq muddatli yoki xorijiy so'zlarni yodlash; yodlangan ma'lumotlar bilan bog'laydigan jonli noodatiy birlashmalarni (rasmlar, iboralar) topish; Sitseronning fazoviy joylashuvga asoslangan usuli; Ayvazovskiy usuli-vizual xotirani tarbiyalashga asoslangan; raqamlarni yodlash: naqshlar; tanish raqamlar kabi usullarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Mnemonika usullari nutqning boshqa metodlaridan dastlab o'zining obrazlilik va estetik ta'sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikasining hamma qatlamlari ishtirok etadi. O'nda turli kasb-kor, fan-texnika, xalqning maishiy hayotiga tegishli rang-barang so'zlar qo'llaniladi. Bu metodda til vositalari obrazlar va manzaralar yaratadi, nomutaxassis o'qituvchilarga estetik ozuqa berish uchun xizmat qiladi.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida o'quv materiallari turlari ingliz tilidagi hissiy-ekspressiv nutqini mnemonik usullar asosida o'stirishga ko'mak beradi. Yangidan ishlab chiqilgan xorij tilini o'rganish bo'yicha DTS xorijiy tillarni egallash va o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga nisbatan zamonaviy talablarni o'z mazmuniga qamrab oldi. Ular asosida endilikda o'qituvchilar xorij tilida erkin muloqot olib borish darajasida tilni bilishlari lozimligi belgilab qo'yildi.

Nomutaxassis o'qituvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda mnemonika usullari sifatida tinglab tushunish strategiyalari qo'llanildi. Ma'lumki, zamonaviy mashg'ulotlarga kiritilgan ingliz tilidagi grammatik bilim va qoidalarni yodlash, matnlarni yozma tarjima qilishda ushbu strategiyalarning ahamiyati salmoqli. Bugungi kunda malaka oshirish tizimida mashg'ulotlar nazariy, amaliy, vebinar ko'rinishlarida amalga oshiriladi. Bunda tinglovchilar uchun "Ishchi kitob" (Workbook)da ular o'z ustida ishlashiga mo'ljallangan mashqlar berilgan. Shuningdek, tinglovchilar mustaqil ravishda ingliz tilini shrganishlari uchun ularga Beginner, Starter, yoki, Elementary kitoblaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ayniqsa, "New English File", "Speakout", "New Total English", "Upstream" kitoblari tinglovchilarning ingliz tilini o'rganish jarayonida foydali bshlishi mumkin. Nomutaxassis o'qituvchilarning eshitish qobiliyatini yanada rivojlantirishni hisobga olgan holda, ularda audio materiallar ham jamlangan. Bunda tinglovchiga mustaqil ishlashi uchun qo'shimcha topshiriqlar, kichik guruhlarda bir necha turdagi taqdimotlar o'tkazish kabi imkoniyatlar berilgan.

Ingliz tilini o'qitish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarda mnemonik usullar vositasida motivatsiyani hosil qilish uchun tajribaviy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalandik. Quyida ulardan ayrimlarini keltiramiz:

"Zukkolar" usuli. Nomutaxassis o'qituvchilarning ingliz tilini mnematik o'zlashtirish motivatsiyasini kuchaytirish uchun ta'lim ishtirokchisi oldindan tayinlangan kartochnalardan birini tanlaydi va tayyorlanmasdan turib iboraning ma'nosini tushuntirib beradi. Boshqa ishtirokchilar ma'nosiga qarab, qaysi ibora ekanligini aniqlashlari kerak bo'ladi. Kim birinchi bo'lib fahmlay olsa, ball oladi. Kim ko'p ball to'play olsa, o'sha g'olib hisoblanadi. If you look every where to find something, or

try everything to achieve something, you leave no stone unturned. (S.tarj. Ag'darilmagan birorta tosh qoldirmaslik); butun imkoniyatni ishga solmoq.

“Disput” usuli. Bu usulni qo'llashda o'nta mnemonik bazaga taalluqli birlik tanlanadi, ular muayyan mashg'ulot o'tilishidan oldin 3-4 kun oldin tinglovchilarga e'lon qilinadi. Topshiriqni olgan tinglovchilar mazkur mnemonik baza asosidagi birlikni tarjima qilib, yod olib kelganlaridan so'ng, ikki nafar ingliz tili o'qituvchisidan iborat hakamlar hayati belgilanadi. Hay'at a'zolari birliklarni to'g'ri tarjima qilgan, ma'nolarini tushuntirib bergan hamda mnemonikaga oid muqobil ibora topgan tinglovchilarni baholaydilar, oqibatda oxirgi natija e'lon qilinadi. Tinglovchilarga berilgan vazifani 3 daqiqadan o'ylashga vaqt beriladi.

“Analogiya” usuli. Bu usulni amalga oshirishda har bir tinglovchiga alohida varaqda bittadan ingliz tilidagi ibora yoki maqol beriladi. Tinglovchi shu berilgan ibora yoki maqolga bir daqiqa ichida uning analogini, ya'ni ma'no jihatidan mosini topib, yozib berishi talab qilinadi.

“Kim chaqqon?” usuli. Auditoriyadagi tinglovchilar ikki guruhga bo'linadi. Ingliz tili o'qituvchisi doskaga bir nechta gap yozadi va tinglovchilar shu gap ichidan mnemonikaga oid so'zlarni topishlari va tarjima qilib berishlari kerak bo'ladi, qaysi tinglovchi to'g'ri tarjima qilsa, 1 ball oladi. Kim ko'p ball to'play olsa, o'sha tinglovchi g'olib bo'ladi.

Don't be chicken...

“Mustahkamlash” usuli. Bu usulda tinglovchilarga tanish bo'lgan mnemonikaga oid tushuncha, yoki birliklarni mustahkamlashga bag'ishlanadi. Tinglovchi doskaga o'girilib turadi. Ingliz tili o'qituvchisi ingliz tilidagi birlikni doskaga yozadi. Guruhdagi boshqa tinglovchilar doskadagi tinglovchini iboraning ma'nosini perefraz qilib sinonimlari bilan tushuntirib berishadi va atinglovchi shu iborani o'zintopish kerak bo'ladi. Misol uchun ingliz tili o'qituvchisi quyidagi iborani doskaga yozadi: A still tongue keeps a wise head ... Boshqa tinglovchilar shu iboraning ma'nosini ingliz tilida keltirishadi Wise people don't talk much namuna sifatida quyidagi iboralarni keltirish mumkin:

A little bird told me-If someone doesn't want to say where they got some information from, they can say that a little bird told them.

A little learning is a dangerous thing-A small amount of knowledge can cause people to think they are more expert than they really are. eg.

A lost ball in the high weeds-A lost ball in the high weeds is someone who does not know what they are doing, where they are or how to do something.

Bu alfozda qo'llanilgan mnemonik usullarning foydali tomoni shundaki, butun faoliyat tinglovchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrlarini to'g'ri bayon qila olishlari uchun yordam beradi.

Bu o'rinda o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda til (frazologik) ta'limining roli muayyan darajada zarurligi haqida gap ketar ekan, endi aynan shu masala bilan bog'liq tilning frazeologik tizimi haqida qisqacha to'xtalishni lozim topdik.

Nomutaxassis o'qituvchilarning motivatsiyasini mnemonik usullar asosida shakllantirishga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlarida biz so'z birliklarining hosil bo'lishi, leksik tizimlarni strukturasi ga ko'ra tahlil qilish uchun tinglovchilarga murojaat etdik.

Agarda tildagi barcha tizim elementlarining doimiy o'zaro bog'liqlik xususiyatlaridan kelib chiqsak, mnemonik bazadagi so'zlar, iboralar quyi sath birliklari asosida, ya'ni so'zlar integratsiyasi vositasida, o'zaro bog'liqligi natijasida shakllanadi. Yuqori sath nuqtayi nazaridan frazeologizmlarning o'zlari xuddi so'zlar kabi gapning tashkil qiluvchisiga aylanadi.

So'z ma'nosi uni tashkil qiluvchi morfemalar yig'indisiga bog'liq bo'lsa, frazeologizmlarda esa bu hodisa boshqacharoq. Mnemonik bazadagi so'zlar, ma'nosi uni tashkil qiluvchi komponentlarning ma'nolar yig'indisi, ya'ni semantik integratsiya asosida ko'chma denotativ-signifikativ yo'naltirilgan butunlikni tashkil etadi

Mnemonik bazadagi so'zlar, iboralar uyg'unlashuv asosida tilda yangi tashkil topgan birlik ma'nosi yuzaga keladi. Shu bilan birga iboraning o'zaro birikkan ayrim komponentlari, ba'zida esa barcha komponentlari o'zlarining asosiy xususiyatlarini yo'qotadilar.

Integratsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mnemonik bazani tashkil qiluvchi so'zlar o'z ma'nosidan shunchalik uzoqlashadi va aksincha, integratsiya darajasi qanchalik sust bo'lsa, ibora erkin so'z birikmasi va erkin gapga yaqin bo'ladi.

Ingliz tili mashg'ulotlarida murakkab ingliz tilidagi so'zlarga, atamalarga izohlar berib boriladi. Har qanday sharoitda ham o'qituvchining nutqi jonli, jozibador bo'lishi lozim. Suhbat, ma'ruza, savol-janob, hikoya qilish metodlaridan foydalangan o'qituvchi tinglovchini qiziqtirishi, unda yangi bilimlarni egallashga ishtiyoq tug'dirishi lozim.

Xulosa. Shunday qilib, ingliz tilini o'rganish jarayonida nomutaxassis o'qituvchilarning og'zaki va yozma nutqi mnemonika usullari vositasida faollashadi, berilgan mavzularda insho yozish, mustaqil ravishda og'zaki chiqishlarga tayyorlanish va o'zligini namoyish etish, o'z fikrlarini saralab, umumlashtirib yetkazish, mulohazasini aytish, yozma ifodalash ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Shu sababli til o'rganuvchilarida ingliz tilini mnematik o'zlashtirish motivatsiyasi va mnemonika usullari tizimi tadqiqot obyekti sifatida ingliz tilini o'qitish metodikasida katta qiziqish orttirayotgan sohaga aylanayotganligi bejiz emas.

Adabiyotlar

1. Hoshimova D.R. Talabalarda ingliz tilidagi hissiy-ekspressiv nutqni mnemonik baza asosida tezkor o'stirish ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2017. №2. – B. 91-97 (13.00.00. №31)
2. Белоног Д.С. Языковой портфель как средство формирования профессиональных компетенций студентов педагогических вузов // Сборник материалов III Международной научно-практической конференции молодых исследователей. – 2015. –С.94–98.

Fazilat SATTOROVA

Samarkand State University

Phd doctorate

SOME PROBLEMS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES AS A SECOND LANGUAGE

*This article is about teaching English as a second language. It's an opportunity to exercise your teaching skills, immerse yourself in an exciting culture, meet new people from all over the world, and travel to countries you've never visited. Nowadays learning the English language is very important for the students. They join different institutes for learning English language, where the English teachers teach the English language to them. Teaching English language to non-English speakers is not an easy job for the teachers. The quality of a good teacher is to recognize the problems and facilitate the best ever environments for the students and encourage them to learn. Here are some of them: Lack of Resources. In your classroom back home, you may be used to **teaching** with fancy projectors, whiteboards, laptops, and programs through the Internet. Limited Support. **Teaching** a room full of strangers a new and foreign language can be difficult; loneliness; language Barrier; not enough time.*

Key words: teaching skills, problems, facilitate, projectors, foreign language, the education system, political and cultural integration, intercultural communication, multinational society.

Ushbu maqola ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda yuzaga keladigan muammolar haqida so'z boradi. Ingliz tilini o'qitish o'qituvchi uchun o'qitish qobiliyatlarini ko'rsatib berish, yangi madaniyatga, butun dunyo bo'ylab yangi insonlar bilan uchrashish va yangi mamlakatlar bilan tanishish imkoniyatga ega bo'ladi. Hozirda ingliz tilini o'rganish talabalar uchun juda muhimdir. Ingliz tilini o'rganish jarayoni ingliz tilini o'qitadigan turli o'qituvchilarni turli xil institutlarda birlashtiradi. Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish o'qituvchilar uchun oson emas. Malakali o'qituvchi o'qitish jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qila oladi, talabalarni o'qish uchun yaxshi muhitni yaratib beradi va til o'rganishda o'z vaqtida rag'batlantiradi. Quyidagi ayrim muammolar ham mavjud: resurslarning yetishmovchiligi: sinfxonada o'qitishda ayrim o'qitish vositalari proyektor, waitbord, Internet orqali dasturlar yetishmovchiligi; qo'llab-quvvatlashning yetishmovchiligi. Sinfxonada chet tilini o'rgatishda xorijiy til bo'lganligi sababli to'siqning mavjudligi, vaqtning yetishmovchiligi.

Kalit so'zlar: o'qitish qobiliyatlari, muammolari, yordam berish, proektorlar, chet tili, ta'lim tizimi, siyosiy va madaniy integratsiya, madaniyatlararo aloqa, ko'p millatli jamiyat.

Данная статья является возможностью проявления своих педагогических навыков, погружение в захватывающую культуру, ознакомление с новыми людьми со всего мира и отправлением в страну, в которой никогда не бывали. В настоящее время для студентов очень важно изучение английского языка. Они поступают в разные институты, где учителя английского преподают им язык. Преподавание английского языка тем, кто не говорит по-английски непростая задача для учителей. Качество хорошего учителя состоит в том, чтобы распознавать проблемы, создавать для учащихся лучшую среду и поощрять их учиться. Вот некоторые из них: Недостаток ресурсов. В своем классе дома вы, возможно, привыкли к обучению с использованием необычных проекторов белых досок ноутбуков и программ через Интернет; ограниченная поддержка. Обучить комнату, полную незнакомцев новому и иностранному языку может быть не просто; одиночество; языковой барьер; недостаточно времени.

Ключевые слова: навыки обучения, проблемы, содействие, проекторы, иностранный язык, система образования, политическая и культурная интеграция, межкультурное общение, многонациональное общество.

Knowledge of a foreign language is the most important means of communication between two people of different nationalities. In the modern information world, people's interest in learning foreign languages is growing rapidly. The influences of scientific, technological progresses are changing in society as the education system is being improved. Consequently, the process of teaching foreign languages in higher educational establishments must meet the requirements of the time. World economic, political and cultural integration and unification covers all the spheres of the society, as well as the education system. Cultural and linguistic diversity counts for millennia, languages of interethnic communication appeared.

At the same time, the difficulties arise for teachers of foreign languages that need to solve the problems of preserving language and culture, the most global language and the picture of the world of

another foreign language. The main conditions for effective interaction between representatives of different cultures are mutual understanding, mutual respect and tolerant attitude to different cultures.

In the intercultural communication, it is important level of intercultural communication and depth of understanding. In a multinational society, some cultures do not disappear, that is they don't merge into a single culture, but retrain their individuality, and at the same time there is a common nationality [1]. In the process of interaction of participants in intercultural communication a variety of electronic means of communication are widely used.

Thus teaching foreign languages in the era of globalization has its own characteristics and problems. One of the problems of teaching English language for many countries consists in the choice of the content of education that is the choice of the volume of educational material sufficient for communication, in other word "what to teach?"

Another problem of teaching foreign languages in the era of globalization is the methodical side. Innovations in teaching foreign languages in the era of globalization associated with a change in the content of teaching foreign languages, a change in the pedagogical technologies, methods and means of teaching. The main difficulties of modern language education lie in the content of teaching, methods and means of teaching. These categories of methods of teaching foreign languages in the innovative process of public life are also being transformed, like the entire education system. There are several approaches to defining the content of teaching foreign languages. Many methodological schools are based on the definition of G.V. Rogovoy, in which there are three main components of the content of education: linguistic, psychological and methodological [2].

A.N. Shchukin examines the content of learning from the standpoint of the object of learning, the object of assimilation and learning outcomes: "The content of learning consists of those knowledge, skills, and abilities, competencies, mastering which provides the ability to use language as a means of communication, the formation and development of personality" [3].

I.L. Beam believes that the components of the content of teaching foreign languages are the learning objectives, that is, the foreign language communicative competence and its components (linguistic, speech, socio cultural, compensatory and educational-cognitive competence), the activities of the teacher and students, as well as feelings and emotions caused by the interaction of the selected components of learning content that contribute to the creation of a supportive learning environment [4].

I. L. Bim , like other methodologists, considers the text as the main unit of teaching content. The text acts in teaching as an object for recognition visually (reading) and by ear (listening), as well as a product of speech production (speaking, writing) [4]. The text is capable of carrying any information from all areas of knowledge, which gives a diverse focus to teaching foreign languages. Learning to read (work with text) is directly related to teaching speaking. L.V. Shcherba in his writings paid special attention to reading: "Teachers who believe that you can learn to read only to the extent of proficiency in the spoken language, imperceptibly for themselves fall into a false circle: in order to learn to read books, you need to learn to speak, but it turns out that for in order to learn to speak, you need to read a lot" [5, p. 99].

The formation of foreign language communicative competence and its components (linguistic, speech, socio-cultural, compensatory and educational-cognitive) is the goal of teaching a foreign language in any form of education. To achieve this goal, it is necessary to create an information and educational environment favorable for mastering language units, the main types of speech activity (speaking, listening, reading and writing), regional and general cultural knowledge, the ability to communicate with a limited amount of language means and general educational and special skills. The study of a foreign language and foreign language culture in comparison with the native language and native culture is one of the characteristics of modern language education. Therefore, teachers of foreign languages need to create situations for network interaction of learners with native speakers. Real and virtual travel contributes to a deeper study of a foreign language, foreign culture and knowledge of the own culture.

Virtual space today provides a large selection of online educational communities for students. According to the point of view S.G. Ter-Minasova, a foreign language lesson is a crossroads of cultures, this is the fact of the presentation of a foreign language culture, this is the practice of intercultural communication, because every foreign word reflects a foreign world and foreign culture [6]. One of the components of the goal of teaching foreign languages is sociocultural competence, the formation of which directly depends on the formation of linguistic and speech competencies. When we study a language, we study the culture of native speakers.

In conclusion, teaching foreign languages is directly related to the innovative processes taking place in the world, in society. Modern communication technologies are being developed, the main mission of which is to optimize interaction and mutual understanding in human society. Today we need a new approach to

teaching foreign languages. The formation of the foreign language communicative competence of the younger generation, the education of morality, a respectful attitude to another culture, successful communication and mutual understanding between peoples depend on the professional competence of university teachers, their skills.

Referens

1. Горшунова Е.Ю., Горшунов Ю.В. Межкультурная коммуникация и этнические стереотипы и ярлыки англоговорящего сообщества: учеб. пособие. – М.: “Проспект”, 2016. – 112 с.
2. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций: пособие для студентов пед. вузов и учителей. – 4-е изд. – М.: “Просвещение”, 2006. – 239 с.
3. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам: Теория и практика: учеб. пособие для п. Методика обучения иностранным языкам: традиции и современность / под ред. А.А. Миролюбова. – Обнинск: Титул, 2010. – 464 с. преподавателей и студентов. – М.: “Филоматис”, 2004. – 416 с.
4. Методика обучения иностранным языкам: традиции и современность / под ред. А.А. Миролюбова. – Обнинск: “Титул”, 2010. – 464 с.
5. Щерба Л.В. Преподавание языков в школе: Общие вопросы методики: учеб. пособие для студ. филол. фак. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: “Академия”, 2003. – 160 с.
6. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: “Слово” 2000. – 262 с.

MUSTAQIL TA'LIM VOSITASIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

XXI asrning mustaqil, zamonaviy, intellektual, raqobatdosh, kommunikativ kompetentli o'qituvchisining mahorati talabalarga faqat darsliklarda mavjud bilimni berish bilan emas, balki ularni o'z ustida mustaqil ishlashga, kreativ, mantiqan mustaqil fikr yuritishga, bugungi zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lishga, innovatsion axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga, xorijiy tillardan savodxonlik darajasini oshirib borishga, o'z fikr-mulohazalarini guruh jamoasi oldida mustaqil tarzda isbotlashga o'rgatishi bilan baholanadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirishda sotsiolingvistik kompetentlikning ahamiyati katta. Sotsiolingvistik kompetentlik – bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining samarali muloqot qilishi, o'zi muloqot qilayotgan til vakillarining madaniyati, turmush tarzi, umumiy me'yorlari, tarixi va boshqa ijtimoiy holatlari kabi noan'anaviy omillardan xabardor bo'lishi muvaffaqiyatli muloqotni ta'minlashda rol o'ynaydi. Kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalar negizida shakllanadi va rivojlanadi. Mazkur maqolada mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, bilim, ko'nikma, malaka, kommunikativ kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, metodologik asoslar.

Навыки независимого, современного, интеллектуального, конкурентоспособного, коммуникативно грамотного учителя XXI века не только передают учащимся знания, имеющиеся в учебниках, но и позволяют им работать самостоятельно, мыслить творчески, логически, быть в курсе современных научно-технических знаний. достижения. эффективно использовать инновационные информационные и коммуникационные технологии, повышать уровень грамотности в изучении иностранных языков, самостоятельно доказывать свои идеи перед группой. Социолингвистическая компетентность играет важную роль в формировании коммуникативной компетентности будущих учителей английского языка. Социолингвистическая компетентность - это способность будущего учителя английского языка эффективно общаться, осознавать нетрадиционные факторы, такие как культура, образ жизни, общие нормы, история и другие социальные условия языка, на котором он / она говорит. Коммуникативная компетенция формируется и развивается на основе языковых, социолингвистических, прагматических и стратегических компетенций. В данной статье обсуждается методологическая основа развития социолингвистической компетентности будущих учителей английского языка путем самостоятельного обучения.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, будущий учитель английского языка, знания, навыки, компетенции, коммуникативная компетенция, социолингвистическая компетенция, методологические основы.

The competences of an independent, modern, intellectual, competitive and well-qualified teacher of the 21st century is not only to teach students the knowledge available in textbooks, but also to help them work independently, to think creatively and logically, be aware of modern scientific and technical achievements, effective use of communication technologies and types of e-study, increasing the level of literacy in foreign languages, teaching students to prove their ideas in front of the group independently as well. Sociolinguistic competence plays an important role in shaping the communicative competence of future English teachers. Sociolinguistic competence is the ability of a future English teacher to communicate effectively, to be aware of unconventional factors such as the culture, lifestyle, general norms, history and other social conditions of the language he / she communicates, which plays a role in ensuring successful communication. Communicative competence is formed and developed on the basis of linguistic, sociolinguistic, pragmatic and strategic competencies. This article discusses the methodological basis of development of sociolinguistic competence of future English teachers through independent study.

Key words: independent study, future English teacher, knowledge, skills, competencies, communicative competence, sociolinguistic competence, methodological basis.

Kirish. Jahon miqiyosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirishning lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik komponentlarini Yevropa Kengashining "chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'rgatish va baholash" (CEFR) malaka talablari asosida oliy ta'lim mazmuniga keng tadbiriq qilish, ta'lim sifatini xalqaro standartlariga moslash, ta'limni o'qitishning ilg'or usullari, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak chet tillari mutaxassislarini samarali muloqotga tayyorlash, o'z ustida mustaqil ishlash, elektron ta'lim turlaridan foydalangan holda mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlash, ularning kommunikativ kompetentligini shakllantirishning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarini rivojlantirishga doir tadqiqotlarga, kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida zamonaviy bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining madaniyatlararo muloqotdagi rolini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun kasbiy va shaxsiy fazilatlariga qo'yiladigan zamonaviy talablar uning sotsiolingvistik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan shaxsiy sifat, jumladan, aksiologik, lingvistik, madaniy, vaziyatli-xulq-atvor va baholovchi-motivatsion komponentlarini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, mustaqil ta'limning zamonaviy usullari orqali rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qiluvchi integrativ-fasilasion ta'lim muhitini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Respublikamizda xalqaro malaka talablariga mos yuksak bilimli, intellektual rivojlangan, raqobatdosh pedagog-kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'nalishidagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, chet tillarni o'qitish bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat standartlari CEFR talablariga tayangan holda ishlab chiqildi, ta'limning barcha bosqich bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilandi. Unga ko'ra "mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish [1, 2], O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish" [2, 6] kabi muhim vazifalar belgilangan. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va xalqimizga qilgan Murojaatnomasida 2021-yilda chet tillari fanlarini o'qitish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilandi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining bilim darajasi S1 darajasiga javob berishi nazarda tutilgan holda ularning pedagogik kompetentligi va kreativligini shakllantirishga innovatsion yondashish, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan samarali foydalanish ustuvor vazifalardan biri bo'lmoqda. Biz olib borgan tadqiqotning maqsadi ham bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarni samarali muloqotga tayyorlash, o'z ustida mustaqil ishlash, elektron ta'lim turlaridan foydalangan holda mustaqil ta'lim olishi, o'z-o'zini mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan sotsiolingvistik kompetentligini mustaqil ta'limning zamonaviy usullari orqali rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishga innovatsion yondashishning mazmuni, shakl va metodlarini aniqlash va tajriba-sinov ishlari orqali ularni amaliyotga keng tatbiq etishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi PF-4732 sonli "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdagi 242-sonli "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlarida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida oliy ta'lim muassasalari kadrlarining global internet tarmog'i, multimedia resurslari, elektron ta'lim turlaridan va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, innovatsion pedagogik texnologiyalaridan o'quv jarayonida keng foydalanish, chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish, o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyatini muntazam oshirib borish muhim vazifa sifatida belgilangan" [3, 6] bo'lib, mazkur qarorlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning metodologik asoslarini belgilaydi. Jumladan:

- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi, innovatsion metod va vositalarini o'quv jarayonida qo'llay olishi;
- Internet saytlaridan o'z sohasiga oid materiallarni tanlab olish va tahlil qila olish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, ilg'or ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish yo'llarini belgilash;
- o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, an'anaviy bo'lmagan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlashi va rasmiylashtirishi;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgai fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi;
- uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak [4, 15].

Shuningdek, oliy va umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetentligini shakllantirish mezonlarini ham belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan:

- mafkuraviy immunitetni saqlash va unga salbiy ta'sir qiluvchi yo'nalishlarni bartaraf etish;
- Sharq va G'arb sivilizatsiyasi umuminsoniy qadriyatlarini mezonlarini to'g'ri anglashi va amaliy faoliyatda qo'llay olish;
- madaniyatlararo muloqotda moderator vazifasini bajarish;
- "til – madaniyat - muloqot" aloqalarini amalga oshirish;
- globallashtirish jarayonida milliy-madaniy merosni targ'ib qilish;
- millatlararo madaniy aloqalar rivojiga hissa qo'shish;
- zamonaviy tendensiyalarni tizimli o'rganish, ularning o'zgarishini bashorat qilish va unda O'zbekiston Respublikasining tutgan o'rni va rolini tushunish;
- madaniyatlararo muloqotning turli jabhalarida kommunikativ kompetensiya, strategiya va usullarini qo'llay olish;
- lisoniy, lingvomadaniy, adekvatlikni va kommunikativ maqsadni inobatga olgan holda muloqot olib borish;
- hukumat tadbirlari, rasmiy yig'inlar, uchrashuvlar va sayyohlik sohasida xorijiy hamkorlar bilan chet tilida muloqot qilish ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, sinxron tarjima ishlarini amalga oshira olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak [4, 15].

Muhokamar va natijalar. Biz tajriba-sinov jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, hamda OTM ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetentligi darajasini aniqlashda qo'yilgan malaka talablari hamda xorijiy huquqiy-me'yoriy hujjatlarda olg'a surilgan g'oyalari va fikrlar asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiologik kompetentligini mustaqil ta'lim vositasida rivojlantirishda, shuningdek, xorijiy va respublika olimlarining mavzu doirasidagi ilmiy-nazariy qarashlari, g'oyalari va olg'a surilgan asosli fikrlari muhim ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzuni ilmiy-nazariy tadqiq etishdan oldin mavzuga oid atamalarning mazmun va mohiyatini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslaymiz.

"Kompetensiya" umumiy va amaliy tilshunoslik sohasida eng munozarali, ko'p ma'noga ega atamalardan biridir. Metodikada "kompetensiya" atamasi tilni bilish darajasining erishilgan xususiyatlari sifatida ishlatiladi.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da "Kompetensiya - lotincha "competo" - erishyapman, munosibman, loyiqman) ma'nosini anglatib, (1) muayyan davlat organi (mahalliy o'z-o'zini boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; (2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba demakdir" [5, 530] deb ta'riflangan. Ingliz tilining izohli lug'atida "Kompetensiya" - yetarli darajada malakali, tarbiyalangan, muayyan faoliyat turiga qodir" [6, 297] deb ta'rif berilgan. Pedagog olim M.A. Choshanov fikriga ko'ra, kompetensiya - mutaxassisning muayyan malaka va kasbiy darajasi bo'lib, bilimlarni doimiy yangilab borishni, egallashni o'z ichiga oladi.

Ushbu bilimlarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun yangi ma'lumotlar shart-sharoitlar, ya'ni operativ va mobil bilimlarni egallash hamda bu bilimlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishga salohiyatli tayyorlikdir [7, 186]. Lug'atlarda kompetensiya va kompetentlik atamalariga mazmunan deyarli bir-biridan farq qilmaydigan ta'riflar berilgan bo'lsada, mohiyatan farq qiladi. Professor K.J.Risqulova kompetensiya va kompetentlik atamalariga aniq ta'rif bergan. Uning fikricha, "Kompetensiya" tushunchasi u yoki bu kasb egasiga zarur bulgan sotsiologik qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetensiya tushunchasi shaxsga nisbatan umumiylik kasb etsa, kompetentlik individuallik xarakteriga egadir. Kompetentlikning asosiy mezon mahsuldor faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash natijasi bilan belgilanadi [8, 22]. Ushbu ta'riflarga tayangan holda kompetensiya (umumiylik), kompetentlik - (individuallik xarakteriga ega) bilim, ko'nikma

va malaka komponentlarini o'z ichiga olgan salohiyatli tayyorlik deya ta'rif berishimiz mumkin. Shuningdek, zamonaviy ilmiy-metodik adabiyotlarda kompetensiya atamasiga quyidagi tavsifi aniqlashtirildi: 1) insonning ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi, jamoaviy qarorlarni hamkorlikda qabul qilishda ishtirok etishga qodirligi bilan bog'liq ijtimoiy kompetensiyalar; 2) jamiyat hayotini tartibga soladigan, intolerantlikning namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilish, shuningdek, insonning boshqa madaniyat, til va din bilan hamjihatlikda yashashga tayyorligini ifoda etuvchi madaniyatlararo kompetensiyalar; 3) zamonaviy ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda alohida ahamiyat kasb etuvchi og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalariga egaligini belgilaydigan lingvistik kompetensiyalar; 4) innovatsion texnologiyalarni egallash alohida ustuvorlik kasb etadigan axborotlashgan jamiyatning yuzaga kelishi bilan bog'liq informatsion kompetensiyalar; 5) insonning butun umri davomida nafaqat tanlagan kasbi, balki shaxsiy va ijtimoiy hayotiy zarurat sifatida o'z-o'zini rivojlantirishga doir kompetensiyalar [9, 6].

Kommunikativ kompetensiya lingvistik tavsifga ega bo'lib, shaxsning kommunikativ faoliyati va turli ijtimoiy vaziyatlarda til va nutq qoidalarini (gapirish va tinglash), nutqiy strategiya va taktikalarni to'g'ri ishlatishi, muomala madaniyatining shakllanganligini ifoda etadi. Kommunikativ kompetensiya lingvistik (tilga oid nutqiy kompetensiya), sotsiolingvistik (ijtimoiy munosabatlarda bilim, tajriba, muloqotga oid kompetensiya), pragmatik va strategik komponentlarni o'z ichiga oladi.

Sotsiolingvistik kompetentlikka kelsak, inson o'zining rivojlanish darajasida boshqalar bilan samarali muloqot qilishi, o'zi muloqot qilayotgan til vakillarining madaniyati, turmush tarzi, umumiy me'yorlari, tarixi va boshqa ijtimoiy holatlari kabi noan'anaviy omillardan xabardor bo'lishi muvaffaqiyatli muloqotni ta'minlashda rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan keng islohotlar, dunyo hamjamiyatda global integrallashuv jarayonlarining keskin darajada o'sib borishi natijasida, sotsiolingvistika va bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini takomillashtirishni amaliyotga faol tatbiq etishda dunyoning pedagog, lingvist va metodist olimlarning ilgor ilmiy-nazariy qarashlarini o'rganmoq zarur. Chet tillarini o'qitish sohasida "sotsiolingvistik yondashuv" dunyo tilshunos olimlari orasida keng tarqalgan bo'lib, ushbu yondashuv tilni obyektiv hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy voqelik deb ko'rib keladi. Demak, ushbu yondashuv doirasida chet tillarini o'qitish tilning ijtimoiy kontekstini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bunda e'tibor beriladigan jihatlar quyidagilar: 1) til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar. Jumladan, qanday qilib ma'lum bir jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tilga, uni ishlatish qoidalariga ta'sir o'tkazishi o'rganiladi va shu tariqa o'rganuvchi tilning ma'lum bir jamiyatda amalda qanday ishlatilishini bilib oladi [10].

Bo'lajak o'qituvchi kompetentligini shakllantirish va takomillashtirish muammosi ko'plab pedagog, lingvist, metodist olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarida ularni qanday kasbga tayyorlash, kasbiy kompetentligining komponentlari, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-pedagogik, lingvistik, ijtimoiy-psixologik, konseptual, integratsion, kontekstual jihatlari ochib berilgan.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirishda sotsiolingvistik kompetentlikning ahamiyati katta. Kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalar negizida shakllanadi va rivojlanadi. Shunday ekan, hozirgi davr talablari asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish mazmunini takomillashtirish ko'p jihatdan pedagog, psixolog, metodist, sotsiolog va boshqa mutaxassis olimlarning ilmiy-nazariy g'oyalariga tayanishni taqozo etadi.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratilgan bilim, malaka va ko'nikmalar ta'lim mazmuniga metodologik yondashuvni talab etadi. Biz tadqiqotlarimiz jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari bo'lib xizmat qiladigan manbalarni quyidagicha aniqladik:

Virtual reallik texnologiyasining o'zi XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Biroq, ba'zi ekspertlar Virtual reallik texnologiyasining ba'zi tushunchalari olimlar va faylasuflar tomonidan bundan ancha vaqt oldin tasvirlangan deb hisoblashadi.

Izlanishlar natijasiga ko'ra shuni aytish mumkinki, Virtual reallik texnologiyalarini yaratish yo'lidagi birinchi qadam haqiqiy dunyo sharoitlarini sun'iy ravishda qayta tiklaydigan va shu bilan birga inson idrokiga murakkab ta'sir ko'rsatadigan qurilmani yaratish deb hisoblash mumkin. 1929-yilda "Link Trainer" parvoz simulyatori patentlangan bo'lib, simulyatordagi vizual tasvirlar sifatida harakatlanuvchi rasmlar ishlatilgan. Bunda harakatlanish, burilish, tushish va yo'nalishni o'zgartiruvchi navigatsiya orqali virtual parvoz amalga oshirilgan hamda yaxshi harakat hissi uyg'ongan.

Foydalanuvchiga aniq hissiyotlarni taqdim etish hamda uni sun'iy ravishda yaratilgan his-tuyg'ular dunyosiga singdirish qobiliyati faqatgina inson idrokiga murakkab ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu ta'sirlar 1950-yillarda kino sanoatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan [3].

An'anaviy kino ekranlarini tomosha qilish uchun insonga ko'rish maydonining atigi 5% kerak. Umuman olganda, odamning idrok etishi 70% (yana 20% - eshitish, 5% - hid, 4% - tegib ko'rish va 1% - tam bilish) vizual komponentga bog'liq.

To'liq vizual effektini his etish uchun 100% ko'rish maydonidan foydalanishi va tasvirning aniqligini saqlash zarur. Shunga ko'ra, to'liq immersivlikni yaratish uchun idrokning boshqa tarkibiy qismlariga nisbatan bir xil ta'sirga erishish kerak.

1957-yilda Morton Xeylig dunyodagi birinchi “Sensorama” virtual simulyatorini yaratadi. Bu simulyator tashqi ko‘rinishdagi gumbazli slot mashinasiga o‘xshash va bitta foydalanuvchi uchun 4D film ko‘rinishida Bruklin ko‘chalarida foydalanuvchi virtual mototsiklda sayr qilishi mumkin edi. Rasman qurilma 1962-yilda patentlangan.

1967-yilda Ivan Sutherland “The Sword of Damocles” deb nomlangan birinchi virtual borliq shlemni yaratadi. Bu shlem kompyuterda hosil bo‘lgan tasvirlarni translyatsiya qilib uzatgan. Olim keyinchalik ultratovushli sensorlar bilan harakatlarni kuzatib boradigan yengilroq ikkinchi modelni yaratgan. Ixtirochi Virtual reallik moslamalari “matematik mo‘jizalar oynasi” ekanligini ta’kidlaydi [4].

Kompyuterga ulangan shlem real dunyoda amalga oshirilmagan g‘oyalar bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Xeylig va Sutherland ixtirolari tijorat jihatdan muvaffaqiyatli bo‘lmagan bo‘lsada, keyingi rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Ularning g‘oyalari birgalikda Endryu Lippmanni ilhomlantiradi va 1978-yilda Aspenning birinchi interaktiv xaritasini yaratadi. Bu xarita yordami bilan mashinada shahar bo‘ylab virtual sayohat qilish mumkin edi.

1972-yilda Miron Kruger “sun‘iy borliq” atamasini kompyuter tomonidan yaratilgan tasvirga va o‘sha vaqtga qadar ishlab chiqilgan boshqa vositalarga video tasvirni joylashtirish tizimi yordamida erishish mumkin bo‘lgan natijalarni aniqlash uchun kiritdi.

1980-yillarda virtual reallik texnologiyalari NASAning bir qator loyihalarida, masalan, virtual reallik shlemni yaratish uchun ishlatilgan. VPL Research kompaniyasi EyePhone virtual reallik ko‘zoynaklarini va bosh, tana harakatlarini tahlil qilish hamda ular yordamida boshqariladigan kompyuter simulyatsiyasi doirasida efirga uzatish imkoniyatiga ega bo‘lgan sensorli kostyum DataSuitni yaratadi.

1990-yil virtual reallik texnologiyalari o‘yin sohasida qo‘llanila boshlanadi. 1993-yilda Sega kompaniyasi virtual reallik texnologiyasidan foydalangan holda o‘yin platformasi Genesis konsolini ishlab chiqdi. Afsuski, grafik va texnik tarkibiy qismlarining nomukammalligi foydalanuvchilarning ko‘ngil aynish va bosh aylanishi olib keladi. Shuning uchun Genesis konsoli unchalik ommalashmadi. Ularning yuqori narxi virtual reallik texnologiyalaridan vaqtincha voz kechishga olib keldi.

Muhokamalar va natijalar. Virtual reallikni to‘liq anglash uchun maxsus texnik vositalar (shlem-display, maxsus qo‘lqop), uch o‘lchamli (yoki stereoskopik) monitorlar, proyektor, maxsus ko‘zoynak yoki kompyuterning standart monitori va proyeksiya vositasi zarurdir.

Hozirgi kunda virtual reallik shlemlari (HMD-display, head-mounted display) chap va o‘ng ko‘zlar uchun tasvirlarni namoyish etadigan bir yoki bir nechta display, tasvir geometriyasini sozlash uchun obyektiv tizimi hamda qurilmaning fazoda yo‘nalishini kuzatadigan nazorat tizimini o‘z ichiga oladi. Tashqi ko‘rinishi ko‘zoynakka o‘xshagani uchun ular **VR headsets** (VR-garnitura) yoki **virtual reallik ko‘zoynaklari** deb nomlanadi.

Virtual reallik ko‘zoynaklar uch guruhga:

1. Tasvirga ishlov berish va chiqarishni ta‘minlaydigan ko‘zoynaklar (Android, iPhone, Windows Phone). Bunda mobil qurilmalardan foydalaniladi. Mobil qurilmalar yordamida uch o‘lchovli tasvirlarni mustaqil ravishda qayta ishlashga qodir bo‘lgan yuqori samarali bo‘lib, yuqori piksellar soniga ega. Deyarli har bir mobil qurilmaning virtual reallikdagi o‘rnini aniqlashga imkon beradigan sensorlar bilan jihozlangan bo‘ladi.

2. Tashqi qurilmalar (PC, Xbox, PlayStation va boshqalar) tomonidan tasvirga ishlov beriladigan ko‘zoynaklar. Tashqi qurilma axborotlarni operativ almashinish va pozitsiyali sensorlar bilan jihozlangan bo‘ladi.

3. Avtonom ko‘zoynaklar (Lenovo Mirage Solo, Oculus, Samsung Gear VR va boshqalar).

Virtual reallikni qo‘llashdagi yangidan-yangi imkoniyatlarni aniqlash va ularni izchillik bilan amaliyotga tatbiq etib borish taraqqiy ettirishning zamonaviy bosqichidagi muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘z navbatida, virtual reallik texnologiyalarining jadal taraqqiy etib borishi - ularni ta‘lim jarayonlarida keng qo‘llanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda.

Virtual reallik texnologiyalarini o‘quv jarayonidagi afzallaklarini aytib o‘tadigan bo‘lsak, bular [5]:

Xarajatlarni tejash. O‘quv jarayonida uskunalar, laboratoriya xonalari, kerakli xomashyolar va boshqa qurilmalar yetishmasligi sababli ko‘pgina tajribalarni amalga oshirish mumkin emas. Virtual reallik texnologiyalaridan foydalanib, o‘quvchilar uydan chiqmasdan turli xil tajribalar o‘tkazishlari, haqiqiy tajriba kabi kerakli natijalar olishi mumkin. Bu orqali ta‘limga ajratiladigan mablag‘larni sezilarli ravishda kamaytirishga erishish mumkin.

Xavflarning oldini olish. Real tajribalar yoki turli vazifalar ko‘pincha har xil xavflar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli amalga oshirilmay qolinadi. Virtual reallik muhitida o‘quvchilar turli xil xavf-xatarlar bilan bog‘liq bo‘lgan tajribalarni ishonchli bajarishlari mumkin. Masalan, parvoz simulyatori o‘quvchilar

xato qilganda samolyot halokati natijasida yuzaga keladigan jiddiy baxtsiz hodisalarning oldini olishga yordam beradi.

Makon va vaqt chegarasizligi. Virtual reallik texnologiyasi butun koinot bo'ylab sayohatlar tashkil etishi, atom zarralarini kuzatish, yillar yoki hatto asrlar osha virtual turlarni amalga oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, virtual haqiqat ongimizda sun'iy axborot bilan taqdim etilishi mumkin bo'lgan hayoliy muhitni yaratadi va uning haqiqatligiga ongimizni ishontiradi. Bir so'z bilan aytganda, yaqin kelajakda Virtual reallik taraqqiyoti ulkan bo'lishi kutilayotgan sohalardan biri, desak, adashmaymiz.

Adabiyotlar

1. LaValle S.M. (2017) Virtual Reality/University of Illinois. Cambridge University Press. 418 p. URL: <http://vr.cs.uiuc.edu/vrbook.pdf>.

2. Atamuratov R.K. The educational advantages of virtual reality technologies. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. / R.K. Atamuratov // LXVIII international correspondence scientific and practical conference. Boston, 23-25 march, 2020. 90-92.

3. Heilig M.L. El Cine delFuturo: The Cinema of the Future // Presence: Teleoperators and Virtual Environments. 1992. Vol. 1, № 3. P. 279–294.

4. Sutherland I. E. (1965) The Ultimate Display // Proceedings of IFIP 65. Vol. 2. URL: <http://worrydream.com/refs/Sutherland%20-%20The%20Ultimate%20Display.pdf>.

5. Atamuratov R.K. O'quv jarayonida virtual reallik texnologiyasidan foydalanish. Actual problems of applied mathematics and information technologies. Xalqaro konferensiya. 14-noyabr 2019-yil. -Tashkent. 183-bet.

M.R.TURDIEV

Buxoro muhandislik texnologiya
instituti o'qituvchisi

E.X.BOZOROV

O'zbekiston fanlar akademiyasi
yadro fizika instituti professori

TIBBIYOTDA LAZER FIZIKASI BO'LIMINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YIN TOPSHIRIQLARINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Maqolada lazer fizikasini o'qitishda didaktik o'yinlarni tanlashda, tibbiyot lazer texnologiyalarining yaqin kelajakdagi rivojlanish istiqbollari qurilmalarning yanada texnik takomillashuvi va ularda didaktik o'yinlarning elementlari keng qo'llanilishi asosida ishchi ko'rsatkichlarni tanlash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot tajribasining har tomonlama rivojiga ko'maklashishi, o'quv mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otishi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: *lazer fizikasi, didaktik o'yinlar, o'yinli texnologiya, o'quv mashg'ulotlari, didaktika, o'quv faoliyati, aqliy faoliyat.*

В статье рассматриваются вопросы выбора дидактических игр при обучении физике лазеров, перспективы ближайшего развития медицинской лазерной техники на основе дальнейшего технического совершенствования приборов и широкого применения в них элементов дидактических игр, выбора рабочих показателей, способствующих всестороннему развитию опыта общения со сверстниками и взрослыми, стимулирующих интерес к учебной деятельности.

Ключевые слова: *лазерная физика, дидактические игры, игровые технологии, учебные занятия, дидактическая, учебная деятельность, умственная деятельность.*

The article deals with the issues of choosing didactic games when teaching laser physics, the prospects for the nearest development of medical laser technology based on further technical improvement of devices and the wide use of elements of didactic games in them, the choice of performance indicators that contribute to the comprehensive development of communication experience with peers and adults, stimulating interest in educational activities

Key words: *laser physics, didactic games, game technologies, training sessions, didactic, educational activity, mental activity.*

Kirish. Didaktik o'yinlarni tanlashda talabalarning ruhiy holati, bilish qobiliyatlari, nutqi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot tajribasining har tomonlama rivojiga ko'maklashishi, o'quv mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otishi, o'quv faoliyati bilim va malakalarini shakllantirishi, natijalarni tahlil qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirishni o'rganishda talabaga yordam berishiga e'tibor qaratish lozim. O'yinlarni o'tkazish jarayonida talabning aqliy faoliyati fanlarga nisbatan uning harakati bilan bog'liq bo'lishi kerak [1].

Asosiy qism. Lazer fizikasi darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish mobaynida ko'rib chiqilayotgan predmet xususiyatini inobatga oladigan didaktik o'yinlarni tanlash tamoyillarini sanab o'tish lozim.

Tibbiyot OTM talabalarida o'quv faoliyatini faollashtirishga ko'maklashuvchi va qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lgan o'yin quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

Har bir o'yin ishtirokchisining faolligi.

1.Har bir talaba uchun didaktik o'yinning ochiqligi.

2.Muammolilik.

3.O'yinning qiziqarli va hissiy rang-barang bo'lishi.

4.O'yinning yakkama-yakkaligi va jamoaviyligi.

5.Bahs va musobaqaviyligi.

6.Har bir ishtirokchi uchun o'yinning natijaviy bo'lishi.

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarning har biriga qisqacha to'xtalib o'taylik. Didaktik o'yinning tamoyillaridan biri har qaysi ishtirokchining faollik darajasi hisoblanadi. U o'yinga tayyorgarlik ko'rishda aks etishi lozim, o'yin davomida kuchayishi va cho'qqisiga yetishi, shuningdek, natijalarni muhokama qilish jarayonida ham shunday yuqori darajani saqlab turishi lozim [2].

O'yinning ochiqligi - barcha ishtirokchilar tomonidan o'yin qoidalarining tushunarli bo'lishi va uning istalgan bosqichida o'quvchilarga mos bo'lgan vazifalarning mavjudligi.

Didaktik o'yinning muammoliligi shunda ifodalanadiki, istalgan o'yinda muammoli vaziyatlar va ularni yechish uchun sharoit yaratiladi. Bunda har bir talaba raqobat sharoitida muayyan maqsadga

erishishga intilib, musobaqa davomida paydo bo'ladigan turli muammoli vaziyatlarni yechish yo'llarini o'zi bilmagan holda rejalashtiradi.

Didaktik o'yinning qiziqarliligi va hissiy rang-barangligi barcha bosqichlarda talabalar bilish faolligini, shu bilan birga, o'yin tayyorgarligi va keyingi tahlilini ham kuchaytirishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, bu tamoyil har bir o'yin ishtirokchisining bilish faolligini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Didaktik o'yinning yakkama-yakkaligi shuni nazarda tutadiki, har bir talaba uchun o'yinda muayyan rol topilishi lozim, bu rol uning shaxsiy xususiyatlarini maksimal tarzda amalga oshirishga, talabaga o'zini ifodalashga imkoniyat berishi kerak. Yakkama-yakkalik tamoyili har bir o'yin qatnashuvchisiga o'zining keyingi rivoji uchun ishlashga imkon beradi, ayni paytda talaba muayyan faoliyatda o'zidagi ustun xususiyatlarni ochish imkoniyatiga ega bo'ladi. Didaktik o'yinning jamoaviyligi esa har bir ishtirokchining individualligiga barham bermasdan, muammoli vaziyatlarni yechish bo'yicha jamoa, juftlik, guruhlarda o'zaro faoliyatni amalga oshiradi.

Jamoaviylik tamoyili birgalikda harakatlanish va fikrlash kabi muhim malakalarning rivojiga olib keladi. Individual, ko'p hollarda qarama-qarshi xarakter, dunyoqarashga ega bo'lgan talabalarning jamoaviy ishi do'stona munosabatlarni rivojlantirishda yordamlashadi.

Bahs va musobaqaviylik ko'p hollarda didaktik o'yindagi asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib hisoblanadi va bu kuch o'yinchilarning aqliy imkoniyatlarini katta miqdorda safarbar etadi.

Natijaviylik tamoyili didaktik o'yinning asosiy tamoyili bo'lib, uni har bir ishtirokchi va butun jamoaning faol ijodiy faoliyati sifatida ko'rsatadi. Barcha jamoaviy musobaqalar kabi jamoa faoliyati natijasi bevosita har bir o'yinchi hissasiga bog'liq. Ko'rib chiqilayotgan tamoyil har bir talaba va butun jamoa natijasining mos kelishi hamda o'yinchi va uning raqibi uchun yagona bo'lishini taqozo etadi [3, 4].

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarni hisobga olib, didaktik o'yinlar qatoridan "Lazer fizikasi" darslarida talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladigan o'yinlarni tanlash mumkin [5].

Didaktik o'yinlarning ko'pgina afzalliklariga qaramasdan, ularni tayyorlash va o'tkazish o'qituvchi uchun murakkab vazifa bo'lib hisoblanadi va ko'p vaqtni talab qiladi.

Didaktik o'yinlar va o'yin vaqtini o'tkazish bilan birga didaktik o'yin tashxisi va uni o'tkazishga tayyorlanish kabi ahamiyatli qirralarga ham e'tibor qaratish lozim. Bu ikki muammo ham teng darajadagi ishlovni talab qiladi, chunki didaktik o'yin yaxshi tayyorlangan bo'lib, uning tashxisi puxta tashkil etilmagan bo'lsa, bunday o'yin kutilayotgan natija bermasligi, tayyorgarlikka va o'tkazishga sarflangan vaqtni oqlamasligi mumkin.

Ko'rib chiqilgan tahlil o'qituvchiga "Lazer fizikasi" darslarida didaktik o'yinlarni asosli tarzda qo'llash imkonini beradi.

Muhokamalar va natijalar. Bizning fikrimizga binoan "Lazer fizikasi" fanidan didaktik o'yinlarni tayyorlash va o'tkazishda quyidagi bosqichlarni inobatga olish lozim: g'oya, tashkil etish, o'tkazish va tahlil qilish.

1. Didaktik o'yinning g'oyasi. Didaktik o'yinning birinchi, mushkul va eng mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. G'oyaning tarkibiy qismlariga:

- guruhni tanlash;
- darsning mavzusini tanlash;
- darsning turini tanlash;
- vaqt chegaralarini aniqlash;
- o'yinning turi va shaklini tanlash jarayonlari kiradi.

a) guruhni tanlash. Didaktik o'yinlar o'tkaziladigan guruhni ba'zi xususiyatlarini (yo'nalishi, o'qitilish darajasi, ishga layoqatliligi, tashkilotchiligi) inobatga olgan holda tanlanadi. Bunda talabalarning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, balki o'qitish va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish zarurligini inobatga olish lozim. Didaktik o'yin "Lazer fizikasi" fanini o'qitish bo'yicha chuqurlashtirilgan yo'nalishdagi guruhlarda o'tkazilishi mumkin. Bunda o'yin topshiriqlari va shaklini guruhning o'qitish darajasi va o'zlashtirish ko'rsatkichiga qarab ajratish kerak bo'ladi.

b) dars mavzusini tanlash. O'qituvchi o'yinni o'tkazish uchun ixtiyoriy mavzuni tanlash huquqiga ega. Bu yangi mavzuni tushuntirish uchun yoki o'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun ham qo'llanilishi mumkin, lekin, bunda o'qituvchi mavzuni tushuntirish uchun o'yinni tashkil etish va o'tkazish uchun ko'p vaqt va kuchni sarflash zaruratini inobatga olishi kerak.

d) dars turini tanlash. Didaktik o'yinlar darsning barcha turida qo'llanilishi mumkin. Didaktik o'yinlarning muvaffaqiyatli o'tkazilishi, o'qituvchining didaktik o'yin turlari bilan ishlay olish malakasiga bog'liq. Didaktik o'yinlar o'tilgan mavzularni takrorlash va olgan nazariy bilimlari va malakalarini mustahkamlash va talabalarning bilimlarini nazorat qilishda qo'llanilishi mumkin.

e) vaqt chegaralarini aniqlash. Vaqtni belgilash bosqichi deb, didaktik o'yinlarni o'tkazish va ularni tayyorlash jarayoniga sarflangan vaqtni tushunish kerak. O'yin to'liq dars davomida yoki darsning bir qismida, yoki bir necha dars davomida o'tkazilishi mumkin. O'yinni tayyorlash jarayoni bir necha kun yoki hatto bir necha hafta ham bo'lishi mumkin. Bu o'yin ko'rinishi, o'yin maqsadi hamda o'qituvchi va talaba orasida taqsimlangan vazifalarning bajarilishiga bog'liq bo'ladi.

d) didaktik o'yinning turi va shaklini tanlash. Didaktik o'yinlarning turi va shaklini aniqlash bir necha omillarga bog'liq: guruhning xususiyatlari (jumladan, mazkur guruhni o'qitishda, dars jarayonida qanday o'qitish shakli qo'llanilganligi); talabalarning yoshi, dars mavzusining xususiyati.

2. Didaktik o'yinni tashkil etish. Didaktik o'yinni:

- o'yin ssenariysini yozish;
- o'qituvchi va talaba orasida vazifalarni taqsimlash;
- topshiriqlarni tanlash;
- talabalarni faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi bosqichlarda tashkil etish mumkin.

O'yin ssenariysini yozish. O'yin ssenariysini yozish eng qiyin va mas'uliyatli ish hisoblanadi. Ssenariyni o'qituvchining o'zi yoki guruhdagi eng faol talabalar ko'magida tuzishi mumkin. Didaktik o'yinning ssenariysida quyidagilar e'tiborga olinishi zarur:

- o'yin rejasining to'liq ifodalanishi;
- har bir o'yin bosqichining o'tkazilish instruksiyasi;
- ishtirokchilar rolining ro'yxati (rollarni oldindan taqsimlash maqsadga muvofiq);
- topshiriq, mashq va savollarning javobi va ularning baholanish tizimi bilan tanlash;
- o'yin tahlili uchun savollar.

O'qituvchi va talaba orasida vazifalarni taqsimlash. Didaktik o'yinlarni ishlab chiqish va tayyorlashda faqat o'qituvchining ishtirok etishi mumkin, bunda u o'yin ssenariysini yozadi, rollarni taqsimlaydi, baholash mezonlarini ishlab chiqadi. Yoki o'qituvchi to'liq guruh bilan ham hamkorlikda ishlashi mumkin (masalan boshqa guruhlar uchun topshiriqlarni tayyorlashda). Bunda o'qituvchi har bir talabaga o'zining imkoniyatlarini namoyon etishga shart-sharoit yaratib berishi kerak.

Topshiriqlarni tanlash. Didaktik o'yinlar topshiriqlarini tanlash uchun o'qituvchi o'zi yoki talabalar yordamida (masalan, talabalar bir-birlari uchun topshiriq tayyorlaganlarida) amalga oshirishi mumkin. Topshiriqlarga aniq talab qo'yilishi lozim va ular quyidagicha:

- murakkablik darajasi bilan farq qilishi va bir necha yechimlardan iborat bo'lishi;
- qiziqarlisini tanlash va unda fanlararo bog'liqlik mavjud bo'lishi;
- mukammallashtirilgan, nazariy ma'lumotlarga tayangan holda bo'lishi;
- barcha talabalar uchun topshiriqlarni bajarish imkoni boricha osonlashtirilgan bo'lishi kerak.

Talabalar faoliyatining baholash mezonlarini ishlab chiqish. Didaktik o'yinlarning baholash mezonlari:

- o'qituvchi tomonidan o'yindan oldin ishlab chiqilishi kerak va u o'yin o'tkazilishidan oldin (yoki o'yin oxirida) e'lon qilinishi kerak;

- barcha talabalar (yoki o'yin davomida bilimni yaxshi namoyon qilgan talabalar) baholanishi kerak;

- jamoa talabalar har xil baholanishi mumkin: guruhning har bir ishtirokchisi alohida (yoki to'liq guruh birdaniga) baholanishi mumkin;

- bahoni o'qituvchi, sardor yoki ekspert sifatida tayinlangan talaba qo'yishi mumkin;

- baho o'yin davomida, o'yin oxirida, darsdan keyin (yozma ishni baholashda) qo'yilishi mumkin;

3. Didaktik o'yinlarni o'tkazish. Didaktik o'yinlarni o'tkazishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- talabalarning o'yin tarkibi, o'yinda ishlatiladigan didaktik material bilan tanishtirish;

- o'yinning borishi va qoidalarini tushuntirish. Bunda o'qituvchi o'yin qoidalariga asosan talabalarning harakatini, qoidalarning bajarilishiga e'tibor beradi;

- o'yin harakatlarini ko'rsatish, bu jarayonda o'qituvchi talabalarga xatti-harakatlarning to'g'ri bajarilishini namoyish etadi va bu bilan aks holda o'yin kerakli natijaga olib kelmasligini isbotlaydi;

- o'qituvchining o'yindagi rolini, uning o'yin ishtirokchisi, muxlis yoki hakam sifatida o'yinda qatnashishini aniqlash;

- o'qituvchining o'yinda bevosita qatnashish talabalar yoshi, ularning tayyorgarlik darajasi, didaktik o'yin topshiriqlarining va o'yin qoidalarining murakkabligi bilan belgilanadi. O'yinda qatnashib, o'qituvchilar faoliyatini boshqaradi (maslahat, savol, eslatma bilan);


- o'yinning yakuniy natijasini aniqlash - bu o'yin boshqaruvida mas'uliyatli bosqich hisoblanadi, chunki talabalar erishgan natijalar bo'yicha o'yin samaradorligini aniqlashga va talabalarning mustaqil o'yin faoliyatida qiziqish bilan yondashishiga zamin yaratadi. O'qituvchi yakuniy natijani e'lon qilishda talabalarga g'alabaga faqatgina qiyinchiliklarni yengish, e'tibor va tartib orqali yetish mumkinligini ta'kidlaydi.

4. Didaktik o'yinlarni tahlil qilish. Didaktik o'yinlarning so'nggi bosqichi o'yinni tahlil qilish ya'ni o'yin natijasida talabalar bilimni baholash. Bunda Nimaga erishildi? Nimaga erishilmadi? kabi savollarga javob olinadi. Quyidagi asosiy holatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- o'yin tahlilini og'zaki (talabalar o'z hissiyotlarini bayon etayotganda), og'zaki yakka holda (masalan, jamoadan bir kishi o'tkazilgan o'yin xususida o'z fikrini bayon etishi), yozma (masalan, anketa ko'rinishida) kabi shakllarda amalga oshirish;

- o'yin tahlilini darhol o'yin tugaganidan keyin (yoki bir oz vaqt o'tgandan keyin) amalga oshirish;
- didaktik o'yinning tahlili guruh darajasini, hamda pedagogik darajani aniqlashda zarur [6].

Shuni ta'kidlash lozimki, didaktik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchining roli juda muhim. O'yinning muvaffaqiyatli o'tishi nafaqat talabalarning bilim va ko'nikmalariga, balki o'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligiga, uning talaba bilish faoliyatiga ta'sir etuvchi muqobil faoliyat turiga ham bog'liq. O'yinli o'qitish texnologiyasini bosqichma-bosqich tashkil etish jarayonini quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin (1-rasm) [7].



1-rasm. O'yinli o'qitish texnologiyasini tashkil etish jarayoni

1. Har bir mashg'ulotning aniq ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi o'quv maqsadlari ishlab chiqiladi. Har qanday o'yin orqali ta'lim maqsadida belgilangan yangi o'quv materialini o'zlashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad orqali o'yin ishtirokchilarining ma'lum shaxsiy sifatleri tarbiyalanadi, rivojlantiruvchi maqsad ta'lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

2. Tayyorgarlik bosqichida o'quv maqsadiga erishishga yo'naltirilgan o'yinli topshiriqlar mazmuni, ularning ssenariysi, yo'riqnomasi va o'quv-uslubiy ta'minoti ishlab chiqiladi. Mashg'ulotga kirishdan oldin ta'lim oluvchilar kichik guruhlarga ajratiladi, har bir kichik guruhlar ishtirokchilarining rollari taqsimlanadi. Ta'lim oluvchilarni o'quv maqsadi va muammoning qo'yilishi, o'yinni bajarish tartibi va vaqti hamda qoidalari bilan tanishtiriladi.

3. O'yinni o'tkazish bosqichida kichik guruhlarda o'yinli topshiriqlarni bajarish uchun ma'lumotlar yig'iladi, yechim variantlari bo'yicha trening va mulohazalar o'tkaziladi. Bir nechta yechimlar ichidan eng muqobil varianti topiladi. Belgilangan vaqt tugagandan keyin kichik guruhlar taqdimot orqali, o'yinli topshiriqlar yechimlarini namoyon etishadi. Kichik guruhlar orasida munozara tashkil qilinadi.

4. Yakuniy bosqichda o'yindan chiqiladi, ya'ni har bir kichik guruh o'zining topshiriqlari yechimlari bo'yicha yakuniy natijasini tahlilini va o'z-o'zini baholash o'tkaziladi. Natijalar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinadi, umumlashtiriladi va xulosalash o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'yinli topshiriqlarni bajarish jarayoni hamda natijalari bo'yicha talabalarining yutuq va kamchiliklari o'qituvchi tomonidan ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ko'rsatma hamda tavsiyalar beriladi [8].

Xulosa. Shunday qilib, didaktik o'yinlar uchun yuqorida keltirilgan metodik tavsiyalar tibbiyot talabalariga lazer fizikasi bo'limini o'qitishda barcha didaktik o'yinlarda foydalanilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Загвязинский В.И. Методология и методика дидактического исследования. - М.: "Педагогика", 1982. - 160 с.
2. Мельникова А.Я. Применение дидактических игр для формирования инновационного потенциала будущих технологов // Профессиональное образование. - Москва, 2008. - №4, - С. 34 - 35.
3. Мендель Б.Р. Интеллектуальная игра как компонент образательной практики: моделирование развития профессионально значимых качеств специалиста // Педагогика. - Москва, 2006. - № 7. - С. 23 - 36.
4. Parpiyev O.T. Pedagogik o'yinlar // O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari: Ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Toshkent, 2006. - B.132-133.
5. Далиев Х.С., Бозоров Э.Х., Каландарова Д.А., Элмуротова Д.Б., Зоирова Л.Х., Турдиев М.Р. Применение лазерный излучение в медицине // Учебник. Ташкент, 2020. С-374.
6. Шодмонова Ш.С. Педагогик технологиялар / Методик қўлланма. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2011. - Б.94 - 106.
7. Олимов Қ.Т. Проблема создания учебников специальных дисциплин нового поколения в сфере среднего специального образования. Монография. – Т.: “Фан”, 2004. - Б.34-36.
8. Turdiyev M.R. Suyuq va gaz lazerlarining tibbiyotda qo'llanilishi // Buxoro davlat universiteti. Redagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. - №6 (76) 2020.

Islom MENGLIYEV

Termiz davlat universiteti
amaliy matematika va informatika
kafedrası tayanch doktoranti

TABIYIY FANLARDA FANLARARO BOG'LIQLIKNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Maqolada tabiiy fanlarda fanlararo bog'liqlikni axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodikasi yoritilgan. Bunda asos sifatida biologiya va tibbiyot sohasida muhim ahamiyatga molik bo'lgan qandli diabet kasalligi qaralgan. Ushbu kasallikni tadqiq etishda fanlararo bog'liqlik va axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fanlar, fanlararo bog'liqlik, axborot texnologiyalari, biologiya, tibbiyot, qandli diabet, matematik model, qand, insulin, Eylar, Runge-Kutta.

Статья посвящена изучению межпредметных связей в естественных предметах на основе информационных технологий. Здесь рассмотрена болезнь - сахарный диабет имеющее важное значение в биологии и медицины. При исследовании данной болезни показано место и значение межпредметных связей и информационных технологий.

Ключевые слова: естественные предметы, межпредметные связи, информационные технологии, биология, медицина, сахарный диабет, математический модель, сахар, инсулин, Эйлер, Рунге-Кутты.

The article highlights the study of interdisciplinary relationships in natural subjects based on information technology. Here the disease is diabetes mellitus of importance in biology and medicine. In the study of this disease, the places and meanings of intersubject connections and information technologies are shown.

Key words: natural subjects, interdisciplinary connections, information technologies, biology, medicine, diabetes mellitus, mathematical model, sugar, insulin, Euler, Runge-Kutta.

Kirish. Tabiiy fanlar yo'nalishda axborot texnologiyalarini o'qitishda tegishli fanning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, axborot texnologiyalari orqali fanning murakkab mavzularini o'tishni yengillashtirish, fanlararo bog'liqlikni to'laqonli namoyish etish imkoniyati tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son [1] qarorida axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini muvaffiqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotida keng joriy etishni ta'minlashning shartlaridan biri ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-maydagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 288-son [2] qarorida iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, asosiy vazifalar belgilangan:

iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga hissa qo'shadigan, zamonaviy talablarga javob beradigan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ilg'or texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallagan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash jarayonida o'quv rejalariga zamonaviy fanlarni kiritib borish, innovatsion hamda ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni tatbiq qilish hamda ilg'or xorijiy tajribani qo'llagan holda o'quv jarayonini ta'limning kredit-modul tizimi asosida tashkil qilish; ilmiy-tadqiqot institutlari bilan manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar hamkorligida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borish hamda ularning natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etish; filialga birlashtirilgan informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan tayanch maktablar faoliyatini metodik qo'llab-quvvatlash; aholining barcha qatlamlarida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida dasturlash, robototexnika, "Buyumlar interneti", sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish vazifalari belgilangan.

Asosiy qism. Tabiiy fanlarda fanlararo bog'liqlikni axborot texnologiyalari [3, 4] asosida o'qitishni namoyish etish maqsadida biologiya va tibbiyotda keng miqyosda tadqiq etilishi lozim bo'lgan qandli diabet kasalligini qaralgan.

Ta'kidlash lozimki, qandli diabet kasalligining matematik modeli quyidagi ko'rinishda bo'ladi [5, 6]:

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = -a_1xy + a_2(x_0 - x)H(x_0 - x) + a_3Qe^{-K(t-t_0)}H(t - t_0) & (1) \\ \frac{dy}{dt} = b_1(x - x_0)H(x - x_0) - b_2y + b_3Q(t_0 + t)H(\bar{t} - t) + b_3Q(\bar{t} - t)H(t - \bar{t}) & (2) \end{cases}$$

Ma'lumki, qon tarkibida insulinning mavjudligi qandning neytrallashtiruviga, ya'ni metabolizmiga, bu esa o'z navbatida uning qon tarkibida kamayishiga olib keladi. Qon tarkibida qand miqdori yoki insulin miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu kamayish shunchalik tez ro'y beradi. Shu sababli, tenglama (1)dagi birinchi qo'shiluvchi $-a_1xy$ o'zgaruvchilarning hech bo'lmaganda kichik o'zgarishlarida ushbu effektini yetarlicha yaxshi tavsiflaydi.

Qon tarkibidagi qand miqdori muvozanat holatidan pastlab ketishi mumkin (masalan, och holda juda katta fizik yuklama bajarish oqibatida). Uni normal holatga ko'tarish uchun inson jigaridagi uglevodlar zahirasidan uglevodajratiladi. Ushbu effektini tenglama (1)dagi ikkinchi qo'shiluvchi, ya'ni $a_2(x_0 - x)H(x_0 - x)$ yaxshi aks ettiradi.

Va nihoyat, tenglama (1)dagi uchunchi qo'shiluvchi $a_3Qe^{-K(t-t_0)}H(t - t_0)$ qon tarkibidagi qandning tashqi manbasi bo'lib, inson tomonidan talab qilinadigan ovqat miqdoriga bog'liq ekanligini ko'rsatadi, u esa vaqtning oshkor funksiyasidan iborat. O'zgarishlar a_1, a_2 va a_3 musbat miqdorlar bo'lib, ular qand miqdori gradiyentining quyidagi holatlarga mos ravishda sezgirligini aniqlaydi: a) insulin mavjud holatda, b) qon tarkibida qand miqdori kam bo'lgan holatda va d) ovqat qabul qilinganda.

Qon tarkibidagi insulin miqdorini aniqlash uchun differensial tenglama (2)dan foydalanamiz.

Bu tenglamadagi birinchi qo'shiluvchi $b_1(x - x_0)H(x - x_0)$ shuni anglatadiki, agar qon tarkibidagi qand miqdori turg'un holatdan yuqori bo'lsa, oshqozon osti bezi qon tomirlariga insulin ishlab chiqaradi. Bu hodisani bo'lakli-chiziqli model orqasi tavsiflash mumkin. Tenglama (2)dagi ikkinchi qo'shiluvchi $-b_2y$ esa, qon tarkibidagi insulinning saqlanib turishi bir qancha biokimyoviy jarayonlar ta'sirida kamayishini tavsiflaydi, tirik organizmdagi erkin holatdagi insulinning deyarli yarmi 10-25 minut orasida nafaol holatga o'tadi. Va nihoyat, tenglama (2)dagi b_3 koeffitsient bilan bog'langan uchunchi qo'shiluvchi insulinning ixtiyoriy tashqi manbasini tavsiflaydi. Sog'lom organizm uchun ushbu qo'shiluvchi aynan nolga teng bo'ladi, qandli diabet bilan kasallanganlar uchun esa y vaqt t ning funksiyasi bo'lib, inyeksiyalar grafigi orqali aniqlanadi. Uchta b_1, b_2 va b_3 o'zgarishlar aniqlanishiga ko'ra musbat miqdorlardan iborat bo'ladi. Ular mos ravishda insulin gradiyentining quyidagi holatlarga mos sezgirligini anglatadi: a) qon tarkibida qand miqdori yuqori (b_1), b) insulin miqdori (b_2) va v) organizmga insulinning kiritilishi (b_3). Turli faktorlarning ta'sirini yumshatish (ayniqsa a) faktorning) pog'onali funksiya $H(x - x_0)$ kiritiladi, u ushbu munosabat orqali aniqlanadi:

$$H(\xi) = \begin{cases} 0, & \text{agar } \xi < 0, \\ 1, & \text{agar } \xi \geq 0. \end{cases}$$

Chiziqli bo'lmagan oddiy differensial tenglamalar sistemasi (1)-(2) ni sonli modellashtirish uchun vaqt bo'yicha qadam τ bo'yicha birinchi tartibli aniqlikka ega bo'lgan Eyler metodi va ikkinchi tartibli aniqlikka ega bo'lgan Eylerning birinchi yaxshilangan metodidan foydalanish mumkin hamda ularning algoritmlari uchun C^{++} tilida dastur tuzilgan va hisoblash eksperimenti o'tkazilgan [7-10].

Kelgusi bayon qilishlarni soddalashtirish maqsadida tenglamalar (1) va (2) ning o'ng tomonlarini $f_1(t, x, y)$ va $f_2(t, x, y)$ orqali belgilab olamiz:

$$f_1(t, x, y) = -a_1xy + a_2(x_0 - x)H(x_0 - x) + a_3Qe^{-K(t-t_0)}H(t - t_0)$$

$$f_2(t, x, y) = b_1(x - x_0)H(x - x_0) - b_2y + b_3Q(t_0 + t)H(\bar{t} - t) + b_3Q(\bar{t} - t)H(t - \bar{t})$$

Natijada

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = f_1(t, x, y), & (3) \\ \frac{dy}{dt} = f_2(t, x, y) & (4) \end{cases}$$

ni hosil qilamiz. Bunda t_0, x_0, y_0 berilgan. Sistema (3)-(4)ni sonli yechish uchun τ bo'yicha birinchi tartibli aniqlikka ega bo'lgan Eyler metodi algoritmini keltiramiz:

$$\begin{cases} x_{i+1} = x_i + \mathcal{F}_1(t_i, x_i, y_i), & t_i = t_0 + i \cdot \tau, \\ y_{i+1} = y_i + \mathcal{F}_2(t_i, x_i, y_i), & i = 0, 1, 2, \dots, n-1. \end{cases}$$

Ushbu algoritmning C++ dasturlash tilidagi dasturini keltiramiz:

```

#include <iostream>
#include <math.h>
#include <stdlib.h>
#include <stdio.h>
#include <conio.h>
#include <iomanip.h>
#include <fstream>

using namespace std;

int H1(double x1,double y1)
{
int k1;
if ((x1-y1)>=0)
k1=1;
else k1=0;
return k1;
}
intmain()
{ ofstreamyozish;
yozish.open("dsxema.txt");

int n;
cout<<"n="; cin>>n;
double x[n],y[n],t[n];
double a1,a2,a3,b1,b2,b3,Q,tchiz,K,tau;

tchiz=0.5;
x[0]=0.1;
y[0]=0.3;
t[0]=0.0;
a1=0.05;
a2=1.0;
a3=0.04;
b1=0.5;
b2=2.0;
b3=0.2;
tau=0.01;
Q=20;
K=1;
for (inti=0;i<n;i++)
{ t[i]=t[0]+i*tau;

x[i+1]=x[i]+tau*((-a1*x[i]*y[i]+a2*(x[0]-x[i]))*H1(x[0],x[i])+
+a3*Q*exp(-K*(t[i]-t[0]))*H1(t[i],t[0]));

y[i+1]=y[i]+tau*(b1*(x[i]-x[0])*H1(x[i],x[0])-b2*y[i]+
+b3*Q*(t[0]+t[i]))*H1(tchiz,t[i])+b3*Q*(tchiz-t[i])*H1(t[i],tchiz);
}
for (inti=0;i<n;i++)
{
cout<<"i="<<i<<" x["<<i<<"]="<<setprecision(4)<<fixed<<x[i]<<" "
<<" y["<<i<<"]="<<setprecision(4)<<fixed<<y[i]<<endl;

yozish<<setprecision(6)<<fixed<<x[i]<<" ; "<<y[i]<<endl;
}
}
}

```

```

    }
    yozish.close();

    return 0;
}

```

Muhokamalar va natijalar. Differensial masala (3)-(4) ni sonli yechish uchun vaqt qadami τ bo'yicha to'rtinchi tartibli aniqlikka ega bo'lgan Runge-Kutta metodi algoritmi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Endi ushbu algoritmlar uchun C++ tilida tuzilgan dastur natijalarini keltiramiz. Ularni differensial

$$\left\{ \begin{array}{l}
 k_1 = f_1(t_n, x_n, y_n), \\
 b_1 = f_2(t_n, x_n, y_n), \\
 k_2 = f_1(t_n + \frac{1}{2}\tau, x_n + \frac{1}{2}\tau k_1, y_n + \frac{1}{2}\tau b_1), \\
 b_2 = f_2(t_n + \frac{1}{2}\tau, x_n + \frac{1}{2}\tau k_1, y_n + \frac{1}{2}\tau b_1), \\
 k_3 = f_1(t_n + \frac{1}{2}\tau, x_n + \frac{1}{2}\tau k_2, y_n + \frac{1}{2}\tau b_2), \\
 b_3 = f_2(t_n + \frac{1}{2}\tau, x_n + \frac{1}{2}\tau k_2, y_n + \frac{1}{2}\tau b_2), \\
 k_4 = f_1(t_n + \tau, x_n + \tau k_3, y_n + \tau b_3), \\
 b_4 = f_2(t_n + \tau, x_n + \tau k_3, y_n + \tau b_3), \\
 x_{n+1} = x_n + \frac{1}{6}\tau(k_1 + 2k_2 + 2k_3 + k_4) \\
 y_{n+1} = y_n + \frac{1}{6}\tau(b_1 + 2b_2 + 2b_3 + b_4) \\
 i = 0, 1, 2, \dots, n-1.
 \end{array} \right.$$


masala (3)-(4) dagi xarakterli parametrlarning quyidagi qiymatlarida hisoblangan:

$$x_0 = 0.1, y_0 = 0.3, a_1 = 0.05, a_2 = 1.0, a_3 = 0.04, b_1 = 0.5, b_2 = 2.0, b_3 = 0.2, \bar{t} = 0.5, \\
 K = 1, Q = 1, \tau = 0.01, N = 100.$$


1-jadval

	Eylar		Runge-Kutta metodi	
	x[i]	y[i]	x[i]	y[i]
0	0.100000	0.300000	0.100000	0.300000
10	0.176496	0.263856	0.176128	0.266161
20	0.245727	0.274250	0.245013	0.277988
30	0.308369	0.322351	0.307343	0.326890
40	0.365050	0.400974	0.363741	0.405865
50	0.416337	0.504274	0.414773	0.509207
60	0.462743	0.497771	0.460948	0.491105
70	0.504734	0.439771	0.502729	0.431105
80	0.542728	0.341771	0.540534	0.331105
90	0.577107	0.203771	0.574742	0.191105

Inson organizmidagi qand (x) va insulin (y)ning sonli hisoblash orqali olingan qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan. Ushbu natijalar grafik ko'rinishda 1- va 2-raslarda aks ettirilgan.



1-rasmda. Inson organizmidagi qand (x) va insulin (y) miqdorining Eylar metodi bilan natijalar asosida olingan grafiklari



2-rasm. Qon tarkibidagi qand (x) va insulin (y) miqdorining Runge-Kutta metodi bilan hisoblangan natijalari grafigi

Xulosa. Ushbu grafiklardan ko'rinadiki, parametrlarning tanlangan qiymatlarida ma'lum bir kritik qiymatgacha inson organizmidagi qand miqdori (x) insulin miqdori (y) dan past bo'ladi, ammo vaqt o'tishi bilan organizmdagi qand miqdori tobora o'sib borishi, insulin miqdori esa kamayib borishi kuzatiladi. Bu o'z navbatida organizmga insulin in'eksiya qilinishi lozimligini ko'rsatadi.

Bunda biologiya yoki tibbiyot fani o'qituvchisi qandli diabet kasalligiga oid boshlang'ich parametrlar qiymatlarini va kompyuter dasturi ishlashi natijasida olingan jadval va rasmlarni tahlil qilish imkoniyatlariga ega bo'lishlari kifoya, algoritm, dastur, matematik model haqida qisqa bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son qarorida axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.10.2020-y., 07/20/4851/1352-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-maydagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 288-son Qarori.(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.10.2020-y., 07/20/4851/1352-son)
3. Aripov M.M. va b. Informatika, informatsion texnologiyalar // Darslik. -T.: TDYUI, 2005. 278-b.
4. Qosimov S.S. Axborot texnologiyalari: OO'Y uchun darslik. -T.: "Aloqachi", 2006. -360 b.
5. Самарский А.А., Михайлов А.П. Математическое моделирование. -М.: "Наука", 1997. -316 с.
6. Эндрюс Дж., Мак-Лоун Р. Математическое моделирование. - М.: "Мир", 1979.-280 с.
- 7.Абуталиев Ф.Б., Нармурадов Ч.Б. Математическое моделирование проблемы гидродинамической устойчивости. - Т.: "Фан ва технология".- 2011.- 188 с.
8. Normurodov Ch.B., Mengliyev I.A. Численное моделирование дифференциальной модели сахарного диабета. Philadelphia, USA. 2020.05 page 166-171. (Global Impact Factor-0.564; Scientific Indexing Services-0.912; International Society for Research Activity-1.344. №5).
9. Normurodov Ch.B., Mengliyev I.A. Tabiiy fanlarda fanlararo bog'liqni o'rganishda matematik modellashtirishni qo'llash. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2020-yil 5-son. 540-545-bet.
10. Mengliyev I.A. Matematik modellashtirish va informatsion texnologiyalar asosida fanlararo bog'liqni o'qitish metodikasi. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2020-yil 12-son. 290-296-bet.

Jaxongir XOMIDJONOV

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi
Yadro fizikasi instituti
Farg'ona pedagogika instituti
fizika kafedrası stajyor-tadqiqodchisi

BIOTIBBIYOT FIZIKA FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK VA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Hozirgi kunda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun o'qitishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadli tadbiq etishga katta e'tibor berilmoqda. Shuning uchun ham innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublarning soni juda ko'payib bormoqda. Ushbu maqolada "Biotibbiyot fizikasi" fanini o'qitishda pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish usullari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: biotibbiyot fizikasi, Klaster usuli, kompyuter, videoproektor, diagnostik qurilmalar, Rentgen nuri, multimedia.

В настоящее время для развития процесса образования большое внимание уделяется целенаправленному внедрению инновационных и современных педагогических технологий в обучении. Именно поэтому количество инновационных технологий, интерактивных методов значительно растет. В настоящей статье описаны методы использования педагогических и информационно-коммуникационных технологий в преподавании учебного предмета «Биомедицинская физика».

Ключевые слова: биомедицинская физика, Кластерный метод, компьютер, видеопроектор, диагностические приборы, Рентгеновский свет, мультимедиа.

At present, for the development of education, great attention is paid to the targeted introduction of innovative and modern pedagogical technologies in teaching. That is why the number of innovative technologies, interactive methods is growing significantly. This article describes the methods of using pedagogical and information communication technologies in teaching the subject "Biomedical Physics".

Key words: biomedical physics, Cluster method, computer, video projector, diagnostic devices, X-ray light, multimedia.

Kirish. An'anaviy ta'limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim berish, talabalarning egallashi kerak bo'lgan bilimlarini mustaqil ravishda o'zlari qidirib topishga, tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Talabalar bilim saviyasini rivojlantirish va takomillashtirish mavzusi doimo ta'lim tizimida dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Shuning bilan birga ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida o'quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir [1, 2].

Asosiy qism. Biotibbiyot fizikasi fanining asosiy maqsadi, bo'lajak mutaxassislarda biologik obyektlardagi fiziologik, biofizik jarayonlarni tibbiyot qurilmalari yordamida to'g'ri talqin qilish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni singdirish, tashqi ta'sirlar oqibatida paydo bo'ladigan biofizikaviy o'zgarishlarni ko'rsatishdir. Tibbiyot qurilmalari yordamida biofizik ilmiy tadqiqot kuzatishlarida asosan fizikaviy usullar, masalan: elektron mikroskop, elektron paramagnitli rezonans (EPR), yadroviy magnitli rezonans (YMR), fluoresent, lyuminessensiya va neytron-aktivatsion tahlil kabi usullar keng qo'llanilmoqda. Biofizik jarayonlarni bunday zamonaviy tibbiyot qurilmalaridan foydalanilgan holda o'rganish, talabalar bilim saviyasini oshirishda katta samara beradi [2].

O'qituvchi dars jarayonini samarali bo'lishini ta'minlash uchun ma'ruza darslarida pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llagan holda quyidagi tartibda tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir (1-rasm):

1. Ma'ruza auditoriyasida kompyuter va videoproektor bo'lishi kerak.
2. Ma'ruza mavzusining texnologik xaritasi maqsadi, rejasi oldindan aniqlangan va ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.
3. O'qituvchi kompyuter va videoproektorni masofadan boshqarish orqali mavzu bo'yicha oldindan tayyorlab kelingan multimediali slaydlarni katta ekranda axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida namoyish etish orqali tushuntirib borishi kerak.



1-rasm. Zamonaviy o'qituvchining ish stoli

Bunday pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarning mavzuni yaxshi tushunishi va o'zlashtirishiga qulay imkoniyatlar yaratamiz. 1-jadvalda o'qituvchining dars jarayonini rejalashtirish bosqichlari keltirilgan.

1-jadval. O'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan dars jarayoni

Ish bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>Salomlashish, auditoriyani o'ziga qaratish va davomatni aniqlash.</p> <p>1.1. O'tilgan mavzu yuzasidan muammoli savollar berish orqali talabalarning bilimlarini aniqlash. Talabalarga ekranda keltirilgan misollarga o'z fikrlarini bildirishlari so'raladi. Buning uchun 10 minut vaqt ajratiladi. Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, fikr bildirishlar to'xtatiladi va javoblar tahlil qilinadi.</p> <p>1.2. Mavzuning nomi ekranga chiqariladi va reja keltiriladi.</p> <p>1.3. Ma'ruza boshlashdan oldin auditoriyaga "Rentgen nuri o'zi nima, kim, qachon aniqlangan, uning qanday hosil bo'lish shartlari va to'lqin uzunligi qanaqa?" degan savoli beriladi va 3-4 talabadan eshitilib, qisqa muhokama qilinadi, doskaga yoziladi va oxirigacha turadi.</p>	<p>1.1. Savollarga tezor javob berishadi.</p> <p>1.2. Tinglaydilar, mavzuni yozib oladilar.</p> <p>1.3. Yozib oladilar.</p>
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>2.1. O'qituvchi axborot-vizual materiallardan foydalanib ma'ruzani bayon etadi.</p> <p>2.2. "Rentgen nurlariga asoslangan diagnostik qurilmalar"ni bilasizmi?</p> <p>2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalari yozib olishlarini ta'kidlaydi.</p>	<p>2.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>2.2. Berilgan savolga javob berishadi.</p> <p>2.3. Tinglaydilar, yozadilar.</p>
Sho'rolar davrida quloq qilingan, mol-u davlati musodara etilib, peshonasiga "vatan xoini" tamg'asi bosilgan yurtdoshlarimiz chet ellardan panoh topdilar. Ko'pchiliklarining ota-onalari, sevikli yorlari, farzandlari vatanda qolib ketdilar. Ular bilan aloqa qilish taqiqlab qo'yildi. Ularning yaqinlari ham "vatan xoinining o'g'li yoki qizi" tamg'asi ostida yashashga majbur bo'ldilar. "O'zga yurtlarda yeb-ichish, kiyinish va ilm olishdan kamchiligim bo'lmasa-da, – deb yozadi Buxoro Sho'rolar hokimiyatining raisi Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, – professor Temirxo'ja, – otamdan eshitganim Turkiston degan yurtga borishni qirq uch yil kutdim. Vafotlaridan oldin yonlariga chaqirib: "Men senga hamisha yodingda tutishing uchun vatan hasratini qoldirdim", degan edilar. Otamning vasiyatini eshitgan onimdan boshlab men qayta vatanlik bo'ldim. Vatan mening ichimda ..." [2].

U. Mahkamov "Axloq-odob saboqlari" kitobida vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Vatan – har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Ona-Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg'uni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi" [3].

Vatan tuyg'usi haqida gapirar ekanmiz, avvalo, uning insonda mavjud psixologik his-tuyg'u ekanligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Vatan tushunchasini pedagogik nuqtayi nazardan o'rganganda esa insonda mavjud bo'lgan bilish faoliyatining umumiylikdan xususiylikka tomon boradigan fikr yuritish nuqtayi nazaridan yondashmoq lozim: demak, vatanning umumiy tushuncha ekanligi – bu insoniyat uchun yer kurrasining o'ziga makon etgani bo'lsa; millatning paydo bo'lishi va qaysi millat qayerni vatan deb bilishi esa bilish faoliyatining xususiy yo'lini belgilaydi.

Yuqorida ketirilgan ta'rif va tavsiflardan kelib chiqib, vatan tushunchasini boshlang'ich sinf o'quvchilari

uchun tushunarli tarzda quyidagicha bayon etishga harakat qildik.

Vatan – bu biz tugʻilib, voyaga yetayotgan zamin; qadrlayotgan qadriyatlar, mehnatkash xalq, mahalla, oila, qoʻni-qoʻshnilar, ajdodlarimizdan meros qolgan jonajon oʻlkamizdir.

Vatan, vatanparvarlik, vatanga eʼtiqod soʻzlari doimo biri-ikkinchisini toʻldirishi, ifodalashini inobatga olib, “vatanparvarlik” tushunchasining mazmuni, mohiyatini anglab olish lozim. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”da vatanparvarlik - kishilarning ona-yurtiga, oʻz vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy boʻlgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuygʻu, maʼnaviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning oʻz vatanlari taqdiri bilan bogʻliq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning oʻzlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yoʻlidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuygʻular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning oʻtmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon boʻladi [4].

A.Erkayevning “Maʼnaviyat – millat nishoni” kitobida vatanparvarlik tuygʻusi haqida quyidagicha fikr bildirilgan: - “vatanparvarlik” - eng avvalo, mustaqillikni mustahkamlashga ijobiy hissiy munosabatdir. Vatanparvarlik, shuningdek, eʼtiqod sifatida tegishli tushunchalar, qarashlar, gʻoyalar, ideallardan ham tarkib topadi. Vatanparvarlik minglab, millionlab xalq tomonidan istiqlolni mustahkamlashni, rivojlantirishni, uni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kengaytirish zaruriyatining asosiy tamoyillarini toʻgʻri tushunish, istiqlol manfaatlarini shaxsiy, guruhiy, sinfiy, mahalliy-mintaqaviy manfaatlardan ustun qoʻyishdir” [5].

Demak, vatanparvarlik tuygʻusi nasldan naslga oʻtadigan, tugʻma his-tuygʻular jamlanmasi emas, balki taʼlim-tarbiya jarayonining mahsulidir. Vatanparvarlik vatan boyliklari-yu, goʻzal tabiatidan faxrlanishgina emas, balki uni yanada mukammalroq his qilish, shu zamin uchun ter toʻkish, xalqning farovon hayoti uchun oʻz manfaatidan yurtdoshlari manfaatini yuqori qoʻyish, vatan himoyasiga shay turish, xalq qadriyatlarini kelajak avlodlarga meros qilib qoldirishda oʻz hissasini qoʻshish bilan namoyon boʻladigan xatti-harakatlar majmuasidir. Shu bilan birga, vatanga eʼtiqod vatanparvarlikni toʻldirib, mukammallashtirib boruvchi dunyoqarashning bir boʻlagidir.

Vatanga eʼtiqod, vatan ravnaqi yoʻlida xizmat qilish, kerak boʻlsa, vatan uchun jonini fido qilish xalqimizning azaliy eʼtiqodlaridan biridir. Shunday ekan, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida mustahkam eʼtiqodni shakllantirish pedagogik faoliyatning asosiy vazifasidir. Bu borada eʼtiqod tushunchasiga toʻxtalib oʻtish joizki, bu vatanga eʼtiqod tushunchasiga aniqlik kiritishga yordam beradi.

Eʼtiqod inson maʼnaviyatining yuksak choʻqqilaridan biri boʻlib, uning poydevorini bolalikdan boshlab yaratish, sogʻlom eʼtiqodli insonlarni tarbiyalash bilan barobardir. Vatanga eʼtiqodli insonlarni shakllantirishni maqsad qilib qoʻygan ekanmiz, eʼtiqod tushunchasi haqidagi ilmiy fikrlarga toʻxtalib oʻtamiz.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da eʼtiqodga shunday taʼrif keltirilgan: “Eʼtiqod” - arabcha soʻz boʻlib, qattiq ishonch, mahkam ushlangan maslak, dunyoqarash: biror kimsaga yoki narsaga boʻlgan ishonch, eʼtiqod, unga bogʻlangan umid; Xudoga, yoki, umuman, biror gʻayritabiiy kuchga ishonish; imon, din maʼnolarini anglatadi [6].

A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Joʻrayevlarning “Vatan tuygʻusi” kitobida “Eʼtiqod” - bu oʻz fikr va qarashlariga mahkam, sobitqadamlik bilan ishonish va oʻzgalarni ham oʻzidek hisoblab, ularning lafziga samimiyat bilan ishonishdir. Eʼtiqod jurʼatni, mardlikni, fidoyilikni taqozo qiladi. Bularsiz u quruq gʻoya boʻlib qolaveradi” [7] – deya talqin etiladi.

A.Erkayev “Maʼnaviyat – millat nishoni” kitobida shunday yozadi: “Eʼtiqod – shaxs, jamoa, guruh, jamiyat tomonidan muayyan gʻoyalarga, baho va meʼyorlarga ikkilanmasdan, shubha qilmasdan, qatʼiy ishonch asosida shakllangan eng muhim va barinchi darajali sobit tushunchalar, tasavvurlar va qarashlardir (ilm), ularni faol aqliy va hissiy qabul qilish, sevish (ishq), ularga ixlos qilish, vafodor boʻlish, oʻz ideallarini, ijtimoiy intilishlari va amaliyotini moslashtirishdir” [1; 29]. Olim “Milliy gʻoya va maʼnaviyat” nomli kitobida eʼtiqod haqidagi fikrlarini yanada teranroq ifodalaydi, yaʼni “Eʼtiqodning mazmunini ilm tashkil qiladi. Chunki, kishi nimaga eʼtiqod qilayotganini – nimaga ishonayotganligini, nimaga intilayotganini, nimaga oʻz xulq-atvorini, ijodini moslashtirishi lozimligini bilishi lozim. Bu ilm diniy yoki dunyoviy, yohud ularning maʼlum darajadagi qorishuvi boʻladimi, undan qatʼiy nazar, eʼtiqodning keng maʼnodagi hayotiy mazmunini tashkil etadi. Ilmsiz eʼtiqod yoʻq, boʻlishi mumkin ham emas” [8].

O.Musurmonova “Maʼnaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” asarida “eʼtiqod” haqida shunday fikr bildiradi: “Inson eʼtiqod bilan tirik, eʼtiqod bilan aziz va mukarramdur. Eʼtiqodi sof inson jamiyatning maʼnaviy pokligi, barkamolligi uchun kurasha oladi. Eʼtiqodi mustahkam xalq oʻzining diniy madaniyatiga, pok insoniy munosabatlar tizimiga ega boʻladi. Har qanday farovon turmush tarzi maʼlum eʼtiqodli, axloq normalari shakllangan jamiyatda qaror topadi, rivojlanadi” [9].

B.Qorayevaning fikricha, eʼtiqod – bu obyektiv hayotiylikning subyektiv tasvirlanishi, jamoat va alohida shaxslar tajribasini oʻzlashtirishning natijasidir. Eʼtiqodning zamirida esa bir-biriga mushtarak bogʻlangan axloqiy fazilatlar yaʼni vatanga eʼtiqod, sof vijdonlilik, poklik, sadoqat, mehr-oqibat yotadi. Eʼtiqod shaxs faoliyatining mustahkam motividir, uning yordamida shaxs oʻzini boshqaradi, kelgusi dasturini amalga oshiradi [10].

Biz eʼtiqod haqidagi tushunchalar va uning yoshlarda shakllanish qonuniyatlarining mohiyatini yanada

kengroq o'rganish maqsadida psixologiya fanida e'tiqod tushunchasining izohlanishiga e'tibor qaratdik. Bu esa mazkur tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson hayoti davomida to'plagan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayanib o'z ehtiyoj va manfaatlari uchun harakat qilish zaruriyatini anglashi jarayonida unda muayyan e'tiqod shakllanadi. Mazkur e'tiqod inson faoliyatining izchil, mazmunli, mantiqiy va muayyan maqsadli bo'lishini ta'minlaydi.

Har bir inson o'z e'tiqodi orqali yangi bilimlarni qayta baholaydi, ularni takror va takror tanqidiy o'zlashtiradi va anglaydi. Mazkur aqliy tahlil jarayonida kishilarning ma'naviy manfaatdorlik darajasi, ularda shakllangan barqaror ehtiyoj va qiziqishlar muhim rol o'ynaydi.

Muhokamalar va natijalar. Har bir inson voyaga yetish jarayonida o'z e'tiqodiga ega bo'lib boradi. Bu o'rinda uning bilim darajasi, dunyoqarashi, turmush tarzi va yashash sharoiti (o'sha joyda qaror topgan ijtimoiy va milliy-madaniy muhit), ijtimoiy mavqeyi muhim rol o'ynaydi. Shu bois, oilada ota-onalar, mahallada qo'ni-qo'shnilar va mahalla faollari, maktabda o'qituvchilar bundan doimo ogoh bo'lishlari lozim. Yoshlar ta'limi va tarbiyasiga e'tiborsizlik oqibatida yoshlarning ijtimoiy hayot hodisalariga ikkilanib munosabatda bo'lishi, jur'atsizligi, e'tiborsizligi va befarqligi, ularda e'tiqodning yetarli darajada shakllanmasligiga, e'tiqodsiz yoki loqaydligicha qolib ketishiga sabab bo'ladi.

E'tiqodi shakllanmagan kishilar ko'pincha boshqalarga ergashib yoki taqlid qilib yashaydilar. Sharoitga qarab goh u goh bu tomonga og'adilar. Chunki, ularning faoliyatida bilim, tajriba va mantiqiy izchillik yetarli bo'lmaganligi sababli ularda aniq qadriyat mezonlari va maqsad shakllanmagan bo'ladi. Ana shunday hollarda ulardagi e'tiqodiy bo'shliq illati taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi mumkin.

Ba'zi odamlarda e'tiqod ekstremistik, irqiy, shovinistik, tor siyosiy, iqtisodiy va mahalliy manfaatlar bilan cheklangan ko'rinishda ham shakllangan bo'lishi mumkin. Bunday holda e'tiqod buzg'unchilikka, beqarorlikka, insonlar va jamiyat manfaatlari zarariga xizmat qilishi, umumtaraqqiyotga to'siq bo'lishi muqarrar [10].

Jumladan, biz ham yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi fikrga keldik: e'tiqod dunyoqarashning bir ko'rinishi bo'lib, shaxs, jamoa, guruh, jamiyat tomonidan muayyan g'oyalarga (ular haqida ilmlarga ega bo'lgan holda) chin dildan ishonish, ergashishdir. U ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. E'tiqod o'z burchini anglagan, qattiq ishonch va mustahkam irodaga ega bo'lgan, har qanday vaziyatlarda ham sadoqatli bo'la olgan, vijdonini unutmagan insonlarda mustahkam bo'ladi.

Shuningdek, chin e'tiqodli kishilarda vatanga bo'lgan e'tiqod ham shakllangan bo'ladi. Vatanga bo'lgan e'tiqod vatanparvarlik bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi va o'zida ko'pgina sifat, jihatlarni hosil qiladi. Xususan, har qanday vaziyatlarda ham vatanga sadoqatli bo'lish, vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilish, o'z manfaatlaridan vatan manfaatlarini yuqori qo'yish, uni qo'riqlash hamda kerak bo'lsa, jonini fido qilish, o'z vatani haqida milliy g'urur va iftixorga ega bo'lish, uning tabiati va boyliklarini asrab-avaylash, vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish kabi ko'plab xislatlarga ega bo'lgan insonlarga haqiqiy vatanga e'tiqodli insonlar bo'la oladi. Ayniqsa, vatanparvarlikni e'tiqod darajasiga ko'tarilishi uchun shaxs, eng avvalo, o'zining mamlakati, millati, milliy tarixi, madaniyati to'g'risida keng ilmlarga ega bo'lishi kerak.

Vatanga e'tiqodning o'zagini sadoqat va vafodorlik tashkil etadi. Shu borada xalq orasida yuradigan bir rivoyatni keltirib o'tishni lozim topdik. Qadimda bir podshoh ko'p yurtlarni bosib olgan ekan. Faqat bittagina davlatni bosib olishdagi harakatlari zoya ketibdi. Shunda podshoh davlat maslahatchilarini yig'ibdi va ularga maslahat solibdi. Uzoq tortishuvlardan keyin, o'sha davlat ichidan tarafdor topish kerak degan fikrga kelishibdi. Tez orada bunday kishi topilibdi va podsho tomonidan ko'p va'dalar berilibdi. E'tiqodsiz o'sha kishi vatan darvozasi dushmanga ochib beribdi. Shunday qilib, sarhadlari mustahkam bir davlat birgina e'tiqodsiz kishi tufayli osongina qo'lga kiritilibdi. Podsho esa yigitni dorga osishni buyuribdi. Yigit dod solib, podshohni subutsizlikda ayblabdi.

– Men bergan va'damning ustidan chiqdim, – debdi podshoh. Senga atalgan saltanatimning eng baland joyi mana shu. Chunki, mana shu dor mening taxtimdan-da baland turibdi. Bundan boshqacha bo'lishi mumkin emas. Chunki, o'z vataniga, xalqiga xiyonat qilgan inson bizga sodiq bo'lishiga hech kim kafolat berolmaydi. Sen uchun munosib joy dor! – deb xitob qilgan ekan podshoh.

Bu rivoyatdan xulosa chiqarib aytishimiz mumkinki, barcha davrlarda ham vatanga xiyonat og'ir va kechirib bo'lmay gunoh sanalgan. Demak, qachonki kishida sadoqat, vafodorlik, iroda bo'lsagina chinakam vatanga e'tiqodli insonning siymosini ko'rish mumkin. Bunday kishilar vatan boshiga tashvish tushganda yoki boshqa vaziyatlarda o'zlarini tuta biladilar, o'z fikr va e'tiqodida mustahkam turadilar, har narsadan vatan tinchligi va osoyishtaligini ustun qo'yadilar, vatan ravnaqi yo'lidagi har qanday qiyinchiliklarni bartaraf etishga harakat qiladilar, qiyin vaziyatlarda ham o'zlarida kuch va iroda, matonat topa oladilar.

Vatanparvarlik yuksak e'tiqod, vatan va millat oldidagi mas'uliyat, yuksak burchni anglashdir. Ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan "Vatanni sevmoq iymondandir", – degan hadis zamirida ham xuddi shunday mazmun mujassam. Agar uzoq tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, vatanga e'tiqod tuyg'usi xalqimiz tomonidan qadimdan e'zozlanib kelinganining guvohi bo'lamiz. Ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan mashhur insonlarning xatti-harakatlari, vatan ravnaqi yo'lida chekkan zahmatlarini, bizgacha yetib kelgan asarlari hamda xalq og'zaki ijodi

orqali bilib olishimiz mumkin.

Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Nodirabegim, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Anbar Otin, Behbudiy, Cho'lpon kabilarning hayoti va ijodiy faoliyati, ayniqsa, vatanga e'tiqod haqidagi g'oyalari bugungi yangi jamiyatimiz taraqqiyoti uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Millatimizni dunyoga mashhur qilgan adabiy va ilmiy meroslar sirasiga "Avesto", Imom Al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "Osor al-Baqiya", Ibn Sinoning "Tib qonunlari", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning "Xamsa", "Lison-ut tayr", "Mahbub-ul-qulub", Boburning "Boburnoma", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" kabi noyob asarlarini kiritish mumkin.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan odob-o'g'itlar, pand-nasihatnomalar, diniy-falsafiy kitoblarda vatanga e'tiqod qilishga keng o'rin berilgan. Keyingi yillarda yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar tufayli bu manbalarni o'rganishga va ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, asrlarga tengdosh yozma bitiklar va xalq og'zaki ijodida, ya'ni afsonalar, ertaklar, rivoyatlar, maqollarda yuksak insoniy tuyg'ular ulug'lanadi. Bu manbalarning yosh avlodni vatanga e'tiqod ruhida tarbiyalashda ahamiyati nihoyatda kattadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni shakllantirishni pedagogik ilmiy muammo sifatida tahlil etar ekanmiz, eng avvalo, "Avesto"ning asrlar davomida insonlarni poklik, ilm egallash, mehnatsevarlik, tabiatni asrash kabi insonparvarlik g'oyalariga da'vat etib kelganligiga guvoh bo'lamiz. Bu bitikda vatanni sevish, o'zlari yashab turgan zaminni asrab-avaylash, unga e'tiborli bo'lish, vatanga e'tiqod haqidagi g'oyalar ham mavjudki, shubhasiz, bu g'oyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. "Avesto"da ona zamin, oila, vatan tushunchalari muqaddas sanalgan, shuningdek, ular zaminni sof saqlash uchun murdalarni yerga ko'mishni qattiq qoralaganlar. Ular murdalarni maxsus mis idishlarda dafn qilishni yo'lga qo'yishgan. Shubhasiz, bu kabi qoidalarga ajdodlarimiz rioya qilganlar, ona yerni muqaddas deb bilganlar va uni ifloslanishdan asraganlar.

Bundan ko'rinib turibdiki, bu yozma bitikda inson oila bo'lib yashashi, farzandlar tarbiyalab voyaga yetkazishi, rizq va nasiba hisoblanmish sigir saqlashi, shu oilani qo'riqchisi itlarni parvarish qilish kabi oila an'analarni davom ettirish g'oyalari ilgari suriladi. Demak, "Avesto"da oila muqaddas sanalgan, oila esa vatan demakdir, vatandagina insonlar baxtiyor yashaydilar.

"Avesto"ning bugungi davrimiz uchun qadriyat hisoblanishining boisi ham undagi g'oyalarning insonparvarligidadir, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni tarbiyalovchi manbalardan biri hamdir.

Xalqimizning uzoq o'tmishi, dunyoqarashi, vatanga muhabbati va sadoqati, bosqinchilarga qarshi nafratidan bizga darak berib kelayotgan solnomalaridan biri Urxun-Enasoy yodgorliklaridir. Bu turkiy tilda bitilgan yozma bitik VI-VIII asrlarda yaratilgan. Ushbu bitikda turkiylarning dushman qabilalariga qarshi mardonavor kurashlari, To'nyuquq kabi turkiy beklarning dovyurakligi, xalq oldidagi xizmatlari, jasur va mardligi, aqlli, tadbirkor inson ekanligi haqida hikoya qilinadi.

Darhaqiqat, dinning xalqimiz ma'naviyati, ruhiyatiga o'tkazayotgan ijobiy ta'siri nihoyatda kattadir, chunki islom dini doimo barcha millat xalqlarini chin e'tiqod, ezgulik, axloqiy poklik va ma'naviy yetuklikka da'vat etadi.

O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan haqiqiy vatanga e'tiqodli insonlarning siymosini ko'ramiz. Masalan, To'maris va Shiroq, Muqanna, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, ikkinchi jahon urushi yillarida halok bo'lgan ko'plab yigitlarning nomlarini keltirish mumkin. Bugungi kunda mustaqillik sharofati tufayli, ularning nomlarini g'urur va iftixor ila tilga olmoqdamiz, o'zbek xalqi ozodligi yo'lida chekkan zahmatlarini yuksak qadrlamoqdamiz. Bugun biz qadriga yeta boshlagan vatanimizni ota-bobolarimiz, jahonga mashhur sarkardalar, ma'rifatparvar kishilar ko'z qorachig'iday asrashgan, millat sha'ni va ornomusi uchun jang qilishgan. Shuning uchun ularning unutilmas nomlari tarixda qolib, og'izdan-og'izga o'tib, afsonaga aylangan bo'lsa ajab emas.

To'marisning yengilmas Kir II kabi qonxo'r podshoh ustidan g'alaba qozonishi o'z xalqi, vataniga bo'lgan muhabbati, chin e'tiqodining natijasidir. Bu kabi voqealar ikki yarim ming yil oldin yuz bergan bo'lsa-da, yosh avlodni vatanga e'tiqod ruhida tarbiyalashda o'z qadrini yo'qotgan emas.

Aslida vatan tuyg'usi har birimizning qonimizda bor. Qayerda bo'lmaylik, avvalo, vatan sog'inchidan o'rtanamiz. Ota-onamiz, opa-singillarimiz, aka-ukalarimiz, qishlog'imiz, shahrimiz, vatanimiz tomon talpinamiz, ularning barisi vatanimizdir, vatanimizning bir bo'lagidir. Qadimda safarga otlangan, vatandan quvg'in qilingan kishilar doimo vatanining aziz tuprog'ini yonlarida olib yurganlar. Bu hol boshqa xalqlarda ham mavjud. Masalan, Hind afsonasi "Ramayana"da ham vatan eng aziz narsa sifatida tilga olinadi.

Darveshlik sari otlangan Ram o'zi yashab turgan saltanat tuprog'idan bir siqim olib, uni doimo yonida saqlaydi.

Xulosa. Yuqorida e'tirof etganimizdek, Shayx Najmiddin Kubro, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy va Bobur singari mutafakkirlarimizning vatanga e'tiqod, vatanparvarlik haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari, vatan taraqqiyoti uchun qilgan ezgu ishlari bugungi kunda har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik tuyg'usi yuksak darajada shakllangan, milliy g'urur va iftixorimizga aylangan buyuk bobokalonlarimizning o'gitlarida o'z aksini topdi. Buni biz haqiqiy vatanga e'tiqodli yurtdoshlarimizdan biri Shayx Najmiddin Kubro faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Shayx Najmiddin Kubro yoshlarning vatanga muhabbatini oshirish bilan birgalikda, bir-birlariga mehr-oqibatli bo'lishga undadi. U haqiqiy vatanga e'tiqodli, el va xalqini ardoqlovchi, butun Xorazm xalqini o'zining jigarbandlari qatorida ko'ruvchi inson edi. Shayx Najmiddin Kubro hayoti va asos solgan "Kubroviya" tariqati orqali uning vatan, millat qadriyatlariga naqadar sodiq inson ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shayx o'z e'tiqodida mustahkam turib, islom tariqatidagi "og'ir kunda vatanni tashlab ketgan kishi iymonsizdir" degan aqidaga amal qildi.

Adabiyotlar

1. Qorayeva B. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari asosida yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy e'tiqodni tarbiyalash. Ped.fanl.nomz... yozilgan diss. - T., 1999.- 137 b.
2. Qurbonov T. Milliy g'urur va madaniy meros dialektikasi. -T.: "Zarqalam", 2006.- 98 b.
3. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari.- T.: "O'qituvchi", 1995.- 207 b.
4. Sodiqova T. Mehr qolur. - T.: "Mehnat", 1998. - 51 b.
5. Селевко Г.К. Воспитательные технологии. – М.: "НИИ" школьных технологий, 2005.- 320 стр.
6. Telegenov A. Xalq dostonlari vositasida o'smirlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash. ("Alpomish dostoni misolida"). Ped.fanl.nomz... yozilgan diss. - T.,1998. -140 b.
7. Tulenov J. Hayot falsafasi.- T.: "O'qituvchi", 1993. - 319 b.
8. Tulenov J., G'ofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. -T.: "O'qituvchi", 1996. -238 b.
9. Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. - T.: "O'qituvchi", 1997. -381 b.
10. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - T.: "O'zbekiston", 1998. - 335 b.
11. Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot. -T.: "O'zbekiston", 1999.

KEKSA YOSHDAGI KISHILAR UCHUN SOG'LOMLASHTIRUVCHI MASHG'ULOT METODIKASINING TAJRIBAVIY ASOSLARI

Maqolada keksa yoshdagi kishilarning yurak va qon tomirlari funksiyalarining pedagogik profilaktika jarayonlari tadqiq etilgan. Keksa yoshdagi kishilar organizmining funksional o'zgarishlar indeksi (FO'I)ga ko'ra darajaviy baholash, tadqiqot ko'rsatkichlarining statistik tahlil usullarini qo'llash orqali profilaktik vositalar tarkibi aniqlangan.

Kalit so'zlar: *pedagogik diagnostika, adaptiv moslashuv, funksional o'zgarishlar indeksi (FO'I), puls chastotasi, sistolik qon bosimi, diastolik qon bosimi, gomeostaz, donozologiya, organizmning premorbit holati.*

В статье рассматриваются педагогические процессы формирования функций сердца и сосудов у пожилых людей. Состав профильного инструментария определялся с использованием статистических методов оценки, статистического анализа показателей исследования, по индексу функциональных изменений (ФОИ) индивидуализма пожилого возраста.

Ключевые слова: *педагогическая диагностика, адаптивная адаптация, индекс функциональных изменений (ФОИ), частота пульса, систолическое артериальное давление, диастолическое артериальное давление, гомеостаз, донусология, преморбидное состояние организма*

The article examines the pedagogical prophylactic processes of the functions of the heart and blood vessels in elderly people. The composition of profilactic tools was determined by the use of statistical methods of assessment, statistical analysis of research indicators, according to the index of functional changes (FOI) of old age individualism.

Key words: *pedagogical diagnostics, adaptive adaptation, Index of functional changes (FOI), pulse frequency, systolic blood pressure, diastolic blood pressure, homeostasis, donusology, premorbit state of the organism.*

Kirish. Jahon tajribasidan ma'lumki, jamiyatning yoshi ulug' odamlarga bo'lgan e'tibori va g'amxo'rliqi uning insonparvarlik tamoyillari asosida ma'naviy va ma'rifiy jihatdan taraqqiy etganlik darajasini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan keksalarga g'amxo'rlik qilish, ularga mehr-oqibat, hurmat-ehtiromlar ko'rsatish har qanday jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

BMT tomonidan globallashtirish sharoitida keksalar salomatligini muhofaza qilish va ularning ijtimoiy hayotda to'laqonli ishtirokini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Dunyoning rivojlangan davlatlarida insonlarning hayotini uzaytirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, AQSHning Milliy gerontologiya markazida keksalar salomatligini saqlash, ijtimoiy himoyalash maqsadida ularni qo'llab-quvvatlash, qarilikni faollik bilan o'tkazishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Asosiy qism. Mustaqillik sharofati bilan yurtimiz har tomonlama taraqqiy etib rivojlanib borayotgan ekan, xalqimizning azaliy orzu-umidlari, istak va xohishlari ham ro'yobga chiqib, xalq ruhiyatida tub o'zgarishlar yuz berdi hamda shaxs kamoloti, qadr-qimmatiga katta e'tibor qaratildi. Bugungi kunda respublikamizda ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholining hayot sifatini yanada oshirish, jumladan, keksalarni ijtimoiy himoya qilish va turmush darajasini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning faoliyati, hayotiy ehtiyojlari, manfaatlari, qarashlari, maqsadlari, qadriyatlarini, yosh bilan bog'liq o'zgarishlarning hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish va tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyatni yangilash sharoitida keksalarning turmush tarzi, ularning faoliyati, hayotiy ehtiyojlari, manfaatlari, qarashlari, maqsadlari, qadriyatlarini, shuningdek, asosiy faoliyat mezonini tashkil etadigan, salomatligini muhofaza qilishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bunga esa mahalliy sharoit hamda milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda keksalarimiz salomatligi va sog'ligini tiklashga qaratilgan pedagogik diagnostika, jismoniy salomatlikning profilaktika vositalarini amalda qo'llash, tadqiq etish va ilmiy asoslangan tavsiyalarni keng aholi qatlamlari orasida ommalashtirish orqali erishish mumkin [1].

Xorijlik olim va olimlar tomonidan Xorkina N.A., Filippova A.V jismoniy tarbiya vositalarining keksa odamlar uchun quyidagi foydali tomonlari tahlil qilingan:

- keksa odamlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga undaydigan omillar aniqlangan;

- keksa aholining turmush tarzini yaxshilash bo'yicha rivojlangan mamlakatlar davlat siyosatining usullari va vositalari (federal va hududiy darajada) o'rganiladi;
- chet elda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tipologiyasini taqdim etadi; ularning eng muhimlari aniqlangan [6].

Y.V.Filippova tomonidan keksa odamlarning salomatlik holati va ijtimoiy munosabatlari o'rtasidagi aloqadorlik o'rganilgan. Qarishning asosiy gipotezalari tahlil qilinib, umr ko'rish davomiyligini belgilovchi omillar aniqlangan [4].

A.Sh.Inoyatov tomonidan Buxoro viloyati "Nuroni" jamg'armasi bilan hamkorlikda mahalliy sharoit hamda milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda, "Keksa yoshdagi kishilar uchun sog'lomlashtiruvchi individual dasturlar tuzish texnologiyasi" tizimi ishlab chiqilgan [2].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sharoitida xorijiy tajribadan foydalanish xususiyatlari muhokama qilinadi. Qarilikdagi psixofiziologik o'zgarishlar o'rganilgan. Sport va sog'lomlashtirish turizmining odamlar salomatligini saqlash va mustahkamlashdagi o'rni aniqlangan. Keksalik davrida jismoniy faollik rejimining asosiy prinsiplari, shuningdek, sog'liqni saqlash bilan bog'liq tadbirlarni tashkil qilishning mavjud shakllari tahlil qilingan.

Ammo adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda keksa yoshdagilar salomatligining pedagogik profilaktikasi, organizmning funksional o'zgarishlarini darajaviy baholash, pedagogik vosita va mashg'ulot shakllari samaradorligini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar deyarli o'tkazilmagan.

Tadqiqot maqsadi: keksa yoshdagilar yurak-qon tomir tizimining funktsionallik darajasini baholash va pedagogik profilaktika vositalar samaradorligini o'rganish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Tadqiqot guruhi ishtirokchilarining funksional o'zgarishlari indeksi (FO'I) o'lchovi bo'yicha organizmning adaptiv moslashuvchanlik xususiyatlarini o'rganish.

2. Adaptiv moslashuvchanlik xususiyatlariga ko'ra profilaktik jismoniy tarbiya vositalarini aniqlash.

Organizmining joriy holatini faqat atrof muhit shart-sharoitlariga adaptiv moslashuv darajasiga ko'ra baholash mumkin, jumladan adaptatsion mexanizmlarining kuchlanishi, qoniqarsiz moslashuv va adaptiv buzilishlar misol bo'la oladi. Adaptiv daraja - tashqi muhit ta'siriga organizmning tezkor javob reaksiyasi ko'rinishida baholashning prognostik (bashoratli) komponentini izohlaydi. Organizmning joriy holati bu tashqi muhit va organizm o'rtasidagi o'ziga xos shakllangan balans (muvozanat) xizmati bo'lib hisoblanadi.

Ta'kidlash joizkim, organizmdagi fiziologik funksiyalarning o'zgarishi, xususan, miokard-gemodinamik gomeostazning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan organizmning moslashuv imkoniyatining pasayishi, qon bosimining ko'tarilishi va tashqi qon-tomir tizimi funksiyasining pasayishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, donozologik sharoitlarda fiziologik parametrlarning kuzatilgan o'zgarishlari, qoida tariqasida, klinik norma deb ataladigan chegaradan tashqariga chiqmaydi va shuning uchun odatda aholini dispanser va profilaktik tekshiruvlarida shifokorlar nazaridan tashqarida qoladi. Natijada, ma'lum bo'lganidek, faqat kasallikning o'ziga xos donozologik shakllarining rivojlanishi bilan moslashishning muvaffaqiyatsizligi terapevtik choralar uchun asos bo'ladi. Eng yaxshi holatda, kasallikning dastlabki belgilarini oldindan aniqlash bilan faqat ikkilamchi profilaktika choralari qo'llash mumkin.

Jismoniy salomatlik darajasini aniqlash uchun amaliy va axborotlilik ahamiyatiga ko'ra eng qulay bo'lgan - shaxsning bioenergetik zaxiralari asoslangan individual salomatlik darajasini ekspres baholash (G.L. Apanasenko, 1988) metodikasi aholi keng qatlamlari o'rtasida organizmning moslashuvchanlik mexanizmlarini o'rganishda qulay usul. Ushbu metodikada profilaktik tekshiruvlar orqali olingan asosiy morfologik va funksional ko'rsatkichlarga (bo'yi, vazni, yurak urishi, qon bosimi) muvofiq nisbiy xususiyatlar - indekslarni hisoblash va shu asosda salomatlikni baholashning qiyosiy-me'yoriy talab ko'rsatkich (past, o'rtacha darajadan past, o'rtacha, o'rtacha darajadan yuqori, yuqori)larining ishonchliligi va axborotlik mezonlari tajribaviy tasdiqlangan. Organizmning gomeostatik tizimi - yurak-qon tomir tizimining funktsionallik darajasini baholash uchun maxsus indeks - funksional o'zgarishlar indeksi (FO'I) ishlab chiqilgan [5]. Yuqoridagi metodika qon aylanish tizimining adaptiv salohiyati (potensial)ni hisoblash usuli (R.M. Bayevskiy, 1987) "donozologik diagnostika"da qo'llanilib kelingan bo'lib, organizm tizimlarining me'yoriy va patologiyasi bilan chegaradosh funksional holatlarni aniqlashga qaratilgan. U quyidagi formula yordamida ballarda hisoblanadi:

$$FO'I = 0,011 \cdot PCh + 0,014 \cdot SQB + 0,008 \cdot DQB + 0,014 \cdot Yo + 0,009 \cdot V - (0,009 \cdot B + 0,27).$$

Bu yerda: Yo - yoshi, yillari; V - tana vazni, kg; B - bo'yi, sm; SQB - sistolik qon bosimi, mm. simob ustuni; DQB - diastolik qon bosimi, mm simob ustuni; PCh - puls chastotasi 1 daqiqada.

Organizmning funksional o'lchovlari asosida qon aylanish tizimining moslashuvchanligi baholanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Organizmning funksional o'zgarishlari bo'yicha umumiy baholash mezonlari

№	FO'I me'yorlari	Qon aylanish tizimining moslashuvchanligini baholash mezonlari
1	2.1 va undan past	Qoniqarli moslashish
2	2,11 – 3,20	Moslashuv mexanizmlarining zo'riqishi
3	3.21 - 4.30	Qoniqarsiz moslashish
4	4.31 va undan yuqori	Moslashuv mexanizmlarining buzilishi

Muhokamalar va natijalar. Buxoro shahar "Chorbaxossa" mahallasida istiqomad qiluvchi, tibbiyot xulosasiga ko'ra surunkali kasalliklari kuzatilmagan 55 yoshdan 72 yoshgacha bo'lgan yigirma (8 nafar ayol, 12 nafar erkak) keksa yoshdagi kishilardan tarkib topgan tajriba guruhi tanlab olindi. 2020-yil oktabr oyidan, 2021-yil mart oyigacha bo'lgan muddatda kuzatuvda bo'ldilar. Ularning yashash sharoiti, ovqatlanish va kun tartibi, oldin va hozirgi ish faoliyatlari o'rganildi. Tajriba guruhidagi keksa yoshdagi kishilarning funksional imkoniyatlarini aniqlash maqsadida organizmning tinch holatida, ularning yoshi, tana vazni, bo'yi, SQB (sistolik qon bosimi), DQB (diastolik qon bosimi), PCh (puls chastotasi) ko'rsatkichlari kunning birinchi yarmida qayd etildi. Qayd etilgan ko'rsatkichlar asosida organizmning adaptiv salohiyatining chegaraviy holati va unga muvofiq moslashuvchanlik imkoniyati, ya'ni salomatlik xaziralarning darajaviy xususiyatlari statistik tahlil qilindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval. Tadqiqot ishtirokchilari organizmning funksional o'zgarish indeksi ko'rsatkichlari bo'yicha statistik tahlil natijalari

№	Nazorat sifatleri va o'lchov birliklari	Tajriba boshida n=20		Tajriba oxirida n=20		Farqi	%	t	p
		$\bar{X} \pm \Omega$	%	$\bar{X} \pm \Omega$	%				
1	Tinch holatda yurak tomir qisqarish soni (bir daqiqali marta)	77,5±2,5	3,3	72,9±1,1	1,5	4,6	94,0	7,4	P>0.001
2	Yuqori sistolik qon bosimi (simob ustun ml)	144,7±7,3	5,0	130,0±3,9	3,0	14,7	89,7	7,9	P>0.001
3	Pastki diastolik qon bosimi (simob ustun mm)	100,7±10,1	10,0	86,0±5,5	6,4	14,8	85,4	5,7	P>0.01
4	Vazn o'lchami (kg)	86,0±11,5	13,4	77,2±8,2	10,7	8,8	89,7	2,7	P > 0.05
5	Bo'y o'lchami (sm)	172,9±8,5	4,9	172,9±8,5	4,9	0	100	0,0	P<0.1
6	Adaptiv salohiyat indeksi	3,5±0,1	3,9	3,1±0,1	3,2	0,4	88,5	11,5	P>0.001

Keksa yoshdagi kishilar organizmning individual qiymatlari bo'yicha statistik hisoblash ishlari amalga oshirildi:

1. Tinch holatda yurak tomir qisqarish soni (bir daqiqali, marta).

O'rtacha arifmetik ko'rsatkich qiymatini aniqlash formulasi:

$$\bar{X}_1 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{1550}{20} = 77,5 \quad \bar{X}_2 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{1457}{20} = 72,9$$

O'rtacha kvadrat farqlanishini aniqlash formulasi:

$$\sigma_1 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{125}{19}} = 2,56 \quad \sigma_2 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{24,6}{19}} = 1,14$$

Variatsiya koeffitsientini aniqlash formulasi:

$$V_1 = \frac{\sigma}{\bar{x}} * 100\% = \frac{2,56}{77,5} * 100\% = 3 \quad V_2 = \frac{\sigma}{\bar{x}} * 100\% = \frac{1,14}{72,9} * 100\% = 1,56$$

2. Yuqori sistolik qon bosimi (simob ustuni ml).

O'rtacha arifmetik ko'rsatkich qiymatini aniqlash formulasi:

$$\bar{X}_1 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{2895}{20} = 144,7 \quad \bar{X}_2 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{2600}{20} = 130,0$$

O'rtacha kvadrat farqlanishini aniqlash formulasi:

$$\sigma_1 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{1023}{19}} = 7,34 \quad \sigma_2 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{300,0}{19}} = 3,97$$

Variatsiya koeffitsientini aniqlash formulasi:

$$V_1 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{7,34}{144,7} * 100\% = 5,07 \quad V_2 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{3,97}{130,0} * 100\% = 3,05$$

3. Pastki diastolik qon bosimi (simob ustuni mm).

O'rtacha arifmetik ko'rsatkich qiymatini aniqlash formulasi:

$$\bar{X}_1 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{2015}{20} = 100,7 \quad \bar{X}_2 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{1720}{20} = 86,0$$

O'rtacha kvadrat aniqlanishini aniqlash formulasi:

$$\sigma_1 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{1963}{19}} = 10,16 \quad \sigma_2 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{580,0}{19}} = 5,52$$

Variatsiya koeffitsientini aniqlash formulasi:

$$V_1 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{10,16}{100,7} * 100\% = 10,08 \quad V_2 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{5,52}{86,0} * 100\% = 6,41$$

4. Yosh oralig'i.

O'rtacha arifmetik ko'rsatkich qiymatini aniqlash formulasi:

$$\bar{X}_1 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{1334,0}{20} = 66,7 \quad \bar{X}_2 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{1334,0}{20} = 66,7$$

O'rtacha kvadrat farqlanishini aniqlash formulasi:

$$\sigma_1 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{394,2}{19}} = 4,55 \quad \sigma_2 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{394,2}{19}} = 4,55$$

Variatsiya koeffitsientini aniqlash formulasi:

$$V_1 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{4,55}{66,70} * 100\% = 6,82 \quad V_2 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{4,55}{66,70} * 100\% = 6,82$$

5. Vazn o'lchami (kg).

O'rtacha arifmetik ko'rsatkich qiymatini aniqlash formulasi:

$$\bar{X}_1 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{1720,0}{20} = 86,0 \quad \bar{X}_2 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{1545,0}{20} = 77,25$$

O'rtacha kvadrat farqlanishini aniqlash formulasi:

$$\sigma_1 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{2546}{19}} = 11,5 \quad \sigma_2 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{1301,8}{19}} = 8,27$$

Variatsiya koeffitsientini aniqlash formulasi:

$$V_1 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{11,57}{86,0} * 100\% = 13,45 \quad V_2 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{8,27}{77,25} * 100\% = 10,70$$

6. Bo'y o'lchamining (sm).

O'rtacha arifmetik ko'rsatkich qiymatini aniqlash formulasi:

$$\bar{X}_1 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{3459,0}{20} = 172,9 \quad \bar{X}_2 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{3459,0}{20} = 172,9$$

O'rtacha kvadrat farqlanishini aniqlash formulasi:

$$\sigma_1 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{1401,0}{19}} = 8,59 \quad \sigma_2 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{1401,0}{19}} = 8,59$$

Variatsiya koeffitsientini aniqlash formulasi:

$$V_1 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{8,59}{172,9} * 100\% = 4,9 \quad V_2 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{8,59}{172,9} * 100\% = 4,96$$

7. Adaptiv salohiyat indeksi.

O'rtacha arifmetik ko'rsatkich qiymatini aniqlash formulasi:

$$\bar{X}_1 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{71,3}{20} = 3,56 \quad \bar{X}_2 = \frac{\sum X_i}{n} = \frac{62,2}{20} = 3,11$$

O'rtacha kvadrat farqlanishi aniqlash formulasi:

$$\sigma_1 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{0,4}{19}} = 0,14 \quad \sigma_2 = \sqrt{\sigma^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{0,10}{19}} = 0,10$$

Variatsiya koeffitsientini aniqlash formulasi:

$$V_1 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{0,14}{3,56} * 100\% = 3,93 \quad V_2 = \frac{S}{X} * 100\% = \frac{0,10}{3,11} * 100\% = 3,21$$

Tadqiqot guruhi ishtirokchilarining funksional o'zgarishlari bo'yicha umumiy baholash mezonlari adaptiv salohiyat indeksi natijalari tahlil qilinganda o'rtacha arifmetik ko'rsatkichiga ko'ra adaptiv salohiyati tajriba boshida $3,5 \pm 0,1$, har kunlik 30 daqiqadan oshmagan holda mustaqil mashg'ulot o'tash davridan keyin tajriba oxirida $3,1 \pm 0,1$ qiymatga teng natija aniqlandi. Dastlabki (tajriba boshida) o'lchov natijalarining

aksariyatida qon aylanish tizimining moslashuvchanligini baholash mezonlarida (tadqiqot guruhining o'rtacha arifmetikasi) "Qoniqarsiz moslashish" aniqlandi.

Odatiy ish yuklamalariga javoban organizmning adaptiv imkoniyatining pasayishi bilan vaqtinchalik qoniqarsiz moslashishning funksional taranglik holati yuzaga keladi. Asta-sekin adekvat profilaktika choralari qo'llanilmagan taqdirda, funksional qoniqarsiz moslashishi aniq, keyinchalik esa keskin ifoda etiladigan holatga aylanadi. Agar yuklamalarning noodatiyligi yoki organizmning adaptiv imkoniyatlari sezilarli darajada pasayishi (masalan, kasallik) sababli yetarli darajada tiklanmagan bo'lsa, qoniqarsiz moslashishning keskin o'sishi va tartibga soluvchi mexanizmlarning haddan tashqari qoniqarsiz moslashish holatiga olib keladi. Bunday vaziyatda, kasbiy kasalliklarning dastlabki bosqichi sifatida "premorbid" holati (kasallikdan oldingi va kasallik rivojlanishiga moyillik holati, organizmning himoya va moslashuv kuchlarida zo'riqish, yoki zaifligi (misol: kam harakat, tashqi ta'sirlar)) yuzaga chiqadi.

Ammo an'anaviy kasbiy patologiya deyarli "premorbid" holatlarning ikkinchi bosqichidan boshlanadi, bu yerda gomeostaz holatidan bezovta bo'lgan ba'zi organlar va tizimlarida o'ziga xos o'zgarishlarning boshlanganligiga ishora beradi. Shu bilan birga, kompensatorli mexanizmlarning xususiyatiga ko'ra kasallik unchalik namoyon bo'lmasligi bilan kompensatorli xarakterga egaligi ma'lum bo'ladi.

Keksa yoshli odamlarda jismoniy faoliyati. Inson tanasining qarishi uning hayotidagi tabiiy bosqichdir. Ammo qarilik asoratlari insonning ruhiy va jismoniy holatida mavjud bo'ladigan tabiiy jarayondir. Insonning funksional holati 30-40 yoshda qarigan yoki 70-80 yoshda yosh bo'lishi mumkin.

Umr ko'rishni iloji boricha uzaytirish mumkin, nafaqaga chiqqanda va faol ijtimoiy mehnat faoliyati to'xtatilgandan keyin ham maxsus sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni odat sifatida qabul qilish - ko'p jihatdan insonning o'ziga bog'liqdir.

Tana qarishining tezlashishi va sekinlashuviga ta'sir qiluvchi eng muhim omil, ayniqsa keksalik davrida, insonning o'z faoliyati va, eng avvalo, uning jismoniy va ijtimoiy faolligini ta'minlovchi jismoniy madaniyatiga bog'liq [3].

Yurak-qon-tomir va nafas olish, tayanch-harakat tizimini mashq qildirish, yuqumli kasalliklar va depressiya xavfini kamaytirish uchun quyidagi jismoniy mashg'ulot metodikalari tavsiya etiladi.

Jismoniy faollikning keksa odam tanasiga ta'siri. Jismoniy faollik birinchilardan bo'lib yurak-qon tomir tizimiga ta'siridir. Yurak tomirlarida qon oqimining ko'payishi bu yurak mushaklarining oziqlanishini yaxshilaydi va oksidlanish – qayta tiklanish jarayonlarini rag'batlantiradi. Bu yurakning tejamkor faoliyati bilan tinch holatda uning qisqarishi kamroq bo'ladi va dam olishga ko'proq vaqt hosil bo'ladi.

Jismoniy mashqlar kapilyar qon tomirlarni faollashtiradi. Bunda qon aylanishida to'liq ishtirok etmaydigan yopilgan mayda tomirlar ochilib, qonning katta hajmini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bularning barchasi qondan kislorod va ozuqa moddalarining organ va hujayralariga yetib borishini, shuningdek, hujayradan metabolik hosilalar qon oqimiga chiqishini osonlashtiradi. Natijada: suyak tizimini mustahkamlaydi; depressiyaga moyillikni pasaytiradi, uyquni yaxshilaydi; ovqat hazm qilish jarayoni yaxshilanadi; jismoniy va intellektual ko'rsatkichlar oshadi; yurak xastaligi xavfi kamayadi; qarish jarayonlari sekinlashadi; immunitet tizimining holati yaxshilanadi.

Keksa yoshli kishilar uchun jismoniy tarbiyaning xususiyatlari. Keksa yoshda yurak, nafas olish, tayanch harakat apparatlari, asab va boshqa barcha tizimlarning faoliyatida tabiiy regressiv o'zgarishlar yuz beradi. Keksa yoshdagilar uchun stressdan keyin umumiy holatni qayta tiklanish tezligini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya mashqlari (jismoniy yuklama) yengilroq va shikastlanish ehtimolidan holi bo'lishi kerak. Organizmga yuqori talab qo'yilmaydigan va oson me'yorlanadigan jismoniy mashqlarga ahamiyat qaratiladi. Umumiy chidamlilik, egiluvchanlik va kordinatsion (harakatlarni muvofiqlashtirish) harakat amallarini rivojlantirishga e'tibor beriladi. Kuch va tezkorlik mashqlarini bajarish ko'p ham shart emas. Asta-sekin mashg'ulotlarga o'rtacha shiddat bilan me'yorgangan yurish, yugurish, velosiped, suzish va boshqalarni kiritish. Agar ushbu mashqlar sikllarda va har kunlik kamida 10 daqiqa davomida bajarilsa, eng samarali ta'sir xususiyatlari namoyon bo'lib boradi. Sog'lomlashtirish mashg'ulotlari davomida o'z-o'zini boshqarish va tibbiy nazoratga e'tibor berish muhim. O'z-o'zini boshqarish: salomatlik, uyqu, ishtaha, puls, vazn, nafas olishning subyektiv baholanishiga asoslangan. Bunga, albatta, har kunlik amal qilib borish bilan odat qilish mumkin. Dastlabki, mashg'ulotlarni boshlashga qaror qilganlar, mashg'ulotning dastlabki kunlarida mushaklarda og'riq, charchoq, sustlik tabiiy kechuvchi jarayon bo'lib hisoblanadi, shu sababli mashqlarini to'xtatmaslik kerak.

Eng samarali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulot turlari quyidagilar: ertalab gigiyenik gimnastika, davolash gimnastikasi, me'yorgangan yurish, piyoda sayr, sport o'yinlari. Mashg'ulot shakllarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga va vazifalarga ega. Sog'lomlashtiruvchi mashg'ulot terapiyasi shifokor yoki instruktor-metodist tomonidan belgilanadi. Keksa yoshlilar uchun ba'zi tavsiyalar. Jismoniy madaniyat bilan

shug'ullanishni boshlashdan oldin (agar siz anchadan beri shug'ullanmagan bo'lsangiz) o'zingiz yoki mashqlar terapiyasi guruhida tibbiy ko'rikdan o'tib, shifokor yordamiga murojaat qilishingiz shart.

Quyidagi "xavfsizlik choralari"ni o'zlashtirish va amal qilish tavsiya etiladi:

1. Jismoniy mashqlarni to'g'ri bajarishni o'rganish, mashq me'yorlariga amal qilish, sog'lomlashtiruvchi mashqlardan iborat mashg'ulot tizimini shakllantirish. Birinchidan, nafas olish mashqlari va kichik mushak guruhlari va bo'g'imlari uchun mashqlar vositasida organizmni asosiy mashqlarga tayyorlash. Keyin yetarli va optimal jismoniy va emotsional yuklama berish va mashg'ulot oxirida organizmni dastlabki holatda qaytarish. Mashg'ulot davomida to'g'ri nafas olish va harakat qilish muhimdir.

2. Asta-sekin "oddiydan murakkabga" va "kamroqdan ko'pga" o'tish, jismoniy mashqlarni murakkablashtirmasdan, ularning hajmini va shiddatini oshirish muhim.

3. Organizmning jismoniy va funksional imkoniyatlarini doimiy ravishda rivojlantirish, mashg'ulotlar natijasida o'zlashtirilgan mashqlarni mustahkamlash va salomatlikni yaxshi darajada qo'llab-quvvatlaydigan mashg'ulotlarni keskin to'xtatish tavsiya etilmaydi.

4. Har qanday vaqtda shug'ullanish mumkin, faqat tushlikdan keyin emas. Ovqatlangandan so'ng odam biroz bo'shashadi, qorin bilan harakat qilish qiyinlashadi, shuning uchun bu vaqtdagi mashg'ulotlar foyda keltirmaydi.

Keksa yoshdagi kishilar uchun mustaqil mashq qilish metodlari:

- oyoqlarni yelka kengligida va qo'llarni belda, burun orqali nafas olib, og'izdan chiqarish (20 soniya);
- d.h., yurish, dastlab sekin, so'ngra asta-sekin tezlashadi va mashqlar oxirida yana sekinlashadi, nafas olish va qo'llarni bo'sh qo'yish (2 daqiqa);

- d.h., oyoqlar yelka kengligida, oyoq uchida gavdani hamda qo'llarni yon tomondan yuqoriga nafas olish bilan birgalikda ko'tarish, nafasni chiqarish bilan birga qo'llarni pastga tushirish (2-5 marta);

- d.h., oyoqlarni yelka kengligida, qo'llarni belda, sekin boshni oldinga va orqaga aylantirish (1 daqiqa);

- d.h., qo'llarni "qaychi"simon harakatlantirish, qulochlarni yon tomonga yoyganda - nafas olish, qulochlarni yopganda - nafasni chiqarish (2-5 marta);

- d.h., oyoqlarni yelka kengligida, qo'llarni belda, yelkalar bilan birga oldinga, nafas olgan holda va orqaga nafasni chiqargan holda aylantirish (har tomonga 2-5 marta);

- d.h., oldingi mashqqa o'xshash, faqat qo'llarni to'g'riga cho'zgan holda aylanma harakat qilish (har tomonga 2-5 marta);

- d.h., oyoqlarni yelka kengligida, qo'llarni belda, nafas olish bilan birga tanani o'ngga va nafasni chiqarganda chapga burish (har tomonga 2-5 marta);

- d.h., oyoqlar yelka kengligida, qo'llar belda, tizzani bukib, oyoqni ko'tarish va bir vaqtning o'zida nafas olib qo'llarni qarama-qarshi tomonga ko'tarish, dastlabki holatda nafas chiqarib qaytish (har tomonga 2-5 marta);

- d.h., oyoqlar yelka kengligida, nafas olib, gavdani oldinga egish, qo'llarni bosh ustida yer teksligida cho'zish (har tomonga 2-5 marta);

- d.h., yerga o'tirib oyoqlarni oldinga cho'zib nafas olish, oldinga egilib qo'llar bilan oyoq uchiga tekkizish va nafas chiqarish (har tomonga 2-5 marta);

- d.h., to'shakda yotgan holda nafas olish, bukilgan oyoqlarni qorin tomon tortib nafas chiqarish, nafas olish bilan oyoqlarning orasini ochish, nafas chiqarish bilan oyoqlarni yig'ish va nafas chiqarish bilan oyoqlarni cho'zish (2-3 marta);

- d.h., stul orqasida, oyoqlarni juftlash, turgan holda nafas olib o'tirish va nafas olib turish (2-5 marta);

- d.h., har xil tezlikda va har xil balandlikda tizzalarni ko'tarib yurish (2 daqiqa);

- d.h., oyoqlar yelka kengligida, oyoq uchiga ko'tarilib nafas olib qo'llarni yuqoriga cho'zish, pastga nafas chiqarib qo'llarni tushurish (2-5 marta). Mashg'ulotlarni boshlash uchun avval ushbu mashqlarni eng kam hajmi va shiddatiga ko'ra takrorlash, takroriy sonini asta-sekin 20 martaga yetkazish kerak. Yoshga nisbatan, oldingi va hozirgi mehnat tajribasi, organizmning holati va imkoniyatlariga, jismoniy tayyorgarlik darajalariga, insonning individual xususiyatlariga qarab takrorlanishlar soni va, umuman olganda, yuklamaning shiddati va davomiyligi belgilanadi [3].

Xulosa. 55 yoshdan 72 yoshgacha bo'lgan yigirma nafar keksa yoshdagi kishilarning funksional imkoniyatlari: organizmning tinch holatida, ularning yoshi, tana vazni, bo'yi, SQB (sistolik qon bosimi), DQB (diastolik qon bosimi), PCh (puls chastotasi) tajriba boshi va oxiridagi ko'rsatkichlar o'rtasida ishonchli ($P>0.001$) farq aniqlandi. Tadqiqot davrida o'tkazilgan sog'lomlashtirish mashg'ulotlari samarasida keksa yoshdagilar organizmning adaptiv salohiyatining chegaraviy holati va unga muvofiq moslashuvchanlik imkoniyati, ya'ni salomatlik zaxiralarning darajaviy xususiyatlarining ijobiy o'sish farqi

83 %ni tashkil etdi. Demak, yoshga xos sog'lomlashtiruvchi jismoniy faol mashqlar bilan shug'ullanish orqali keksa yoshdagilarning adaptiv moslashuvchanligini ijobiy o'zgartirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Inoyatov A.Sh. Keksalar yoshdagi kishilar uchun sog'lomlashtiruvchi yo'nalishdagi individual dasturlarni tuzish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disseratsiyasi. – Chirchiq, 2019. – 137 b.
2. Inoyatov A.Sh. Keksalar salomatligi-yurt boyligi. –Buxoro, 2021.
3. Мотовилова С.Г. Физическая активность в пожилом возрасте Заведующий отделом общественного здоровья. 28-31-56. URL: <http://mogilev.gov.by/zdorovye-goroda-i-poselki/37394-fizicheskaya-aktivnost-v-pozhilom-vozhaste.html>
4. Saliyeva Z. T. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.f.d., diss. avtoreferat. – Toshkent, 2017. – 66 b.
5. Филиппова Елена Владимировна. Содержание оздоровительных занятий с пожилыми людьми на основе использования средств спортивного туризма: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.04. -Краснодар, 2015.- 151 с. URL: <http://www.dslib.net/fiz-vospitanie/soderzhanie-ozdorovitelnyh-zanjatij-s-pozhilymi-ljudmi-na-osnove-ispolzovaniya.html>
6. Хоркина Н.А., Филиппова А.В. Физическая активность пожилых людей как объект управляющего воздействия государства. -2015. URL:<http:file:///C:/Users/User/AppData/Local/Microsoft/Windows/>

Яхши ФАЙЗИЕВ

Преподаватель межфакультетской кафедры
физической культуры и спорта Бухарского
государственного университета

Сафия БОЗОРОВА

студентка 2 го курса
Лауреата премии имени “Зульфия”

ИСКУССТВО ОБЩЕНИЯ

На тему “Искусство общения” является для меня чрезвычайно интересной, так как я по роду своей деятельности веду творческие занятия с детьми и подростками. Можно сказать, Творю и общаюсь, общаюсь и творю. Кроме того, общение и творчество пронизывает жизнь, практически, каждого человека.

Ключевая слова: преподаватель, грубость, неумение слушать и слышать, нежелание понять другого, равнодушие, нетерпимость к чужим ошибкам, нежелание прощать, эгоизм, разобщенность.

“Muloqot san’ati” mavzusi men uchun juda qiziq, chunki men o‘zimming ishim bo‘yicha bolalar va o‘spirinlar bilan ijodiy faoliyat olib boraman. Men yarataman va muloqot qilaman, muloqot qilaman va yarataman deyishingiz mumkin. Bundan tashqari, muloqot va ijodkorlik deyarli har bir inson hayotiga singib ketgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, qo‘pollik, tinglash va eshita olmaslik, boshqasini tushunishni istamaslik, befarqlik, boshqalarning xatolariga toqat qilmaslik, kechirishni istamaslik, xudbinlik, tarqoqlik.

The topic “The Art of Communication” is extremely interesting for me, since by the nature of my work I conduct creative activities with children and adolescents. You can say I create and communicate, communicate and create. In addition, communication and creativity permeates the life of almost every person.

Key words: teacher, rudeness, inability to listen and hear, unwillingness to understand another, indifference, intolerance to other people's mistakes, unwillingness to forgive, selfishness, disunity.

Введения. Всякая деятельность предполагает объединение людей. Но никакая человеческая общность не может осуществлять полноценную совместную деятельность, если - не будет установлен контакт между людьми, в нее включенными, и не будет достигнуто между ними должное взаимопонимание. Так, например, для того, чтобы учитель мог обучить чему-либо учеников, он должен вступить с ними в общение. Общение - это многоплановый процесс развития контактов между людьми, порождаемый потребностями совместной деятельности. Общение включает в себя обмен информацией между ее участниками, который может быть охарактеризован в качестве коммуникативной стороны общения. Вторая сторона общения - взаимодействие общающихся - обмен в процессе речи не только словами, но и действиями, поступками. И, наконец, третья сторона общения предполагает восприятие общающимися друг друга. Сложный, многоплановый процесс установления и развития контактов между людьми, порождаемый потребностями в совместной деятельности и включающий в себя обмен информацией, выработку единой стратегии взаимодействия, восприятие и понимание другого человека;

Общение деловое Преподаватель - ученик; директор - преподаватель; мастер - рабочий;
ЛИЧНОСТНОЕ Друзья, враги, знакомые, приятели...

Что мешает нам в общении?

- Грубость
- Неумение слушать и слышать
- Нежелание понять другого
- Равнодушие
- Нетерпимость к чужим ошибкам
- Нежелание прощать
- Эгоизм
- Разобщенность

Коммуникабельность - способность человека к коммуникации, установлению контактов и связей. Коммуникабельность – готовность и умение легко устанавливать, поддерживать и сохранять позитивные контакты в общении и взаимодействии с окружающими.

Речь – главное средство общения. Далеко не каждый умеет правильно реализовать, использовать язык в своей речи. М.В. Ломоносов говорил, что не язык, а именно речь говорящего, а значит, сам говорящий, виноват в том, что “ежели чего точно изобразить не может”.

ПОИСК ОПОРЫ. Учить и воспитывать - это как молния на куртке: обе стороны застегиваются одновременно и накрепко неторопливым (!) движением замка - творческой мысли. Какой должна быть эта соединяющая мысль? Многих сегодня книга зовет в литературу, меня, пожалуй, больше в жизнь. Ибо общение с **КНИГОЙ** - это прежде всего **общение с жизнью!** **“Понять** хочется дела-то **человеческие...**” Реплика горьковского Луки - в чем-то **ключ** к уроку **литературы.** Этими делами словесник **нужен и интересен ребятам.** Эти дела дают смысл и высокую **цель всей** его работе и жизни. “Без серьезного пег прекрасного”, - говорил Чехов. Серьезное - жизнь во всех ее проявлениях, сам человек, который и в учителе, и в школьнике, и в литературном герое. Человеческим, жизненным, в чем бы оно ни проявлялось, обеспечиваю безотказную работу “молнии”. Учитель в основном несет на урок книгу, ребята - жизнь! Стать ближе к ученикам, понять и выразить их запросы - значит приблизиться к жизни, посредством книги укрепить с ребятами, т. е. с жизнью, надежную, глубокую связь. Искусство общения - в гибкой сочетаемости учебного и жизненного в наших контактах со школьниками. Знание исключительно вокруг книги и только на ее основе у огромного числа ребят отклика уже не находит. Книга книгу заведет в тупик, если выпадет жиз-ненная опора.

Школьная информация, во многом насыщая ум, в меньшей степени затрагивает чувства. Старшеклассники, к примеру, не ведут дневники, мало читают, не пишут стихов. Всё приложится к человеку, который образован душевно, эмоционально, и прежде всего творчеством как наипервейшая и насущнейшая потребность развитой души.

Школьный учитель, какие бы творческие манеры и наклонности он ни исповедовал, каким бы эрудитом ни был и что бы ни преподавал: математику или физику, химию или черчение, по сути и в основе - Воспитатель. Что же говорить о словеснике, призванном нравственностью литературы формировать этические устои личности, развивать ее душевный и духовный потенциал?

Удивляет, почему сегодняшние ребята в общении друг с другом почти не пользуются нарицательными именами литературных персонажей. Почему ныне эти герои утратили свою жизненность? Урок литературы нередко напоминает “ученое предисловие” к художественной книге, которую без единства этого, того, другого будто бы и прочитать невозможно! Ох, уж это “единство”! Скольких оно разобщило с литературой! К “механизму” книги, конечно, обращаться надо. Но только, когда этический резонанс урока достаточно высок. Вот тут-то и нужно объяснить (и то не всегда): почему высок? Почему ребятам интересно? Какую роль сыграл в этом писатель? В сущности, объяснить их интерес к книге книгой и этим как бы удвоить живое, нравственное, эстетическое в ней. В погоне за “алгеброй” искусства вдруг увидишь, как потихоньку “делают” алгебру на уроках... литературы. Жизненный опыт героев, а не то, как они “сделаны”, прежде и в большей степени волнует ребят. Конечно, нахожу смысл и в том, чтобы дать им понять, как “сделан” тот или иной герой, коль это оптимальный вариант воспитательного разговора.

Ведь как часто бывает: подробно “разбираются”, например, жанр, гиперболы, метафоры поэмы Н. В. Гоголя “Мертвые души”, но на уроке нет Гоголя! Живого, горьким смехом смеющегося! А ведь как он нужен в “неразобранном” виде. Нужен его колючий, ядовитый, сквозь слезы смех. Сквозь слезы и лишь затем (очень осторожно!) сквозь призму изобразительных средств. Задача словесника - прибавить к читательскому восприятию, бесхитростно-естественному, непосредственному, элементы профессионального видения текста. Прибавить, а не заменить и тем более не стереть одно другим. Незнание разницы между обычным сравнением и метафорой, простой поэмой и поэмой в прозе, поверьте, никак не мешает вырасти в Человека. А вот, скажем, незнание той сцены, где старик Болконский, отправляя на войну князя Андрея, единственного (!) сына, прочит ему “опасные”, а не “выгодные” места и князь Андрей благодарит за это отца, очень даже может сказаться на чьей-то судьбе... “Не надо ничего объяснять, так понятнее!” - сказала однажды ученица, когда, поддавшись соблазну ученых трактовок, я вдруг стал скрупулезно комментировать заключительные сцены “Отцов и детей”, в особенности последнюю, рисующую кладбище, где похоронен Базаров... Оказывается, всё, что нужно живой душе, предусмотрено талантом писателя. Если ребятам безмерно много и профессионально помогать “читать”, многие перестают делать то, что умеют и любят, - читать!

“ТЕМА” ИЛИ “ОТРЕЗОК”? Смысл учительской жизни - ученик! Он определяет нашу позицию, творческие принципы. Вот один из них: анализ литературного произведения должен вырастать в этическую проблему, а не в обзор всего, что было до и после книги. Эти “до” и “после” котя и важны, хотя и объясняют литературой саму книгу, но решающего значения для урока не имеют, Школьная книга, убежден, прежде всего и в большей степени нравственная тема, а не отрезок теории и истории литературы. Конечно, одно дело читать книгу для своего удовольствия дома и

совсем другое - в классе. Четко провожу эту границу. Иногда по-серьезному надо обсудить композицию, коль она ведет к живому, сокровенному, творческий метод, ритмику, лексику... Всё, всё можно - иногда. Солидная филологическая культура, бесспорно, нужна словеснику. Ребятам же в основном - ее результат, умение старшего в контакте с ними обогатиться духовным опытом книги, чтобы в класс вошел живой герой, а не “типическое явление”.

Разумеется, у опытного мастера и “типическое явление” становится живым, осязаемым. Все это так. Тем не менее теорию, как холодную воду, лучше употреблять небольшими порциями. Не за научно-теоретической “базой и литературным процессом идут к нам на урок ребята, а за тем, без чего жить нельзя. Сейчас, сегодня. Идут, чтобы знать, к чему вернуться через много-много лет. Уж, наверное, не “к единству сюжетного и композиционного в...”, а, скажем, к стихотворению Пушкина “Я помню чудное мгновенье...”, чтобы услышать в нем “непрочитанный” ранее гимн Вдохновению.

Что и как анализировать, не нарушая целостности художественного произведения и сложных творческих связей с классом, - проблема, которую каждый решает индивидуально. Для меня урок - урок искусства, ибо оно способно воспитывать юную душу, увлекать жизнью, “делами человеческими”. Стало быть, и в анализе художественного произведения рациональнее пользоваться теми же средствами, которыми пользуется писатель. Поэтому урок строю на основе яркой конструктивной детали, трудного нравственного вопроса, творческого приема. Стремлением видеть И растить лучшее в человеке определяю методику и стиль общения с ребятами и книгой.

СКУПАЯ ПОДРОБНОСТЬ И... В свое время немало сил отдано “образам”, “проблемам”, “композициям”. Бывали и конфликты, когда кто-нибудь из методистов надевал на меня тесную, лияющую рубашонку с чьего-то “опытного” плеча: нужно сделать решительный шаг к чему-то более существенному. Учитель - творец урока и, значит, открыватель своего пути. В школьной практике частное - опора общего, и восходить от простого к сложному рациональнее. Когда видишь всё - ничего не видишь. Да и мудрые предупреждали: ни во что ставящий малое сам мало-помалу придет в упадок. Этот “упадок” - увы! - не один только я ощущал.

“Из искры неясной - ясное знание...” Ведь тлеет же где-то искра твоего огня, которая может стать пламенем, если раскопать, подуть, не боясь ожогов.

А если и с ребятами говорить вот так же, как с нами художники? Книгам, стихам, кинофильмам давать такие же “разрезы”, как они - жизни? Идти не от “образа” или “проблемы”, а к образу и проблеме от какой-нибудь пустяковой на первый взгляд малости - детали. Она - и скупая подробность, и целая поэма! Всё зависит от того, кто и как смотрит на нее. Может, “деталь” и есть та искра, из которой... Искусство не раз являло доказательства того, что истоки большого, великого - в малом. К- Симонову оказалось достаточным одного-единственного слова “жди”, многократно повторяемого в знаменитом стихотворении “Жди меня”, чтобы выразить спасительную верность любви, неотвратимость победы над фашизмом, величие человеческого духа... Опираясь на деталь, художник нередко выстраивает целое, раскрывает глубокую философскую идею. Эмиль Веркарн провозгласил понимание эстетических ценностей через малую “песчинку” художественного контекста - деталь: “Миры вскрываются в песчинках малых”. Как ни странно, подлинное искусство по природе своей немо. И вот эти немногословные, “немые” средства - вниманием к детали - оно дарит уроку литературы. Впрочем, использование детали - давнишний прием анализа. Но если в старой проблеме поискать новые аспекты, прием наталкивает на необычный путь, своего рода метод анализа: от “клеточки” текста - к целому. Тогда деталь становится конструктивным элементом разбора больших и малых структур текста, увлекательным шагом в книгу.

СИНТЕЗ ПУТЕЙ. Задумаемся всего лишь над одной репликой Коробочки (“Мертвые души”) и даже над одним словом в реплике: “Ведь я мертвых никогда *еще* не продавала”. Тут и характер, и время, и гоголевский (сквозь слезы) смех. Эта убогая, закоснелая старушонка до сих пор, оказывается, бойко торговала живыми, до мертвых *еще* не дошло. Но какая уверенность, вопреки набожности и страху перед дьяволом, что и от мертвых можно иметь доход! В крохотной детали - мини-образ сатирической сути “Мертвых душ”.

Когда в малом забрежит свет большого, появляется любопытство к тому и другому, а в общем - к их связи. Интересное как бы удваивается предчувствием серьезного. Ребятам - всем до единого! - психологически близка и понятна деталь. Это - их путь в Искусство, в далекое и близкое Детство, в прекрасный мир Эмоций. “Дайте до детства плакатный билет”. – “Билетов не-ет!” - поется в известной песне. Неправда, на уроках литературы эти “билеты” есть - в жемчужинках художественных деталей, во всеобъемлющей сути малого, в клеточках, способных воспроизвести крупный план. Но, идя от малого как части целого, ребята не всегда ощущают само это целое. Вот тут-то им и должен помочь учитель, умеющий работать “от целого”. Во встрече, а точнее, синтезе

двух разных творческих путей (которые сами по себе бесплодны, ибо учитель и ребята общаются тогда на разных языках, и в этом, кстати, основное противоречие сегодняшнего преподавания литературы) - большой успех урока. Контакт с классом обеспечен и общностью исходных позиций, и возможностью ребят, следуя за учителем, опередить его точно так же, как он в выборе метода опередил их эмпирический опыт: примечая малое, видел всю книгу.

Раскручиваясь, деталь дает уроку сюжет, концепцию, учит работать на подтексте. Проблемность, образность, аналитичность - всё в ней, своеобразном узелке текста, вбирающем в себя многие нити. По существу, эти нити и соединяют учителя с ребятами, ребят - с книгой. В любой ткани узелок - брак, в художественной - открытие, находка. Мышление открытиями увлекает. Если не закопаться в частностях, а дойти до целого (эпизода, сцены, главы...), появляется потребность в обратном движении - к детали, чтобы проверить, так ли, к тому ли и от того ли шел. Обратное от поступательного это уже глубина! Разумеется, не всякая деталь вырастает до символа, вбирая целое, раскрываясь в нем и раскрывая его, но всякая - достойна внимания.

МАСТЕРСТВО СУТИ. Сегодня уже не только “физикам”, но и “лирикам” нужны формулы - как результат особого искусства в обилии фактов находить связь и работать не фактами, а связью, за которой факты. Не стремиться, стало быть, ко многому, а во многом отыскать главное, в нем и через него решить все остальное. Какие бы формы ни принимала формула, она учит мастерству сути, собирать и отбирать, конкретизировать и концентрировать, учит рациональному и на этой основе эстетическому. Одним узелком всё распутать и снова собрать в узелок - привилегия детали: ею может быть и отдельное слово в книге, и... вся книга, способная стать формулой литературы.

ЯЗЫК УРОКА. Между кабинетом литературы и, предположим, школьной мастерской общего больше, чем кажется. Выражается оно не только в увлеченности и напряженности творческого труда ума и рук, но и - скажем так - в необходимости здесь и там иметь свой совершенный инструмент и искусно пользоваться им. Таким инструментом на уроке литературы является деталь. Ребятам не слишком понятен язык урока (статьи, учебника, школьного собрания...), где нет сверкающих блесков неожиданного, всеобъемлющей сути малого. Деталь всему дает конкретность, учит разговаривать с ребятами на своем и их уровне, своими и их словами. Учит каждого сказать лучше и точнее, искореняя так называемое школярство: привычку говорить много, скороговоркой, стандартно. “Хочу привести такую деталь”, - нередко слышим от словесника. И это - плохо! Деталь не иллюстрация мысли, а сама мысль, вещество урока. Ее нужно не приводить, не называть, не акцентировать, а раскручивать. Путь “от детали” - это движение с кочки на кочку по топкому болоту, так, чтобы не увязнуть в трясине общих разговоров самому и не увлечь за собой других. Пройти “по кочкам”, начиная с опорной, маршрутной, оглянуться и снова вперед - увлекательно не только для ребят, но и для учителя, если он знает цену времени, вниманию, силам. Ему, умудренному опытом, по (что поделать!) стареющему, с годами, говоря слонами поэта, “всё больше хочется сказать, всё меньше говорить”. Ни-настоящему, может, только тут он и поймет доступную всем возрастам, манерам и склонностям деловитую мудрость детали. Попадая в круг живительных “мелочей”, неизменно задаю один и тот же вопрос: а что из этого? а из того? а из того?.. Где больше яркого, интересного, рационального? Каким информационным и воспитательным потенциалом располагает та или. иная подробность, способна ли в клеточке воспроизвести целое? Сколько конструктивных деталей, столько и концепций чтения, разборов, полемик, т. е. углов зрения на книгу, столько и речевых форм урока, стиливых нюансов и т.д.

Заключение. Ко всему вышеизложенному могу добавить только из своего личного опыта, что человек (в том числе и ребенок, и подросток), никогда не раскрывается в общении так, как во время творческой деятельности. Ведь, по сути, в процессе творческой деятельности, мы находимся на другом уровне восприятия, так же, как во сне, сны сняты именно нам, но мы не можем управлять сновидениями, мы не являемся их “руководителями”, хотя они и рождаются внутри нас.

Литературы

1. Бороздина Г. В. Психология делового общения – М., 2000.
2. Соловьев В. Я. Современный этикет и деловой протокол – М., 1993.
3. Холопова Т. И., Лебедева Е. Г. Протокол и этикет для деловых людей – М., 1994.
4. Сухарев В. А. Мы говорим на разных языках – М., 1998.

QUTLOV

KAMTARLIKDAN BOSHIGA TOJ KIYGAN OLIM VA USTOZ

Har bir olim uchun o'zi yaratgan ilmiy maktabi, shogirdlari qanchaligi mehnat va ijtimoiy faoliyati masalaning bir tomoni hisoblansa, yana uning uchun nihoyatda qadrli jihat, ya'ni o'zining zamondoshlari va izdoshlari, safdoshlariga ko'rsatgan ta'siri, ijobiy ishlari bilan o'rnak va ibrat bo'la olganligi o'ta muhimdir. Shu bois ham, biz pedagogika fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan ustoz Xol aka Xudoyqulovning ma'naviy kamoloti, sabr va matonatiga urg'u berib, uning nafaqat ilmiy faoliyati qirralarini, balki chin, samimiy insonga xos bo'lgan ibratli jihatlari haqida to'xtalmoqchi edik.

Bugungi kunda inson erishgan barcha yutuqlar, buyumlar bir zumda uni tark etishi mumkin, ammo uning tomonidan egallangan bilim, olgan ilm har dam, har zamonda insonning ajralmas quroliga aylanadi. Bu uning qanday faoliyatda ekanligiga bog'liq.

O'qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan va ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan shaxsdir.

O'qituvchilik esa katta bir san'atdirki, bu san'atga barcha pedagoglar ham osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan oshirib boruvchi, yangi O'zbekistonni har taraflama va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollangan, o'zini o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga butunlay bag'ishlab yuborgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Shundan bo'lsa kerak mohir olim Xol aka Xudoyqulov yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga zukko ko'z bilan qarab, mustaqil fikrlab, eng muhimi, o'zlikni anglashiga imkoniyat yaratadi. Shundan bo'lsa kerak ustoz o'z bilimlarini keng ommaga yetkazishi maqsadida matbuot sahifalarida dolzarb mavzularda maqolalar chop ettiradilar.

Yoshlarni ilmga tortish, kafedraning ilmiy salohiyatini oshirish, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kadrlar tayyorlash sifatini ko'tarish Xol aka Xudoyqulov amalga oshirgan savobli ishlardan bo'ldi.

Jamiyatda biron-bir kasb egasi yo'qki, u ustozdan, pedagogdan dars olmagan, xat-savodini chiqarmagan bo'lsin. Ustoz otangdek ulug', mo'tabar deganlarida ustozning mashaqqatli va qiziqarli hayot yo'li o'z ifodasini topadi. Ezgulikni, ruhiyatni shakllantirishga bel bog'lagan har bir pedagog, avvalambor, o'zi shunday bo'lmog'i, o'qigan va uqigan, tirishqoq, izlanuvchan bo'lishi talab etiladi.

Bugun mamlakatimizning qaysi burchagiga bormang, Xol akadan saboq olgan minglab ilg'or, faol, jamiyatda katta obro'-e'tiborga loyiq bo'lgan mutaxassislarni uchratasiz. Eng muhim jihati shundaki, ularning barchasi hozirgi kunga qadar ustozning bir og'iz shirin so'zi, kasb-hunarni egallashga doir qimmatli maslahatlariga ilhaq bo'lib turganiga guvoh bo'lasiz. Bu esa shogirdlar tomonidan ustozga nisbatan qadr-qimmat, hurmat va katta ehtirom ko'rsatilishining bir namunasidir.

Pedagog olim Xol aka Xudoyqulov ham pedagogik faoliyati bilan bir qatorda, talaba-yoshlarning o'z faniga bo'lgan qiziqishi, ilm-fanga bo'lgan ishtiyoqini oshirib bordi. Pedagogik-psixologik masalalarni amaliy-nazariy jihatdan asoslashda matbuotda pedagogik jarayonlarning ahamiyatga molik, dolzarb mavzularida qalam tebratgan bo'lsalar, amaliy jihatdan esa qator darsliklar, o'quv qo'llanmalarni yaratib, pedagogika fanini rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda.

Bugun o'zining 70 yoshiga qadam qo'ygan pedagogika fanlari doktori, professor, Turon fanlar akademiyasining akademigi Xudayqulov Xol Jumaevich ana shu maqomga tom ma'noda erishgan oz sonli kishilardandir.

Men Xol Jumayevich bilan juda oz muddat – 2006-yildan 2013-yilgacha birga ishladim. Lekin shu muddatning o'zi uning barcha fazilatlarini bilib olishim uchun yetarli bo'ldi. Do'stning kimligini bilish uchun u bilan birgalikda bir pud tuz yeyish shart emas ekan. Har kuni sen bilan birga ishlab turgan odam ko'z o'ngingda o'qilmagan kitobning sahifalari kabi birin-ketin ochilaverar hamda o'zidagi sifat va fazilatlarini, ya'ni asl mohiyatini namoyon qilib boraverar ekan. Mendan bir necha yosh kichik bo'lishiga qaramay, o'zining chuqur va keng qamrovli ilmi, solih amallari, madaniyati, olimligi, ma'naviyati bilan menga qanday yashash va ishlash kerakligini, odamiylikni o'rgatdi desam mubolag'a bo'lmaydi. Oldilariga o'tqazib olib, pand-u nasihatlar qilish yoki ma'ruzalar o'qish bilan emas, balki kundalik hayotdagi yurish-turishlari muomalalari bilan namuna sifatida shunchalik teran ta'sir qildilarki, men o'zimni u kishining shogirdi hisoblaydigan bo'lib qoldim va aslida ham shunday.

Daslabki ta'sirlari – mehnat jamoasi oldidagi o'zlarini tutishlari, katta-kichik hamkasblar bilan muomala qilishlari, kiyinishlari, ya'ni siyratlarining zuhurlanishi bo'ldi. Bu zuhurlanish u kishining yuksak did va o'ta nozik ta'b sohibi ekanligini ko'rsatib turardi. Qilichdek bu insonni har ko'rganimda darhol A.P.Chexovning o'qituvchi barcha jihatlari – gap-so'zlari, xatti-harakati, o'zini tutishi, hatto kiyinishi bilan go'zal bo'lishi kerakligi haqida bildirgan fikri yodimga tushar va men unga o'xshab kiyinishga, qaddimni tik tutib yurishga, atrofdaqilar bilan doimo chiroyli muomalada bo'lishga intilardim. O'zlari farishta emaslaru, lekin farishtalarga o'rnak bo'ladigan a'mollari bisyor bu kishining. Buyuk ajdodimiz, g'azal mulkinging sultoni Alisher Navoiy o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan quyidagi jiddiy talablarni qo'ygan edi: “Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa...”. Domla Xudayqulov o'zining barcha jihatlari bilan to'la-to'kis ana shu talablarga javob bera oladigan mutaxassis, chunki u vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga va talabalarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, ularni o'z ortidan ergashtiruvchi hamda o'z e'tiqodiga ega bo'lgan pedagog.

Xol Jumayevichning kasbi – o'qituvchi, vazifasi – o'qituvchi, mutaxassisligi – o'qituvchi, amali – o'qituvchi, martabasi – o'qituvchi; mas'uliyati – o'qituvchilik, vazifasi – o'qituvchilik, burchi – o'qituvchilik, darajasi – o'qituvchilik, unvoni – o'qituvchilik, mansabi – o'qituvchilik, obro'si – o'qituvchilik... Qisqasi, bu kishi o'qituvchilik uchun tug'ilgan, o'qituvchilik uchun o'qigan, o'qituvchilik uchun nafas oladi, yashaydi, ishlaydi. Bu yerda o'qituvchi so'zi keng ma'noda – ustoz, murabbiy, muallim, rahbar, rahnamo ma'nolarida keltrilmoqda.

Yuqorida aytilganlarnig barchasini umumiy bir maxrajga keltiradigan bo'lsak, Xol Jumayevichning kasbi kori – o'rgatish, tarbiyalash, shakllantirish. Nimani o'rgatadi? Odamiylikni. Kimlarni tarbiyalaydi? Kelajak egalarini. Kimlarni shakllantiradi? Har taraflama kamolga yetgan jamiyat a'zolarini.

Ota-onalar moddiy mavjudotni, ya'ni farzandlarni dunyoga keltiradilar, ma'lum bir ixtisoslik bo'yicha mutaxassis tayyorlovchi o'qituvchilar ularda shu mutaxassislikka doir malaka va ko'nikmalarni shakllantiradilar. Xol Jumayevich esa ana shu mutaxassislarga odamiylik ruhini bag'ishlaydi, singdiradi, ya'ni oddiy bir mutaxassisni, biologik mavjudotni odamiylik olamiga olib chiqadilar; ma'naviy dunyosini shakllantirib, axloqi, amali, vijdoni go'zal hamda ijtimoiy faol insonni yetishtiradilar, zero u kishi faoliyat yuritayotgan pedagogika va psixologiya sohasining mazmuni, mohiyati, asosiy vazifasi – shundan iborat-da.

O'z burchini sidqidildan o'tayotgan hamda vazifasini halollik bilan bajarayotgan domlaning ijodiy faoliyati asosan uchta – ilmiy, uslubiy va pedagogik yo'nalishda amalga oshirilmoqda.

Ijodiy faoliyatining teranligi va keng qamrovligi tubsiz ummon kabi o'lchab bo'lmaydigan darajada cheksiz, zero bu kishi uyqularida ham ilm bilan shug'ullanadilar. Olayotgan har bir nafasi – ilm, chiqarayotgan har bir nafaslari esa –ma'rifatdir...

So'zinning isboti uchun Xol Jumayevich tomonidan bugungi kundagi dolzarb muammolarni qamrab olgan bir necha yuzdan ortiq ilmiy ishlari e'lon qilingan deb sizlarni diqqatingizga quyidagi raqamlarni keltiraman: ilmiy-pedagogik faoliyatlari davomida shu paytgacha 400 ga yaqin ilmiy va uslubiy ishlarini nashrdan chiqarganlar. Xalq ta'limi sohasida, ta'lim-tarbiyani rivojlantirish bo'yicha bir necha ilmiy asarlar yaratganlar. Shulardan 10 tasi o'quv qo'llanma, 16 dan ortig'i uslubiy qo'llanma, 12 tasi monografiya va hokazolar. 130 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalari xorijiy jurnallarda va xalqaro anjumanlarning bosma nashrlarida chop etilgan.

Ular tomonidan yaratilgan “Umumiy pedagogika”, “Pedagogik mahorat”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Pedagogika. Psixologiya”, “Kasbiy pedagogika” kabi o'quv qo'llanma va darsliklaridan oliy o'quv yurtlarining talabalari foydalanib, fan asoslarini to'liq o'rganyaptilar.

Agar bir yilda 5-6 nomdagi barcha uchun birdek foydali bo'lgan 10 ga yaqin nashriy mahsulot yaratmasalar o'zlarini o'sha yili behuda yashadim yoki umuman yashamadim deb hisoblaydilar. Ahamiyat bering – bu o'quv jarayonidagi asosiy faoliyatlariga ilova qilingan qo'shimcha natijalardir. Ma'lumki, ta'lim sohasida ishlab turib olim bo'lish – juda qiyin, hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Chunki ta'limning asosiy vazifasi kadr tayyorlash, ya'ni yoshlarga ilm berish. O'qituvchi – shundan ortgan mahaldagina tadqiqotchilik bilan shug'ullanish imkoniga ega xolos. Vaholanki o'quv jarayonidagi asosiy yuklamani bajarish – o'qituvchining vaqt byudjetidagi barcha imkoniyatlarni yeb qo'yadi. Demak o'qituvchi uxlamasligi kerak. Uyquning hisobiga ilmiy ish bilan shug'ullanishi kerak. Bugun muborak 70 yoshini nishonlayotgan Xol Jumayevich xuddi shunday qiladilar. Vaqtini qadrlaydilar. Vaqtdan unumli foydalanadilar. Shuning hisobiga yuqori natijalarga erishadilar.

Xol aka Xudoyqulov Turon Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarining xalq maorifi a'lochisidir. Ayni paytda Xol Jumayevich O'zbekiston Milliy universiteti va

Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashlarning a'zosi va Termizdagi ilmiy kengash qoshidagi seminar raisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Serqirra olim Xol aka har ishda tashabbuskor, jur'atli, to'g'riso'z, ma'naviy yetuk, o'z kasbdoshlariga hamda talabalarga nisbatan jonkuyar va mehribon ustoz. U doimiy ravishda ilmiy izlanishda bo'lib, pedagogika sohasida bo'layotgan ilmiy yangiliklar bilan yaqindan tanishib boradi.

Ulug' yoshini qarshilayotgan olim bugungi kunda ham jigargo'shalari, sodiq do'stlari, hamkasblari va shogirdlariga samimiy munosabatda bo'lib, yangidan yangi ilmiy ishlanmalar yaratish zavqi, ishtiyoqi bilan yashamoqda.

Tabarruk yoshini qarshilayotgan Xol Jumayevich Xudoyqulovni istiqloq egalari bo'lmish yoshlarimizni bilimli, savodxon, ma'naviy barkamol qilib voyaga yetkazishdagi faoliyatlariga muvaffaqiyat tilaymiz. Ustoz olib borayotgan ibratli tarbiya katta hayot bo'sag'asida turgan yoshlarimizning Vatanimizga, elu-xalqimizga fidoyi va halol xizmat qiladigan insonlar bo'lib yetishishiga zamin yaratishiga ishonamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ilmga va ma'rifatga intilish, go'zal axloq va yuksak odob, juda kam sonli olimlarda bo'ladigan kamtarlik, xushmuomalalik, estetik zavq va go'zallikni his qilish – Xol Jumayevich fazilatining gavharlaridirki, bularni shu fazilat sohibi charchamasidan hamma yerda – oilada – farzandlar, maktabda – o'quvchilar, oliy ta'lim muassasalarida – talabalar, mehnat jamoalarida – hamkasblar, do'stlar davrasida – yor-u birodarlar qalbiga hormay-tolmay sidqidildan, mohirona singdirib kelmoqdalar. 70 yosh pedagog olim uchun ayni kuch-qudratga to'lgan, katta tajribalar to'plagan, boshqacha aytganda, bilimi, ilmi serhosil bo'lib, jo'sh urib turgan bir palla hisoblanadi.

Pedagogika fanining yetuk bilimdoni, kamtarin inson, pedagogika fanlari doktori, professor Xol Jumayevich Xudoyqulov qutlug' yetmish yoshini shogirdlar, do'stlari, oila a'zolari davrasida qarshilayotgan shukuhli kunlarda, ularning ilmiy ijodining yangi qirralari ochilishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, davom ettirilayotgan ilmiy ishlari mazmuni yangi monografiya va maqolalarda, shogirdlarining ilmiy ishlarida o'z ifodasini topadi, degan umiddamiz.

Biz u kishini ulug' va muborak yoshga sog'-salomat qadam qo'yganliklari bilan tabriklab, ilmiy-pedagogik faoliyatida hamda barcha ezgu ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar, ijodlariga baraka tilab, Alloh taolodan umrlarini yanada sermazmun, salomatliklarini esa bardavom aylashini iltijo qilib qolamiz.

Sershovqin hayotning bir chekkasida,
Shovqnsiz yashaydi oddiy bir inson.
Og'ir va sharaflilik yuk yelkasida,
Shoshmay qadam tashlar kelajak tomon.

Kasbi – o'qituvchi, mansabi – ustoz,
Vazifa-yu burchi unga qo'mondon.
Faqat kamtarlikni qiladi e'zoz,
Aslo qiziqirmas martaba, unvon.

O'ta hokisor-u g'ururi baland,
Maqtov, olqishlarga mutlaqo befarq.

Qalbida g'ubor yo'q, so'zi – asal, qand,
O'ylari ezgulik ummoniga g'arq.

O'zi akademik olim bo'lsa-da,
Kamtarligi ba'zan haddidan oshar.
Ko'ngliga o'zgan ozor kelsa-da,
Dilozorning ko'nglin ovlashga shoshar.

Yana yetmish yillik marrani ko'zlab,
Shaxdam ketib borar Xol Jumayevich.
Biz unga ko'pdan-ko'p yutuqlar tilab,
Deymiz hayotingiz doim bo'lsin tinch.

M.F.HAKIMOVA

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
innovatsion ta'lim kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari doktori, professor

E.G'OYIBNAZAROV

Toshkent transport universiteti dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi, mehnat faxriysi

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

1. Maqola boshlanishida Universal o‘nlik ko‘rsatkich (O‘UK) beriladi.

Quyidagilar alohida qatordan boshlab kiritiladi:

1) maqola sarlavhasi (oddiy harflarda, masalan: Abdulla Qodiriyning tasvirlash mahorati);

2) muallif(lar)ning familiyasi (to‘liq), ismi va otasi ismining bosh harflari;

3) maqolaning annotasiyasi (probellar bilan birga 500 belgidan iborat), annotasiya kursiv bilan beriladi va bir qator tashlagan holda asosiy matndan ajratiladi;

4) kalit so‘zlar (5–10 ta).

2. Maqola matni “Microsoft Word” dasturida tayyorlanib, “Times New Roman” 14 o‘lchamli shriftda, satrlar orasi bir interval, sahifa chetlari chapdan 3 sm, yuqoridan va pastdan 2 sm, o‘ngdan 1,5 sm, xatboshi 1,25 sm qoldirgan holda teriladi va elektron varianti bilan (fleshka yoki CDda) topshiriladi.

Maqola matnida boshqa shriftlardan foydalanilgan taqdirda bunday shriftlar muallif tomonidan elektron variantda taxririya taqdim etilishi lozim.

3. Maqolaning umumiy hajmi (rasm, jadval va diagrammalar bilan birgalikda) 8 sahifadan kam bo‘lmasligi (annotasiyalar, kalit so‘zlar va adabiyotlar ro‘yxati bu hisobga kirmaydi) talab qilinadi. Jurnal uchun eng maqbul hajm 8-10 sahifa oralig‘ida.

4. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular oq-qora ranglarda chizilgan bo‘lishi, aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Maqolada matnida rang vositasida ma‘no farqlashga xizmat qiladigan rasm, chizma va diagrammalarning bo‘lishi mumkin emas.

Formular matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yhati lotin alifbosiga transliteratsiya qilinadi.

Maqolaga mualliflar haqida ma‘lumot ilova qilinadi.

Muallif(lar) haqidagi ma‘lumot quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasining ismi (to‘liq)

– ilmiy darajasi (agar bo‘lsa)

– ish joyi, bo‘lim, vazifasi (qisqartirmagan holda).

Muallif haqida ingliz tilidagi ma‘lumotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasi ismining ingliz tilidagi varianti, maqola nomi va muallif ish joyining ingliz tiliga tarjimai, masalan: Dilmurod H. Quronov, Andijan State University (Andijan, Uzbekistan). E-mail: kuronov@rambler.ru

COMPOSITION OF LYRICAL WORK

2) kalit so‘zlarning ingliz tiliga tarjimai;

Foydalanilgan adabiyotlarning ingliz tilidagi varianti (References) APA-2010 standarti bo‘yicha tayyorlanishi zarur.

1. Kitoblarni berish tartibi:

Esin, A.B. (2000) Printsipy i priyemy analiza literaturnogo proizvedeniya [Principles and techniques of analyzing literary work]. Moscow: Flinta.


Rakhimzhonov, N. (2012) Intellektual she‘riyatning tabiati [Nature of intellectual Poetry] In: Istiqlol va bugungi adabiyot [Independence and Modern Literature]. Toshkent: Teacher. pp. 145–155.

2. Maqolalarni berish tartibi:

Suyarov, M. (2008) Peyzash she‘riyatida kompozitsiya [Composition in landscape poetry]. O‘zbek tili va adabiyoti [Uzbek language and literature]. 1. pp. 72–75 (In Uzb.).

3. Internet manbalarini berish tartibi:

Belova, E. A., Kilkeeva, Yu. A., & Trenogina, A. A. (2014). *Tendencies of the world market of transportation and logistics services development*. Retrieved from http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2014/TGU_5_336.pdf (in Russ.)



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manziligimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2021-yil 4-son (80)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqqan boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 28.12.2018 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.12.2018 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
---	--	---